

M.Q. PARDAYEV, A.N. XOLIQULOV,
T.I. YAHYOYEV

BOSHQARUV TAHLILI

O'QUV QO'LLANMA



SAMARQAND - 2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

PARDAYEV M.Q., XOLIQULOV A.N., YAHYOYEV T.I.

BOSHQARUV TAHLILI

O‘QUV QO‘LLANMA

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashi tomonidan talabalar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

**“FAN BULOG‘I”
SAMARQAND - 2022**

UO'K: 005.4(075.8)

P 21

KBK: 65.290-2ya73

M.Q. Pardayev, A.N. Xoliqulov, T.I. Yahyoyev. Boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma. Samarqand: „FAN BULOG'I“ nashriyoti, 2022. - 254 bet.

Ushbu o'quv qo'llanma 5231700 – Kadrlar menejmenti ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan bakalavrlar uchun o'quv rejaga muvofiq tayyorlangan.

O'quv qo'llanmada yangi O'zbekistonda boshqaruv tahlilining ahamiyati, boshqaruv tahlilining korxonada boshqaruvidagi ahamiyati, boshqaruv tahlili orqali aniqlanadigan ko'rsatkichlar, mehnat unumdorligi, korxonada ishlab chiqarish jarayoni tahlili, korxonada savdo faoliyati tahlili hamda korxonalarda boshqaruv tahlilining vazifalari yoritib berilgan. O'quv qo'llanma materiallaridan "Iqtisod", "Buxgalteriya hisobi", "Menejment" va boshqa fanlarni o'rganishda ham foydalanish mumkin.

Kadrlar menejmenti ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan bakalavrlardan tashqari, iqtisodiyot, menejment, marketing, buxgalteriya hisobi va audit, moliya, bank ishi sohasidagi mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

S.N.Tashnazarov - SamISI professori v.b., i.f.d.

D.Q.Usmanova – SamDU dotsenti, i.f.n.

O'quv qo'llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kegashida ko'rib chiqilgan va chop etishga tavsiya etilgan. (2021 yil, 26 noyabr, 4-sonli bayonnoma).

ISBN: 978-9943-8336-3-0

© M.Q. Pardayev, A.N. Xoliqulov, T.I. Yahyoyev. SamISI 2022.

© «FAN BULOG'I» nashriyoti

MUNDARIJA

KIRISH	6
1-BOB. "BOSHQARUV TAHLILI" FANINING NAZARIY ASOSLARI	
1.1 Boshqaruv tahlilining mazmuni va mohiyati	8
1.2 Boshqaruv tahlilining tarkibiy tuzilishi	23
1.3 Boshqaruv tahlilining asosiy vazifalari	27
1.4 Boshqaruv tahlilning asosiy tamoyillari va ichki imkoniyatlarni topishdagi ahamiyati.....	28
2-BOB:BOSHQARUV TAHLILINI TASHKILLASHTIRISH VA UNDA QO'LLANILADIGAN MA'LUMOTLAR MANBALARI	
2.1 Boshqaruv tahlilini tashkil etish.....	37
2.2 Boshqaruv tahlilida qo'llaniladigan ma'lumotlar manbayi	38
2.3 Boshqaruv tahlilida qo'llaniladigan axborotlarning turlari.....	40
2.4 Boshqaruv tahlilining turlari va shakllari.....	43
3-BOB. MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH VA SOTISH TAHLILI	
3.1 Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish tahlilining vazifalari.....	53
3.2 Mahsulotni ishlab chiqarish va sotishni ifodalovchi hajm ko'rsatkichlari.....	54
3.3 Tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulotni yyetkazib berish bo'yicha sotish rejasining bajarilishini tahlil qilish.....	56
3.4 Ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishini tahlil qilish.....	58
3.5 Ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili.....	62
3.6 Mahsulotni sotish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash yo'llari.....	68
3.7 Xo'jalik shartnomalari asosida ishlab chiqarishni mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejasining bajarilishini tahlil qilish.....	71
3.8 Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini tahlili.....	75
3.9 Mahsulotni bir maromda (ritmda) ishlab chiqarishni tahlil qilish.....	80
3.10 Ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni turkumlash va ularning qisqacha tasnifi.....	82
3.11 Ko'rsatkichlarni qiyoslaydigan (solishtiriladigan) holatga keltirish usuli.....	86
3.12 Sotilgan mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tahlilini takomillashtirish.....	91
4 – BOB. KORXONALARNING MEHNAT RESURSLARI VA MEHNATGA HAQ TO'LABILANISHINI TAHLIL QILISH	
4.1 Korxonalarining mehnat omillarini tahlil qilishning ahamiyati va	

	vazifalari.....	105
4.2	Korxonalarni ishchi kuchi bilan ta'minlanganligini tahlil qilish.....	105
4.3	Mehnat unumdorligi darajasini tahlil qilish.....	108
4.4	Ish vaqtidan foydalanishni tahlil qilish.....	114
4.5	Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillarini tahlil qilish.....	115
4.6	Mehnatga haq to'lash fondidan foydalanishni tahlil qilish.....	119

5-BOB. ASOSIY VOSITALARNING TARKIBI, HOLATI VA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.

5.1	Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va harakati.....	132
5.2	Asosiy vositalarning texnik holatini tahlil qilish.....	135
5.3	Asosiy vositalardan samarali foydalanishni tahlil qilish.....	139
5.4	Ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan foydalanishni tahlil qilish.....	141

6-BOB. SANOAT KORXONALARINING MODDIY RESURLAR BILAN TA'MINLANISHI VA ULARDAN FOYDALANISHNI TAHLIL QILISH

6.1	Material sarfini kamaytirishning iqtisodiyotda tejamkorlikni amalga oshirishdagi ahamiyati.....	149
6.2	Moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlil qilish.....	150
6.3	Ishlab chiqarishda materiallardan foydalanishni tahlil qilish.....	151
6.4	Mahsulot ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha yig'ma rezervlarni aniqlash.....	153

7 - BOB. ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARI VA MAHSULOT SOTISH TAHLILI

7.1	Ishlab chiqarish harajatlari tavsifi va ularning tasnifi.....	159
7.2	Ishlab chiqarish xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni tahlil qilish usullari.....	166
7.3	Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari tahlili va baholanishi.....	174
7.4	Xarajatlar dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	184
7.5	Favqulodda xarajatlar tahlili.....	191

8-BOB. PUL OQIMLARI TAHLILI

8.1	Xo'jalik subektining pul mablag'larini ko'paytirish, ularning ko'payish vaqtini hisob-kitob qilish va natijaga erishishda tahlilning muhimligi va asosiy vazifalari.....	199
8.2	Korxonaning pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi va ular oqimini tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.....	203
8.3	Pul oqimi to'g'risidagi hisobotning tuzilishi va asosiy elementlari.....	206

8.4	Pul oqimlarini bashoratlash.....	212
8.5	Asosiy faoliyat, moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari tahlili.....	215
8.6	Pul oqimlarini tahlil qilishning to‘g‘ri va egri uslubi.....	216
8.7	Valyuta mablag‘lari harakatining tahlili	224
9-BOB: Xususiy kapital tarkibi va uning tahlili		
9.1	Xususiy kapitalni tahlil etish maqsadi, mazmuni, vazifalari va axborot manbalar.....	231
9.2	Xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishi: ustav fondi (ustav kapitali), qo‘shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda.....	235
9.3	Xususiy kapital va uning o‘zgarishining tahlili.....	237
9.4	Sof aktivlar tahlili va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili.....	239
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....		245

KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni erkinlashtirish va iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish bosqichidagi eng dolzarb masalalardan biri – rejali iqtisodiyot sharoitida shakllangan iqtisodiy tahlil usullarini mazmun jihatdan yangilash hisoblanadi. Bular jumlasiga tahlilning uch qismga (nazariya, moliyaviy va boshqaruv) bo‘linishi, unda boshqaruv tahlilining o‘rni va rolini ochib berish masalalari ham kiradi. Jahon tajribasiga ko‘ra xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy tahlili ikki turga bo‘lingan. Birinchisi boshqaruv tahlili, ikkinchisi esa, moliyaviy tahlildir.

Kelgusida boshqaruv tahlili korxonalarining xo‘jalik faoliyatini nazorat va rahbarlik qilishda, tijorat hisobini mustahkamlashda, korxonalar o‘zini-o‘zi to‘la mablag‘ bilan ta‘minlash asosida eng zamonaviy xo‘jalik mexanizmini vujudga keltirishda, iqtisodiy tejamkorlikka erishishda fan va texnika taraqqiyotini yanada jadallashtirishda, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilishda, ish faoliyatida mavjud bo‘lgan kamchiliklarga barham berishda va ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlashda o‘ta muhim dastak sifatida qo‘llaniladi. Shu sababli korxonalarining xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish usullarini chuqur va har tomonlama yaxshi bilish nafaqat iqtisodiy oliy o‘quv yurtlari talabalari, uchungina emas, balki barcha bo‘g‘indagi korxonalar va tashkilotlarning mutaxassis xodimlari uchun ham zarurdir.

Mazkur ishda boshqaruv tahlilining nazariy asoslari atroflicha yoritilgan. Xususan, bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotda boshqaruv tahlilining tutgan o‘rni va vazifalari, predmeti, uslubiyati, usullari, uni tashkil qilish va o‘tkazish tartibi va boshqa jihatlari bugungi talabga, O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘liga mos ravishda bayon etilgan.

Ishda korxonalar tomonidan ishlab chiqarish va uni sotish bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlil qilish mavzusiga oid masalalarni ko‘rib chiqishga ko‘proq o‘rin berilgan. Bulardan tashqari mahsulot hajmiga ta‘sir qiluvchi omillarni tahlil qilish usullari ham atroflicha bayon etilgan. Unda hukumatimizning korxonalar ishini takomillashtirishga doir qarorlari, ko‘rsatmalari, yo‘riqnomalari nizomlaridan hamda ushbu fan sohasida xorijiy mualliflarning yangi darsliklaridan keng foydalanilgan. Ish asosan «Iqtisodiyot», «Menejment», «Buxgalteriya hisobi va audit», «Kadrlar menejmenti» va «Moliya» ixtisosligi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talablarga mo‘ljallangan. Undan iqtisodiyotga oid boshqa ixtisoslik

bo'yicha saboq olayotgan talabalar ham keng ravishda foydalanishlari mumkin.

Shuningdek, mazkur ish kadrlarning iqtisodiy tayyorgarligini tubdan yaxshilash va ularni qayta tayyorlash kabi muhim va dolzarb masalani hal qilishda ham yaqindan yordam beradi.

1-BOB . “BOSHQARUV TAHLILI” FANINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Boshqaruv tahlilining mazmuni va mohiyati

Bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatda har bir korxonada, mulk shaklidan qat'iy nazar, erkin raqobat sharoitida faoliyat ko'rsatadi. Raqobat, o'z navbatida, har bir korxonani qandaydir o'zining strategiyasi va taktikasiga ega bo'lishni, shu yo'l bilan raqobatga yyengilib, sinib ketmaslikning faqat o'ziga xos yo'llarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Bu esa har bir korxonada ishlab chiqarish, texnologik, tijorat kabi jarayonlarning sir saqlanishini, bu sirni boshqa subyektlarga oshkora qilmaslikni, undan o'z manfaati yo'lida foydalanishlikni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida, xo'jalik faoliyatini ikki xil yo'nalishda tahlil qilish zaruratini keltirib chiqardi. Shu tariqa korxonaning ishlab chiqarish, texnologik, tijorat kabi sirlarini saqlashga qaratilgan, faqat korxonaning xodimlari o'tkazadigan “Boshqaruv tahlili” va tashqi subyektlar amalga oshiradigan hamda oshkora qilinishi mumkin bo'lgan moliyaviy hisobotlarda o'z aksini topgan axborotlar va ko'rsatkichlarga tayanadigan “Moliyaviy tahlil” vujudga keldi.

Boshqaruv va moliyaviy tahlillarning vujudga kelishiga faqat Yuqorida keltirilgan dalillargina sabab bo'lmasdan, balki mamlakatimizda xalqaro andozalar talabiga mos bo'lgan «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» ishlab chiqilishi va ularning amaliyotga bosqichma-bosqich joriy qilinishi ham tahlilda shunday tarzda tarkibning paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, bugungi amaliyot korxonalarining boshqaruv hisobi va hisobotini hamda moliyaviy hisob va hisobotini yuritishni taqozo qilmoqda. Hisob va hisobotlar odatda, iqtisodiy tahlilning birinchidan, asosiy ma'lumotlar yyetkazib beruvchi axborot manbalari bo'lsa, ikkinchidan, axborotlar shunchaki axborot uchun emas, balki korxonani boshqarish va uning samaradorligini oshirish uchun tuziladi. Bu ham amaliyotga boshqaruv va moliyaviy tahlilning joriy qilinishini taqozo qiladi.

Korxonalarda ma'lumotlarning sir saqlanishi va bir qismining tashqi iste'molchilar uchun oshkor qilinishi mumkinligi iqtisodiy tahlilni ham ikkiga, ya'ni ichki va tashqi tahlilga bo'lishni taqozo qiladi. Ko'p hollarda ichki tahlil deganda boshqaruv tahlili, tashqi tahlil deganda moliyaviy tahlil tushuniladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, moliyaviy tahlil ham o'z navbatida ichki va tashqi moliyaviy tahlillarga bo'linadi.

Tashqi moliyaviy tahlilni tashqi subyektlar, ya'ni korxonaning axborotlarini tashqi iste'mol qiluvchilar (banklar, soliq, moliya, statistik organlari, hamkor tashkilotlar kabi) amalga oshirsa, ichki moliyaviy tahlilni korxonaning bevosita o'z xodimlari amalga oshiradi. Mos ravishda, tahlil natijasidan o'zlariga tegishli boshqaruv qarorlarini ham kim nima maqsadda tahlil qilsa, shu maqsadda qabul qiladi va foydalanadilar.

Boshqaruv tahlilini hamisha ham korxonaning faqat o'z xodimlari amalga oshirmaydi, balki korxonada rahbariyati tomonidan jalb qilingan auditorlar, maslahatchilar va boshqa mazkur korxonaga aloqasi bo'lmagan xodimlar, ya'ni tashqi subyektlar ham amalga oshirishlari mumkin. Lekin shartnoma bilan jalb qilingan xodimlar mazkur korxonaning sirini oshkor qilishga haqlari yo'q. Bu qonunlar bilan kafolatlangan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozir O'zbekistonda iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi sifatida boshqaruv tahlilini kiritish tan olingan¹. Ammo uning ta'rifi erkin iqtisodiyot va raqobatga mos ravishda hamon, yetarli darajada ishlab chiqilgan emas. Buni inobatga olib boshqaruv tahliliga quyidagi ta'rifi keltirishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Boshqaruv tahlili deganda korxonada rahbariyati, uning egasi va mutaxassislari tomonidan boshqaruv hisobi va hisobotlari asosida ichki imkoniyatlarini ishga solish va samaradorlikni oshirish maqsadida, ma'lumot manbalari va natijalari ma'lum darajada sir tutiladigan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga qaratilgan ichki tahlil tushuniladi.

Ko'rinib turibdiki, boshqaruv tahlili ham iqtisodiy tahlilning bir qismi sifatida korxonada sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarning holatini va uni takomillashtirish yo'llarini o'rgatar ekan.

Bozor munosabatlari sharoitida boshqaruv tahlili vujudga kelishi bilan birga uning nazariy va amaliy masalalari shakllanmoqda. Buning muhim yo'nalishlaridan biri uning predmetidir. **Boshqaruv tahlilning predmeti deganda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining hisob va hisobotlar hamda hisobdan tashqari ma'lumotlar asosida, biznes-rejaning asoslanganligini, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish natijasida ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashni, bularning barchasini iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimida ifodalash orqali**

¹ Абдуллаев Ё. ва бошлалар. Иълтисодий таъллил. 100 савол ва жавоб. -Т.: Меълнат, 2018 - 28-29 бетлар. Пардаев М.Ъ. Иълтисодий таъллил назарияси. Дарслик. - Самаръланд, Зарафшон 2018 - 182-183 бетлар.

ularni tizimli o'rganishni barcha omillarning ta'sirini hisoblashni ta'minlash tushuniladi.

Iqtisodiy tahlil o'z mazmuni jihatdan turlichadir. Tahlilning 2 xil yo'nalishi mavjud: moliyaviy-iqtisodiy va texnikaviy – iqtisodiy. **Moliyaviy – iqtisodiy tahlilda** biznes rejaning bajarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi (texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish kabi) omillar o'rganiladi. **Texnik – iqtisodiy tahlilda** esa, texnika va texnologiya hamda ishlab chiqarishni tashkil etishga oid hamma masalalar har tomonlama va chuqur o'rganilib, uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ko'rsatgan ta'siri ham aniqlanadi. Shuning uchun texnik – iqtisodiy tahlil korxonalaridagi mavjud barcha rezervlarni to'la va har – tomonlama aniqlash imkonini beradi. Ushbu masalalarning barchasi boshqaruv tahlilida ham o'rganiladi.

Tahlil korxonalar va uning bo'linmalari faoliyatining hamma tomonlarini o'z ichiga olgan **umumiy** hamda ishning qandaydir biror tomoni Yoki korxonaning bir necha bo'g'inlarini o'z ichiga olgan **tanlama (tematik)** turlarga bo'linadi. Shuningdek, yirik masalalarga bag'ishlangan, korxonaning kundalik ishini o'rganishga va ichki imkoniyatlarini topishga qaratilgan tezkor tahlil ham keng qo'llaniladi.

Tekshiriladigan obyektlar va boshqaruv bo'g'inlariga qarab tahlil ishchi o'rni, bo'linma, sex, korxonalar va tarmoqlar bo'yicha hamda tarmoqlararo tahlillarga bo'linadi.

Tahlilda rezervlarni aniqlash **ko'lami** quyidagilardan iborat: korxonalar ichidagi va korxonalararo, tarmoq ichidagi va tarmoqlararo rezervlar.

Qabul qilinadigan qarorlarning xarakteriga qarab, tahlil quyidagilarga bo'linadi: dastlabki, tezkor, yakuniy va istiqbolli. Bulardan nazariy va amaliy jihatdan eng takomillashgani – yakuniy tahlil hisoblanadi (korxonalarining hisobotiga asosan o'tkaziladigan tahlil).

Tahlilning turlari va shakllari to'g'risida M.Q.Pardayevning «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» darsligida (Samarqand, «Zarafshon», 2018) to'liq ma'lumotlar keltirilgan.

Tahlil o'tkazish muddatlari (har kuni, har hafta, bir oyda, chorakda va bir yilda) Yoki zarur bo'lishiga qarab ahyon-ahyonda olib borilishi mumkin.

Tahlil o'tkazishning 3 bosqichi mavjud:

1. Korxonalar faoliyatining umumiy iqtisodiy natijalarini ko'rib chiqishdan boshlash, chunki u ishning samaradorligini aniqlash, o'tgan davrlarga nisbatan o'zgarishlarni, shuningdek bir korxonalar ishini boshqasi bilan

taqqoslash hamda korxonada faoliyatining boshqa tomonlarini bilish imkonini beradi;

2. Biznes-rejaning bajarilish darajasiga ta'sir etuvchi eng muhim omillarni o'rganish natijasida ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash;
3. Tahliliy o'rganishlar natijalarini umumlashtirish va shu asosda butun rezervlarni o'z ichiga olgan yig'ma rezervlarni hisoblash (kompleks rezervlar).

Tahlillarning turlari va bosqichlarini to'liq amalga oshirish uchun uning usullaridan va uslublaridan samarali foydalanishni taqozo qiladi.

Boshqaruv tahlilining metodologik asoslari dialektik bilish nazariyasi va iqtisodiy nazariya fanlarining qobiliyatlariga tayanadi. Shu jihatdan uning metodiga quyidagi ta'rifni berish mumkin.

Boshqaruv tahlilining metodi deganda, biznes-rejaning bajarilishiga va mahsulot hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimini hisob, hisobot va hisobdan tashqari ma'lumotlar asosida maxsus usullarni qo'llab kompleks tarzda o'rganish, o'lchash va umumlashtirish orqali amalga oshirish tushuniladi.

Ma'lumki tahlil qilinayotgan obyektning faoliyatiga ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, tahlilda omillar deganda, u Yoki bu iqtisodiy ko'rsatkichga ijobiy, Yoki salbiy ta'sir ko'rsatuvchi faol harakat qiluvchi kuchlar nazarda tutiladi. «Sabab» termini «Omil» terminiga nisbatdan keng ko'lamda qo'llaniladi. Sabab omillar tizimiga nisbatdan kengroq ma'noga ega. Xo'jalik yuritish samaradorligini oshirish imkonini aniqlashda ijobiy ta'sir etuvchi omillar harakatini kuchaytirish va ularning salbiy ta'sirini tugatish rezervlar deb ataladi.

Korxonaning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish jarayonida deduktiv va induktiv, analiz va sintez usullari birga olib boriladi.

Deduktiv usul asosan moliyaviy – iqtisodiy tahlilda qo'llaniladi. Bunda avvalo xo'jalik faoliyatini belgilovchi umumiy ko'rsatkichlar o'rganilib, so'ngra ular bo'laklarga bo'linadi. Ko'rsatkichlarni bo'laklarga bo'lish aslini olganda tahlil demakdir. «Analiz» (tahlil) grekcha so'zdan olingan bo'lib, bir butunni qismlarga bo'lishni ifodalaydi, so'ngra esa umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida rezervlarni yig'ma hisobini aniqlash – sintez deb ataladi.

Induktiv usul ko'pincha texnik-iqtisodiy tahlilda qo'llaniladi, ya'ni avval ayrim olingan ish bo'g'inlarida ko'rsatkichlar har tomonlama tekshirilib, so'ngra ana shu konkret ko'rsatkichlardan korxonaning xo'jalik

faoliyatini belgilovchi umumlashgan iqtisodiy ko'rsatkichlar darajasiga chiqiladi.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlilning metodi mazkur predmetni o'rganish jarayoniga umumiy jihatdan yondoshishdir. Shu sababli tahlil metodini unga bo'ysunuvchi maxsus metodik usullari bilan aralashtirib bo'lmaydi. Zero, aniq shart-sharoit natijasida u Yoki bu usullarni o'zgarishi ehtimoldan holi emas. Shu jihatdan boshqaruv tahlilini o'ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega.

Xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqa barcha omillarni tekshirishni tizimli va kompleks tarzda o'tkazishga yondoshish, tahlil metodining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblaniladi. Bu o'rinda tizimli tahlilni kompleks tahlil bilan almashtirish aslo mumkin emas. Obyektni ierarxik usul (bo'ysunish tartibi) orqali boshqarish, masalan sex korxonaning, korxonalar birlashmaning, birlashma tarmoqning bir qismi va hokazo, sifatida o'rganish tizimli tahlilga misol bo'ladi.

Darvoqe, iqtisodiy tahlil va xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bir gap emas. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish iqtisodiy tahlilning bir bo'lagi hisoblaniladi. Iqtisodiy tahlilni boshqarishning uchala darajasi bilan bog'liq (xalq xo'jaligi, tarmoq, korxonalar) xo'jalik faoliyatini tahlil qilish esa faqat uchinchi darajadagi boshqarish bilan bog'liq.

Xo'jalikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'lchash orqali biznes-rejaning bajarilishi, xo'jalikni boshqarishning samaradorligi hamda korxonalar faoliyatidagi asosiy va hal etuvchi masalalar aniqlanadi.

Tahlil natijalarini umumlashtirish orqali korxonani xo'jalik yuritish borasidagi faoliyatiga baho beriladi hamda barcha rezervlarning yig'ma hisobi aniqlanadi.

Tahlil metodining o'ziga xos xarakterli xususiyatlaridan yana biri – iqtisodiy ko'rsatkichlarning har tomonlama bir-birlari bilan sababiy bog'lanishda ekanligidir. Bu borada tahlilning vazifasi ana shu sabablarni aniqlashdir. Shuni ta'kidlash lozimki, hatto ayrim olingan iqtisodiy ko'rsatkichlarga bir qancha sabablar ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, bu sabablarning harakatini aniqlash juda ham murakkabdir. Shu sababli asosiy va hal qiluvchi sabab va omillarning ta'sirini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, tahlilning dastlabki sharti xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi sabablarni iqtisodiy belgilarga qarab to'g'ri turkumlash hisoblanadi. Masalan: tovar mahsuloti hajmining o'sish sur'atiga ta'sir etuvchi omillar 4 guruhga bo'lib o'rganiladi:

- 1) mehnat bilan bog'liq omillar. Bunga korxonaning xodimlar bilan ta'minlanishi, ish vaqtdan foydalanish va mehnat unumdorligi kiradi;
- 2) mehnat vositalari omillariga esa korxonaning asosiy vositalar bilan qay darajada ta'minlanganligi, ularning hajmi, tuzilishi, o'sish sur'atlari, texnik holati va ulardan foydalanishning samaradorlik darajasi singari masalalar kiradi;
- 3) mehnat predmetlari omillariga korxonaning xomashyo va asosiy materiallar bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorlik darajasi kabi masalalar kiradi;
- 4) nomoddiy aktivlar bilan bog'liq omillar. Bu omillar moddiy bo'lmasda moddiy resurslar singari korxonaga foyda keltirishi mumkin. Omilli tahlilda ushbu guruh omillar ham maxsus o'rganilishi lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar o'ziga xos mustaqil ma'noga ega bo'lishi bilan birga o'zaro bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langandir. Binobarin, bu omillarning ta'sirini mexanik tarzda bir-biriga aslo qo'shib xam bo'lmaydi. Chunonchi, mehnat unumdorligi o'sishi ishchilar malakasi va ish vaqtdan samarali foydalanishga bog'liq (mehnat omillari). So'ngra mehnat unumdorligi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasiga (mehnat qurollari omillari), hamda xomashyo va materiallardan tejamkor va ratsional foydalanishga (mehnat predmetlari omillari) bog'liq. O'z navbatida har bir omil yana tarkibiy qismlarga bo'linadi. Chunonchi, mehnat omillari – miqdor va sifat ko'rsatkichlaridan iborat. Bu yyerda miqdor ko'rsatkichlarga ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni kirsa, sifat ko'rsatkichiga mehnat unumdorligi darajasining o'sishi misol bo'ladi. So'ngra, bir ishchiga to'g'ri keladigan yillik mehnat unumdorligi: bir ishchi tomonidan bir yilda ishlagan o'rtacha kishi kunlariga; o'rtacha ish kunining uzunligiga; bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha bir soatlik mehnat unumdorligiga bog'liq.

Ko'rinib turibdiki, bir ko'rsatkich ikkinchi bir ko'rsatkich bilan uzviy ravishda bog'lanishda bo'lib, o'ziga xos bir butun zanjirsimon shakl hosil qilar ekan. Masalan, natija (U) bilan omillar (Xi) o'rtasidagi bog'liqlikni olaylik. Bu quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \cdot X_4 = \prod_{i=1}^n X_i ;$$

Bunda: U – natija ko'rsatkichi;

X-lar – omillardir.

Bularning hammasi iqtisodiy jarayonlarning bir-biri bilan dialektik bogʻliqlikda ekanligini koʻrsatadi. Bu bogʻliqlik boshqaruv tahlili uchun metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

Boshqaruv tahlilining usullari ham iqtisodiy tahlil usullari singari korxonalar faoliyatini tahlil qilishda keng qoʻllaniladi. Shulardan eng asosiylari quyidagilardir:

1. **Taqqoslash usuli** – korxonalar faoliyatini tahlil qilishning eng asosiy metodidir, zero barcha tafovutlar taqqoslash orqali aniqlanadi. Taqqoslash usullari quyidagilarda namoyon boʻladi:

a) haqiqatdagi koʻrsatkichlarni biznes-reja darajasidagi koʻrsatkichlar bilan taqqoslash natijasida biznes-rejaning bajarilish darajasi va sifati aniqlanadi;

b) joriy yildagi amaldagi koʻrsatkichlarni oʻtgan davr hisoboti bilan taqqoslash natijasida ishlab chiqarishning oʻsish (pasayish) surʼatlari aniqlanadi;

v) ishlab chiqarishda eng mukammal namunaga ega boʻlgan korxonaning iqtisodiy koʻrsatkichi bilan mazkur korxonaning koʻrsatkichini taqqoslash. Bu oʻrinda taqqoslash kompleks tarzda olib borilmaydi, balki ushbu korxonaning ayrim koʻrsatkichlari bilan taqqoslanadi. Masalan, dastgohdan foydalanish koeffitsienti Yoki aytaylik, moddiy resurslardan foydalanish darajasi boʻyicha. Hozirgi vaqtda sanoat korxonalarida taqqoslama tahlil metodi katta ahamiyatiga ega boʻlmoqda. Bu metod ilgʻor ishlab chiqarish tajribalarini yoyish maqsadida aloqador boʻlgan turli korxonalar ishining texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlarini taqqoslab koʻrishga asoslanadi.

g) korxonalar ishining yakuni, ilgʻor texnik –iqtisodiy normalar, oʻtgan davr hisoboti, ayrim davrlarda qilingan ishlarning eng yaxshi natijalari, ushbu korxonaning ilgʻor uchastkalaridagi ish natijalari, korxonalar hamda ushbu tarmoqdagi ilgʻor ishchilarning ish natijalari bilan taqqoslanadi;

d) ushbu korxonaning koʻrsatkichlari tarmoq boʻyicha aniqlangan oʻrtacha koʻrsatkichlar bilan taqqoslanadi. Bunda korxonaning tarmoq miqyosida tutgan oʻrni belgilanadi.

2. Guruhlashtirish. U har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tekshirishning ajralmas qismi boʻlib hisoblanadi. Guruhlashtirish, ayniqsa amaliy jihatdan ishlab chiqarishda keng qoʻllaniladi. Masalan, Yuqorida taʼkidlanganidek, tovar mahsulotini ishlab chiqarishga taʼsir qiluvchi omillarni guruhlashtirish (mehnat, mehnat vositalari va mehnat predmetlari omillari)

misol bo'ldi. Guruhlashtirish yana tashqi va ichki omillar, umumiy va individual omillar kabi belgilari bo'yicha ham amalga oshiriladi.

3. Yyetakchi zvenoni ajratib qo'yish metodi. Korxonada faoliyati tahlil qilinayotgan vaqtda nihoyatda ko'p voqea va hodisalar uchraydiki, ularni to'la tahlil qilish imkoni yo'qligi uchun bu usuldan foydalaniladi. Masalan, Yuqorida aytib o'tilganidek, mehnat unumdorligi darajasiga ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi, biroq ishlab chiqarish sharoitida faqat ikki Yoki undan ko'p yyetakchi omillar bilan cheklanish mumkin. Bularni hal qiluvchi ahamiyatga molik bo'lgan xodimlarning malaka darajasini, texnika taraqqiyotini ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish darajalari bilan aniqlash kifoyadir. Bu usul u Yoki bu hodisalarning sababini aniqlashdan tashqari texnikani hamda ishlab chiqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi.

4. Mutlaq va nisbiy miqdorlar. Mutlaq miqdorlar orqali iqtisodiy ko'rsatkichlarning umumiy hajmi aniqlanadi. Nisbiy ko'rsatkichlar esa biznes-rejaning bajarilish darajasini va ishlab chiqarishni rivojlantirish sur'atini belgilaydi. Mutlaq miqdor xo'jalik yuritishning samaradorligini har vaqt ham belgilamaydi. Masalan, ishlab chiqarish borasida barcha shart-sharoiti nuqtai – nazaridan teng bo'lgan 1-korxonada, aytaylik o'tgan yilga nisbatan haqiqatda 200 ming so'mga ko'p foyda oldi, 2-korxonada esa 150 ming so'm. Bu raqamlardan 1-korxonada yaxshi ishlaydi degan xulosa chiqarish mumkin emas. Shuning uchun nisbiy ko'rsatkichlarga murojaat etish darkor. Bu yyerda nisbiy ko'rsatkich rentabellik darajasi hisoblanadi. Rentabellik darajasi foyda summasini asosiy ishlab chiqarish vositalari va aylanma mablag'larining qiymatiga taqsimlanib, natijani 100 ga ko'paytirish bilan aniqlanadi. Demak, 1-korxonada bo'yicha rentabellik darajasi – 30,5%ni tashkil etsin, 2-korxonada bo'yicha esa – 34,5%ni. Shunday qilib, 2-korxonada 1-korxonaga nisbatan samarali ishlagan, chunki u asosiy ishlab chiqarish vositalaridan yaxshi foydalangan, oborot mablag'larini tejab sarflash natijasida ularning aylanishini tezlashtirgan va hokazo.

5. Dinamik metodlar. Bu usul muhim hodisalar, jarayonlarning har birini rivojlanishda deb qarash kerakligini ko'rsatadi. Demak, bu tahlil qilish jarayonida korxonada faoliyatini rivojlanayotganligida olib qaraladi va bu bilan uning ishidagi ayrim o'zgarishlari ochiladi.

6. Indekslar. Ular yordamida ma'lumotlarni qator yillar bo'yicha taqqoslash mumkin. Bu o'rinda bazali va zanjirsimon indekslardan foydalaniladi. Masalan, bazali indeksga mahsulot ishlab chiqarish

sur'atining o'sishi misol bo'la oladi. Bunda har yili ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi shu bazaga nisbatan solishtirib amaldagi bahoda o'tgan yillarda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan taqqoslanadi. Bazisli indeks bo'yicha hisob qilinganda taqqoslash uchun baza (asos) 100 ga teng deb olinib, keyingi ko'rsatkichlar ana shu bazisli miqdorga foiz Yoki koeffitsient hisobida olinadi.

7. Bartaraf etish usuli. Xo'jalik faoliyatiga Yuqorida aytib o'tilganidek juda ko'p omillar ta'sir qiladi: asosiy, qo'shimcha, tashqi va hokazolar. Bu usul yordamida ushbu omillarni bir-biridan ajratib, alohida tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu usul turli metodlar bilan amalga oshiriladi, jumladan, zanjirli almashtirish usulidan ham foydalanish mumkin.

8. Zanjirli almashtirish metodi. Bu usulning mohiyati quyidagilardan iborat, ya'ni hisob formulasi tarkibiga kirgan o'tgan yil doirasidagi ayrim olingan miqdoriy tarkibiga aynan shu ko'rsatkichlarning haqiqatdagi darajasiga ketma-ket almashtiriladi. U Yoki bu omilning ta'siri natijani bir-biridan ketma-ket ayirish yo'li bilan aniqlanadi: ikkinchi hisobdan birinchi hisob ayriladi, uchinchi hisobdan ikkinchi hisob va hokazo. Birinchi hisobdan hamma ko'rsatkichlar o'tgan yil doirasida olinadi, so'nggi hisobga esa haqiqatda bajarilgan ko'rsatkichlar kiritiladi.

Zanjirli almashtirish usulini qo'llash tartibini tovar mahsulotiga ta'sir etuvchi mehnat omillarini tahlil qilish orqali ko'rib chiqishimiz mumkin. Tahlil uchun quyidagi 1.1-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

Zanjirli almashtirish usuli

Tartib raqami		Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni (kishi)	Bir ishchi tomonidan bir yilda ishlangan ish kuni (kun)	Ish kunining o'rtacha uzunligi (soat)	Bir ishchiga to'g'ri keluvchi bir soatlik ish unumi (so'm, tiyin)	Tovar mahsulotning qiymati (ming so'm) 1ust*2ust* 3ust*4ust	Oldingi hisobga nisbatan farq (ming so'm)	Farqning sabablari
Hisob	Bog'lanish							
A	B	1	2	3	4	5	6	7
1	-	h.o't.y. 1113	h.o't.y. 238	h.o't.y. 7,78	h.o't.y. 3,21	6615	-	
2	1	h.h.y. 1085	h.o't.y. 238	h.o't.y. 7,78	h.o't.y. 3,21	6449	-166	Ish kuchi bilan ta'minlanmaganligi
3	2	h.h.y. 1085	h.h.y. 226	h.o't.y. 7,78	h.o't.y. 3,21	6123,825	-325,2	Bir ishchi tomonidan ishlangan ish kunining kamayishi
4	3	h.h.y. 1085	h.h.y. 226	h.h.y. 7,73	h.o't.y. 3,21	6084	-39,36	O'rtacha ish kuni uzunligining qisqarishi
5	4	h.h.y. 1085	h.h.y. 226	h.h.y. 7,73	h.h.y. 3,65	6905	+821	Soatlik ish unumining o'sishi
		h.o't.y. - haqiqatda o'tgan yili						
		h.h.y. - haqiqatda hisobot yili						

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ekstensiv omil – korxonaning ishchi kuchi bilan to'la ta'minlanmaganligi (1085-1113= 28 kishi), bir ishchi tomonidan ishlangan o'rtacha ish kunining o'tgan yilga nisbatan 12 kunga kamayishi (226-238) va ish kunining o'rtacha uzunligining 0,05 soatga (7,73-7,78) kamayishi natijasida tovar mahsulotini ishlab chiqarish 531 ming so'mga kamaydi (166; 325; 40). Bu kamayish o'rni intensiv omilning o'sishi evaziga qoplanildi. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumining 44 tiyinga (3,65-3,21) oshishi natijasida 821 ming so'mlik tovar mahsuloti ko'p ishlab chiqarildi. Darvoqe, ushbu jadvaldan

ko‘rinishicha, ishga jalb qilinmagan rezervlar hajmi 531 ming so‘mni (166+325+40) tashkil qiladi.

9. Tahlilda ko‘p qo‘llaniladigan usul – ko‘rsatkichlarining o‘shish sur‘ati bo‘yicha farqini aniqlash metodidir. Tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni havola etamiz (1.2-jadval).

1.2 - Jadval.

O‘shish sur‘ati bo‘yicha farqlash

Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlarning o‘shish sur‘ati (%)	O‘shish sur‘atidagi farq (+,-)	Mahsulot hajmiga ta‘siri (2 ust*6615/100) ming so‘m
A	1	2	3
1. Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni	97,5	100-97,5=-2,5	-165
2. Bir yilda hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi kunlari	92,4	97,5-92,4=-5,1	-338
3. Bir yilda hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi – soatlari	91,8	92,4-91,8=-0,6	-40
4. Tovar mahsuloti	104,4	104,4-91,8=+12,6	+883
Jami	-	+4,4	+290
x6615 ming so‘m – haqiqatda o‘tgan yildagi mahsulot hajmi			

Jadvaldan ko‘rinishicha, mahsulot hajmiga ta‘sir etuvchi mehnat bilan bog‘liq omillarning bu usulda hisoblaganimizda olingan natijalar zanjirli almashtirish metodi bo‘yicha aniqlangan natijalarga teng.

10. Balans metodi – bu usul xomashyo (materiallar) ning kelishi va undan foydalanish yo‘nalishi o‘rtasidagi nisbatni aniqlashga, shuningdek ish vaqti, uskunalarning ishlash vaqti va boshqalardan foydalanishni o‘rganish uchun xizmat qiladi.

Yuqorida qayd qilingan metodlar bilan bir qatorda tahlil qilish jarayonida bir qator statistik usullardan ham foydalaniladi. Bularga masalan, o‘rtacha miqdorni aniqlash, o‘rtacha kvadratik tafovutlarni hisoblash, korrelyasiya metodi, iqtisodiy matematik metodlar kabilarni kiritish mumkin. Bular tegishli ravishda statistika darslarida atroflicha o‘rganiladi.

Ko‘hna va qadimiy Gretsiyaning Platon darvozasiga shu so‘zlar yozilgan: «Kimda kim matematikani bilmasa uning akademiya

darvozasiga kirishining hojati yo‘q. Matematika – bu fanlar malikasidir. Matematika zehn va aqlni mashq qilish vositasidir».

Iqtisodiy-matematik usullarni iqtisodiy tahlilda qo‘llash quyidagilardan kelib chiqqan.

1. Korxonalar soni kun sayin oshib borayotganligidan.
2. Ishlab chiqariladigan mahsulotlarning nomenklaturasi 10 mln. xildan oshib ketganligi va ularning assortimenti esa 1 mlrd. xilni tashkil etishidan.
3. Iqtisodiyot juda ham murakkab ierarxiya (bo‘ysunish) tizimiga egaligidan.
4. Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari juda Yuqori parametrlarida ishlatilayotganligidan, ya‘ni ishlab chiqariladigan mahsulot assortimenti va tarkibining o‘zgarishi tez sur‘atlar bilan borayotganligidan.

Iqtisodiy-matematik usullarni tahlilda qo‘llashning afzalliklari quyidagilardan iborat:

birinchidan, tahlil etish muddati tezlashadi;

ikkinchidan, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillarning ulushi (salmog‘i) aniq hisoblanadi;

uchinchidan, tahminiy Yoki noaniq hisoblashlar o‘rnini aniq raqam va faktlar egallaydi.

Iqtisodiy tahlilda iqtisodiy matematik usullarni qo‘llash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

- masala sharti belgilanadi;
- ta‘sir etuvchi omillar aniqlanadi;
- matematik hisoblash usuli belgilanadi;
- eksperiment model tuziladi;
- bevosita hisoblashlar bajariladi;
- aniq yyechimlar topiladi.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlashda integral usulini qo‘llash.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillar va faktlar aniq o‘lchangan va hisoblangan bo‘lishi shart. Bunga integral usulini qo‘llash orqali erishish mumkin.

Masalan: tovar mahsuloti hajmining o‘sish Yoki kamayishiga asosiy vositalar qiymati va undan samarali foydalanish ta‘sirini quyidagi misolda integral usuli orqali aniqlaymiz.

1.3 - Jadval

Tovar mahsuloti o'zgarishiga alohida omillar ta'sirini integral usul bilan hisoblash

Ko'rsatkichlar	SHartli belgi	Haqiqatda o'tgan yili (o)	Haqiqatda joriy yili (1)	O'zgarishi (+,-)
1. Tovar mahsuloti, ming so'm	N	5254	5224	-30
2. Asosiy vositalarning yillik o'rta qiymati, ming so'm	F	4430	5844	+1414
3. Asosiy vositaning samaradorligi [1q. x 2q], so'm	NF	1,1860	0,8939	-0,2921

Jadvaldan ko'rinishicha, haqiqatda hisobot yili tovar mahsuloti hajmi haqiqatda o'tgan yilga nisbatan 30 ming so'mga kamaygan. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan.

1. Asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymatining o'zgarishi (ekstensiv omil). U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta N_F = N F_0 \cdot \Delta F + \frac{\Delta N F \cdot \Delta F}{2}$$

$$\Delta N_F = 1,1860 \times 1414 + \frac{(-0.2921) \times 1414}{2} = +1470 \text{ ming so'm}$$

2. Asosiy vositalar samaradorligining o'zgarishi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$\Delta N_{NF} = F_0 \cdot \Delta N F + \frac{\Delta N F_0 \cdot \Delta F}{2}$$

$$\Delta N_{NF} = 4430 \times (-0.2921) + \frac{(-0.2921) \times 1414}{2} = -1500 \text{ ming}$$

3. Ikkala omilning yig'indisi:

$$\Delta N = \Delta N_F + \Delta N_{NF} = 1470 + (-1500) = -30 \text{ ming so'm.}$$

Demak, tovar mahsuloti ishlab chiqarishining 30 ming so'mga kamayishi asosiy vositalardan foydalanishni yomonlashganligi sababli sodir bo'lgan, buning ta'sirida tovar mahsuloti ishlab chiqarish 1500 ming so'mga kamaygan, lekin asosiy vositalar qiymatining o'sishi natijasida mahsulot hajmi 1470 ming so'mga ko'paygan.

Korrelyasiya va regressiya usullari ikki va undan ortiq ko'rsatkichlarning o'zgarishi bir-biri bilan qanchalik bog'langanligini hisoblashda qo'llaniladi. Bunda korrelyasiya koeffitsienti 0 dan 1 gacha o'lchamni ifoda etadi. Agar korrelyasiya koeffitsienti 0 ga teng bo'lsa, u holda o'rganiladigan ko'rsatkichlar o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'qligini ko'rsatadi. Agar korrelyasiya koeffitsienti 1 ga teng bo'lsa, u holda o'rganiladigan ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik to'liq bo'ladi, ya'ni funksional bo'ladi.

1.4 – Jadval

Asosiy vosita bilan qurollanganlik va mehnat unumdorligi o'rtasidagi bog'liqlik

Tartib raqami	Asosiy vosita bilan qurollanish (ming so'm) (X)	Bir ishchiga to'g'ri keluvchi mehnat unumdorligi, (ming so'm) (U)	O'rtacha qatordan farq $\Delta X = X - \bar{X}$	O'rtacha U qatordan farqi $\Delta U = \bar{Y} - U$	Farqlarning ko'paytmasi $\Delta X \times \Delta U$	X qatorining kvadrat farqi ΔX^2	U qatorining kvadrat farqi ΔU^2
A	1	2	3	4	5	6	7
1	0,10	2,5	0,45	1,35	0,6075	0,2025	1,8225
2	0,20	2,8	0,35	1,05	0,3655	0,1225	1,1025
3	0,30	2,9	0,25	0,95	0,2375	0,0625	0,9025
4	0,40	3,7	0,15	0,15	0,225	0,0225	0,0225
5	0,50	3,9	0,05	-0,05	-0,0025	0,0025	0,0025
6	0,60	4,3	-0,05	-0,45	0,0225	0,0025	0,2025
7	0,70	3,8	-0,15	0,05	-0,0075	0,0225	0,0025
8	0,80	4,5	-0,25	0,65	0,1625	0,0625	0,4225
9	0,90	4,9	-0,35	-1,05	0,3675	0,1225	1,1025
10	1,00	5,2	-0,45	-1,35	0,6075	0,2025	1,8225
Summa	5,50	38,5	0,00	0,00	2,3850	0,8250	7,4050
O'rtacha miqdori	-0,55	3,85	-	-	-	-	-

Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida korrelyasion – regression usuldan foydalanib, ishchilarning asosiy vositalar bilan qurollanish va bir ishchiga to'g'ri keluvchi mehnat unumdorligi o'rtasidagi bog'lanishni ko'rishimiz mumkin.

Ishchilarning asosiy vositalar bilan qurollanish va bir ishchiga to'g'ri keluvchi mehnat unumdorligi darajasi o'rtasidagi korrelyasiya koeffitsientini quyidagi formula orqali ifoda etiladi:

$$R_{xy} = \frac{\sum(\Delta X \cdot \Delta Y)}{\sqrt{\sum \Delta X^2 \cdot \sum \Delta Y^2}} = \frac{2,385}{\sqrt{0,8250 \cdot 7,405}} = 0,97$$

Demak, asosiy vositalar bilan qurollanish va mehnat unumdorligi o'rtasidagi bog'liqlik to'la (funktional) ekanligidan dalolat beradi.

Omillar tizimini moddellashtirishda iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni model tizimiga kiritish kerak. Masalan, avanslashtirilgan vositalarning rentabellik darajasi baho miqdoriga, baho o'zgarishiga, asosiy vositalar va aylanma mablag'larning

o'zgarishiga, sof foydaning o'zgarishiga, mahsulot assortimenti va tarkibining o'zgarishiga hamda boshqa ko'p omillarga bog'liq.

Avanslashtirilgan vositalarning rentabellik darajasi sof foydani asosiy vositalar va aylanma mablag'larning yillik o'rtacha qiymatiga nisbati tariqasida aniqlanib, uni quyidagi formula orqali ifoda etishimiz mumkin:

$$R = \frac{\Phi^e}{F + E} = \frac{X_1}{X_2 + X_3}$$

Bunda: F^e – sof foyda;

F – asosiy vositalar;

E – aylanma mablag'lar.

Buni quyidagi misolda ko'ramiz.

1.5 – Jadval

Natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlikning hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	SHartli belgi	Baza yili (0)	Hisobot yili (1)	O'zgari-shi (+,-)
A	B	V	1	2	3
1. Sof foyda	Ming so'm	$F^e = X_1$	714	902	+188
2. Asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymati	Ming so'm	$F^e = X_2$	4430	5844	+1414
3. Aylanma mablag'larning yillik o'rtacha qiymati	Ming so'm	$E = X_3$	2120	2396	+276
4. Sof tushum	Ming so'm	N_p	6432	7240	+908
5. Bir so'mlik sotilgan mahsulot hisobiga olingan sof foyda	Ming so'm	$\frac{X_1}{N_p} = X_4$	1.217	1.229	+0.012
6. Asosiy vositalarning sig'imi	Ming so'm	$\frac{X_2}{N_p} = X_5$	0,6987	0,7962	+0,0975
7. Aylanma mablag'larning sig'imi	Ming so'm	$\frac{X_3}{N_p} = X_6$	0,3296	0,3264	-0,0032
8. Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti	marta	$\frac{N_p}{X_3} = X_7$	3,034	3,063	+0,029
9. Umumiy vositalar tarkibida aylanma mablag'larning ulushi	Koef.	$\frac{X_3}{X_2 + X_3} = X_8$	0,3237	0,2908	-0,0329
10. Rentabellik darajasi	Koef.	$R_\kappa = \frac{X_1}{X_2 + X_3}$	1.1090	1.1095	+0.0005

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, natija ko'rsatkichi bir qancha omillar bilan o'zaro bog'liqlikda. Masalan, rentabellik ko'rsatkichini olaylik:

$$R_0 = \frac{X1_0}{X2_0 + X3_0} = \frac{714}{4430 + 2120} = 1,1090$$

$$R_1 = \frac{X1_1}{X2_1 + X3_1} = \frac{902}{5844 + 2396} = 1,1095$$

$$\Delta R = 1,1095 - 1,1090 = +0,0005$$

Zanjirli almashtirish usuli bilan ushbu farqqa ta'sir qilgan uchala omilning miqdorini aniqlash mumkin. Ushbu formulani kengaytirish ham mumkin:

$$R_0 = \frac{X_1 / N_p}{X_2 / N_p + X_3 / N_p} = \frac{1,217}{0,6987 + 0,3296} = 1,1090$$

$$R_1 = \frac{1,229}{0,7962 + 0,3264} = 1,1095$$

Bu bog'liqlik ham natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlikning funktsionalligini ko'rsatadi.

Ko'rinib turibdiki, boshqaruv tahlilida ham moliyaviy tahlil singari iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan deyarli barcha usullardan foydalanish mumkin ekan.

Moliyaviy tahlil ma'lum bir tizimga ega bo'lgan moliyaviy hisob va hisobotlarga asoslangan bo'lsa, boshqaruv tahlili boshqaruv hisobi va hisobotlariga asoslanadi. Boshqaruv hisobi va hisoboti tezkor hisob va hisobot shaklida korxonaharbari va mulk egasining maqsadi va manfaatidan kelib chiqib turli yo'nalishlariga ega bo'lishlari mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, hamon boshqaruv tahlilining tarkibi iqtisodiy adabiyotlarda ham, amaliyotda ham aniq belgilangan emas.


1.2. Boshqaruv tahlilining tarkibiy tuzilishi

Boshqaruv tahlilining tarkibini shakllantirishda ushbu tahlil nimani o'rganishi va nimaga xizmat qilishidan kelib chiqmoq lozim. Chunki ushbu tahlil iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos maqsadi, vazifasi va iste'molchisiga ega. Shu jihatdan qaraladigan bo'lsa boshqaruv tahlili korxonaharbari, mulk egasi va uni boshqarishda ishtirok etadigan turli menejerlarga tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma'lumotlar tayyorlab beradi. Bu ma'lumotlar faqat shu korxonaga bevosita daxldor bo'lgan xodimlarga mo'ljallangan bo'lib, uning tijorat, ishlab chiqarish, texnologik kabi sirlarini oshkor qilmasligi lozim. Bu esa boshqaruv tahlilida qanday mavzular, sohalar o'rganish lozimligini belgilaydi.

Boshqaruv tahlilida korxonada asosan ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini hamda xarajatlar sarfi bilan moliyaviy natijalarga erishish

yo‘llarini, ushbu holat orqali shu korxonada samaradorligini oshirishning o‘ziga xos usullarini o‘rganadi. Bu esa uning tarkibining shakllanishi uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Bir guruh olimlar YO.A.Abdullaev, A.Ibrohimov va M.Rahimovlar² boshqaruv tahlili tarkibiga uchta sohani kiritishni tavsiya qiladi. Bularga ishlab chiqarish faoliyati boshqaruvi tahlili, tijorat faoliyati boshqaruvi tahlili va moliyaviy faoliyat boshqaruvi tahlili kiritilgan va bu quyidagi chizma bilan ifodalangan (1.1-chizma).



1.1 - Chizma. Boshqaruv tahlili va unda o‘rganiladigan masalalar

Ushbu taqsimot ma‘lum darajada boshqaruv tahlilida ko‘riladigan masalalarni qamrab oladi. Ammo ushbu guruhlardagi o‘rganiladigan masalalarga diqqatni qaratadigan bo‘lsak, boshqaruv tahlilida o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalar to‘liq qamrab olinmagan. Masalan: ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyatni boshqaruv tahlilining birlashgan guruhiga mehnat resurslari tahlili va ashyoviy resurslar tahlili kiritilgan. Moliyaviy faoliyat bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar ushbu chizmada umuman

² Abdullaev.YO va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. 100 savol va javob. T.:Mehnat,2018,-29 bet.

o'z aksini topmagan. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, boshqaruv tahlili tarkibiga quyidagi bo'limlarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz va tavsiya qilamiz:


1. Ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish tahlili.
2. Xarajatlar sarfini boshqarish tahlili.
3. Tijorat faoliyatini boshqarish tahlili.
4. Mehnat salohiyatidan foydalanishni boshqarish tahlili.
5. Moliyaviy faoliyat va uning natijalari bilan bog'liq vaziyatni boshqarish tahlili (marjinal tahlil).

Ushbu masalalarni qamrab olish uchun boshqaruv tahlilida ko'riladigan mavzularni quyidagi tartibda joylashtirishni tavsiya qilamiz (1.2-chizma).

Ushbu chizma boshqaruv tahlilida ko'riladigan mavzularni asosini qamrab oladi. Unda ko'rilishi lozim bo'lgan masalalarning deyarli hammasi kiritilgan. Ammo boshqaruv tahlili bu masalalar bilan hali cheklanib qolmaydi. Chunki korxonaning faoliyati shu darajada keng-ko'lamlil va serqirradi, uning faoliyatiga qo'ygan maqsaddan kelib chiqib mazmuni va tarkibi kengayaveradi. Uning chegarasi va ko'riladigan masalalar ko'lami qaysi sohani tahlil qilishga ham bog'liq. SHu tufayli biz mazkur ishda boshqaruv tahlilining asosiy masalalarinigina keltirdik.

Albatta, bu tavsiyalar olimlar va tadqiqotchilarning xulosa chiqarishi va uni takomillashtirish uchun tafakkur qilish, bahslashish obyekti bo'lib hisoblanadi. O'ylaymizki, kelajakda ushbu muammo ustida olimlarimiz yirik tadqiqotlar olib boradi va u zamon talabiga mos holda shakllanadi va rivoj topadi.

Boshqaruv tahlili o'ziga xos tahlil bo'lganligi tufayli uning vazifasi ham o'ziga xosdir. SHu tufayli bu masalani ham qisqacha ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.



1.2 - Chizma. Boshqaruv tahlilining tarkibiy tuzilishi va unda o'rganiladigan mavzular.

1.3. Boshqaruv tahlilining asosiy vazifalari

Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonaga egasi o'z korxonasining Yuqori samaradorlik bilan ishlashini ta'minlashi uchun oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishni xohlaydi. Buning uchun tegishli axborotlar mavjud bo'lishi lozim. Ushbu axborotlarni yetkazib beradigan dastaklardan biri boshqaruv tahlilidir.

Bundan ko'rinib turibdiki, boshqaruv tahlilining bosh vazifasi korxonaga rahbari va egasiga boshqaruv qarorlarini qabul qilishi uchun tegishli axborotlarni tayyorlab berishdir. Bu uchun boshqaruv tahlilida ancha jarayonlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Bu uning asosiy vazifalarida namoyon bo'ladi.

Boshqaruv tahlilining eng muhim va asosiy vazifalari bizning fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

1. Biznes-rejaning qanchalik realligi (haqiqiyli) va ilmiy jihatdan asoslanganligiga baho berish.
2. Korxonaga iqtisodiyotini rivojlantirishning joriy va istiqbol rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar bazasini aniqlash.
3. Biznes-rejaning bajarilishiga obyektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalariga bog'liq va bog'liq bo'lmagan omillar va sabablarni bir-biridan ajratib aniqlash.
4. Ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash (bu o'rinda tahlilning samarasi, birinchidan, aniqlangan rezervlarning butun nazariy jihatdan asoslangan rezervlarga nisbati va ikkinchidan, amalga oshirilgan rezervlarning aniqlangan rezervlarga nisbati bilan belgilanadi).
5. Korxonalarining xo'jalik faoliyati natijasida kutiladigan samaralarni oldindan aniqlash.
6. Tahlil materiallariga asosan ishlab chiqarishda aniqlangan kamchiliklarni tugatishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish.
7. Ishlab chiqilgan tadbirlarga asosan oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Hozirgi paytda hisobotlar ancha ixchamlashtirilib, undagi nokerak ma'lumotlarni to'plashga barham berilmoqda. Ammo hamon ko'pgina birlashma, idora va vazirliklar o'z tasarrufidagi korxonalaridan juda ko'p hech kimga zarur bo'lmaydigan, tahlil uchun ahamiyati yo'q axborotlarni to'plashga ko'p vaqt, ish kuchi va qog'oz sarf qilmoqda. Bularga barham berish vaqti keldi.

Haqiqatda vaziyat oldingi holatga nisbatan tubdan o'zgardi. Mulkning aksariyat qismi xususiylashtirildi, hisob-kitoblar kompyuterlar orqali olib borilmoqda, buxgalteriya hisobining xalqaro andozalariga mos milliy standartlari ishlab chiqildi. Bularning hammasi boshqaruvni optimallashtirish, bu uchun esa axborotlarning tezkorligini ta'minlash va keraklisini olishni talab qilmoqda.

Bundan ko'rinib turibdiki, boshqaruv tahlilining vazifasi faqat tegishli axborotlarni tayyorlash bilangina cheklanmaydi, balki u oqilona boshqaruv uchun tegishli axborotlar tizimini ham tartibga solish uchun ko'maklashishga asos bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, boshqaruv tahlili ham mazmuni, ham shakl jihatidan takomillashadi, uning bajaradigan vazifalari kengayib boraveradi.

1.4. Boshqaruv tahlilning asosiy tamoyillari va ichki imkoniyatlarni topishdagi ahamiyati

Boshqaruv tahlili ham birqancha tamoyillarga asoslanadi. Bu tamoyillar turli bo'lishi mumkin. Korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish uchun asos qilib odatda quyidagi tamoyillar olinadi.

- 1) Obyektning holatini dastlabki iqtisodiy – nazariy jihatdan tahlil qilishning zarurligi va o'rganiladigan hodisalarning mohiyati va bir – biriga o'zaro bog'liqligi;
- 2) Tahlilning kompleks xarakterga ega ekanligi hamda o'zaro bir-biriga uzviy ravishda bog'liq tahliliy ko'rsatkichlar tizimining qo'llanilishi;
- 3) Iqtisodiy ma'lumotlarni tahliliy jihatdan qayta ishlash jarayonida o'rganiladigan hodisalarni guruhlashtirish va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni miqdoriy va sifat belgilariga qarab turkumlash;
- 4) Korxonalarining faoliyatini tahlil qilishda taqqoslash usulining ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashdagi ahamiyati;
- 5) Tahlil natijalari asosida ilg'or tajribalarni keng yoyish va ommani korxonalarni boshqarishga yana ham keng jalb etish;
- 6) Korxonalarni boshqarishda hisob va hisobotning hal qiluvchi roli va ularning iqtisodiy tahlilda asosiy axborot manbayi ekanligi.

Yuqorida qayd qilingan tamoyillar iqtisodiy tahlilning shakllanishiga va uning rivojlanish jarayoniga asos bo'ladi.

Boshqaruv tahlilining ichki imkoniyatlarni aniqlashdagi ahamiyati.

Korxonalarining xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – yashirinib yotgan ichki imkoniyatlarni aniqlashdir. Bu uchun esa ularni ilmiy asosda turkumlash kerak.

Rezervlar quyidagilardan iborat: xalq xo‘jalik, tarmoq, regional (yondosh) va ichki xo‘jalik rezervlari. Aytaylik, mashinasozlik sanoatida mahsulot tannarxini kamaytirish borasida bo‘lgan katta rezervlardan biri – rangli metallarni plastmassalar bilan almashtirish hisoblanib, bu o‘z navbatida kimyo sanoatini yanada rivojlantirishni taqozo qiladi. SHu sababli, bunday rezervlar xalq xo‘jalik rezervlari qatoriga kiradi. Ixtisoslashtirish darajasini oshirish esa tarmoq rezervlari qatoriga kirib, u asosan korparatsiya, konsern, vazirlik kabi boshqaruv idoralariga bog‘liqdir.

Mintaqaviy rezervlarga, aytaylik, bir ma‘muriy tumanda joylashgan turli boshqarmalarga qarashli sanoat korxonalarini tezkorlashtirish misol bo‘la oladi.

Ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash va ularni xo‘jalik oborotiga yo‘naltirishda korxonalar katta imkoniyatlarga ega. Bu esa, asosan, ishlab chiqarish resurslaridan iborat uch guruh (mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat predmetlari) omillaridan oqilona va samarali foydalanishga bog‘liq bo‘ladi.

Tayanch iboralar

Boshqaruv tahlilining predmeti, moliyaviy-iqtisodiy tahlil, texnik-iqtisodiy tahlil, tahlilning bosqichlari, boshqaruv tahlilining metodi, rezervlar, omillar, sabab, tizimli tahlil, natija ko‘rsatkichi, bog‘liqlik, taqqoslash usuli, guruhlash, yetakchi bo‘g‘inni ajratib olish, mutloq miqdor, nisbiy miqdor, dinamik metod, indeks, zanjirli almashtirish, farqlash, o‘shish sur‘ati bo‘yicha farqlash, balans metodi, matematik usullar, integral usul, funksional bog‘liqlik, determinanal analiz, staxostik bog‘liqlik.

Nazorat savollari

1. Boshqaruv tahlilining predmeti nima?
2. Boshqaruv tahlilining turlari qanday?
3. Boshqaruv tahlilining metodi nima?
4. Xo‘jalik faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar tasnifi qanday?

5. Boshqaruv tahlilining qanday maxsus usullari bor?
6. Zanjirli almashtirish usulining mohiyati nimada?
7. Farqlash usulining o‘ziga xos xususiyati nimada?
8. Iqtisodiy-matematik usullarni qanday tushunasiz?
9. Korrelyasiya bog‘lanishi nima?
10. Integral usul qanday afzalliklarga ega?

**“Boshqaruv tahlilining nazariy asoslari» mavzusi bo‘yicha
TEST SAVOLLARI**

1. Ushbu formuladan ΔA_a -ni topishda qaysi usullardan foydalanilgan?

$$\Delta A_a = (a_1 \cdot v_o \cdot s_o) - (a_o \cdot v_o \cdot s_o)$$

- a) qayta hisoblash
- b) indeks
- v) zanjirli almashtirish
- g) nisbiy ko‘rsatkichli
- d) integral

2. Ushbu formuladan qaysi usulni qo‘llab ΔA_a aniqlangan

$$\Delta A_a = \Delta a \cdot v_o +$$

- a) integral
- b) indeks
- v) qayta hisoblash
- g) farqli
- d) zanjirli almashtirish

3. Tovar oborotiga baho o‘zgarishining ta’sirini indeks usuli bilan hisoblang.

- a) $\Delta T_r = - T_o$
- b) $\Delta T_r = (R_1 \cdot q_o) \cdot (R_0 \cdot q_o)$
- v) $\Delta T_r = (R_1 - q_o) - (R_0 - q_o)$
- g) $\Delta T_r = (R_1 \cdot q_o) - (R_0 \cdot q_o)$
- d) $\Delta T_r = (T_o \cdot i_p) - T_o$

4. Tovar oboroti o'zgarishiga xodimlar sonining ta'sirini qayta hisoblash yo'li bilan aniqlang?

- a) $\Delta T_x = (X_1 \cdot MU_o) - (X_0 \cdot MU_o)$
- b) $\Delta T_x = (X_1 - MU_o) - (X_0 - MU_o)$
- v) $\Delta T_x = (X \cdot 100) / T$
- g) $\Delta T_x = (X_1 - MU_o) - (X_0 - MU_o)$
- d) $\Delta T_x = (X_1 - X_0) - MU_o$

5. Muomala xarajatlari darajasining nisbiy farqi (ΔD_n) qanday topiladi?

- a) $\Delta D_n = D_1 - D_0$
- b) $\Delta D_n = D_1 - D_{kx}$
- v) $\Delta D_n = D_{kx} - D_1$
- g) $\Delta D_n = D_{kx} - D_0$
- d) $\Delta D_n = D_0 - D_{kx}$

6. Qayta hisoblangan o'zgaruvchan xarajatlar summasi (MX_{kx} uzg) qanday topiladi?

- a) $MX_{kx \text{ uzg}} = (T_1 \cdot D_{0 \text{ o'zg}}) / 100$
- b) $MX_{qh \text{ uzg}} = (T_1 \cdot D_{0 \text{ o'zgar}}) / 100$
- v) $MX_{qh \text{ uzg}} = (T_1 \cdot 100) D_{0 \text{ o'zg}}$
- g) $MX_{qh \text{ uzg}} = (MX_{0 \text{ o'zg}} \cdot 100) / T_1$
- d) $MX_{qh \text{ uzg}} = (MX_{0 \text{ o'zg}} \cdot D_{0 \text{ o'zgar}}) T_1$

7. Ish haqi summasiga mehnat unumdorligi, tovar oboroti va o'rtacha ish haqi ta'sirini qanday formula bilan hisoblab topish mumkin?

- a) $F_z = T \cdot S_z \cdot 100 / P$
 - b) $F_z = T \cdot P / S_z$
 - v) $F_z = S_z \cdot P / T$
 - g) $F_z = T \cdot S_z / P$
 - d) $F_z = T \cdot 100 / S_z \cdot P$
- Bunda: F_z - ish haqi fondi
 T - tovar oboroti
 S_z - o'rtacha ish haqi
 P - mehnat unumdorligi

8. Yalpi daromad summasi qaysi formula yordamida aniqlanadi?

- a) $DV_{su} =$
- b) $DV_{su} =$
- v) $DV_{su} =$
- g) $DV_{su} =$
- d) $DV_{su} =$

9. Natija (foйда) o'zgarishiga birinchi omil (tovar oboroti) ta'siri (ΔF_t) qanday aniqlanadi?

- a) $\Delta F_t =$
- b) $\Delta F_t =$
- v) $\Delta F_t =$
- g) $\Delta F_t =$
- d) $\Delta F_t =$

10. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar qaysi guruhlarga bo'linadi:

- a) additiv va multiplikativ
- b) oddiy va murakkab
- v) ichki va tashqi
- g) an'anaviy va matematik
- d) qiyoslash va hisoblash

11. Tahlil vujudga kelgandan buyon qo'llanilib kelinayotgan usullar qanday usullar?

- a) an'anaviy b) matematik v) doimiy
- g) tahliliy d) solishtirish

12. Murakkab iqtisodiy jarayonlarni o'rganish uchun iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar qanday usullar?

- a) an'anaviy b) matematik v) doimiy
- g) tahliliy d) solishtirish

13. Natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik qo'shuv bilan ifodalansa qaysi model qo'llaniladi?

- a) jamlash b) kasrli v) additiv
- g) multiplikativ d) farqlash

14. Natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bilan ifodalansa qaysi model qo'llaniladi?

- a) jamlash b) kasrli v) additiv
- g) multiplikativ d) farqlash

15. Natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik bo'lish bilan ifodalansa qaysi model qo'llaniladi?

- a) jamlash b) kasrli v) additiv

g) multiplikativ d) farqlash

16. Iqtisodiy tahlilda eng ko‘p uchraydigan usul qaysi biri?

a) jamlash b) kasrli v) additiv
g) multiplikativ d) farqlash

17. Iqtisodiy jarayonlarni sanaydigan va o‘lchaydigan boshlang‘ich raqam nima?

a) mutloq miqdor b) nisbiy miqdor v) o‘rtacha miqdor
g) katta miqdor d) kichik miqdor

18. Iqtisodiy jarayonlar haqida aniq ma‘lumotlar beradigan va mutloq miqdorlarni bir-biri bilan bo‘lish natijasida hosil qilgan miqdor nima?

a) mutloq miqdor b) nisbiy miqdor v) o‘rtacha miqdor
g) katta miqdor d) kichik miqdor

19. O‘zgarish sur‘atini ifodalovchi miqdor qanday miqdor?

a) mutloq miqdor b) nisbiy miqdor v) o‘rtacha miqdor
g) katta miqdor d) kichik miqdor

20. Mehnat unumdorligi qanday miqdor?

a) mutloq miqdor b) nisbiy miqdor v) o‘rtacha miqdor
g) katta miqdor d) kichik miqdor

21. Yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi nima?

a) mutloq miqdor b) nisbiy miqdor v) o‘rtacha miqdor
g) katta miqdor d) kichik miqdor

22. Qo‘shish va ayrish ishlatiladigan, tovar va boshqa moddiy boyliklar o‘zgarishini hisoblashda qo‘llaniladigan usul?

a) farqlash b) qayta hisoblash v) jamlash
g) taqqoslash d) muvozanat

23. Sotilgan tovarga tovarlarning yil boshidagi qoldig‘ining ta‘siri qaysi usul bilan aniqlanadi?

a) farqlash b) qayta hisoblash v) jamlash
g) taqqoslash d) muvozanat

24. $Sm=Myb+Mach-Mtch-Myo$. Ushbu formula qaysi usulga mansub?

- a) farqlash b) qayta hisoblash v) jamlash
g) taqqoslash d) muvozanat

25. Rejadagi natijani birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan hisoblab olish qaysi usul?

- a) farqlash b) qayta hisoblash v) jamlash
g) taqqoslash d) muvozanat

26. Natija o'zgarishiga uchta va undan ko'p omillar ta'sir qilsa, ular o'rtasidagi bog'liqlik funksional bo'lsa qaysi usuldan foydalaniladi?

- a) indeks b) zanjirli almashtirish
v) qayta hisoblash g) integral d) farqlash

27. $\Delta U_{x2} = (X_1^x \cdot X_2^x \cdot X_3^r) - (X_1^x \cdot X_2^r \cdot X_3^r)$. Ushbu formula qaysi usulga mansub?

- a) indeks b) zanjirli almashtirish
v) qayta hisoblash g) integral d) farqlash

28. $\Delta U_{x2} = (X_1^x \cdot X_2^x) - (X_1^x \cdot X_2^r)$. Ushbu formula qaysi usulga mansub?

- a) indeks b) zanjirli almashtirish
v) qayta hisoblash g) integral d) farqlash

29. $\Delta U_{x3} = U_1 - [(X_1^x) / (X_2^x + X^r)]$. Ushbu formulada ΔU_{x3} qaysi usul bilan aniqlanadi?

- a) indeks b) zanjirli almashtirish
v) qayta hisoblash g) integral d) farqlash

30. $\Delta U_{x2} = U_1 - (X^h / X_2^r)$ Ushbu formulada ΔU_{x2} qaysi usul bilan aniqlangan?

- a) indeks b) zanjirli almashtirish
v) qayta hisoblash g) integral d) farqlash

31. Natijaga omillar ta'sirini aniqlashda ularning nisbiy o'zgarishi natijaning nisbiy o'zgarishida ifodalansa qanday usuldan foydalaniladi?

- a) nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash
b) nisbiy ko'rsatkichli
v) nisbiy miqdorlardan foydalanish

- g) nisbiylik usuli
- d) nisbiy ko'rsatkichli

32. Natija va omillarning o'sish sur'atlaridan foydalanib omillargi ta'sirini hisoblashda qaysi usuldan foydalaniladi?

- a) nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash
- b) nisbiy ko'rsatkichli
- v) nisbiy miqdon foydalanish
- g) nisbiylik usuli
- d) nisbiy ko'rsatkichli

33. $\Delta A_a = (a_1 \cdot v_o \cdot s_o) : (a_o \cdot v_o \cdot s_o)$ formulada ΔA_a qaysi usulni qo'llab aniqlangan?

- a) qayta hisoblash
- b) indeks
- v) zanjirli almashtirish
- g) nisbiy ko'rsatkichli
- d) integral

34. Natija o'zgarishiga ham nisbiy, ham miqdoriy o'zgarishlarni aniqlaydigan usul qanday usul?

$$\Delta A_a = (a_1 \cdot v_o \cdot s_o) : (a_o \cdot v_o \cdot s_o)$$

- a) qayta hisoblash
- b) indeks
- v) zanjirli almashtirish
- g) nisbiy ko'rsatkichli
- d) integral

35. Natija ko'rsatkichiga omillar ta'sirini aniqlash uchun hisoblanayotgan omilning farqi, holgan omilalrning asos Yoki hisobot davri miqdorlari olinib hisoblansa qaysi usul?

- a) integral
- b) indeks
- v) qayta hisoblash
- g) farqli
- d) zanjirli almashtirish

36. $\Delta T_{tm} = SH_1 \cdot M_1 \cdot (TM_1 - TM_0)$ formulada natijaning o'zgarishiga omil ta'siri qaysi usul bilan aniqlangan?

- a) integral
- b) indeks
- v) qayta hisoblash
- g) farqli
- d) zanjirli almashtirish

37. $\Delta T_{tm} = SH_1 \cdot M_1 \cdot (TM_1 - TM_0)$ ushbu formulada nechanchi omilning ta'siri aniqlanmoqda?

- a) birinchi
- b) to'rtinchi
- v) uchinchi

- g) ikkinchi
- d) to'g'risi yo'q

38. Natijaga omillar ta'sirini hisoblashda omilarning ketma-ketligiga rioya qilmasdan hisoblash mumkin bo'lgan usul qanday usul?

- a) integral
- b) indeks
- v) qayta hisoblash
- g) farqli
- d) zanjirli almashtirish

39. $u = x_i$. Bu formula qaysi model?

- a) matematik
- b) jamlash
- v) kasrli
- g) additiv
- d) multiplikativ

40. $u = x_i$. Bu formula qaysi model?

- a) matematik
- b) jamlash
- v) kasrli
- g) additiv
- d) multiplikativ

41. $u = x_1 + x_2 + x_3 + \dots x_n$. Bu formula qaysi model?

- a) matematik
- b) jamlash
- v) kasrli
- g) additiv
- d) multiplikativ

42. $u = x_1 \cdot x_2 \cdot x_3 \cdot \dots x_n$. Bu qaysi model?

- a) matematik
- b) jamlash
- v) kasrli
- g) additiv
- d) multiplikativ

43. $u = x_1 : x_2$. Bu qaysi model?

- a) matematik
- b) jamlash
- v) kasrli
- g) additiv
- d) multiplikativ

2-BOB: BOSHQARUV TAHLILINI TASHKILLASHTIRISH VA UNDA QO‘LLANILADIGAN MA‘LUMOTLAR MANBALARI

2.1. Boshqaruv tahlilini tashkil etish.

Tahliliy jarayonni muvaffaqiyatli o‘tkazishning garovi uni har tomonlama puxta tashkil qilishdir. Boshqaruv tahlilini tashkil etish uning bosqichlarini aniqlab olishdan boshlanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) tahlil dasturini tuzish;
- 2) tahlil uchun ma‘lumotlar tanlash va ularni tekshirish;
- 3) ko‘rsatkichlarni tanlash va hisoblash;
- 4) ko‘rsatkichlarni analitik jihatdan qayta ishlash va taqqoslash;
- 5) tahlil natijalarini umumlashtirish va korxonada hamda tashkilotlar

faoliyatida sodir bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun chora va tadbirlar ishlab chiqish hamda aniqlangan ichki xo‘jalik rezervlaridan foydalanish. Dastursiz bajariladigan tahlil, yoxud o‘rganiladigan masalalar ko‘lamini aniq belgilamaslik o‘z navbatida tahlil natijalariga putur yetkazadi. SHuning uchun tahliliy ishlarni tashkil qilish borasidagi eng ma‘suliyatli vazifa - iqtisodiy tahlil dasturini tuzish hisoblaniladi. Tahlil dasturni tuzish. Tahlil dasturining hajmi va mazmuni undan qo‘zlangan maqsadga bog‘liq. Masalan, tahlil kompleks tarzda o‘tkazilishi mumkin. Bunda korxonada va tashkilotlar faoliyatining hamma tomonlari chuqur o‘rganiladi. Yoki ishning qandaydir bir tomonini o‘z ichiga olgan tematik (tanlanma) tahlil bo‘ladi. Kompleks tahlil o‘tkazilganda oylik, choraklik va yillik hisobot materiallari asosida tahliliy bayonot yozishda qo‘llaniladigan jadvallar tuziladi. Masalan, butun moliya-kredit tizimi bo‘yicha tahlil moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan umumiy va yagona dastur, metod hamda umumiy analitik jadvallar maketi asosida olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘lur edi. Agar tanlanma tahlil o‘tkazilsa, u holda dasturda uning mavzusi, xajmi, qanday manbalarga va ma‘lumotlarga asoslanishi, tahlilni bajaruvchi shaxs, ishning bajarilish muddati kabi tashkiliy masalalar ko‘rsatilishi kerak. Tahlil uchun materiallarni tayyorlashda joriy hisobda berilmaydigan ma‘lumotlarni aniqlash katta ahamiyatga molik. Masalan, ishchilarning bekor turib qolish sabablarini aniqlash uchun bevosita kuzatuv olib borish kerak. Bunda ish kunini «Rasmga olish» orqali yoki ushbu uchastkada band bo‘lgan ishchilar va boshqa xodimlarning fikr va mulohazalarini bilish orqali

yuqorida aytilgan kamchiliklarning sabablari aniqlanadi. U yoki bu axborotlar manbasidan foydalanish tahlil dasturini tuzishda hisobga olinishi kerak. Ma'lumotlarning to'g'riligi va aniqligiga ishonch hosil qilingandan so'ng ularni qayta ishlashga o'tiladi. Korxonalarining faoliyatini tahlil qilishda qatnashadigan subyektlar. Korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik va moliyaviy faoliyatini tahlil qilishda avvalambor ushbu korxonaning xodimlari ishtirok etadi. Korxonalarining xo'jalik va moliyaviy holati tahlil qilish asosan iqtisod, buxgalteriya va moliya bo'limlarining vazifasidir. Hozirgi vaqtda katta va yirik korxonalarining tarkibida iqtisodiy laboratoriyalar ham iqtisodiy tahlil qilish bilan mukammal tarzda shug'ullanadigan bo'linmalar mavjud.

Korxonalar va tashkilotlar davlatga mansub bo'lsa ularning faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish bevosita yuqori tashkilotlarning vazifasi ham bo'lib, ular korxonalarining hisobotini tasdiqlaydilar hamda ularning ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy faoliyatini obyektiv (xolisona) baholab, tegishli qarorlar qabul qiladilar. Iqtisodiy tahlil qilish bilan moliya va soliq idoralari va bank xodimlari ham shug'ullanadilar. Ular avvalambor so'm bilan nazorat qilish, korxonalar va tashkilotlarning davlat byudjeti bilan bo'lgan o'zaro munosabatlariga taaluqli masalalar bilan qiziqadilar. Statistik idoralari ham iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanadilar. Ular qabul qilingan hisobot va statistik ma'lumotlarni statistik usullari bilan qayta ishlab vazirliklar va boshqarmalarni yig'ma axborot materiallari bilan ta'minlaydilar.

2.2. Boshqaruv tahlilida qo'llaniladigan ma'lumotlar manbayi

Boshqaruv tahlilining asosiy axborot manbalariga quyidagilar kiradi:

1. Biznes-reja ma'lumotlari.
2. Buxgalteriya hisobi va hisoboti.
3. Statistik hisobi va hisoboti.
4. Boshqaruv (tezkor) hisobi va hisoboti.
5. Hisob va hisobotdan tashqari ma'lumotlar.
6. Me'yorlar, tarmoq ko'rsatkichlari, qonunlar, Farmonlar, qarorlar, buyruqlar.

Ushbu sanab o'tilgan ma'lumotlar ichida eng asosiysi buxgalteriya hisobi va hisoboti hisoblanadi, chunki taxminan 70 foiz ma'lumotlarni iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobidan oladi. Boshqaruv tahlilida ham shu hisobotlar asosiy ma'lumotlar manbayi bo'lib qoladi. Tahlil qilish

jarayonida yillik hisobotga yozilgan izohnoma ham har tomonlama ko'rib chiqiladi. Tahlil qilish jarayonida hisobdan tashqari ma'lumotlardan ham foydalanish katta samara beradi. Bularga tekshirish dalolatnomalari, auditorlik xulosalari, yuqori tashkilotlar, moliya va soliq idoralari, banklarning bajargan tahlil natijalari, laboratoriya va tabobat-nazorti materiallari, korxonalar mehnat jamoasining umumiy majlis materiallari, mutbuot materiallari, tushuntirish va ma'ruza xatlari, ijro etuvchilar bilan shaxsiy suhbat o'tkazish materiallari ham kiradi. Tahlilda qo'llaniladigan ma'lumot manbalarining to'g'riligini tekshirish muhim ahamiyatga ega. Chunki noto'g'ri ma'lumotlar asosida to'g'ri xulosa chiqarib bo'lmaydi. Tahlil qilishning samarasi avvalambor hisobot ma'lumotlarining sifatiga bog'liq. Shuning uchun hisob va hisobot materiallarini obdon tekshirish kerak. Amalda ma'lumotlarni tekshirishning bir necha usullari mavjud.

1. Hisobotlarni tuzish qoidalariga amalga qilish. Ushbu tekshirish o'z ichiga quyidagilarni oladi: hisobot shakllarining to'g'ri to'ldirilishi va ularning O'zbekiston Respublikasi moliya, iqtisodiyot va statistika vazirliklari tomonidan tasdiqlangan shakllarga mos kelishi, ayrim miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqlashda arifmetika amallarini to'g'ri qo'llanilganligi kabilar. Hisobot shakllari va xujjatlarda hech qanday tuzatish yoki raqamlarni o'chirib qayta yozish mumkin emas. Hisobot shakllari rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

2. Turli hisobot shakllarida beriladigan iqtisodiy ko'rsatkichlar summasining bir-biriga mos kelishi. Ushbu tekshirishning mohiyati quyidagidan iborat. Bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlar turli hisobot shakllarida beriladi va binobarin hisobot tuzishda ana shu iqtisodiy ko'rsatkichlar summasi bir-biriga to'g'ri kelishi shart. Masalan ustav kapitalining miqdori 1-shakl (Balans) va 5-shakl (Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot) yoki asosiy vositalarining summasi 1-shakl (Balans) va 3-shakl (Asosiy vositalarning xarakati to'g'risidagi hisobot)da beriladi va x.k. Tahliliy hisoblar va uning natijalarini rasmiylashtirish. Hisobot ma'lumotlarini tahliliy jihatdan qayta ishlashning usullaridan biri tahliliy jadvallarni tuzish hisoblanadi. Jadvalga tahlil qilinadigan ko'rsatkichlarning asos va amaldagi darajasi kiritiladi, mutloq farqi, ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari aniqlanadi hamda tegishli xulosa yoziladi. Tahliliy jadvallarning ustunligi va afzalligi shundan iboratki, u ko'rsatkichlarning o'zaro bog'lanishini juda ham aniq ko'rgazmali tarzda namoyon etadi. Tahlilning so'nggi bosqichi uning natijalarini rasmiylashtirish hisoblanadi. Tahlil natijalariga asoslangan holda

ma'lumotnoma yoki izohnoma yoziladi. Izohnomada korxonada va tashkilotlarning xo'jalik faoliyatida qo'lga kiritilgan yutuqlari va yo'l qo'ygan kamchiliklari aks ettiriladi hamda bu kamchiliklarni bartaraf qilish yo'llari ko'rsatiladi. Bu o'rinda ayniqsa aniqlangan ichki xo'jalik rezervlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb etish yo'llari ko'rsatiladi. Izohnoma juda ham qisqa va mazmunli bayon etilishi lozim. Qaysiki undan ta'sirchan boshqaruv qarorlarini qabul qilish mumkin bo'lsin.

2.3. Boshqaruv tahlilida qo'llaniladigan axborotlarning turlari.

O'zbek tilining izohli lug'atida (1981 yil) axborotga ikkita izoh berilgan:

- 1) Xabar; xabarlar; ma'lumot, informatsiya.
- 2) Vaqti-vaqti bilan chiqib turadigan ba'zi to'plamlarning nomi.

Bularning ichida iqtisodiy tahlilga mosroq atama - bu ma'lumotdir. Ushbu kitobda "Ma'lumot" atamasiga ham ikkita izoh berilgan:

- 1) O'qish-o'rganish natijasida olingan bilim darajasi.
- 2) Xabar, axborot.

Dalil bo'ladigan xujjat, raqam va shu kabi materiallar. Ko'rinib turibdiki, bu ikki holda ham axborotlarning mazmuni iqtisodiy tahlil va boshqaruv nuqtai nazaridan etarli darajada ochib berilmagan. Bizning fikrimizcha axborotlar tabiat, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan jarayonlar tug'risida doimiy ravishda olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar majmuasidan iboratdir. Lekin iqtisodiyotni boshqarish va tahlil qilish uchun bizga barcha axborotlar ichidan ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni o'z ichiga olgan iqtisodiy axborotlar zarur. Iqtisodiy axborotlar iqtisodiyotda sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan jarayonlar to'g'risidagi ma'lum bir xuquqiy kuchga ega bo'lgan ma'lumotlar majmuidan iboratdir. Masalan, o'tgan davrda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi to'g'risidagi axborotni biz ushbu xo'jalik yurituvchi subyektning o'tgan davrdagi hisobotidan olamiz. Hisobot qonuniy kuchga ega bo'ladi qachonki, uning to'g'ri tuzilganligini kafolotlovchi tashkilot rahbarining va bosh buxgalterning yoki boshqa mas'ul shaxslarning imzosi va shu imzolarni tasdiqlovchi yumaloq muhiri bosilgan bo'lsa. Ushbu ko'rsatkichning hozirgi holati va kelgusi istiqboldagi hajmi ham tegishli tarzda hisob-kitob qilinib mas'ul shaxslar tomonidan tasdiqlansagina ulardan iqtisodiy tahlilda foydalanish mumkin.

Tabiat, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo'layotgan jarayonlar to'g'risida, odatda inson bexabar bo'ladi. U to'liq ma'lumotga ega bo'ladi, qachonki shu jarayonlar to'g'risidagi tegishli axborotlarga ega bo'lsa. Axborotlar qanchalik to'liq, qanchalik haqqoniy bo'lsa undan chiqariladigan xulosalar ham shunchalik to'liq va to'g'ri bo'ladi. Ammo shuni ta'kidlash joizki, axborotlar zarur miqdorda bo'lishi lozim. Uning kam bo'lishi to'liq va to'g'ri xulosa chiqarish imkonini bermaydi, ko'pi esa ulardan tez va soz foydalanishda qiyinchiliklar tug'dirishi, ortiqcha vaqtni olishi mumkin. Axborotlarning ko'pi yaxshi, lekin ular ortiqcha bo'lmasligi lozim. Shu tufayli har bir jarayonni tahlil qilganda, aynan shu jarayonga tegishli axborotlarni olishni taqozo qiladi. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ma'lumotlar va axborotlarni bir-biridan farqlamoq lozim. Ma'lumotlar deganda sodir bo'lgan xodisa va jarayonlarni o'zida ifoda etgan birlamchi xujjatlar va boshqa vositalarda aks etiladigan raqamlar, belgilar, xabarlar tushiniladi. Masalan, 15 kishi bir oy ishladi degan ma'lumot tabelda, 2 kishi kasallik varaqasida, shuncha mahsulot sotildi degan ma'lumot schet-fakturada, qancha pul o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumot to'lov-buyurtmasida ifodalanadi. Bularning hammasi u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to'g'risida aniq ma'lumotlar beradi. Axborotlar deganda, yuqorida ta'kidlanganidek, shu ma'lumotlarni jamlash, ularni ishlash orqali ma'lum tizimga keltirish natijasida hosil bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ifoda etadigan ma'lumotlar majmui tushiniladi. Iqtisodiy tahlilda asosan axborotlardan kengroq foydalaniladi. Ba'zan tahlilni chuqurlashtirish, aniqlik kiritish uchun bevosita birlamchi ma'lumotlardan ham foydalanish mumkin. Axborotlar qayyerda ifodalanishiga qarab uchga bo'linadi: og'zaki, hujjatlarda va mashinada. Og'zaki axborotlar ko'pgina tezkor hisobda qo'llaniladi. U bevosita muloqat, telefon va boshqa vositalar orqali berilishi mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida og'zaki axborotlar juda keng qo'laniladi. Bunda axborot beruvchi va uning iste'molchisi o'rtasida yuksak ishonch bo'lishi lozim. Sodir bo'lgan iqtisodiy jarayonlar, xujjatlarda ifoda etiladi. Bular eng avvalo, buxgalteriya hisobida o'z ifodasini topadi. Har bir jarayonning qonuniyligi aynan shu va shu kabi hisoblarda, xujjatlarda o'z tasdig'ini topadi. Shu jihatdan juda ko'p axborotlar iqtisodiy tahlil uchun xujjatlardan olinadi. Har bir xujjat qonuniy kuchga ega bo'lishi kerak. Buning uchun yuqorida ta'kidlanganidek tashkilot rahbari, bosh buxgalteri kabi mas'ul shaxslarning imzosi va muhiri qo'yilgan bo'lishi kerak. Mashinalarda ifoda etilgan axborotlar hozirgi paytda juda keng

qo'llanilmoqda. Zero kompyuterlar barcha hisob-kitob jarayoniga kirib bormoqda. Hozirgi paytda kompyuterlardan bevosita axborotlarni uzatishda ham keng foydalanilmoqda. Masalan, O'zbekiston "Internet" ga ulanib butun dunyo axborot tizimiga kirdi va ulardan bema'lol foydalanilmoqda. Yoki hozir bank tizimlari bo'yicha yagona kompyuter tarmog'i tashkil qilindi. Bu ham banklar o'rtasidagi muloqatni kompyuter orqali amalga oshirish imkonini tug'diradi. Har bir guruh axborotlar o'z navbatida yana birqancha turlarini o'z ichiga oladi. Bularni alohida-alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Og'zaki axborotlar bozor munosabatlari shakllangan sharoitda keng qo'llaniladi. Jahon amaliyotida iqtisodiy jarayonlarni tez amalga oshirish, bir-birining ishonchiga sazavor bo'lishi uchun og'zaki shartnomalardan ham foydalanilmoqda. Bu erkin raqobat sharoitida har bir firmaning o'zlariga hamkorlarni topishi va bir-biridan ishonch qozonishi uchun qulay vositadir. Og'zaki axborotlar o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi: so'rovga javob tariqasida berilgan axborot, bevosita muloqatda beriladigan axborot, ma'ruza va nutuqlar orqali beriladigan axborotlar, telefon orqali beriladigan axborotlar kabilar. Bu axborotlar juda zarur ma'lumotlar bo'lib hisoblanishi mumkin. Yoki nutuqning biron bir sohada samaradorlikni amalga oshirish uchun olib boriladigan ishlar ko'lami va natijalari to'g'risidagi ma'ruzasi aynan shu sohaga kiruvchi bitta korxonalar rahbari uchun o'zining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish uchun asos bo'lishi mumkin. Juda ko'p axborotlarni radio, televideniya kabi og'zaki axborotlar vositalaridan ham olish mumkin. Telefonogramma ham bevosita og'zaki axborot vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Shunday qilib, og'zaki axborotlar, hozirgi paytda, tahlil qilish uchun, ma'lum xulosa chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Kelajakda esa uning rivojlanishi, qo'llanilish doirasining kengayishi, boshqaruv uchun asos bo'lishi shak-shubhasizdir. Hujjatlarda ifodalanadigan axborotlar hozirgi sharoitda iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan asosiy axborotlardir. Ta'kidlanganidek, sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar, eng avvalo, xujjatlarda ifodalanadi. Bu xujjatlar mulkdor, davlat, ish beruvchi va sohibkorning manfaatini, haq-huquqini ifoda etish bilan birga, ularni himoyalaydi ham. Masalan, ish beruvchi sohibkorga qancha ishlaganiga qarab ish haqqi to'laydi. Mulkdor o'z mulkini bir kishiga xatlab ijaraga bergan bo'lsa ijarachi shu mulkni son va sifat jihatidan saqlanishi uchun javobgar va h.k. Demak, ijtimoiy - iqtisodiy hayotimizda xujjatlarning, unda ifoda etilgan axborotlarning

ahamiyati beqiyos. Xujjatlar ham juda ko‘p, ular turli-tuman . Bu haqida buxgalteriya hisobi fanida to‘liq ma’lumotlar beriladi. Iqtisodiy tahlilda xujjatlarning jamlangan qismlaridan foydalaniladi. Ular ko‘pincha buxgalteriya, statistik va tezkor hisobotlarda ifodalanadi. Shunday qilib, iqtisodiy jarayonlarni o‘zida aks etadigan xujjatlarda ifodalanadigan birlamchi axborotlar asosan korxonada rejasida , buxgalteriya, statistik va tezkor hisob va hisobotlarda o‘z aksini topadi. Hozirgi paytda hisob-kitob ishlari aksariyat hollarda bevosita kompyuterlar va boshqa hisoblash mashinalarida bajarilmoqda. Ba’zi joylarda esa ushbu ishning aksariyat qismi hamon qo‘l kuchi bilan an’anaviy tarzda amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan mashinalashtirish darajasi bo‘yicha axborotlar ikki guruhga bo‘linadi: mashinalashtirilgan va yarim mashinalashtirilgan. Mashinalashtirilgan axborotlar asosan perfokartalarda , perfotasmalarda, magnit tasmalarda, disklarda, disketlarda, bevosita kompyuter fayllari kabilarda aks ettiriladi. Yarim mashinalashtirilgan axborotlarning bir qismi hisoblash mashinalarida va bir qismi an’anaviy tarzda qo‘lda bajarilgan tegishli hisob va hisobotlarda ifodalanadi. Ushbu axborotlarning hammasi iqtisodiyotni boshqarish va tahlil qilish uchun asosiy axborot beruvchi ma’lumot bo‘lib hisoblanadi.

2.4.Boshqaruv tahlilining turlari va shakllari.

Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishning turlarini tasniflash va ularning har biri bo‘yicha boshqaruv funksiyasini aniqlash boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Tahlilning turlarini tasniflash – ularni umumlashtirish va bir tizimga keltirish, uning eng muhim tomonlarini aniqlashga hamda ushbu fanning istiqbolda yanada takomillashishi uchun keng imkoniyat ochib beradi. Tahlilning barcha turlari o‘z belgilariga qarab ma’lum guruhlariga umumlashtiriladi. Bunday guruhlashgan belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin: tahlilning vazifalari, uni o‘tkazish muddati, qabul qilinadigan qarorlarning xarakteri, korxonalar faoliyatini o‘rganishning asosiy tomonlari, rezervlarni aniqlash usullari, o‘rganiladigan obyekt, tahlil qilinadigan subyekt, o‘rganiladigan xodisalarning ko‘lami, axborotlarni qayta ishlashning usullari kabilar. Barcha turdagi tahlilni bajargan vazifalariga qarab quyidagi guruhlariga umumlashtiriladi: biznes-rejaning tig‘izligi va asoslanganligini baholash, uning bajarilishini nazorat qilish, erishiladigan natijalarni oldindan aytib berish (prognoz qilish), erishilgan natijalarga obyektiv baho berish, shu

maqsadda korxonalar faoliyatiga bog'liq va bog'liq bo'lmagan sabablarni aniq belgilash, ichki xo'jalik hisobi yakunini o'tkazish, rezervlarni aniqlash va ularni ishlab chiqarishga jalb etish, kelgusida rejalashtirish uchun asosni (baza) aniqlash, optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahliliy axborotlarni tayyorlash. Xo'jalik faoliyatining joriy (retrospektiv) tahlili. Korxonalar faoliyatini o'rganishda joriy tahlilni o'tkazish usullari iqtisodiy tahlil nuqtai nazaridan to'la ishlab chiqilgan. Ammo boshqaruv tahlilining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib bu masalani yoritishni talab qiladi. Joriy tahlil korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda rasmiy jihatdan qabul qilingan hisobotga tayangan holda ularning oylik, choraklik, yillik va qator davrlardagi faoliyatini tahlil qiladi. Joriy tahlilning asosiy vazifasi xo'jalik faoliyatida erishilgan pirovard natijalarga obyektiv baho berish, foydalanilmagan ichki xo'jalik rezervlarini kompleks tarzda aniqlash va ularni kelgusida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb etish hisoblanadi. Joriy tahlilning keng ko'lamda qo'llanilishiga quyidagilar sabab bo'ldi: birinchidan, tahlilning barcha vazifalari biznes-rejaning tig'izligi va asoslanganligi hamda uning bajarilishini nazorat qilish, xo'jalik faoliyatida erishiladigan natijalarni oldin aytib berish, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish va h.k.lar joriy tahlil zimmasiga tushadi; ikkinchidan, joriy tahlilning keng ko'lamda qo'llanilishiga barcha korxonalarining tasdiqlangan yagona hisobot shakllariga asosan yuqori tashkilot, statistika, moliya va soliq organlari, davlat bankiga hisobot topshirish vazifasining zarurligi; uchinchidan, joriy tahlilning bajariladigan tahliliy ishlarda tutgan salmog'i 90 foizni tashkil qiladi, chunki dastlabki va tezkor tahlilni o'tkazish usuli hali to'la ishlab chiqilmagan; turtinchidan, joriy tahlilda korxonaning xo'jalik faoliyati chuqur, har tomonlama va kompleks ravishda o'tkaziladi, chunki tahlil qiluvchi xodimning ixtiyorida barcha axborotlar manbasi muxayyo bo'ladi; beshinchidan, xo'jalik faoliyatini tahlil qilish tarixan joriy tahlildan boshlangan; oltinchidan, iqtisodiy oliy o'quv yurtlarida mutaxassislarni tayyorlash ham joriy tahlil asosida olib boriladi. Joriy tahlil uchun asosiy axborotlar – bu oylik, choraklik va yillik hisobotlar bo'lib hisoblanadi. Joriy tahlilning subyekti – bu korxonaning iqtisodiy bo'limlari, yuqori tashkilot, moliya, soliq va statistika organlari, banklari hisoblanadi. Joriy tahlilning obyektini – bu korxonalar, ularning filiallari, boshqarmalar va vazirliklardir. Joriy tahlilning dastlabki va tezkor tahlildan ustunligi shundaki, uni o'tkazishda axborotlar tizimi tizimli va kompleks xarakterga

ega bo'lib rasmiy jihatdan qabul qilingan buxgalteriya va statistika hisobotlariga asoslanadi. Joriy tahlilning kamchiligi shundan iboratki, tahlil xo'jalik faoliyatida kamchilik va xato ro'y berib bo'lgandan so'ng o'tkaziladi, ya'ni u paytda «poezd ketib bo'lgan bo'ladi». Aslida korxonah rahbarini shu kundagi va istiqboldagi ahvol ham ko'proq qiziqtiradi. Tezkor tahlil. Tezkor tahlil korxonaning xo'jalik faoliyatini, unda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni tezkor tarzda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qo'llaniladi. Bu qisqa muddatli tahlil bo'lib ishlab chiqarish jarayonida ro'y bergan chetga chiqishlarni tezkor ravishda aniqlab, uni bartaraf qilish chora va tadbirlarini ko'radi. Tezkor tahlilning asosiy vazifasi topshiriqlarni muntazam nazorat qilish, mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish jarayonini har kuni aniqlash, shu kundagi ishlab chiqarish rezervlarini o'z vaqtida aniqlash va ularni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb qilish hisoblanadi. Tezkor tahlil boshqaruv tizimida boshqaruv xodimlarining taxminan 50 foiz ish vaqtini egallaydi. Amalda esa uning umumiy bajariladigan tahliliy ishlarda tutgan salmog'i 10 foizni tashkil etadi. Tezkor tahlil joriy tahlildan farqli o'laroq u asosan boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanadi. Tezkor tahlil o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Korxonaning asosiy miqdor va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha hamda uning bo'linmalari smenada, sutkada, besh kunlikda va dekada ichida sodir bo'lgan tafovutlarni aniqlash;
2. Me'yordan nima evaziga farq qilayotganligi va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash;
3. Kamchiliklarga yo'l qo'ygan javobgar shaxslarni aniqlash;
4. Salbiy omillarni bartaraf qilish uchun tadbirlar ishlab chiqish;
5. Ko'rsatilgan vaqtda erishilgan natijalarni yakunlash va «Tor joy» va ilg'or bo'g'inlarni aniqlash.

Tezkor tahlil odatda quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha olib boriladi: mahsulot ishlab chiqarish, jo'natish va sotish, ishchi kuchidan foydalanish, asbob-uskuna va moddiy resurslardan foydalanish, tannarx, ish haqi va rag'batlantirish fondlarining ishlatilishi kabilar. Ko'rinib turibdiki joriy tahlilda o'rganiladigan iqtisodiy ko'rsatkichlar soni tezkor tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlardan ancha ko'pdir. Tezkor tahlilning natijasi joriy tahlilga nisbatan unchalik aniq bo'lmaydi. Chunki, oyning xohlagan kunida ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini yoki mahsulot tannarxining pasayishi natijasida olingan foyda miqdorini aniq hisoblab chiqish qiyin. Zero, oldindan mahsulotning qancha qismi shu oyda sotiladi,

qancha qismi esa kelgusi oyda sotilishi hisobot davrining o'rtasida uncha aniq bo'lmaydi. Lekin tezkor tahlilning bu kamchiligi uning ahamiyatini kamaytirmaydi, zero u orqali olingan natijalarning mutlaq aniqligidan ko'ra, kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf qilish ahamiyatliroqdir. Dastlabki tahlil. Bu tur tahlil topshiriqlarning yaqin istiqbolda qanday bajarilishini aniqlash uchun o'tkaziladi. Ishlab chiqarish jarayonining rivojlanish istiqboli qisqa muddatga mo'ljallangan: oy, chorak va yilning oxiriga. Xo'jalik yuritishning yangi sharoitida korxonalar rahbariyati ishlab chiqarishda erishiladigan natijalarni oldin bilishligini, hisobot davri tugagunga qadar ma'lumotga ega bo'lishlarini taqozo qiladi. Bu ehtiyoj dastlabki tahlildan keng foydalanishni taqozo qiladi. Moliyaviy-iqtisodiy tahlil. Ushbu tahlilning mohiyati umumiy qiymat ko'rsatkichlar tizimini o'rganish va korxonalarning moliyaviy faoliyati natijalarini tahlil qilish bilan ifodalanadi. Umumlashgan qiymat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: realizatsiya bo'yicha rejaning shartnoma majburiyatini ado qilgan holda bajarilishi, tovar mahsuloti, bir ishlovchiga to'g'ri keadigan yillik ish unumi, mahsulot tannarxi, foyda kabilar. Tahlil qilish jarayonida ana shu qiymat ko'rsatkichlari umumlashtiriladi. Masalan, mahsulot hajmi taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan ularni ishlab chiqarishni o'zlashtirish muddatlari bo'yicha, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish bo'yicha, mahsulotning sifati kabilar. Mahsulot tannarxi ko'rsatkichi umuman va ularning elementlari va kalkulyasiya moddalarini bo'yicha o'rganiladi. Foyda olish bo'yicha belgilangan rejaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillar batafsil tahlil qilinadi. Umumlashgan mehnat unumdorligi ko'rsatkichi (bir ishlovchiga to'g'ri keladigan yillik ish unumi) bir ishchiga to'g'ri keladigan yillik, kunlik va soatlik ish unumini o'z ichiga oladi. Moliyaviy-iqtisodiy tahlililga xos muhim xususiyatlardan biri – bu asosiy axborot olish manbalari moliya vazirligi tomonidan tasdiqdangan hisobot shakllaridan foydalanish hisoblanadi. Shunday qilib, moliyaviy-iqtisodiy tahlilning predmeti bo'lib korxonalarning xo'jalik faoliyatining turli tomonlari, xo'jalik yuritish jarayoni, iqtisodiy ko'rsatkichlarning bir-biri bilan uzviy bog'lanishi hisoblanadi. Moliyaviy-iqtisodiy tahlilning subyekti – bu korxonalar, vazirlik, boshqarma, moliya-kredit idoralari va statistika organlarining iqtisodiy bo'linmalarida ishlaydigan xodimlar bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga korxonalar tahlilning obyektini hisoblab ularning faoliyati yuqori tashkilot, moliya-kredit va statistika organlari tomonidan o'rganiladi. Masalan, moliya organlari korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda asosiy e'tiborni biznes-rejaning bajarilishi,

aylanma mablag'larining holati, foyda bo'yicha rejaning bajarilishi, davlat byudjetiga tushadigan to'lov majburiyatlarining bajarilishiga qaratadi. Kredit tizimi esa korxonalar o'z aylanma va taqqoslangan mablag'lar xolatini, olingan kreditning tovar-moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligini, to'lov intizomini bajarilishi kabi masalalarga qaratadi. O'rganiladigan masalalarga qarab moliyaviy-iqtisod tahlil to'la yoki tanlanma xarakterga ega bo'lishi mumkin. Moliyaviy-iqtisodiy tahlilning o'tkazish muddatlari kunlik, haftalik, dekadalik, oylik, choraklik, yillik. Moliyaviy-iqtisodiy tahlilning turlari: dastlabki, tezkor va joriy tahlillardir. Texnik-iqtisodiy tahlil. Ushbu tahlil kompleks iqtisodiy tahlil va muxandislik tahlilining birikishi asosida hosil bo'lgan. Texnik-iqtisodiy tahlil 3 yo'nalishda olib boriladi;

1. Ishlab chiqarishning texnik darajasini tahlil qilish;
2. Ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat va boshqaruvni tahlil qilish;
3. Ishlab chiqarilgan mahsulotning texnik darajasini tahlil qilish.

Korxonaning texnik darajasini tahlil qilish jarayonida korxonaning ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish darajasi, ilg'or texnologiya jarayonlarini joriy qilish, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, qo'l mehnatini to'la mexanizatsiyalash (zamonaviylashtirish) kabi masalalar kiradi. Ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat va boshqaruv masalalarini tahlil qilish jarayonida qo'llanilayotgan boshqaruv shakllarining ilg'orligi, boshqaruv tizimining samaradorligi, boshqaruv apparatini qisqartirish kabi yechimlar hal etiladi. Mahsulotning texnik darajasini tahlil qilish jarayonida iste'molchilar talablarini hisobga olgan holda yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, ularning texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlari respublikamizda va chet ellarda ishlab chiqarilgan eng yaxshi (yuqori) namunalari bilan taqqoslash. Mahsulotning texnik darajasi ularni attestatsiya qilish orqali aniqlanadi. Texnika-iqtisodiy tahlil iqtisodchilar, texniklar, muxandis kabi mutaxassislardan tuzilgan guruh orqali amalga oshiriladi. Qiyosiy tahlil. Qiyoslash – bu iqtisodiy tahlilda eng ko'p qo'llaniladigan usuldir. Qiyosiy tahlilning 2 asosiy turi mavjud: ichki xo'jalik tahlili, ya'ni tahlilning obyekti sifatida shu korxonaga taaluqli xo'jalik jarayoni o'rganiladi; xo'jaliklararo tahlilning mohiyati alohida olingan korxonalarning xo'jalik faoliyatini, ularning ko'rsatkichlarini chuqur va har tomonlama o'rganib, erishilgan natijalar darajasini obyektiv farqlash va iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash hamda ilg'or

tajribalarni ishlab chiqarishga tadbiq qilish natijasida ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashdan iboratdir. Qiyosiy tahlil korxonaning barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'z ichiga olishi mumkin yoki boshqacha so'z bilan aytganda, kompleks xarakterga ega bo'ladi. Qiyosiy tahlilning mazmuni qo'yilgan maqsad va tekshiriladigan obyektiga qarab quyidagicha turkumlanadi:

1. Obyekt bo'yicha - korxonalar, sexlar, ishlab chiqarish uchastkasi, ish joyi;

2. Mavzuning mazmuni bo'yicha – mehnat predmetlarini, mehnat vositalarini, mehnat va moliya resurslarini tahlil qilish va xokazo.

3. Tahlilni o'tkazish doirasi – kompleks va maxsus tahlil.

Qiyosiy tahlilda eng muhim metodologik masalalardan biri o'rganiladigan obyektning bir-biri bilan solishtirish shartlariga rioya qilishdir.

- taqqoslanadigan ko'rsatkichlarning sifat jihatidan bir xilligi va ularning hisoblash usulining birligi (masalan, mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlarning bir xilligi);

- mahsulotni bir xil o'lchamda ifodalash, o'zgarmas baho bilan ifodalash, geografik sharoitlarning o'xshashligi;

- taqqoslanadigan davrda ish kunlarining bir xilligi va hokazo.

Funksional qiymat tahlili (FQT). Mahsulot tannarxini kamaytirish borasida keraksiz va ortiqcha xarajatlarni minimal darajaga keltirishni, mahsulot ishlab chiqarishni loyihalashtirish va uni ishlab chiqarish chog'ida har tomonlama hisobga olish lozim bo'ladi. Bu masalani ijobiy hal qilishda FQTdan keng foydalaniladi. FQTda obyekt (mahsulot, texnologik va mehnat jarayonlari) tizimli tarzda tadqiqot qilinib, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan chora va tadbirlarni ishlab chiqadi. FQTning asosida funktsiya tushunchasi yotadi. Demak, FQT buyumning funktsiyalarini sistemali tadqiqot qilishni taqozo qilib, u mahsulotni yaratish g'oyasidan to uni foydalanishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. FQTning asosiy maqsadi – ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari chog'ida yangi xil mahsulotlarni loyihalashtirish va ularni o'zlashtirishda ortiqcha xarajatlarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik; ishlab chiqarish bosqichida loyiha bo'yicha ko'zda tutilgan xarajatlarning darajasidan chetga chiqmaslikni, buyumni qo'llash bosqichida oqlanmagan ekspluatatsion xarajat va yo'qotishlarni bartaraf qilish va nihoyat, buyumlarni utilizatsiya (chiqitga chiqarish) qilish bosqichida chiqitga chiqarilgan buyumlarni qayta ishlab, ulardan

foydalanishni o'z ichiga oladi. FQTni qo'llagan paytda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni to'rtta guruhga bo'lish mumkin:

1. Buyumning konstruktiv tuzilishiga ketgan sarflar;
2. Texnologik jarayonga ketgan xarajatlar;
3. Ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun ketgan xarajatlar;
4. Tabiiy-geologik omillarni inobatga oladigan xarajatlar.

Binobarin ishlab chiqarish xarajatlarni muttasil qisqartirish to'rtala yo'nalish bo'yicha olib borilishi kerak.

Birinchi bor FQT g'oyasi YU.M. Sobolev (injener-iqtisodchi) tomonidan ishlab chiqilgan edi. Bu Ulug' Vatan Urushi davriga to'g'ri keladi. Lekin bu g'oya o'zining nihoyasiga yetkazilmadi. Keyinchalik, 60 yillarning o'rtalarida AQSHda ta'minotchi Lorens Maets YU.M. Sobolevning g'oyasini davom ettirib FQT uslubini ishlab chiqdi va uni Djeneral elektrik korxonasida tadbiiq etib yaxshi natijalarga erishdi. FQTning eng muhim prinsiplari quyidagilardan iborat:

- obyektning o'rganishga kompleks tarzda yondoshish;
- obyektning holatini o'rganilganda jamoaning ijodiy tafakkuridan har tomonlama foydalanish (fikrlash hujumi);
- FQT barcha bosqichlarida texnikaviy va tashkiliy yechimlarni baholashda funksional kerakli va ortiqcha xarajatlarni aniqlash.

Ma'lumki, sanoat mahsulotining turi (assortimenti) bir million dan ko'proq bo'lgan holda ularning bajaradigan funksiyalari nisbatan ancha kam. Masalan avtomobil xarakatlanishida bir qancha funksiyalarni bajaradi. Bular uchga bo'linadi:

1. Asosiy funksiya;
2. Qo'shimcha funksiya;
3. Keraksiz funksiya.

Masalan, stulning asosiy funksiyasi-o'tirish uchun, qo'shimcha funksiyasi stulning suyanchig'i, keraksiz funksiyasini esa aniqlash kerak. Hisob – kitoblarga ko'ra, mahsulot tannarxida qo'shimcha funksiyaning salmog'i ancha foizni tashkil etadi. Ma'lumki, sanoatda va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish uslubi ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llaniladi. Lekin, mahsulotlarning bajaradigan funksiyalarini kalkulyasiya qilish muammosi haligacha yechilgan emas. FQTni o'tkazish quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. Tahlil qilish obyektini tanlash (mahsulot konstruksiyasi, ishlab chiqarishni tashkil qilish, texnologik jarayon, boshqaruv va hisob tizimi kabilar);

2. Tahlilning maqsadi va vazifalarini asoslash (rentabellik darajasini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirish, xom ashyo, materiallar va elektr quvvatini tejash, ishlab chiqarishdagi «tor» joylarni bartaraf qilish, import va taxchil mahsulotlarini ishlatishdan voz kechish);

3. Tahlil obyekti to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish va asosiy, qo'shimcha hamda keraksiz funksiyalarni aniqlash;

4. Ijodiy yondoshish va noan'anaviy tafakkur qilish;

5. Funksional-qiymat tahlilini qo'llash natijasida olinadigina iqtisodiy samarani aniqlash;

6. Qabul qilingan qarorlarni ishlab chiqarishga joriy qilish.

Tayanch iboralar

Boshqaruv tahlilining tashkil etish bosqichlari, boshqaruv tahlilining axborot manbalari, funksional qiymat tahlili, tahlilda asosiy, qo'shimcha hamda keraksiz funksiyalar.

Nazorat savollari

1. Boshqaruv tahlilining axborot manbalariga nimalar kiradi?
2. Boshqaruv tahlilining turlari qanday?
3. Boshqaruv tahlilini tashkil qilish bosqichlari qanday?

«Boshqaruv tahlilini tashkil etish hamda axborot manbalari» mavzusi bo'yicha

TEST SAVOLLARI

1.Yillik moliyaviy hisobot tarkibiga qaysi shakllar kiradi:

- A) buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar, asosiy vositalar, pul oqimlari va xususiy kapital to'g'risidagi hisobotlar.
- B) buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar, asosiy vositalar harakati va ishlab chiqarish karorlari to'g'risidagi hisobotlar.
- C) buxgalteriya balansi, asosiy vositalar, pul oqimlari va mahsulotlar sotish to'g'risidagi hisobotlar.
- D) buxgalteriya balansi, pul oqimlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi malumotnoma, asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotlar.

2.O'rganiladigan davriga qarab iqtisodiy tahlilning turini belgilang:

- A) joriy, tezkor va istiqbolli;
- B) joriy, kompleks va moliyaviy;
- C)tezkor, ichki va tashqi;
- D) istiqbolli, tezkor va tashqi;

3.Iqtisodiy tahlilni o'tkazishdagi ketma-ketlik qanday ko'rinishga ega:

- A) tahlil o'tkazish rejasini tuzish, ma'lumot to'plash, tahlil qilish; boshqaruv qarorlarini qabul qilish, takliflar bildirish;
- B) ma'lumot to'plash, guruhlash va kayta ishlash, tahlil, takliflar bildirish;
- C) tahlil o'tkazish rejasini tuzish, olib boriladigan ishning ketma ketligini ko'rsatish va bajariladigan vazifalarni taqsimlash;
- D) ma'lumot to'plash, tahlil va yechimini aniqlash;

4.Ustav kapitali balansning qaysi bo'limida ko'rsatiladi?

- A) passiv – 1-bo'limda;
- B) passiv – 2-bo'limda;
- C) aktiv – 2-bo'limda;
- D) aktiv – 1-bo'limda;

5.Boshqaruv tahlili fani qanday fanlar to'plamiga kiradi:

- A) iqtisodiy
- B) ijtimoiy
- C) gumanitar
- D) tabiiy

6.Tahlilning axborot manbalariga nimalar kiradi:

- A) buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, tezkor hisob va hisobot, statistik hisob va hisobot
- B) mahsulotlar tannarxi
- C) korxonalar mablag'lari
- D) statistik hisob va hisobot va korxonaning barcha birlamchi hisobot malumotlari

7.Axborotlar to'plash, ijodiy tahlil, tajriba va izlanish o'tkazish, uzluksiz ishlab chiqarish, tijorat-savdo, nazorat qanday tahlil turi boskichlariga kiradi:

- A) funksional;

- B) moliyaviy;
- C) istiqbolli;
- D) joriy qiymatli.

8.Korxonaning boshqarishdagi urniga qarab iqtisodiy tahlilning turini belgilang:

- A) boshqaruv va moliyaviy;
- B) moliyaviy va joriy;
- C) boshqaruv va tezkor;
- D) boshqaruv va istiqbolli.

9.Kompleks tahlil deb nimaga aytiladi:

- A) xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil etishdir;
- B) xo‘jalik faoliyatida natijaviy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik, funksional bog‘liq bo‘lmagan sharoitda omillarni tasirini tahlil etishdir;
- C) mulk egalari va mutaxasislari tomonidan ichki imkoniyatlarini ishga solish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan kompleks tahlildir;
- D) mulk egalari ,mutaxasislari ichki imkoniyatlarini ishga solish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan tahlildir.

3-BOB. MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH VA SOTISH TAHLILI

3.1. Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish tahlilining vazifalari.

Jamiyat ehtiyojini yanada to'laroq qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni yaratish, asosan ishlab chiqarish korxonalarining zimmasiga tushadi.

Mahsulot ishlab chiqarishni og'ishmay o'stirish natijasida milliy daromad hajmini oshiradi, ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarining yuksalishi uchun qo'shimcha manbalarni yaratadi va mehnatkashlarning moddiy farovonlik darajasini yanada oshiradi. Bozor munosabatlari sharoitida eng dolzarb masalalardan biri fan-texnika taraqqiyotini yanada jadallashtirishdir. Ishlab chiqarishni texnika jihatdan zamonaviy tarzda qayta qurollantirish va qaytadan uskunalash (rekonstruksiyalash), barpo etilgan ishlab chiqarish potensialidan (imkoniyatidan) jadal (intensiv) foydalanish, boshqaruv tizimining xo'jalik mexanizmini takomillashtirish bozor munosabatlariga o'tish sur'atlarini va uning samaradorligini oshirish hamda shu asosda xalqning farovonligini yuksaltirishni ta'minlaydi. Binobarin ishlab chiqarish korxonalarining oldidagi bosh vazifasi yana ham ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat. Bu degani, har bir mehnat, moddiy va moliyaviy harajat birligiga ishlab chiqarish hajmi va milliy daromadni keskin tarzda oshirishni taqozo qiladi. Ana shundagina mehnat unumdorligini jadal oshirishga erishish mumkin.

Bozor munosabatlari korxonada faoliyatining eng zamonaviy xo'jalik mexanizmini vujudga keltirish vazifasini o'rtaga qo'ydi. Bunday mexanizm korxonani rivojlantirish uchun ta'sirchan ichki omillarni ta'minashi kerak. Iste'molchi uchun ishlashga, resurslarni butun choralar bilan tejashga, fan va texnika yutuqlarini keng qo'llashga undashi zarur. Bu mexanizm korxonada manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg'un va chambarchas bog'lab olib borishni taqozo qiladi.

Mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha biznes-rejani asoslanganligini va tig'izligini aniqlash;

- korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha o'sish sur'ati, tarkibi, nomenklatura, assortimenti, sifati va bir tekisda ishlab chiqarishga baho berish;
- o'tgan yilga nisbatan mahsulot xajmining o'sishi va uning sabablarini aniqlash;
- tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulotni yetkazib berish bo'yicha sotish rejasining bajarilishiga baho berish;
- mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotishni oshirish bo'yicha rezervlarni aniqlash va uning tarkibi hamda sifatini yaxshilash kabilar.

Ishlab chiqarish dasturining bajarilishini tahlil qilishda bir qancha axborot manbalari I-KB sonli «Korxonalar (birlashma)ning mahsulot bo'yicha yillik hisoboti» qo'llaniladi. Bundan tashqari oylik, choraklik hisobotlari ham qo'llaniladi, 5-sonli «Korxonalar (tashkilotlar) mahsulot ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlar xarajatlari to'g'risida hisobot», yangi texnikani joriy qilish bo'yicha hisobot, mahsulotning sifati va navi bo'yicha statistik ma'lumotlar va hokazo.

3.2. Mahsulotni ishlab chiqarish va sotishni ifodalovchi hajm ko'rsatkichlari

Hajm ko'rsatkichlari orasida mahsulotni realizatsiya qilish ko'rsatkichi o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, u ishlab chiqarish samaradorligini aniqlovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Darhaqiqat, sotish jarayoni – ishlab chiqarilgan mahsulotning iste'molchilarning talab va ehtiyojlariga javob berishi demakdir. Bunday sharoitda korxonalar mahsulot assortimentini kengaytirishdan va uning sifatini yaxshilashdan u yoki bu tovarlarga bo'lgan taklif va talablarni o'rganishdan manfaatdor edilar, zero ishlab chiqarish sotish jarayoni bilan tugallanishi kerak edi.

Korxonalarining sotish ko'rsatkichlari orqali ish yuritish tajribasini, jiddiy nuqsonlar mavjudligini ko'rish mumkin. Gap shundaki, korxonalar sotish rejasini orttirib bajarganlari holda, ularning ayrim iste'molchilari bilan tuzilgan shartnoma majburiyatiga asosan tovar yetkazib bermaslik hollari ko'payishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiyotning rivojlanishiga juda katta zarar yetkazardi. Shu sababli korxonalarining xo'jalik faoliyatiga baho berishda muhim ko'rsatkich sifatida sotish rejasining shartnoma majburiyatlariga nisbatan bajarilishini olish lozim.

Darvoqe, mazkur ko'rsatkich bo'yicha reja bajarilish darajasining eng maqbul miqdori 100 foizdir. Mahsulotni realizatsiya qilish avvalambor, tovar mahsulotini ishlab chiqarishga bog'liq.

Tovar mahsuloti deganda, barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o'tagan, to'la butlangan, texnika nazorati bo'limidan o'tgan va omborga topshirilib sotishga mo'ljallangan mahsulot tushuniladi.

Sotilgan mahsulot deganda, tovarlar iste'molchilarga yuborilganda yoki uning puli tovar yuboruvchilarining bankdagi hisob raqamiga o'tkazilishi tushuniladi.

Sanoat mahsuloti har xil baholarda, ya'ni rejada qabul qilingan ulgurji bahoda hisoblanilar edi. Bu esa ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan mahsulotni taqqoslash uchun imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari tovar mahsuloti hisobotida amaldagi ulgurji baho bilan ham hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini tannarx, foyda kabi ko'rsatkichlar bilan bog'lash uchun imkoniyat beradi, chunki tannarx va foyda ko'rsatkichlarini o'lchash uchun asos qilinib amaldagi ulgurji baho olinardi.

Tovar mahsuloti asosan shartnoma bahoda, o'zgarmas ulgurji va amaldagi ulgurji bahoda hisoblanadi

Tovar va realizatsiya ko'rsatkichlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq. Masalan, hisobot davrida realizatsiya qilinmagan mahsulot (tayyor mahsulot, jo'natilgan tovarlar)ning yil boshiga bo'lgan qoldig'iga ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti qo'shib realizatsiya qilinmagan mahsulotlarning yil oxiridagi qoldig'i ayirib tashlanadi.

Sof mahsulot tovar mahsuloti bilan uni ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar (shu jumladan asosiy ishlab chiqarish vositalarining amortizatsiyasi) summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlaniladi. Bu ko'rsatkichdan foydalanish mehnat jamoalarini buyumlashgan mehnatni kam sarflab mahsulot chiqarishni ko'paytirishdan manfaatdor qiladi. Moddiy ishlab chiqarishda barcha tarmoqlarning sof mahsulot summasi mamlakatda hosil qilingan milliy daromadni tashkil etadi. Sof mahsulot ko'rsatkichidan foydalanish chiqimsiz xo'jalik mexanizmini shakllantirishning yo'nalishlaridan biridir.

Ayrim hollarda boshqaruv tahlilida to'g'ri baho berishga erishish uchun normativ sof mahsulot (NSM) ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. Normativ sof mahsulot ishlab chiqarishdagi ishchilarning asosiy va qo'shimcha ish haqini, sotsial sug'urta uchun ajratmalar va normativ foydani jamlash orqali aniqlanadi.

Sof mahsulotda bo'lganidek, NSMning iqtisodiy mazmunini yangidan hosil qilingan qiymat tashkil qiladi.

NSM sof mahsulot singari chiqimsiz xo'jalik mexanizmining muhim yo'llaridan biri bo'lib hisoblanadi. Lekin NSM bir qancha nuqsonlardan holi emas. Uni qo'llash doirasi juda ham cheklangan. U asosan mehnat unumdorligining o'sish sur'atlarini aniqlash va ish haqi normativlarini belgilashda foydalaniladi. Bundan tashqari, u tannarx, foyda, rentabellik, korxonaning daromadi singari moliyaviy holatga doir ko'rsatkichlari bilan bog'lanmagan va nihoyat, NSM ko'rsatkichi mahsulot tarkibidagi strukturaviy o'zgarish ta'siriga beriluvchi bo'ladi: ikkinchi darajali, ammo nisbatan ko'p mehnat talab qiladigan mahsulotlarni ko'paytirish hisobiga NSMni tovar mahsulotiga nisbatan jadalroq o'stirishni ta'minlash mumkin.

Shartli sof mahsulot (SHSM) – bu sof mahsulot qo'shuv asosiy vositalarning amortizatsiyasidir. Bu ko'rsatkich ham ayrim korxonalarda qo'llanilishi mumkin. Biroq bozor munosabatlari sharoitida asosiy ko'rsatkich erkin shartnomaviy narx bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda har bir korxonada o'zining hisob siyosatini mustaqil hal qiladi. Bu esa uning o'z xususiyatlaridan kelib chiqib qaysi ko'rsatkichni qo'llashni o'zlari mustaqil tanlash imkonini beradi.

3.3. Tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulotni yetkazib berish bo'yicha sotish rejasining bajarilishini tahlil qilish.

Mahsulotni yetkazib berish shartnomasi – korxonalar o'rtasida tuziladigan bitim, bunda mahsulot yetkazib beradigan korxonaga xaridor-korxonaga o'zaro kelishilgan assortimentdagi, miqdor va sifatdagi mahsulotni belgilangan muddatda topshirish majburiyatini, xaridor esa uni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Shartnomani bajarishning sharoitlari idishga qo'yilgan talablar, narxlar, hisob-kitoblar tartibi, mahsulotlarni o'rab-joylash va tashish usullari kabilardan iborat bo'ladi.

Shartnomadagi majburiyatlarga amal qilinmasa, mahsulot yetkazib beruvchi korxonada moddiy jihatdan javobgar bo'lib, iste'molchi ko'radigan zararni qoplaydi. Shartnoma bandlari buzilgani uchun jarimalar to'lash, yetkazilgan zararni qoplash korxonani buyurtmachiga mahsulot yetkazib berish majburiyatidan xalos etmaydi. Mahsulot yetkazib berish intizomini

korxonalarining o‘zigagina bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki moddiy-texnika ta‘minot idoralari, transport, butun boshqarish bo‘g‘inlari ishiga ham ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Shartnoma intizomiga rioya qilish iqtisodiyotning balanslashuvi, xalq xo‘jaligining normal faoliyat ko‘rsatish, korxonalarining bir maromda ishlashi, uning samaradorligini oshirishning zarur shartidir va nihoyat xo‘jalik mexanizmini takomillashitirishning eng muhim omilidir. Hozirgi paytda shartnoma xaridor bilan tovar jo‘natuvchi o‘rtasida bevosita tuzilishi mumkin. Ammo ko‘p hollarda u tovar xomashyo birjalari orqali amalga oshiriladi.

Jami sotish hajmida shartnoma majburiyatlariga rioya etmaslikdan iborat salbiy tendensiya, respublikamiz iqtisodiyotining aksariyat sohalari uchun xarakterlidir. Mamlakatimizdagi korxonalarining har to‘rttasidan biri shartnoma majburiyatlariga amal qilmayotganligi bunga yaqqol misoldir. Mahsulot yetkazib beruvchilardan ba‘zilarining shartnoma majburiyatini buzishi o‘z navbatida boshqalarning shu majburiyatlarni bajarmasligiga olib keladiki, bu oqibatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni paysalga soladi.

Sotish hajmida shartnoma majburiyatlariga rioya qilish rejasining bajarilishini tahlil qilish uchun kerakli ma‘lumotlar yillik hisobotning 1-KB sonli «Korxonaning (birlashmaning) mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha yillik hisoboti» shaklidan, shartnomalar va biznes-rejadan olinadi. Buning uchun quyidagi jadval tuzish tavsiya qilinadi (3.1-jadval).

3.1 – jadval

Tuzilgan shartnoma majburiyati bo‘yicha iste‘molchilarga tovarlarni yetkazib berish rejasining bajarilishi

(ming so‘m)

Davr	Biznes reja bo‘yicha sotish hajmi	Yetkazib berilmagan mahsulotning o‘sib borishi	Sotish rejasini shartnoma majburiyatini hisobga olgan holda bajarilishi	
			Summasi	Foiz hisobida
I chorak	210650	-2400	208250	98,9
II chorak	210700	-2300	208400	98,9
I-yarim yillik	421350	-4700	416650	98,9
III chorak	210600	-2600	208000	98,8
IV chorak	310650	-3700	306950	98,8
Jami	942600	-11000	931600	98,8

Izoh: Haqiqatda sotilgan mahsulot hajmi 982460 ming so‘mni tashkil qilgan.

Mazkur jadvaldan ko‘rinishicha sotish hajmi bo‘yicha biznes-reja 164,2 foizga (982460 x 100 : 942600) bajarilgani holda, tuzilgan shartnoma majburiyati bo‘yicha reja esa 98,8 foizga bajarildi.

Shartnoma majburiyati bo‘yicha rejaning bajarilishini aniqlash uchun biznes-reja hajmidagi sotish summasidan yetkazib berilmagan mahsulotlarning summasi chiqarilib, so‘ng sotish hajmining biznes-reja darajasiga bo‘linadi. Tahlil qilinayotgan korxonada iste‘molchilarga mahsulotlarning ayrim turi bo‘yicha 11000 ming so‘mlik mahsulot yetkazib bermagan.

Demak, bu holda shartnoma majburiyati rejasi 98,8 foizga bajarildi, ya‘ni

$$\frac{942600 - 11000}{942600} \cdot 100 = \frac{931600}{942600} \cdot 100 = 98,8\text{foiz}$$

Bozor munosabatlari sharoitida biznes rejaning bajarilishi bilan birga shartnoma majburiyatining bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega. Korxonada ma‘muriyati bu masalani tezkor tarzda tahlil qilib borishi lozim.

3.4. Ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishini tahlil qilish

Korxonalar faoliyatini ifodalovchi hajm ko‘rsatkichlari tahlili iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. Deyarli barcha iqtisodiy tahlilga bag‘ishlangan darsliklarda ushbu masalaga u Yoki bu darajada to‘xtalib o‘tilgan. Bu borada samarali ijod qilgan I.T.Abdukarimov³, M.I.Bakanov⁴, M.S.Barngols⁵, L.I.Kravchenko⁶, G.V.Savitskaya⁷, V.I.Strajev, E.Ergeshev⁸, YO.Abdullaev, A.Ibrohimov, M.Rahimov⁹, A.D.SHeremet¹⁰, M.Q.Pardayev, B.I.Isroilov¹¹, A.H.SHoalimov¹² kabi yirik olimlarning nomlarini alohida ta‘kidlash mumkin.

Ammo bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiyotning erkinlashuvi, ko‘pmulkchilikka asoslangan iqtisodiy tizimda kichik

³ Abdulkaimov.I.T va boshqalar. Matlubot kooperatsiyasining xo‘jalik faoliyatini analiz qilish. T.: O‘qituvchi.1989..

⁴ Курс экономического анализа. Под ред. М.И.Баканова, А.Д.Шеремета. М.: Финансы и статистика, 1984.

⁵ Барингольц С.Б. Экономический анализ деятельности предприятий и объединений. М.: Финансы, 1975.

⁶ Кравченко Л.И. Анализ хозяйственной деятельности в торговле. Мн.: Вышэйшая школа, 1995.

⁷ Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Мн.: ООО «Новое знание», 2000.

⁸ Ergashev.E,Iqtisodiy va moliyaviy tahlil.T.:Moliya.2000..

⁹ Abdullayev.YO.,Ibragimov.A., Raximov.M, Iqtisodiy tahlil, T.:Mehnat.2018..

¹⁰ Шеремет А.Д. Комплексный экономический анализ деятельности предприятия (вопросы методологии). М.: Экономика, 1974.

¹¹ Pardayev.M,Q, Isroilob.B.I. Iqtisodiy tahlil I-II qismlar.T.:Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi. 2019.

¹²Shaolimov A.X. Sanoat korxonalatri faoliyati tahlili.T.:Mehnat,1992..

biznesga asoslangan xususiy sektor korxonalarining vujudga kelishi bu sohaga yangicha yondoshishni, iqtisodiy tahlilning o'ziga xos usullarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa iqtisodiyotning hozirgi bosqichida tahlil tahlil qilish uchun emas, balki korxonani bevosita oqilona boshqarish uchun zarur bo'lmoqda. Shu tufayli iqtisodiy tahlilga talab va uni amalga oshirish zarurati yanada kuchaydi. Boz ustiga hozirgi iqtisodiy vaziyat ichki imkoniyatlarni axtarib topishni taqozo qilmoqda. Bu esa bevosita omilli tahlil usullarini ham keng miqyosda qo'llashni talab qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xususiy korxonalarda hajm ko'rsatkichlari ichida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kichik hajmga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarida ushbu ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillar ham o'zgaradi. Bu esa ularni tahlil qilish usullariga ham o'ziga xos tarzda yondoshuvni taqozo qiladi. Ammo yuqorida nomlari zikr etilgan shu sohaning yetakchi olimlari adabiyotlarida aynan, xususiy mulkka asoslangan kichik biznes korxonalariga xos tahlil usullari, ayniqsa omilli tahlil etarli darajada yoritilmagan. Shularni inobatga olib mazkur korxonalarda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish, tannarx, foyda kabi natijaviy ko'rsatkichlar hamda rentabellik, raqobatbardoshlik kabi nisbiy ko'rsatkichlar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tizimini ishlab chiqish va ularni hisoblash yo'llarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida tovarni ishlab chiqarish bilan birga uni sotish muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin tovarni sotish qanchalik muhim bo'lmasin oldin uni ishlab chiqarish lozim. Ishlab chiqarish bo'lmasa, tabiiyki, sotish bo'lmaydi. Ammo ishlab chiqarish, oldingidek, faqat ishlab chiqarish uchun emas, balki sotishga qaratilgan, tovar esa iste'molchining talabiga javob beradigan bo'lishi lozim.

Bu jarayonlar o'z-o'zidan ushbu ko'rsatkichlar tahliliga ham alohida, bugungi zamon nuqtai nazari bilan yondoshishni talab qiladi. Ushbu talabdan kelib chiqib mahsulotni ishlab chiqarish va sotishni tahlil qilish uchun quyidagi umumlashgan jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (3.2-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha hisobot yilida rejani 100,9 %, sotish hajmi bo'yicha esa 102,3 % ga bajargan. O'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'ati ham mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha 107,3 % ni tashkil qilgan bo'lsa, sotish bo'yicha esa 108,9 % ni tashkil qilgan. Sotish hajmining tez

o‘shisi sotilmay qolgan tovarning kamayishidan, barcha ishlab chiqarilgan mahsulotning o‘z

3.2 - Jadval

«Start Servis» mas’uliyati cheklangan jamiyatda 2020 yilda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishi va ularning o‘zgarishini aniqlash hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil-da	Hisobot yilida		Farqi (+,-)		O‘zgarish sur’ati	
		rejada	haqiqatda	rejaga nisbatan	o‘tgan yilga nisbatan	rejaga nisbatan	o‘tgan yilga nisbatan
1. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, shartli banka	41040	43646	44025	+379	+2985	100,9	107,3
2. Sotilgan mahsulot hajmi, shartli banka	40237	42815	43811	+996	+3574	102,3	108,9
3. Sotilgan mahsulotning ulushi, %	98,05	98,11	99,51	+1,40	+1,46	X	X

Manba: Korxonaning yillik hisobotlari asosida tuzildi.

xaridorini topayotganidan dalolat beradi. O‘tgan yilda barcha ishlab chiqarilgan tovarlarning 98,05 % sotilgan bo‘lsa, hisobot yilida bu ko‘rsatkichning miqdori 99,51 % ga etgan. Bu ham sotilgan mahsulot bo‘yicha ijobiy natijaga erishilganligidan dalolatdir.

Ushbu jadval ma’lumotlari ishlab chiqarilgan va sotilgan tovarlar haqida umumiy xulosa qilishga asos bo‘ladi. Ammo ko‘pincha shunday holatlar bo‘ladiki, bu umumiy muvoffaqiyatlarning ichida ayrim kamchiliklar, hali ishga solinmagan imkoniyatlar (rezervlar) yashirinib yotgan bo‘lishi mumkin. Bularni aniqlash uchun ushbu umumiy hajmni alohida tovar guruhlari bo‘yicha ham o‘rganishni taqozo qiladi. Bu uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (3.3-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahsulot ishlab chiqarish rejasi hisobot yilida umumiy hajmi bo'yicha 100,9 % bajarilgan. Ularni alohida tovar guruhlari bo'yicha tahlil qilganda shu aniq bo'ldiki, ishlab chiqarish rejasi umuman bajarilganligi bilan ayrim mahsulot turlari bo'yicha

3.3 - Jadval

«Start Servis» MCHJda 2020 yilda mahsulot ishlab chiqarish hajmini alohida tovar guruhlari bo'yicha reja bajarilishining hisob-kitobi (natural miqdorda)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida		Farqi (+,-)		O'zgarish sur'ati	
		Reja-da	haqiqatda	rejaga nisbatan	o'tgan yilga nisbatan	rejaga nisbatan	o'tgan yilga nisbatan
1. Olma sharbati	6253	6640	6711	+71	+458	101,1	107,3
2. O'rik sharbati	7360	7818	5350	-2468	-2010	68,4	72,7
3. Uzum sharbati	4130	4400	6205	+1805	+2075	140,7	150,2
4. Pamidor sharbati	4815	5119	4912	-207	+97	96,0	102,0
5. Gilos sharbati	6252	6641	7881	+1240	+1629	118,7	126,1
6. Sabzi sharbati	7258	7717	7548	-169	+290	97,8	104,0
7. Behi sharbati	4972	5311	5418	+107	+446	102,0	109,0
Jami:	41040	43646	44025	+379	+2985	100,9	107,3

Manba: Korxonaning buxgalteriya hisobi hisobotlari asosida tuzildi.

haqiqiy miqdor rejaga nisbatan ancha kam bo'lgan. Xususan, o'rik sharbati bo'yicha reja atigi 68,4 % bajarilgan, pamidor sharbati ishlab chiqarish bo'yicha reja bajarilishi 96,0 % ni tashkil qilgan bo'lsa, sabzi sharbati bo'yicha 97,8 % ga teng bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, etti xil mahsulotning to'rttasi bo'yicha reja bajarilgan bo'lsa, uchta bo'yicha bajarilmagan. Agar shu mahsulotlar bo'yicha reja bajarilganda edi, haqiqiy natija yana 2844 shartli bankaga (2468+207+169) oshgan bo'lar edi. U holda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining haqiqiy hajmi 44025 shartli banka emas, balki 46869 shartli bankaga (44025+2844) teng bo'lar edi. Agar ushbu ichki imkoniyatdan to'liq foydalanilganda mahsulot ishlab chiqarish rejasi

100,9 % emas, balki 107,4 % ni $(46869:43646 \cdot 100)$ tashkil qilgan bo'lar edi.

Xuddi shunday xulosani o'tgan yilgi ma'lumotlar bilan solishtirib ham chiqarish mumkin. O'tgan yilga nisbatan ham o'rik sharbatini ishlab chiqarish 2010 shartli bankaga Yoki 27,3 % ga $(100,0-72,7)$ kam bajarilgan. Bu ham korxonaning ichki imkoniyati mavjudligidan dalolat beradi.

Albatta, shuni inobatga olish lozimki, shu oxirgi ikki yil mobaynida o'rikzorlarning xosildorligi Samarqand viloyatida, ayniqsa, shu kichik korxonada joylashgan Oqdaryo tumanida yaxshi bo'lmadi. Ammo bu masalaning oldini olish, ya'ni o'rikni yaqin Navoiy va Jizzax viloyati tumanlaridan, hosildorlik yaxshi bo'lgan joylardan tayyorlab olib kelish mumkin edi. Bundan tashqari mazkur korxonada o'rik sharbati etishtirib berish bo'yicha oxirgi ikki yilda tuzgan shartnoma shartlarini ham to'liq bajarmadi. Demak, bunday sustkashlik oqibati nafaqat bitta korxonaga, balki ularning hamkorlari faoliyati natijalariga ham salbiy ta'sir qildi.

3.5. Ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili

Mahsulot hajmining natural miqdori bo'yicha umumiy o'zgarishiga ham birqancha omillar ta'sir qiladi. Ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz. Birinchisi, mahsulot umumiy natural miqdorining bajarilish koeffitsienti va ikkinchisi, mahsulot assortimentining tarkibiy o'zgarishi. Tahlil jarayonida shu ikki omilning ham ta'sirini aniqlash lozim. Bularni aniqlash uchun bir qancha hisob-kitoblarni amalga oshirishni talab qiladi.

Eng avvalo, barcha mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha natural miqdorining umumiy bajarilish koeffitsientini (K_{nm}) aniqlab olish lozim. Bu uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\text{Umumiy mahsulot natural miqdori rejasining bajarilish koeffitsienti (Knm)} = \frac{\text{Haqiqiy bajarilgani}}{\text{Rejada ko'zda tutilgani}} = \frac{44025}{43646} = 1,00868$$

Ushbu koeffitsient aniqlangach mazkur omilning mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirini (ΔQ_{knm}) hisoblash mumkin. Bu uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Q_{knm} = (Q_r \cdot K_{nm}) - Q_r$$

Bunda: Qr – haqiqiy tovar mahsulotining rejadagi miqdori va rejadagi bahoda ifodalanishi;

K_{nm} - mahsulot natural miqdori rejasining umumiy bajarilish koeffitsienti;

Agar ushbu formulani kengaytirib yozadigan bo‘lsak quyidagi formulaga ega bo‘lish mumkin:

$$\Delta Q_{knm} = (q^r \cdot r^r) \cdot K_{nm} - (q^r \cdot r^r);$$

Ushbu formulaning birinchi qismini yana boshqacha ko‘rinishda ham ifodalash mumkin:

Rejadagi baho va rejadagi tarkibdagi haqiqiy tovar mahsulotining miqdori	=	Haqiqiy tovar mahsulotining rejadagi miqdori va rejadagi bahodagi hajmi	x	K_{nm} ;
--	---	---	---	------------

Ushbu omillarning ta‘sirini hisoblash uchun mahsulot hajmining qiymati aniqlanadi va ushbu jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (3.3-jadvalga qaralsin).

U holda olma sharbati bo‘yicha reja bahosidagi tovar mahsuloti haqiqatdagi rejadagi tarkibda K_{nm} ni qo‘llab quyidagicha hisoblanadi:

$$2363,8 \times 1,00868 = 2384,3 \text{ ming so‘m}$$

Xuddi shu tarzda boshqa mahsulotlar bo‘yicha ham hisoblash mumkin (6-ustun).

Tovar mahsuloti hajmining ikkinchi omil, ya‘ni tovar guruhlarining tarkibiy tuzilishi o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Q_{tt} = (q^h \cdot r^r) - (q^r \cdot r^r) \cdot K_{nm};$$

Bunda: ΔQ_{tt} - mahsulot hajmining o‘zgarishiga ularning tarkibiy tuzilishi o‘zgarishining ta‘siri;

q^h - mahsulotning haqiqatdagi natural miqdori;

q^r - mahsulotning rejadagi natural miqdori;

r^r - 1 shartli banka mahsulotning rejadagi bahosi.

Ushbu formulaning birinchi qismini yana quyidagicha ham ifodalash mumkin:

Haqiqatda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining rejadagi bahosi = **Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi** x **Mahsulotning rejadagi bahosi** ;

Ushbu ko'rsatkichni 3.3-jadvaldagi ma'lumotlardan foydalangan holdagi aniqlanganda olma sharbati bo'yicha haqiqatdagi mahsulot qiymati rejadagi bahoda quyidagicha bo'ladi:

$$6711 \times 356 = 2389,1 \text{ ming so'm}$$

Xuddi shu ko'rsatkich o'rik sharbati bo'yicha:

$$5350 \times 741 = 3964,4 \text{ ming so'm va h.k.}$$

Agar ushbu omillarni mahsulotning umumiy hajmi bo'yicha aniqlash lozim bo'lsa, shu tovar assortimentlari bo'yicha hisoblangan omillarni jamlash mumkin. Bu uchun quyidagi ikkita formula tavsiya qilinadi:

Birinchi omil uchun: $\Delta Q_{knm} = \Sigma (q^r \cdot r^r) \cdot K_{nm} - \Sigma(q^r \cdot r^r)$;

Ikkinchi omil uchun: $\Delta Q_{tt} = \Sigma (q^h \cdot r^r) - \Sigma(q^r \cdot r^r) \cdot K_{nm}$;

SHu ikki omilning amaliyotda qo'llanilishini ko'rib chiqish ushbu nazariy tavsiyalarning amaliy qimmatini oshiradi. Bu uchun yana 3.4-jadvaldan foydalanish tavsiya qilinadi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining haqiqiy hajmi reja bahosida 365,4 ming so'mga (24855,5-24490,1) ko'paygan. Bu o'zgarishga ikkita omil ta'sir qilganligini ko'ramiz.

Birinchiidan, tovar mahsulotining o'zgarishiga mahsulot natural miqdorining ko'payishi ta'sir qilgan. Mazkur ko'rsatkich rejasi bajarilish koeffitsientining 0,87 foiz bandga oshganligi tovar mahsuloti hajmini 212,7 ming so'mga ko'paytirgan:

$$24702,8 - 24490,1 = + 212,7 \text{ ming so'm}$$

Ikkinchidan, tovar mahsulotining o'zgarishiga ularning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishi ta'sir qilgan. Uni aniqlash uchun haqiqatdagi tovar mahsulotining rejadagi bahosidagi miqdoridan uning rejadagi tarkibdagi miqdori ayriladi, u holda natija quyidagicha bo'ladi.

$$24855,5 - 24702,8 = - 152,7 \text{ ming so'm.}$$

3.4 - Jadval

«Start Servis» MCHJda 2020 yilda ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi

Mahsulotlarning nomi	Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, shartli bankada			1 shart-li		Reja bahosidagi tovar mahsuloti			Farqi		
	Rejada	haqi-qatda	farqi (+,-)	banka mahsulotning rejadagi bahosi	5	6	haqi-qatda reja-dagi tar-kibda	haqi-qatda	Jami	SHu jumladan	
										umumiy miq-dori o'zga-rishi evaziga	9
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
1. Olma sharbati	6640	6711	+71	356	2363,8	2384,3	2389,1	+25,3	+20,5	+4,8	
2. O'rik sharbati	7818	5350	-2468	741	5793,1	5843,4	3964,4	-1828,7	+50,3	-1879,0	
3. Uzum sharbati	4411	6205	+1794	652	2876,1	2901,1	4045,7	+1169,6	+25,0	+1144,6	
4. Pamidor sharbati	5119	4912	-202	231	1181,3	1191,6	1135,7	-45,6	+10,3	-55,9	
5. Gilos sharbati	6641	7881	+1240	852	5658,1	5707,2	6714,6	+1056,5	+49,1	+1007,4	
6. Sabzi sharbati	7717	7548	-163	456	3516,2	3546,7	3441,9	-74,3	+30,5	-104,8	
7. Behi sharbati	5311	5418	+107	584	3101,5	3128,5	3164,1	+62,5	+26,9	+35,6	
Jami:	43646	44025	+379	X	24490,1	24702,8	24855,5	+365,4	+212,7	+152,7	

Manba: 3.3-jadval ma'lumotlari asosida tavsiya qilingan usulni qo'llagan holda hisob-kitob qilindi

Shu ikki omilning ta'siri natija o'zgarishining umumiy farqiga teng:
 $212,7 + 152,7 = + 365,4$ ming so'm.

Tovar mahsuloti o'zgarishiga ushbu omillardan tashqari yana bir qancha omillar ham ta'sir qilishini inobatga oladigan bo'lsak mazkur hisob-kitoblarni davom ettirish mumkin. Umuman olganda tovar mahsuloti qiymatining o'zgarishiga Yuqorida ko'rsatilganlar bilan birga yana bir qancha omillar ta'sir qiladi. Bular jumlasiga:

- * tovar mahsulotining natural miqdori;
- * tovar mahsulotining tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlar;
- * tovar mahsulotining tannarxi;
- * tovar mahsulotining bahosi

kabi omillar kiradi. Ularning ta'sirini hisoblash uchun birqancha hisob-kitoblarni amalga oshirishni tavsiya qilamiz.

1. Korxonada tovar mahsulotini ishlab chiqarishning natural miqdori oshganligining umumiy qiymatiga ta'sirini ($\Delta T_{M.NM}$) aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta T_{M.NM} = [T_{mi}^r \cdot (T_{m.nqi}^h / T_{m.nqi}^r)] - i^h ;$$

Bunda: T_{mi}^r - i - tovar guruhi bo'yicha tovar mahsulotining rejadagi qiymati;

$T_{m.nqi}^h$ - i -tovar guruhi bo'yicha tovar mahsulotining natural miqdori, haqiqatda;

$T_{m.nqi}^r$ - i tovar guruhi bo'yicha tovar mahsulotining natural miqdori, rejada;

i - tovar guruhlarining tartib raqami ($i = \overline{1, n}$)

n - tovar guruhlarining umumiy soni.

2. Tovar mahsulotining o'zgarishiga uning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarish ($\Delta T_{M.TT}$) ham sezilarli darajada ta'sir qiladi. Uni aniqlash uchun haqiqatdagi tovar mahsulotining rejadagi bahosi bilan hisoblangan miqdoridan ($\sum_{i=1}^n T_{M.p} \sigma_i^h$) haqiqatdagi tovar mahsulotining rejadagi tarkibdagi miqdori ($r \cdot Knmi$) ayriladi. Bu uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya qilinadi:

$$\Delta T_{M.TT} = rbi^h - (i^r \cdot Knmi);$$

3. Tovar mahsuloti qiymatining o'zgarishiga bahoning o'zgarishi ham alohida ta'sir qiladi. Ushbu ko'rsatkichni ($\Delta T_{M.B}$) aniqlash uchun haqiqiy tovar mahsulotining rejadagi tannarxi bilan hisoblangan hajmidan (rtn^h) haqiqiy tovar mahsulotining rejadagi bahosida hisoblangan hajmini (rbi^h) ayirib tashlanadi. Bu quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta T_{M.B} = r_{tn}^h - r_{bi}^h;$$

4. Tovar mahsuloti hajmining o'zgarishi bevosita uning tannarxidagi o'zgarishlarga ham bog'liq. Agar tannarxi qancha past bo'lsa bir xil bahoda ko'p foyda olish mumkin va aksincha. Agar mahsulotning tannarxini kamaytirsak, teng holda, uning narxini pasaytirib ham foyda olishga erishishimiz mumkin. SHu tufayli mahsulot hajmining o'zgarishiga tannarxning ta'siri ham hisoblanishi lozim. Ushbu omilning ta'sirini ($\Delta T_{M.TN}$) aniqlash uchun tovar mahsulotining haqiqiy miqdoridan (h) uning rejadagi tannarx bilan hisoblangan miqdori ayriladi (r_{tn}^h). Bu uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta T_{M.TN} = ^h - r_{tn}^h;$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi lozim:

$$\Delta T_M = \Delta T_{M.NM} \pm \Delta T_{M.TT} \pm \Delta T_{M.B} \pm \Delta T_{M.TN};$$

Ushbu formulalarga aniq ma'lumotlarni qo'llab echish uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (3.5-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining hajmi hisobot davrida 2195,9 ming so'mga Yoki 9,0 % ga (26686,0 : 24490,1 . 100) ko'paygan. Ushbu o'zgarishga bir qancha omillar ta'sir qilgan. Ular quyidagilardan iborat.

1. Ushbu korxonada tovar ma'lumotining natural miqdori 379 shartli bankaga ko'payishi uning qiymatini 212,7 ming so'mga oshirgan.

3.5 - Jadval

«Start Servis» MCHJda 2020 yilda tovar mahsuloti o'zgarishiga alohida omillar ta'sirining hisob-kitobi

Mahsulotning nomi	Tovar mahsuloti (ming so'm)				haqiqatdagi tarkib, tannarx bahoda	farqi (+,-)
	rejada	Haqiqatda				
		rejadagi tarkibda	rejadagi tannarxda	rejadagi bahoda		
A	1	2	3	4	5	6
1. Olma sharbati	2363,8	2384,3	2389,1	2134,1	2496,5	+132,7
2. O'rik sharbati	5793,1	5843,4	3964,4	3761,1	4215,8	-1577,3
3. Uzum sharbati	2876,0	2901,1	4045,7	3859,5	4300,1	+1424,1
4. Pamidor sharbati	1181,3	1191,6	1135,7	992,2	1286,9	+105,6
5. Gilos sharbati	5658,1	5707,2	6714,6	6391,5	7132,3	+1474,2
6. Sabzi sharbati	3516,2	3546,7	3441,9	3049,4	3781,5	+265,3
7. Behi sharbati	3101,6	3128,5	3164,1	2958,2	3472,9	+371,3
Jami:	24490,1	24702,8	24855,5	23145,7	26686,0	+2195,9

MANBA: Korxonaning buxgalteriya hisobi va hisobotlari hamda 3.3. va 3.4-jadvallar ma'lumotlari asosida hisoblandi.

$$24702,8 - 24490,1 = +212,7 \text{ ming so'm}$$

2. Tovar mahsuloti tarkibida narxi qimmat bo'lgan tovarlarning ulushi kamayganligi uning umumiy qiymatini ancha pasayib ketishiga sabab bo'lgan. Buning natijasi bizning misolimizda 152,7 ming so'mga teng:

$$24855,5 - 24702,8 = +152,7 \text{ ming so'm}$$

3. Mazkur korxonada ishlab chiqargan tovar mahsulotini tannarxi hajmida sotganda edi, uning umumiy hajmi 1709,8 ming so'mga kam bo'lar edi. Ko'rinib turibdiki, korxonada o'z mahsulotini qimmatroq bahoda sotib ancha foyda olishga erishgan. Ushbu hisob-kitob bizning misolimizda quyidagicha aniqlangan:

$$23145,7 - 24855,5 = -1709,8 \text{ ming so'm}$$

4. Mahsulot bahosining oshganligi tovar mahsuloti hajmini 3540,3 ming so'mga ko'paytirgan. Bu bizning misolimizda quyidagicha aniqlanadi:

$$26686,0 - 23145,7 = +3540,3 \text{ ming so'm}$$

Barcha omillar ta'siri natija o'zgarishining umumiy farqiga teng:

$$212,7 - 152,7 - 1709,8 + 3540,3 = +2195,9 \text{ ming so'm}$$

Ko'rinib turibdiki, tovar mahsulotining hajmining o'zgarishiga to'rtta omildan uchta ijobiy, bittasi esa salbiy ta'sir qilgan. Kelgusida salbiy ta'sir qilgan omillarga asosiy e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

3.6. Mahsulotni sotish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash yo'llari

Yuqorida aytilganidek, korxonalarining hajm ko'rsatkichlariga sotilgan, tovar mahsuloti va sof mahsulot kiradi. Bu ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik statistik hisobotlarning 1-KB: 1-T sonli shakllaridan olinadi. Ushbu ma'lumotlar asosida quyidagi tahliliy jadvalni tuzish mumkin (3.6-jadval).

3.6 - Jadval

Tovar va sotilgan mahsulot bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi va o'sish sur'ati

(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yildagi haqiqiy summasi	Joriy yildagi biznes-reja summasi	Joriy yildagi haqiqiy summa	Biznes-rejaga nisba-tan mutloq farq (+,-)	Biznes-rejaning bajarilishi % hisobida
1.	Sotish hajmining biznes-rejada berilgan amaldagi ulgurji bahosi.	896550	942600	982460	+39860	104,2
2.	Tovar mahsulotining biznes-rejada berilgan amaldagi ulgurji bahosi	896550	942600	997970	+55370	105,9
3.	Tovar mahsulotining o'zgarmas (barqaror) korxonalar ulgurji bahosi	898370	945000	1000910	+55910	106,0
4.	Sof mahsulot	216200	238000	240350	+2350	101,0

Jadvaldan ko'rinishicha, korxonalar joriy yilda hajm ko'rsatkichlari bo'yicha biznes-rejani orttirib bajardi. Bunda turli ko'rsatkichlar bo'yicha rejaning bajarilishi turlicha. Agar sof mahsulot bo'yicha reja faqat 1 foizga ortiq bajarilgan bo'lsa, tovar mahsuloti bo'yicha 6 foizga bajarildi. Demak, korxonalar joriy yilda ko'proq material talab mahsulot ishlab chiqargan. Sotish hajmi bo'yicha reja 39860 ming so'mga Yoki 4,2 foizga orttirib bajarildi. Sotish hajmining mutlaq o'sishiga ikki omil ta'sir ko'rsatdi:

1. Tovar mahsulotini rejaga nisbatan + 55370 ming so'mga (997070 – 942600) ko'p ishlab chiqargan.

2. Sotish hajmi bo'yicha o'sish sur'atining o'zgarishi balans usuli bilan aniqlanadi, ya'ni (39860 – 55370) 15510 ming so'm. Demak, realizatsiya sur'ati pasaygan. SHunday qilib, ikki omilning ta'siri (+55370)- (-15510) = +39860 ming so'm, ya'ni bu so'mma sotish hajmida bo'lgan farqiga (39860 ming so'm) teng.

Sotish hajmining o'sish sur'atiga ko'pgina ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatadi. Bularga mahsulotning sifati, uni bir maromda ishlab chiqarish hamda mahsulotni o'z vaqtida iste'molchilarga jo'natish va uning haqini to'lash, sotilmagan mahsulotlarning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qoldig'i kabi omillar kiradi. Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotning bir-biriga bog'liqligini tekshirish uchun tovar balansini tuzish kerak. Uni quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin:

$$T_1 + M = R + CH + T_2$$

Bu yerda: T_1 – sotilmagan mahsulotlarning yil boshidagi qoldig‘i;

M – joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining hajmi;

R – joriy yilda sotilgan mahsulotning hajmi;

CH – tovarning turli chiqimlari;

T_2 – sotilmagan mahsulotlarning yil oxiridagi qoldig‘i.

Tovar balansining elementlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘liq. Agar rejaga nisbatan yil boshiga bo‘lgan qoldiq ko‘p bo‘lsa, u holda shu farqga sotish hajmi oshadi. Aksincha, sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo‘lgan qoldig‘i kamaysa, u holda sotish hajmi oshadi.

Sotish hajmining o‘zgarishiga tovar mahsulotini ishlab chiqarish va sotilmagan mahsulotlarning o‘zgarishi ta’sir qilar edi. Endi Yuqorida berilgan tenglikdan sotish hajmining miqdorini quyidagicha ifoda etish mumkin:

$$R = T_1 + M - CH - T_2$$

Ushbu bog‘lanishni tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (3.7-jadval).

SHuni ta’kidlash kerakki, tovar mahsuloti haqiqiy ulgurji narxlarini og‘ishi huqumatning qarori asosida Yoki mahsulot sifatining yaxshilanganligi tufayli sodir bo‘lgan narx o‘zgarishining natijasi bo‘lishi mumkin. Aksariyat hollarda tovar mahsuloti xajmini ko‘payishi narxlarning keskin tarzda ko‘tarilishi hisobiga sodir bo‘lib, amalda esa ishlab chiqarishning tabiiy hajmini kamayishi ehtimoldan xoli emas. Ushbu omillarning ta’sirini aniqlash uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz (3.8-jadval).

3.7 – Jadval

Sotilgan mahsulotga ta’sir qiluvchi omillar hisob-kitobi

(ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Biznes-reja bo‘yicha	Haqiqatda	Farqi (+,-)	Sotish hajmiga ta’siri (+,-)
1. Sotilmagan mahsulotlarning yil boshiga bo‘lgan qoldig‘i	62470	62520	+50	+50
2. Sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo‘lgan qoldig‘i	62470	78030	+15560	-15560
3. Tovar mahsuloti	942600	997970	+55370	+55370
4. Turli chiqimlar	-	-	-	-
5. Sotilgan mahsulot hajmi (1 qator- 2 qator + 3 qator)	942600	982460	+39860	+39860

3.8 - Jadval

Mahsulotning fizik xajmi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning hisob-kitobi

(ming so'm)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Mutlaq farq (+,-)		
			jami	shu jumladan omillar hisobiga	
				narxi	fizik xajmi
1. Tovar mahsulotining amaldagi ulgurji bahosi	896550	997970	+101420	+374240	-272820
2. Tovar mahsulotining solishtirma ulgurji bahosi	896550	623730	-272820		
3. Narxlar indeksi	1,0	1,6	+0,6		

Jadvaldan ko'rinishicha tovar mahsuloti hajmi hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 101420 ming so'mga oshgan. Lekin bu ko'payish narxlarning 374240 ming so'mga oshishi (997970-623730) tufayli sodir bo'ldi. Ishlab chiqarishning tabiiy xajmi, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotning naturadagi miqdori hisobiga esa 272820 ming so'mga (623730-896550) kamaydi. Agar mahsulot narxi o'zgarmay, o'tgan yil darajasida qolganda edi, mahsulot ishlab chiqarish xajmi faqat 623730 ming so'mni tashkil etar edi, ya'ni ishlab chiqarish xajmi 272820 ming so'mga kamaygan bo'lar edi. Ko'rinib turibdiki, hozirgi paytda baho ta'sirini aniqlash juda muhimdir. Chunki olingan foyda haqiqiy ishlab chiqarish natijasi bo'lmay, faqat baho evaziga amalga oshib qolishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik chorasini ko'rish lozim bo'ladi.

3.7. Xo'jalik shartnomalari asosida ishlab chiqarishni mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejasining bajarilishini tahlil qilish

Tovar, realizatsiya va sof mahsulot bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi korxonada faoliyatidagi miqdoriy ko'rsatkichlardir. Sifat ko'rsatkichlaridan biri tuzilgan shartnoma majburiyatiga asosan iste'molchilarni tovarlarning zarur assortimenti bo'yicha ta'minlash hisoblanadi.

Iqtisodiyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomutanosiblikning oldini olish uchun korxonalar mahsulot ishlab chiqarish rejasini nafaqat umumiy hajmi, balki belgilangan assortiment bo'yicha ham bajarishi zarur. Chunki mahsulotlar turlicha iste'mol xususiyatiga egadirlar, shu sababli

ayrim mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yuzaga kelgan tanqislikni boshqa bir mahsulotlarni ko'p ishlab chiqarish bilan to'ldirib bo'lmaydi.

Assortiment o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi. To'liq assortiment – deganda barcha mahsulotlarning to'la ro'yxati tushuniladi. Turkumlashgan assortiment deganda, mahsulotlarning turdosh turkumlarga birlashganligi tushuniladi. Turkum tarkibiga kirgan mahsulotlar esa turkum ichidagi assortimentni tashkil etadi.

Assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilmasligi iste'molchilarning texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi: ish vaqti va dastgohlardan to'liq foydalanmaslikka, korxonalarni bir maromda ishlamaslikka, qurilish obyektlarini o'z muddatida foydalanishga topshirmaslikka, mahsulot yetkazib beruvchi korxonalarda ham ortiqcha xarajatlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Ortiqcha xarajatning kelib chiqishiga shartnoma shartiga rioya qilmaslik natijasida iste'molchilarga to'lanadigan jarima va ustamalar ham sabab bo'ladi.

Assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilmasligiga obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi. Odatida, korxonalar zarur va iste'molchilarning talab hamda ehtiyojlariga mos keladigan kam rentabellik mahsulotlarni ishlab chiqarishni kamaytirish hisobiga ko'proq «foйда» beradigan mahsulotlarni ishlab chiqarishdan moddiy jihatdan manfaatdorarlar. Ko'pincha, assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilmasligiga mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur xom-ashyo, materiallar, qo'shimcha materiallar va x.k.larning yetishmasligi sabab bo'ladi.

Tahlil ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchi yo'nalish assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi natira ko'rsatkichlariga (tonna, metr, dona kabilar) asosan baho beriladi. Ikkinchi yo'nalish-assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi qiymat (pul) ifodasida olib borilib, assortiment bo'yicha biznes-rejaning o'rtacha bajarilish foizi aniqlanadi.

Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatining xarakteri va ularning shart-sharoitlariga qarab assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi.

1. Mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejaning o'rtacha bajarilish foizi reja bo'yicha va rejadan oshiqcha bajarilgan mahsulotlarning sonini korxonada ishlab chiqariladigan barcha mahsulotlar soniga nisbati aniqlanadi. Aytaylik, korxonada hammasi bo'lib 100 xil mahsulot ishlab chiqaradi, shundan 89 xil mahsulot bo'yicha reja bajarilgan. U holda

mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejaning o'rtacha bajarilishi 89 foizga teng bo'ladi:

$$\frac{(89 \times 100)}{100}$$

Shuni aytish kerakki, bunday sodda usulni har yerda ham qo'llash mumkin emas. Agar ishlab chiqarilgan alohida olingan mahsulot turlarining salmog'i (ulushi) umumiy ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbatan bir-biridan keskin tarzda farq qilsa, u holda assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi to'g'risida noto'g'ri ma'lumot olinadi va noaniq xulosaga kelinadi.

2. Mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejaning o'rtacha bajarilish foizi sifatida mahsulot turlari ishlab chiqarish bo'yicha rejaning eng kam bajarilishi olinadi. Aytaylik, A-102 %, B-93%, V-81% bajarilgan. Demak, assortiment bo'yicha biznes-reja 81 foizga bajarilgan. Lekin, bu usul ham birinchi usulga xos kamchiliklardan holi emas.

3. Korxonada faoliyatiga to'g'ri baho berishda mahsulotning assortimenti bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini aniqlashda eng kam son miqdorini hisobga olish usuli qo'llaniladi. Ushbu usulning mazmuni va mohiyati quyidagidan iborat. Assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilish darajasini aniqlash uchun avvalo reja chegarasi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot summasini aniqlash kerak. Buning uchun rejadan ortiqcha yoki biznes-rejada ko'rsatilmagan mahsulotlarni ishlab chiqarish assortiment bo'yicha biznes rejaning bajarilishini aniqlashda hisobga olinmaydi.

Shunday qilib, assortiment bo'yicha biznes-rejaning o'rtacha bajarilish foizini aniqlash uchun reja assortimenti hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot summasini jamlab uni 100 ga ko'paytirib, so'ngra biznes-reja bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bo'lish kerak.

Assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilishida tahlilning vazifasi har bir mahsulot turi bo'yicha rejaning bajarmaslik sabablarini aniqlashdan iborat. Assortiment bo'yicha biznes-rejaning eng Yuqori bajarilishi 100 foizga teng bo'ladi, undan ortiq bajarilgani inobatga olinmaydi. SHuning uchun tahlil qilish jarayonida hamma mahsulot turlari bo'yicha rejaning bajarilishi aniqlanadi. Korxonaning assortiment bo'yicha biznes-rejani bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (3.9-jadval).

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, tahlil qilinayotgan korxonada ustki trikotaj bo'yicha tovar assortimenti biznes-rejasi 100 foizga bajarilgan.

$$\frac{(991340 \times 100)}{991340} = 100\%$$

3.9 - Jadval.

Mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini hisob-kitob qilish

Mahsulot turlar	Ishlab chiqarish hajmining natura bo'yia ifodasi (ming dona, ming metr)			Tovar mahsulotining amaldagi ulgurji bahosi (ming so'm)		
	Reja bo'yicha	Haqiqatda	Rejaniing bajarilishi (%)	Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda	
					jami	bajarilgan assort. hisob.
1. Ichki trikotaj mahsulotlari Jumladan:	17870	17870	100,0	229550	229550	229550
a) Erkaklar trikotaji						
b) Ayollar trikotaji	513	606	118,13	12880	15220	12880
v) Bolalar trikotaji	4101	5883	143,45	60380	87340	60880
g) Sport trikotaji	12600	10830	85,95	138070	118670	118670
2. Ustki trikotaj mahsulotlari Jumladan:	656	551	84,0	9900	8320	8320
a) Erkaklar trikotaji	9304	9333	100,31	745650	747960	745650
b) Ayollar trikotaji						
v) Bolalar trikotaji	488	443	90,78	57680	52360	52360
g) Sport trikotaji	1871	1367	73,06	210040	153460	15346
3. Paypoq mahsuloti	5970	6315	105,78	316930	335250	31693
4. Miyona astar	975	1206	123,89	166990	206890	166990
5. Boshqa mahsulotlar	40	40	100,0	230	230	230
6. Jami	1085	1167	107,56	10910	11740	10910
-	-	-	-	5000	11430	5000
-	-	-	-	991340	100091	991340

Tovar mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha biznes-reja 101 foizga bajarilgan. Lekin, bolalar uchun ichki trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha assortiment rejasi faqat 85,3 foizga bajarildi Yoki rejaga nisbatan 1770 ming dona kam. Sport trikotaji mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha assortiment rejasi 84 foizga bajarildi. Ayollar uchun ustki trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha esa assortiment rejasi faqat 73,1 foizga bajarildi.

Assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilmasligiga turli omillar sabab bo'ladi. Bularga yuqorida aytilganidek u yoki bu mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo, materiallar va qo'shimcha materiallarning yetishmasligi. Odatda, korxonalar kam mehnat talab

qiladigan, lekin ko‘proq «foйда» beradigina rentabellik mahsulotlarni ishlab chiqarishga intiladilar. Bizning misolimizda bolalar uchun trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishdan ko‘ra kattalar uchun trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish korxonasi uchun «foydaliroqdir». Ammo hozirgi paytda bolalar kiyimini sotib olishda imtiyoz yoki ijtimoiy himoya olib tashlanganligi, bu borada ham bozor mexanizmining joriy qilinganligidan dalolat beradi.

3.8. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini tahlil qilish

Mamlakat iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida, ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida, ishlab chiqarishni jadallashtirish va aholining moddiy farovonligini yana ham oshirishda mahsulot sifatini yaxshilash katta ahamiyatga ega.

Mahsulotning sifati deganda, uning mo‘ljallangan maqsadda foydalanishga yaroqli xususiyatlarining majmuasi tushuniladi.

Yuqori sifatli mahsulot faqat iste‘molchilarning ehtiyojlarini to‘la-to‘kis qondiribgina qolmay, balki bunday mahsulot ko‘p xizmat qiladi, kam-ko‘stisiz, nuqsansiz bo‘ladi, ko‘rinishi chiroyli va kishida estetik zavq tug‘diradi. Sanoat mahsulotining sifati korxonasi faoliyatiga baho beruvchi eng muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biridir. Vazirlar Mahkamasining bir qator qaror va ko‘rsatmalarida mahsulot sifatini oshirish, Yuqori unumli mashina va dastgohlarni joriy etish muhimligi qayd qilib o‘tilgan. Bugungi kunda mahsulotning yuksak sifatini fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish evaziga amalga oshirish mumkin.

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotning sifatini ifodalashda turli ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. Sifat ko‘rsatkichlari mahsulotning qanday turi uchun muljallanganiga bog‘liq. Masalan, mashinasozlik korxonalarida mahsulot sifatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich – ishlab chiqarilgan mahsulotning davlat standartlari (GOST) tarmoq standartlari (OST) va texnikaviy shartlarga (TU) mos kelishi hisoblanadi.

Qurilish materiallari sanoatda – ohak va ganchning sifati ularning bog‘lovchilik (yopishqoqlik) qobiliyatiga, ko‘mir sanoatida yoqilg‘ining sifati esa ularning issiqlik berish qobiliyatiga qarab aniqlanadi. Qora va rangli metallurgiya, kimyo va texnologik jarayonlar apparatlar yordamida olib boriladigan korxonalarda mahsulotning sifati asosiy texnologik

jarayonlarga rioya qilishga qarab aniqlanadi. Yengil va to'qimachilik sanoatida mahsulot sifatini aniqlashda navlar qo'llaniladi va x.k.

Mahsulot sifatini tahlil qilishda foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda sifatsiz mahsulot uchun iste'molchilarga to'lanadigan jarimalar, mahsulotni kafolatli ta'mir qiluvchi ustaxonalarga sarflanadigan xarajatlar kabi ko'rsatkichlar ham qo'llaniladi.

Shunday qilib, mahsulotning sifatini tahlil qilish usullari tahlil qilinayotgan korxonaning qaysi tarmoqqa mansub ekanligiga ham bog'liq bo'ladi.

Yuqorida aytilganidek, yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarining sifatiga navlar orqali (poyabzal, idish-tovoqlar, un va x.k.) baho beriladi. Binobarin, mahsulot sifati qancha yaxshi bo'lsa uning navi va narxi shuncha Yuqori bo'ladi va akchinsa. Xalq iste'moli mollari ishlab chiqaradigan korxonalar har yilning choragida 1-KB sonli (nav bo'yicha) «Sanoat mahsulotlarining navlari» bo'yicha hisobot beradilar.

Mahsulot sifatiga navlarga qarab baho berishda umumlashgan tushuncha o'rtacha nav ko'rsatkichi qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkich u uch xil usul bilan hisoblaniladi.

1. O'rtacha tortilgan navni aniqlash. Bu usulda har bir nav bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdorini aynan shu nav belgisiga ko'paytirib, so'ngra hosil bo'lgan summa hamma navlar bo'yicha ishlab chiqarilgan jami mahsulotlarning miqdoriga taqsimlash kerak. Bu quyidagicha amalga oshiriladi (3.10-jadval).

Jadvalda berilgan raqamlarga ko'ra, navlilik koeffitsienti

$$a) \text{ reja bo'yicha} = \frac{(22890 \times 1) + (12210 \times 2) + (5210 \times 3)}{40310} = 1,56$$

$$b) \text{ haqiqatda} = \frac{(28620 \times 1) + (9875 \times 2) + (3750 \times 3)}{42245} = 1,41$$

3.10 - Jadval.**Mahsulot sifati bo'yicha navlilik rejasining bajarilishi.**

a) O'rtacha tortilgan nav.

NAVI	O'lchov birligi	MIQDORI	
		Reja bo'yicha	Haqiqatda
1-nav	ming dona	22890	28620
2-nav	ming dona	12210	9875
3-nav	ming dona	5210	3750
JAMI	ming dona	40310	42245

Hisobdan ko'rinishicha, navlilik koeffitsienti reja bo'yicha 1,56, haqiqatda esa, 1,41 ni tashkil etdi. Demak navlilik koeffitsienti 0,15 bandga kupaygan. Navlilik koeffitsienti qanchalik birga yaqinlashsa, shunchaga nav Yuqori bo'ladi. Agar navlilik koeffitsienti birga teng bo'lsa, u holda hamma mahsulot birinchi nav bilan ishlab chiqarilganligini bildiradi.

2. O'rtacha navlilik koeffitsienti. Uni aniqlash uchun avval har bir navning bahosini birinchi nav bahosiga nisbati orqali shartli ravishda birinchi navga o'tkazish koeffitsienti aniqlanadi, so'ngra bu koeffitsientlarni har bir nav bo'yicha bo'lgan mahsulot miqdoriga ko'patirilib, jami ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'linadi. Bu uchun quyidagi jadval tuziladi (3.11-jadval).

3.11 - Jadval.**b) O'rtacha navlilik koeffitsienti**

NAVLARI	Bir ton- naning ulgurji bahosi (so'm)	O'tkazish koeffi- sienti	MIQDORI	
			Reja bo'yicha	Haqiqatda
1-nav	690	1,0	22890	28620
2-nav	675	0,978	12210	9785
3-nav	625	0,906	5210	3750
JAMI	-	-	40310	42245

Jadvaldagi raqamlarga ko'ra, o'rtacha navlilik koeffitsienti

$$a) \text{ reja bo'yicha} = \frac{(1 \times 22890) + (0,978 \times 12210) + (0,906 \times 5210)}{40310} = 0,981$$

$$b) \text{ haqiqatda} = \frac{(1 \times 28620) + (0,978 \times 9785) + (0,906 \times 3750)}{42245} = 0,987$$

Demak, o'rtacha navlilik koeffitsenti rejaga nisbatan 0,006 bandga oshgan. Bu esa mahsulot sifatini yaxshilanganligidan dalolat beradi.

3. O'rtacha navni o'rtacha tortilgan bahoga asosan aniqlash. Bu usulda har bir nav bo'yicha mahsulot miqdorini aynan shu navlar bahosiga ko'paytirilib, so'ngra hosil bo'lgan qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulotlarning jami miqdoriga bo'linadi (3.12-jadval).

3.12 - Jadval.

Mahsulot sifatida navlilikni aniqlash hisob-kitobi

v) O'rtacha navning o'rtacha tortilgan bahosi

NAV	Mahsulot birligining ulgurji bahosi (so'm hisobida)	Mahsulot hajmi			
		Reja bo'yicha		Haqiqatda	
		ming dona	ming so'm	ming dona	ming so'm
1-nav	17	130	2210	145	2465
2-nav	14	28	392	25	350
3-nav	12	11	132	5	60
JAMI	-	169	2734	175	2875

Jadvalda berilgan ma'lumotlarga ko'ra mahsulot birligining o'rtacha tortilgan bahosi.

$$a) \text{ reja bo'yicha} = \frac{2734}{169} = 16 \text{ so'm } 18 \text{ tiyin}$$

$$b) \text{ haqiqatda} = \frac{2875}{175} = 16 \text{ so'm } 43 \text{ tiyin}$$

Demak, haqiqatda o'rtacha tortilgan baho rejaga nisbatan 25 tiyinga oshgan yoki navning ortishi natijasida har bir mahsulot o'rtacha hisobda qo'shimcha 25 tiyin berar ekan. Endi bu farqni haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot miqdoriga ko'paytirsak, u holda mahsulotning sifati oshishi natijasida qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi aniqlanadi. Bu 43 ming 750 so'mni (25 x 175) tashkil qiladi.

Ayrim sanoat korxonalarida mahsulotning sifati ballar bo'yicha ham baholanadi. Masalan, oliy darajadagi sifatga – 5 ball, birinchisiga – 4 ball, ikkinchisiga – 3 ball. Qo'yilgan ballar va mahsulotning miqdoriga asosan

oʻrtacha tortilgan ball aniqlanadi. Binobarin, qoʻyilgan ball qancha yuqori boʻlsa, mahsulot sifati ham shuncha yuqori boʻladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatiga yana isteʼmolchilar tomonidan tushadigan daʼvolarga qarab ham baho berish mumkin. Ularda qaysi xil tovarlar qanday nuqsonga ega. Bu keltirilgan daʼvo summasida va oʻz aksini topadi. Agar bu kabi daʼvolar soni oʻtgan yillarga nisbatan kamaysa, u holda mahsulot sifati ham oshganligidan dalolat beradi.

Texnika taraqqiyoti mahsulot assortimentini muttasil yangilab turishini, eskirib qolganlarini ishlab chiqarishdan olinishini va yangi xil mahsulotlar ishlab chiqarishni joriy qilishni taqazo qiladi. Bu kabi chora va tadbirlar mahsulot sifatini yaxshilash bilan uzviy ravishda bogʻliq boʻlib moddiy va maʼnaviy jihatdan ragʻbatlantiriladi.

Mahsulot sifatini belgilovchi eng muhim koʻrsatkichlardan biri ishlab chiqarishda yoʻl qoʻyilgan yaroqsiz mahsulotning darajasi hisoblanib, u brakka chiqarilgan mahsulot summasini tovar mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga nisbati orqali aniqlanadi.

Brak mahsulot deganda, tasdiqlangan andoza va texnik shartlarga mos kelmaydigan mahsulot tushuniladi. Brak – ishlab chiqarishdagi ofatdir. Brak mahsuloti ishlab chiqarilishi korxonada ishlab chiqarishi etarli darajada tashkil qilinmaganligidan dalolat berib, u oʻz navbatida tayyor mahsulot hajmini kamaytiradi, mahsulot tannarxini oshiradi va x.k.

Brak mahsulotini tahlil qilish ikki asosiy yoʻnalishda olib boriladi, yaʼni tuzatib boʻladigan brak va tuzatib boʻlmaydigan brak. Tuzatib boʻladigan brak mahsulotlari boʻyicha yoʻqotishlar ularni tuzatishga sarf etilgan xarajatlar bilan belgilanadi. Tuzatib boʻlmaydigan brak deganda butunlay va uzil-kesil yaroqsiz qilingan mahsulotning qiymati tushuniladi.

Odatda, brak rejalashtirilmaydi, lekin qayerda texnikaviy vositalar texnologik jarayonlarni nazorat qila olmasa, shu yerda brak rejalashtiriladi. Masalan, quyma buyumlar va oynasozlik sanoatida bu koʻrsatkich rejalashtiriladi. Brak mahsuloti ishlab chiqarishdan yuzaga kelgan yoʻqotishlarni tahlil qilishda joriy yildagi maʼlumotlar oʻtgan yil maʼlumotlari bilan taqqoslanadi (3.13-jadval).

Brak mahsulotini tahlil qilish

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Joriy yilda	Farqi (+,-)
1. Butunlay brak qilingan mahsulotlarning tannarxi, ming so'm	400	240	-160
2. Brakni tuzatishga sarf etilgan harajatlar, ming so'm	200	180	-20
Jami	600	420	-180
3. Tovar mahsulotining ishlab chiqarish tannarxi	735810	791140	+55330
4. Brak mahsulotining darajasi (foiz hisobida)	0,082	0,051	-0,031

Joriy yilda brakka chiqarilgan mahsulotning mutlaq summasi o'tgan yilga nisbatan 180 ming so'mga kamaydi. Buning natijasida brak mahsulotning tovar mahsuloti ishlab chiqarish tannarxidagi salmog'i 0,031 foizga kamaydi. Demak, bundan korxonada mahsulot sifatini oshirish borasida ma'lum chora va tadbirlar ko'ryapti, degan xulosaga kelish mumkin.

3.9. Mahsulotni bir maromda (ritmda) ishlab chiqarishni tahlil qilish

Korxonalarda mahsulotni bir maromda (me'yorda) ishlab chiqarishni tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Zero mahsulotni sotish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi, mahsulot tannarxining pasayishi va rentabellik darajasining oshishi ko'p jihatdan mahsulotni bir maromda ishlab chiqarishga bog'liq. Ozgina bo'lsa ham bu shartga rioya qilmaslik o'z navbatida iste'molchi korxonalarining ishiga salbiy ta'sir qiladi.

Mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish deganda mahsulotni tuzilgan jadval asosida, mahsulotning oldindan aniqlangan assortimenti va sifatiga muvofiq yetkazib berish va sotishni o'z vaqtida ta'minlashi tushuniladi.

Korxonaning bir maromda ishlashi deganda esa ish vaqtdan to'la foydalanish uchun sharoit yaratib berish, ishlab chiqarishning butun davr davomida asbob-uskuna va barcha vositalardan bevosita foydalanishi tushuniladi. Ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etish ko'pgina korxonalarda asosan oyning boshida bo'ladigan bekor turishlarni

kamaytirishga, xaybarakallachilik vaqtida hosil bo'ladigan brakni kamaytirishga, ish vaqtdan tashqari bo'ladigan behuda to'plamlarni yo'qotishga oying boshida bo'ladigan osoyishtalik va oying oxirida bo'ladigan o'rinsiz shoshma-shosharlik natijasida yuzaga keladigan hamda ishlab chiqarishning me'yordan chetga chiqishi natijasida hosil bo'ladigan qo'shimcha harajatlarning kamayishiga olib keldi. Bundan tashqari mahsulotni o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun to'lanadigan jarima va o'simlar kamayadi.

Korxonalarda ishlab chiqarishni bir maromda olib borish shakllari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, bir xil mahsulotni ommaviy patok usulida ishlab chiqaradigan korxonalarda bir maromda ishlashni ko'rsatadigan ko'rsatkich sifatida har o'n kunlikda oylik rejaga nisbatan ishlab chiqariladigan mahsulotning salmog'i olinadi. Agar korxonada har o'n kunda oylik topshiriqning uchdan bir qismi bajarilsa, bunday korxonada oying oxirida xaybarakallachilikka yo'l qo'ymaydi.

Agar ishlab chiqarish davri (sikl) uzoqqa cho'ziladigan individual va mayda seriyali Yoki ishlab chiqarish mavsumiy xarakterga ega bo'lsa, u holda korxonaning bir maromda ishlashini bir yil davomida uzluksiz baholab bo'lmaydi.

Bir maromda ish yuritishning umumlashgan ko'rsatkichi bo'lib bir me'yorda ishlash koeffitsienti hisoblanadi, u jadval bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasi bajarilgan kunlarni umumiy ish kuniga bo'lish bilan aniqlaniladi, odatda oy hisobida. Masalan, tahlil qilinayotgan oyda 26 ish kuni bo'lsa, undan 22 kun mobaynida korxonada belgilangan jadval asosida mahsulot ishlab chiqargan. Demak. Bir me'yorda ishlash koeffitsienti 0,84 koeffitsientni ($22/26$) tashkil etdi. Ushbu raqam korxonaning bir me'yorda mahsulot ishlab chiqarmaganligidan dalolat beradi.

Bir me'yorda ish yuritishning eng optimal ko'rsatkichi birga teng bo'ladi undan ortiq bo'lishi mumkin emas. Demak, u Yoki bu muddat mobaynida biznes-rejaning orttirib bajarilishi korxonaning bir me'yorda ishlashini taqazo etmaydi. Balki umuman tovar mahsuloti ishlab chiqarish biznes-rejasining bajarilishini ko'rsatadi. Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar reja bo'limidan olinadi, zero ma'lumotlar yillik hisobotda berilmaydi. Tahlil uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (3.14-jadval).

3.14 - Jadval.**Bir maromda mahsulot ishlab chiqarishni
tahlil qilish**

(foiz hisobida)

Oy- lar	Ko'rsatkichlar	O'n kunliklar			Ja- mi
		I	II	III	
D E	1. Biznes-reja bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot	33	33	34	100
K A	2. Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot	22,8	30,1	47,1	100
B	3. Biznes-reja hisobiga	22,8	30,1	34,0	86,9
R	4. Bir maromda mahsulot ishlab chiqarish koeffitsienti	0,891	0,912	1,0	0,86 9

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinishicha, korxonada mahsulotni bir me'yorda ishlab chiqarmagan. Birinchi o'n kunlikda bir maromda ishlash koeffitsienti 0,891 (22,8 : 33), ikkinchi o'n kunlikda 0,912 (30,1 : 33), faqat uchinchi o'n kunlikda 1 ga teng bo'ldi. Maromiylikning umumiy ko'rsatkichi 0,869 koeffitsientga teng. SHuning uchun korxonaning bu boradagi faoliyatini yaxshi darajada, deb e'tirof etib bo'lmaydi.

**3.10. Ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga
ta'sir qiluvchi omillarni turkumlash va
ularning qisqacha tasnifi**

Tovar mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi ko'pgina omillarga bog'liqdir. Ko'pincha ular qarama-qarshi yo'nalishda harakat qilib ma'lum miqdor va sifat o'zgarishlarga olib keladi. SHuning uchun tovar mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi amallarni tahlil qilish jarayonini osonlashtirish maqsadida ular ma'lum iqtisodiy belgilariga asosan uch guruhga umumlashtiriladi:

1. Mehnat bilan bog'liq omillar. Bu tarkibiga korxonalarining ishchi kuchi bilan ta'minlanishi, ish vaqtidan samarali foydalanish va mehnat unumdorligi kabi omillar kiradi.

2. Mehnat vositasi bilan bog'liq omillar. Bularga korxonalarining asosiy vositalar bilan qay darajada ta'minlanganligi, asosiy vositalarning

hajmi, tuzilishi, o'sish sur'atlari, texnik holati va ulardan foydalanish samaradorligi singari masalalar kiradi.

3. Mehnat buyumlari bilan bog'liq omillar. Bularga korxonaning xom ashyo va materiallar bilan qay darajada ta'minlanganligi, ya'ni moddiy-texnika ta'minotining holati va moddiy resurslardan foydalanish samarasi (materiallardan olinadigan samara, materiallar sig'imi) kabi masalalar kiradi.

4. Nomoddiy aktivlar bilan bog'liq omillar. Nomoddiy aktivlar ham korxonaga mehnat resurslari, mehnat predmeti va mehnat vositasi singari foyda keltiradi. SHu tufayli ushbu omillar ham asosiy omillar turkumiga kiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar o'ziga xos mustaqil ma'noga ega bo'lishi bilan birga o'zaro bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langanlar. Binobarin. Bu omillarning ta'sirini mexanik tarzda bir-biriga aslo qo'shib ham bo'lmaydi. Masalan, mehnat unumdorligini o'sishi xodimlar va ish vaqtidan samarali foydalanishga bog'liq, (mehnat omillari). So'ngra, mehnat unumdorligi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasiga (mehnat vositalari omili), hamda moddiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishga (mehnat buyumlari omili) bog'liq.

Avval har bir omillar guruhi alohida-alohida o'rganiladi. So'ngra uchala omillar guruhini tahlil qilish asosida mahsulot ishlab chiqarishni oshirish borasidagi yig'ma rezervlar to'g'risida umumiy xulosa beriladi.

Har bir omillar guruhi o'z navbatida miqdor va sifat ko'rsatkichlarga bo'linadi. Miqdor ko'rsatkichi – resurslarning mavjudligini ko'rsatsa, sifat ko'rsatkichi esa –resurslardan samarali foydalanishni va ularni baholashni ko'rsatadi. Avval miqdor, so'ngra sifat ko'rsatkichlarining ta'siri o'rganiladi. U yoki bu iqtisodiy ko'rsatkichga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblashda quyidagi ketma-ketlikdan foydalaniladi.

Miqdor omillarda bo'lgan farqni (o'zgarishni) sifat ko'rsatkichini reja(baza) darajasiga ko'paytiriladi, sifat omillarida bo'lgan farqni esa miqdor ko'rsatkichining haqiqiy darajasiga ko'paytiriladi.

Har qanday iqtisodiy jarayon to'g'ri va oqilona boshqari-lishi uchun uni to'g'ri tahlil qilish, uning samaradorligini oshiradi. Bu bevosita tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ham daxldordir. CHunki, bozor munosabatlari sharoitida tovarlarni ishlab chiqarish tadbirkorlik subyektlari faoliyatining bir jihati bo'lsa, ularni sotish esa uning muhim jihatidir.

Hozirgi paytda tadbirkorlikka asoslangan kichik va o'rta biznes korxonalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Chunki

ular bozor sharoitidagi o'zgarishlarga, bozor konyukturasiga, talabning o'zgarishiga tez moslashadigan bo'ladi. Ularning bu jihati xo'jalik faoliyatini, ayniqsa mahsulotni ishlab chiqarish va sotishni tahlil qilishda o'ta ziyraklikni, aniq hisob-kitoblarni amalga oshirishni talab qiladi.


Endigi iqtisodiyot, ayniqsa bozor munosabatlari sharoitida hukum surayotgan erkin raqobat, korxonalarining ishlab chiqarishga asosiy e'tiborni qaratishga emas, balki oldin nimani va qancha sotishni aniqlashni talab qiladi. Korxonalar asosan sotiladigan tovarlarni ishlab chiqarsa yoki ishlab chiqargan tovarlari (ish, xizmatlari) o'z vaqtida sotilsagina ularning moliyaviy ahvoli yaxshi bo'ladi, iqtisodiy qudrati yuksala boradi, shu yo'l bilan tadbirkorlar o'zlarining yashovchanligini ta'minlaydi.

Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar juda ko'pdir. Chunki, bozorda turli kutilmagan vaziyatlar vujudga kelib qolishi natijasida, tadbirkorning tuzgan rejasi, uning ko'zda tutgan amallari buzilib ketishi mumkin. Shu tufayli tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni ikki guruhga bo'lish mumkin: ijobiy ta'sir qiluvchi omillar, salbiy ta'sir qiluvchi omillar. Ijobiy ta'sir qiluvchi omillar, albatta juda muhim omillar. Shu tufayli ushbu omillar tahlili iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. Ammo tadbirkorni kasodga uchratadigan, uning ahvolini og'irlashtiradigan omillar bu salbiy ta'sir qiladigan omillardir. Ammo bunday omillar iqtisodiy adabiyotlarda kam tadqiq qilingan. SHu tufayli bunday omillarga alohida e'tiborni qaratishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Salbiy omillar ta'sir doirasi bo'yicha ikki guruhga bo'linadi: ichki omillar; tashqi omillar (3.1-chizma).


Ushbu chizmada barcha ichki va tashqi omillar keltirilgan. Tashqi omillarga albatta e'tiborni qaratish lozim. Ammo korxonaning o'ziga bog'liq omillar ichki omillardir. Tahlil jarayonida ushbu omillarni bartaraf qilishga alohida ahamiyat berish lozim. Agar tadbirkor tovari (ish, xizmati) o'tmay qolsa, uni yaxshilash zarar keltiradigan bo'lsa bunday tovarlarni ishlab chiqarish Yoki xarid qilishni zudlik bilan to'xtatish va ularning o'rnini almashtirish lozim. O'tmay, sotilmay qolgan tovarlar korxonaga uchun to'liq zarardir. Buning hajmi haddan tashqari ko'p bo'lmasligi uchun, uning bir qismini shu tovarlarni arzon narxda sotib bo'lsada qoplash lozim. Bu holatga tushmaslik uchun korxonada, ta'kidlanganidek, marketing xizmati ham yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim.

Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlar tomonidan tovarlarni sotishni tashkil qilishning ham juda ko'p usullari mavjud. Bizning tahlil va tadqiqotlar ko'rsatdiki, tovarlarni sotish, hozirgi paytda, quyidagi usullarda

amalga oshirilmoqda: ishlab chiqarilgan joyidagi ombordan sotish; tovar-xom ashyo birjalari va yarmarkalar orqali sotish; iste'mol bozoriga olib borib ulgurji sotish; iste'mol bozoriga olib borib chakana sotish; bevosita xaridorga (iste'molchiga) yetkazib berish (3.2-chizma).



3.1 - CHizma. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sir qiluvchi salbiy omillarning tasnifi



3.2-CHizma. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tovarlarni sotishni tashkil qilish usullari

Bular ham yana bir bor xulosa qilishga olib keladiki, tadbirkorlar bozor sharoitida bozorni to‘g‘ri va to‘liq o‘rganishi lozim ekan.

3.11. Ko‘rsatkichlarni qiyoslaydigan (solishtiriladigan) holatga keltirish usuli

Iqtisodiy jarayonlar natijasi ko‘rsatkichlarda ifodalanadi. Tahlil qilishda ularni qiyoslashga to‘g‘ri keladi. Bu uchun, ularni o‘lchami, mazmuni va hajmi jihatidan taqqoslanadigan holatga keltirib olish lozim. Bularni aniqlashda amaliyotda keltirish koeffitsientidan keng foydalaniladi.

Ushbu koeffitsientning mohiyati shundaki, turli hajmdagi, o‘lcham va og‘irlikdagi turli xil mahsulotlarni qiyoslaydigan holatga keltirish imkonini beradi. Masalan, birorta mahsulotni ishlab chiqarish rejasi bir xil navda belgilanadi. Ammo amaliyotda aynan shunday bo‘lib chiqmasligi tabiiy. Bunday holda turli navda ishlab chiqarilgan bir xildagi mahsulotni qiyoslanadigan holatga keltirib olish uchun uni rejada ko‘rsatilgan navda ifodalab olishni taqozo qiladi.

Mazkur usulni amaliyotda qo‘llash uchun amaliy ma‘lumotlardan foydalangan holda amalga oshirish yo‘lini ko‘rib chiqish lozim. Bu uchun Kattaqurg‘on yog‘-moy aksiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarish

sohasining bir turi, ya'ni sovun ishlab chiqarish va sotish sohasini olamiz (3.14-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mazkur korxonada 2020 yil IV-chorakda 42,0 ming kg. yog'lilik darajasi 40 % bo'lgan kir sovun ishlab chiqarishni rejalashtirgan. Ammo natija butunlay boshqacha bo'lib chiqdi, ya'ni yog'lilik darajasi 40% lik 42,0 ming kg. kir sovun o'rniga turli sovunlar va kir yuvish materiallaridan 48,7 ming kg. ishlab chiqdi. Agar ushbu holatda xulosa qilinsa mazkur korxonada sovun ishlab chiqarib sotish bo'yicha rejani 116,0% bajargan ($48,7/42,0 \times 100$). Biroq, yog'lilik darajasi 40% lik kir sovuni bo'yicha reja atigi 23,8% ga bajarilgan xolos. Qolgan mahsulotlar rejada ko'zda tutilmagan. Ammo ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotga to'g'ri baho berish uchun ularni ham shu 40% lik yog'lilik darajasiga ega bo'lgan sovun hajmidagi shartli miqdorini topishimiz lozim. Bu bilan yog'lilik darajasi

3.14 – Jadval

Kattaqurg'on yog'-moy aksiyadorlik jamiyatida sovun va kir yuvish mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bo'yicha 2020 yil IV-chorak ma'lumoti

Mahsulot turi	YOg'lilik daraja-si, %	Reja-da	Haqi-qatda	Farqi	
				Miqdo-ri (+,-)	%
Xo'jalik sovuni, ming kg.	40	42,0	10,0	-32,0	29,8
Xo'jalik sovuni, ming kg.	60	X	7,3	+7,3	x
Xo'jalk sovuni, ming kg.	65	X	7,4	+7,4	x
Xo'jalik sovuni, ming kg.	72	X	6,5	+6,5	x
Atir sovun, ming kg.	80	X	3,2	+3,2	x
Kir yuvish kukuni (po-roshogi), ming kg	10	X	14,3	+14,3	x
Jami:	X	42,0	48,7	+6,7	116,0

Manba: Kattaqurg'on yog'-moy aksiyadorlik jamiyati buxgalteriya va statistik hisobi va hisoboti ma'lumotlari asosida.

turli bo'lgan sovun va boshqa kir yuvish materiallari bir xil o'lchamga, ya'ni taqqoslanadigan holatga keltirilib olinadi.

Taqqoslash uchun keltirish koeffitsientidan foydalaniladi. Bu uchun odatda yog'lilik darajasi 40% bo'lgan kir sovun bir deb qabul qilinadi va qolganlarini shunga mos ravishda tabaqalanish darajasi hisoblanadi.

Bunday keltirish koeffitsienti qo'yidagi formuladan foydalangan holda amalga oshirishni tavsiya qilamiz:

$$\text{Keltirish koeffitsienti} = \frac{\text{Keltirish koeffitsienti aniqlanadigan kir sovunining yog'lilik darjasi}}{\text{Me'yordagi kir sovunining yog'lilik darjasi}}$$

Misolimizda keltirilgan yog'lilik darjasi 60% bo'lgan kir sovunining keltirish koeffitsienti 1,5 ga teng bo'ladi:

$$K_{k60\%} = \frac{60}{40} = 1,5$$

65% lik yog'lilik darajasiga ega bo'lgan kir sovunining keltirish koeffitsienti 1,625 ga teng:

$$K_{k65\%} = \frac{65}{40} = 1,625 \text{ va h.k.}$$

Hisob-kitoblar natijasi qo'yidagi jadvalda o'z ifodasini topgan (3.15-jadval).

3.15 - Jadval

Kattaqurg'on yog'-moy aksiyadorlik jamiyatida sovun va kir yuvish mahsulotlarining 2020 yil IV-chorakdagi haqiqiy miqdorini taqqoslanadigan holatga keltirish koeffitsienti va miqdori

№	Mahsulotning turi	Mahsulot-ning haqi-qiy miqdori, ming kg.	Keltirish koeffitsi-enti	Taqqoslanadigan miqdori, ming kg.
1	Xo'jalik sovuni 40% yog'lilikda	10,0	1,0	10,0
2	Xo'jalik sovuni 60% yog'lilikda	7,3	1,5	13,95
3	Xo'jalik sovuni 65% yog'lilikda	7,4	1,625	12,025
4	Xo'jalik sovuni 72% yog'lilikda	6,5	1,8	11,7
5	Atir sovun 80% yog'lilikda	3,2	2,0	6,4
6	Kir yuvish kukuni (poroshogi) 10 % yog'lilikda	14,3	0,25	3,575
	Jami:	48,7	x	54,65

Manba: 3.14-jadval asosida hisoblandi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, keltirish koeffitsientini inobatga olib ishlab chiqarib sotilgan kir yuvish

mahsulotining miqdori haqiqatda 48,7 ming kg. emas, balki 54,65 ming kg.ni tashkil qilar ekan. Rejaning bajarilishi oldingidek 116,0% emas, balki 130,1 %ni tashkil qilar ekan ($54,65/42,0 \times 100$).

Ushbu ko'rsatkichni aniqlash erkin iqtisodiyot sharoitida, qaysiki rejaning bajarilishi yuqori tashkilotlar tomonidan tekshirilmaydigan paytda kimga va nimaga kerak, degan savolning ham tug'ulishi mumkin. Bunga javoban shuni ta'kidlamoqchimizki, ishlab chiqarish jarayonida mahsulot navining o'zgarishi korxonaga foydasiga nechog'lik ijobiy Yoki salbiy ta'sir qilganligini bilish mumkin. Bu bevosita mulkdorga ham, mehnat jamoasi uchun ham va uni boshqaruvchilarga ham kerak. Chunki bularning hammasi korxonaning ish natijasidan, xususan oladigan foydasidan manfaatdor.

Buning nimalarda va qanday namoyon bo'lishini ushbu misolda ham ko'rish mumkin. Faraz qilamiz, mazkur korxonaga kir sovuving 40% lik yog'lilik darajasi bilan bir kg.ni (bu 4 ta sovun bo'ladi) 800 so'mdan sotishga rejalashtirilgan edi. Haqiqatda narx o'zgarmasdan qoldi. Ammo turli yog'lilik darajasiga ega bo'lgan sovunlar turlicha narx bilan sotilishi ham tabiiy. Bu holda natija qo'yidagicha bo'lishi mumkin.

Rejada $42,0 \times 800 = 33,6$ mln so'm.

Haqiqatda

(qiyoslanmaydigan) $48,7 \times 800 = 39,0$ mln so'm

Qiyoslangan holatga

keltirilganda $54,65 \times 800 = 43,7$ mln so'm.

Mazkur hisob-kitobdan ko'rinib turibdiki Kattaqurg'on yog'-moy AJ reja bo'yicha 33,6 mln so'm mahsulot ishlab chiqishi lozim edi. Haqiqatda esa qiyoslanadigan hajmda 43,7 mln so'm Yoki 10,1 mln so'm ko'p ishlab chiqarilishi lozim edi. Ammo mazkur korxonaga haqiqatda 41,3 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarib sotdi.

Ko'rinib turibdiki, mahsulotning haqiqiy qiymati bilan bajarilishi lozim bo'lgan qiymat o'rtasida 2,4 mln so'm ($43,7 - 41,3$) farq bor. Bu farq mahsulot navlligining o'zgarishi evaziga sodir bo'lgan farqdir. Agar mazkur korxonaga faqat yog'lilik darajasi 40% bo'lgan kir sovundan 54,65 ming kg. sotganda edi, undan tushgan pul tushumi, narx o'zgarmagan holda, 43,7 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lar edi. Ammo ushbu korxonaga turli navda shuncha mahsulot ishlab chiqdi. Oqibatda mahsulot navining o'zgarganligi evaziga korxonaga 2,4 mln. so'm ($43,7 - 41,3$) zarar ko'rgan. Mahsulotning yog'lilik darajasi va sifati oshgani bilan u shu sifatiga nisbatan past narxda sotilgan.

Demak, mahsulot navining o'zgarishi ham korxonah mahsuloti umumiy hajmi va shu orqali uning foydasiga bevosita ta'sir qilar ekan.

Qiyosiy tahlilda shuni ham inobatga olish joizki, ba'zi mahsulotlar faqat bir Yoki boshqa birorta navda rejalashtiriladi. Haqiqatda esa aynan shu navga to'g'ri kelmasligi mumkin. U holda qolgan navlar shu belgilangan navga qayta hisoblanib olinadi.

Bunday holatni mol terisini tayyorlashda ko'rish mumkin. Ushbu xom ashyo 1 nav holatida hisob-kitob qilinadi. Qolgan navlar esa shu 1 nav holatiga keltirib olinadi. Bu uchun quyidagi keltirish koeffitsientlaridan foydalaniladi: 1-nchi nav - 1, 2-nchi nav - 0,87, 3-nchi nav - 0,66, 4-nchi nav - 0,46. Kichik mollar va cho'chqa terisi uchun mos ravishda 1 - 1,0; 2 - 0,85; 3 - 0,6; 4 - 0,4 koeffitsientlar qo'llaniladi¹³. Bu holatni aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (3.16-jadval).

3.16 - Jadval

«Start Servis» MCHJda mol terisini tayyorlashning 2020 yildagi hajmini qiyoslanadigan holatga keltirish

(dona)

Navi	Reja ko'rsat-kichi	Haqiqatda tayyorlan-di	Qayta hisoblash koeffi-sienti	1-navga qayta hisoblangan ko'rsatkich	Farqi (+,-)
1	5400	1614	1,0	1614	x
2	-	1202	0,87	1046	x
3	-	1493	0,66	985	x
4	-	1224	0,46	563	x
Jami	5400	5533	X	4208	-1192

Manba: Mazkur korxonaning buxgalteriya hisobi va hisoboti asosida hisoblandi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, haqiqatda tayyorlangan terining miqdori rejaga nisbatan 1533 donaga yoki 102,5 % ga ($5533:5400 \times 100$) ko'p. Ammo uni qiyoslanadigan holatda, ya'ni hammasini 1-nav miqdorida hisoblaganda rejaning 1192 donaga kam bajarilganligini yoki uning rejaga nisbatan bor-yo'g'i 77,9 % ni ($4208:5400 \times 100$) tashkil qilganligini ko'ramiz. Bu yerda mol terisining

¹³ Абдукаримов И.Т ва бошлалар. Матлубот кооперациясининг хўжалик фаолиятини анализ љилиш. - Т.: Ўљитувчи, 1989. - 156 бет. Кудрявцев А.А. Анализ хозяйственной деятельности кооперативных организаций. - М.: Экономика, 1977, 183-184 бетлар.

navlilik koeffitsientini 76,1 % ga (4208:5533x100) teng bo'lganligini ko'ramiz.

Qiyosiy tahlil ahvolning aniq holatidan dalolat beradi. Agar uning tayyorlangan haqiqiy miqdori bo'yicha xulosa qilinganda edi, mazkur korxonada ahvol yaxshi degan xulosaga kelish mumkin edi. Ammo u mahsulotni sotganda xaridor albatta uning naviga qarab pul to'laydi. Oqibatda jismonan ko'p teri tayyorlading-u, nima uchun kam pul tushumi tushdi, degan jumboqni echish qiyin edi. Ushbu holatlar ko'rsatib turibdiki, erkin iqtisodiyot sharoitida bu kabi qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanish hayotiy zaruratdir.

Shunday qilib, tovarlarning sotilishini boshqarishda qo'llaniladigan tovar guruhlari, ularni sotish usullari va tovarning bozorda sotilish bosqichlarini va qiyoslash usullarini inobatga olmasdan turib, hozirgi bozor munosabatlari sharoitida, tadbirkorlarning samarali faoliyat ko'rsatishi qiyin. Shu tufayli hozirgi vaziyat endigi tadbirkorlarning ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'ta savodxon, ziyrak va jasur bo'lishlarini taqozo qiladi.

3.12. Sotilgan mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tahlilini takomillashtirish

Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri sotilgan tovar hajmidir. Tadbirkor uchun aniq foyda faqat tovarni (ish, xizmatni) sotgandan keyingina hosil bo'ladi. Albatta, bir qarashda sotish ikkinchi darajali jarayondek tuyuladi. Chunki eng avvalo, tovarni (ish, xizmatni) ishlab chiqarish lozim. Lekin bozor munosabatlari barcha ishlab chiqarilgan tovarlarni o'ziga «xazm» qila olmaydi. Shu tufayli millionlab ishlab chiqarilgan tovarlar sotilmasdan ishlab chiqaruvchining omborida qolib ketaveradi. Bu esa tadbirkorni biror tovarni ishlab chiqarishdan oldin uning sotilishi haqida o'ylashga majbur qiladi.

Mahsulotni sotishni tahlil qilishda uni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Sotilgan mahsulotni tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tarkibiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ularning sifati, sotilish hajmi, ma'romiyligi kabilar kiradi. Chunki sotilgan mahsulot hajmi shu ko'rsatkichlarga bevosita bog'liqdir.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri sotilgan tovar hajmi bo'lganligi tufayli, uning faoliyatiga ta'sir qiluvchi

omillar tahlilini takomillashtirishni mazkur ko'rsatkich misolida ko'rib chiqishni tavsiya qilamiz.

Tovarlarni sotish hajmiga juda ko'p omillar ta'sir qiladi. Ularni bir qancha guruhlariga bo'lish mumkinligi haqida Yuqorida ham ta'kidlandi. Iqtisodiy tahlilning eng muhim jihati, ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash yo'llarni aniqlab, tahlil qilinayotgan ko'rsatkich to'g'risida aniq xulosaga kelish va uni yaxshilash bo'yicha amaliy tadbirlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni iqtisodiy mazmuni jihatidan guruhlash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Zero, ushbu omillarni hisoblash uchun buxgalteriya va statistik hisobi va hisobotlarida aniq ma'lumotlar ham keltirilgan.

Sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar iqtisodiy mazmuni jihatidan to'rt guruhga bo'linadi:


- * mehnat resurslaridan foydalanish bilan bog'liq omillar;
- * asosiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq omillar;
- * aylanma mablag'lar bilan bog'liq omillar;
- * nomoddiy aktivlar bilan bog'liq omillar.

Ushbu omillar ta'sir qilish darajasiga qarab ikki guruhga bo'linadi: intensiv omillar va ekstensiv omillar. Ularning bir-biriga bog'liqligini quyidagicha ifodalashni tavsiya qilamiz (3.3-chizma).

Ushbu chizmada keltirilgan omillar haqidagi ma'lumotlar, ta'kidlanganidek, korxonaning hisobotlarida o'z aksini topgan. Ulardan foydalanib har birining sotish hajmiga ta'sirini topish mumkin. Bu omillar ta'sirini topishning bir qancha usullari olimlarimiz tomonidan ishlab chiqarilgan va ular tegishli iqtisodiy tahlilga oid adabiyotlarda¹⁴ chop etilgan.

Sotilgan mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi barcha omillar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda va aloqada. Ularning birorta ko'rsatkich o'zgarishiga ta'sirini hisoblaganda, albatta, hammasini birdaniga hisoblab olish lozim. Chunki, alohida-alohida hisoblab olganda omilli tahlil to'liq bo'lmasdan qoladi.

¹⁴ Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Минск: ООО «Новое знание», 2000..



3.3-CHizma. Sotish hajmiga ta'sir qiluvchi intensiv va ekstensiv omillar

Ushbu omillarning hammasi korxonaning iqtisodiy salohiyatini tashkil qiladi¹⁵. Korxonaning iqtisodiy salohiyatining natija ko'rsatkichi o'zgarishiga ta'sirini alohida-alohida qarab bo'lmaydi. Zero, natijaning o'zgarishiga ushbu omillar birdaniga ta'sir qiladi.

Bu holatlarni inobatga olib sotilgan mahsulot hajmiga korxonaning iqtisodiy salohiyati bilan bog'liq bo'lgan omillarning ta'sirini bir-biri bilan bog'liq holda hisoblash metodologiyasi ishlab chiqildi. Bu uchun, eng avvalo, quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (3.17-jadval).

¹⁵ Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot va huquq nashriyoti. 2018..

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 2020 yilda 2018 yilga va 2019 yillarga nisbatan barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'sishga erishilgan. Sotilgan mahsulot hajmi 2020 yilda

3.17 – Jadval

«Start Servis» mas'uliyati cheklangan jamiyatda sotilgan mahsulot va unga ta'sir qiluvchi omillarning 2018-2020 yillardagi dinamikasi

KO'RSATKICHLAR	Yillar			2020 yilda o'zgarishi	
	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2018 yilga nisbatan	2019 yilga nisbatan
1. Sotilgan mahsulot hajmi, mln. so'm	120,4	138,5	157,2	130,6	113,5
2. Xodimlar soni, kishi	198	214	241	121,7	112,6
3. Mehnat unumdorligi, ming so'm (1q:2q)	608,1	647,2	652,2	107,3	100,8
4. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, mln. so'm	98,6	108,5	116,3	118,0	107,2
5. Asosiy vositalar samaradorligi, so'm (1q:5q)	1,221	1,276	1,352	110,7	106,0
6. Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, mln.so'm	52,3	58,3	64,8	123,9	111,1
7. Aylanma mablag'lar sa-maradorligi, so'm (1q:8q)	2,302	2,376	2,426	105,4	102,1
8. Nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qiymati, mln. so'm	8,2	9,6	10,4	126,8	108,3
9. Nomoddiy aktivlarning samaradorligi, so'm (1q:11q)	14,683	14,427	15,115	102,9	104,8

Manba: Mazkur korxonaning tegishli yilalrdagi buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida hisoblandi.

2018 yilga nisbatan 130,6 % oʻsgan boʻlsa, 2019 yilga nisbatan 113,5 % oʻsgan. Ushbu oʻsish, albatta, oʻz-oʻzidan sdir boʻlgan emas. Unga bir qancha omillar taʼsir koʻrsatgan. Ushbu jadvalda keltirilganicha barcha omillarda oʻsish roʻy bergan. Masalan, xodimlar soni 2020 yilda 2018 yilga nisbatan 21,7 % oʻsgan boʻlsa, 2019 yilga nisbatan esa 12,6 % oʻsgan. Ammo mehnat unumdorligi mos ravishda 7,3 va 0,8 foiz oʻsishga erishilgan. Koʻrinib turibdiki, bu holatda ekstensiv omilning oʻsish surʼati intensiv omilga nisbatan Yuqori. Bu esa oʻz navbatida natija koʻrsatkichiga ham shu tarzda taʼsir qiladi.

Asosiy vositalar, aylanma mablagʻlar va nomoddiy aktivlar boʻyicha ham xuddi shunday fikrlarni aytish mumkin. Jumladan, asosiy vositalarning oʻrtacha yillik qiymati 2020 yilda 2018 yilga nisbatan 18 % oʻsgan boʻlsa, 2019 yilga nisbatan 7,2 % oʻsgan. Asosiy vositalarning samaradorligi esa mos ravishda 10,7 va 6,0 % ni tashkil qiladi. Koʻrinib turibdiki, bu holatda ham ekstensiv omillarning oʻsish surʼati intensiv omillar oʻsish surʼatiga nisbatan Yuqori. Aylanma mablagʻlarning oʻsish surʼati, mos ravishda, 23,9 va 11,1 % ni tashkil qilsa, ularning samaradorligi 5,4 va 2,1 % ni tashkil qiladi. Nomoddiy aktivlarning oʻsish surʼati 26,8 va 8,3 % ni tashkil qilgan bir paytda, ularning samaradorligi 2,9 va 4,8 % oʻsgan xolos.

Iqtisodiy tahlilning muhim vazifalaridan biri ushbu omillarning natija koʻrsatkichi oʻzgarishiga taʼsirini aniqlashdan iboratdir.

Sotilgan mahsulot oʻzgarishiga taʼsir qiluvchi barcha omillarni odatdagi amaliyotda qoʻllanilayotgan usulda hisoblanadigan boʻlsa, ularning bir-biri bilan bogʻliqligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Q_{\text{so}} = \left[\left(\frac{\Delta x \cdot 100}{\Delta Q} \right) + \left(100 - \frac{\Delta x \cdot 100}{\Delta Q} \right) \right] + \left[\left(\frac{\Delta A_6 \cdot 100}{\Delta Q} \right) + \left(100 - \frac{\Delta A_6 \cdot 100}{\Delta Q} \right) \right] + \\ + \left[\left(\frac{\Delta A_{\text{im}} \cdot 100}{\Delta Q} \right) + \left(100 - \frac{\Delta A_{\text{im}} \cdot 100}{\Delta Q} \right) \right] + \left[\left(\frac{\Delta H_a \cdot 100}{\Delta Q} \right) + \left(100 - \frac{\Delta H_a \cdot 100}{\Delta Q} \right) \right];$$

Agar shu usul bilan hisoblaydigan boʻlsak sotilgan mahsulot hajmining 2020 yildagi miqdori 2018 yilga nisbatan oʻzgarishiga taʼsir qiluvchi omillar quyidagicha boʻladi:

$$\begin{aligned} \Delta Q_{\text{oo}} &= \left[\left(\frac{21,7 \cdot 100}{30,6} \right) + \left(100 - \frac{21,7 \cdot 100}{30,6} \right) \right] + \left[\left(\frac{18,0 \cdot 100}{30,6} \right) + \left(100 - \frac{18,0 \cdot 100}{30,6} \right) \right] + \\ &+ \left[\left(\frac{23,9 \cdot 100}{30,6} \right) + \left(100 - \frac{23,9 \cdot 100}{30,6} \right) \right] + \left[\left(\frac{26,8 \cdot 100}{30,6} \right) + \left(100 - \frac{26,8 \cdot 100}{30,6} \right) \right] = \\ &= (70,9 + 29,1) + (58,8 + 41,2) + (78,1 + 21,9) + (87,6 + 12,4) = 400 \% \\ &= 100,0 + 100,0 + 100,0 + 100,0 = 400,0 \% \end{aligned}$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori 2020 yilda 2019 yilga nisbatan quyidagi holatga ega bo'ladi:

$$\begin{aligned} \Delta Q_{\text{oo}} &= \left[\left(\frac{12,6 \cdot 100}{13,5} \right) + \left(100 - \frac{12,6 \cdot 100}{13,5} \right) \right] + \left[\left(\frac{7,2 \cdot 100}{13,5} \right) + \left(100 - \frac{7,2 \cdot 100}{13,5} \right) \right] + \\ &+ \left[\left(\frac{11,1 \cdot 100}{13,5} \right) + \left(100 - \frac{11,1 \cdot 100}{13,5} \right) \right] + \left[\left(\frac{8,3 \cdot 100}{13,5} \right) + \left(100 - \frac{8,3 \cdot 100}{13,5} \right) \right] = \\ &= (93,3 + 6,7) + (53,3 + 46,7) + (82,2 + 17,8) + (61,5 + 38,5) = 400 \% \\ &= 100,0 + 100,0 + 100,0 + 100,0 = 400,0 \% \end{aligned}$$

Ko'rinib turibdiki, barcha omillarning ta'siri 400,0 foizni tashkil qiladi. Natija ko'rsatkichi atigi 100,0 foiz o'sgan bir paytda omillar ta'siri 400,0 foiz o'sgan bo'lishi mumkin emas. Ammo chop qilingan adabiyotlarda¹⁶ va amaliyotda shu usul qo'llanilib kelinmoqda.

Ushbu adabiyotlarda keltirilgan usullarga asoslangan holda ularni takomillashtirish bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, chop qilingan adabiyotlarda har bir guruh omillarni hisoblaganda aynan shu omillar e'tiborga olinib boshqa omillarni esa shu jarayonda ta'sir qilmagan deb faraz qilinadi. Natijada, har bir guruh omillar ta'sirining umumiy miqdori tahlil qilinayotgan ko'rsatkichning umumiy farqini 100 foiz qoplaydi. Yuqoridagi chizmada omillar to'rt guruhga bo'linadi. Amaldagi usullar bilan hisob-kitob qilinsa natija ko'rsatkichining o'zgarishiga to'rt guruh omillarning ta'siri 400 foizni tashkil qiladi. Chunki bu holatlarda «takroriy hisob»ga yo'l qo'yiladi.

¹⁶ Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Минск: ООО «Новое знание», 2000. - 460-467 бетлар; Баканов М.И., Шеремет А.Д. Теория экономического анализа. М.: Финансы и статистика, 1994. - 60-75 бетлар; Абдукаримов И.Т. ва бошбалам. Матлубот кооперациясининг хўжалик фаолиятини анализ ўйлиши. Т.: Ўлитувчи, 1989. - 32-53 бетлар; Пардаев М.Ў. Ильтисодий тақлил назарияси. Самарлянд: Зарафшон, 2018. - 87-126 бетлар; Пардаев М.Ў., Исроилов Б.И. Ильтисодий тақлил. I-ўлисм. Тошкент: «Ильтисодиёт ва кульў дунёси» нашриёт ўйи, 2018. - 31-72 бетлар ва к.к.

Amaldagi usullarning bunday kamchiligini bartaraf qilish uchun har bir guruh omilni alohida qaramasdan, ularni bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda va aloqada deb qaraymiz va har bir guruhga, tegishli ravishda salmoqlilik koeffitsientini joriy qilishni tavsiya qilamiz. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillarning salmoqlilik koeffitsientini, taxminan, quyidagicha deb belgilash mumkin:

- * mehnat resurslaridan foydalanish bilan bog'liq omillar - 0,40;
- * asosiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq omillar - 0,30;
- * aylanma mablag'lar bilan bog'liq omillar - 0,20;
- * nomoddiy aktivlar bilan bog'liq omillar - 0,10.

Ushbu salmoqlilik koeffitsientini aniqlashda mantiqiy-evristik tahlil usullaridan foydalanildi. Odatda bunday koeffitsientlar ekspert yo'li bilan aniqlanadi. Biz metodologik asos bo'lish uchun ushbu ko'rsatkichni aniqlashda shu oddiy mantiqiy-evristik usulni qo'llash bilan cheklandik.

Agar omillarning ushbu salmoqlilik koeffitsientini qo'llab hisoblaydigan bo'lsak barcha omillar ta'siri 100 foizga teng bo'ladi. Bu uchun quyidagi formulani tavsiya qilamiz:

$$\Delta Q_{\text{bo}} = \left[\left(\frac{\Delta x \cdot 100}{\Delta Q} \right) \cdot K_{\text{cmp}} + \left(100 - \frac{\Delta x \cdot 100}{\Delta Q} \right) \cdot K_{\text{cmp}} \right] + \left[\left(\frac{\Delta Av \cdot 100}{\Delta Q} \right) \cdot K_{\text{sav}} + \left(100 - \frac{\Delta Av \cdot 100}{\Delta Q} \right) \cdot K_{\text{sav}} \right] + \left[\left(\frac{\Delta Aym \cdot 100}{\Delta Q} \right) \cdot K_{\text{saym}} + \left(100 - \frac{\Delta Aym \cdot 100}{\Delta Q} \right) \cdot K_{\text{saym}} \right] + \left[\left(\frac{\Delta Na \cdot 100}{\Delta Q} \right) \cdot K_{\text{sna}} + \left(100 - \frac{\Delta Na \cdot 100}{\Delta Q} \right) \cdot K_{\text{sna}} \right];$$

Bunda: ΔQ_{bo} - natija ko'rsatkichining barcha omillar ta'sirida o'zgarganligi;

ΔX - xodimlar sonining o'zgarish sur'ati;

ΔQ – sotilgan mahsulot hajmining o'zgarish sur'ati;

ΔAv - asosiy vositalar o'rtacha qiymatining o'zgarish sur'ati;

ΔAym - aylanma mablag'lar o'rtacha qiymatining o'zgarish sur'ati;

ΔNa - nomoddiy aktivlar o'rtacha qiymatining o'zgarish sur'ati;

K_{smr} - mehnat resurslari bilan bog'liq omillarning solmoqlilik koeffitsienti;

K_{sav} - asosiy vositalar bilan bog'liq omillarning solmoqlilik koeffitsienti

K_{saym} - aylanma mablag'lar bilan bog'liq omillarning solmoqlilik;

K_{sna} - nomoddiy aktivlar bilan bog'liq omillarning solmoqlilik koeffitsienti.

Agar ushbu formulaga jadval ma'lumotlarini qo'llab echadigan bo'lsak, u holda 2020 yilning 2018 yilga nisbatan o'zgarishi bo'yicha quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} \Delta Q_{\text{oo}} = & \left[\left(\frac{12,6 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,4 + \left(100 - \frac{12,6 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,4 \right] + \\ & + \left[\left(\frac{7,2 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,3 + \left(100 - \frac{7,2 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,3 \right] + \left[\left(\frac{11,1 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,2 + \left(100 - \frac{11,1 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,2 \right] + \\ & + \left[\left(\frac{8,3 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,1 + \left(100 - \frac{8,3 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,1 \right] = \\ & [(70,9 \cdot 0,4) + (29,1 \cdot 0,4)] + [(58,8 \cdot 0,3) + (41,2 \cdot 0,3)] + [(78,1 \cdot 0,2) + (21,9 \cdot 0,2)] + \\ & [(87,6 \cdot 0,1) + (12,4 \cdot 0,1)] = (28,4 + 11,6) + (17,6 + 12,4) + \\ & + (15,6 + 4,4) + (8,8 + 1,2) = 100,0 \% \end{aligned}$$

2020 yilning 2018 yilga nisbatan o'zgarishi bo'yicha ham xuddi shunday holatda hisoblanishi mumkin:

$$\begin{aligned} \Delta Q_{\text{oo}} = & \left[\left(\frac{12,6 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,4 + \left(100 - \frac{12,6 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,4 \right] + \\ & + \left[\left(\frac{7,2 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,3 + \left(100 - \frac{7,2 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,3 \right] + \left[\left(\frac{11,1 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,2 + \left(100 - \frac{11,1 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,2 \right] + \\ & + \left[\left(\frac{8,3 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,1 + \left(100 - \frac{8,3 \cdot 100}{13,5} \right) \cdot 0,1 \right] = \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} \Delta Q_{\text{bo}} = & \\ & 3,3 \cdot 0,4 + (6,7 \cdot 0,4) + [(53,3 \cdot 0,3) + (46,7 \cdot 0,3)] + [(82,2 \cdot 0,2) + (17,8 \cdot 0,2)] + \\ & [(61,5 \cdot 0,1) + (38,5 \cdot 0,1)] = (37,3 + 2,7) + (16,0 + 14,0) + (16,4 + 3,6) + (6,2 + 3,8) = 10 \\ & 0,0 \% \end{aligned}$$

Ushbu ma'lumotlar asosida quyidagicha tahliliy jadval tuzishni tavsiya qilamiz (3.18-jadval).

3.18 - Jadval

«Start Servis» mas’uliyati cheklangan jamiyatda sotilgan mahsulot hajmiga ta’sir qiluvchi omillarning hisob-kitobi

Omllarning nomi	2020 yil o‘zgarishi odatdagi usulda		2020 yil o‘zgari-shi biz tavsiya qilgan usulda		Omllarning salmoqlilik koeffitsienti
	2018 yilga nisbatan	2019 yilga nisbatan	2018 yilga nisbatan	2019 yilga nisbatan	
1	2	3	4	5	6
1. Sotilgan mahsulot o‘zgarishi:			(2 _{us} X6 _{us})	(2 _{us} X6 _{us})	
2. Xodimlar soni evaziga, %	70,9	93,3	28,4	37,3	0,4
3. Mehnat unumdorligi evaziga, %	29,1	6,7	11,6	2,7	
4. Asosiy vositalar evaziga, %	58,8	53,3	17,6	16,0	0,3
5. Asosiy vositalar samaradorligi evaziga, %	41,2	46,7	12,4	14,0	
6. Aylanma mablag‘lar evaziga, %	78,1	82,2	15,6	16,4	0,2
7. Aylanma mablag‘lar samaradorligi evaziga, %	21,9	17,8	4,4	3,6	
8. Nomoddiy aktivlar evaziga, %	87,6	61,5	8,8	6,2	0,1
9. Nomoddiy aktivlar samaradorligi evaziga, %	12,4	38,5	1,2	3,8	
Jami omillar ta’siri	400,0	400,0	100,0	100,0	1,0

Manba: 3.17-jadval asosida qilingan hisob-kitob natijasida olindi.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan yaqqol ko‘rish mumkinki, amaldagi usul bilan hisoblaganda barcha omillar ta’siri 400,0 % ni tashkil qildi. Agar omillar guruhi beshta bo‘lganda edi, ularning umumiy ta’siri 500,0 % bo‘lgan bo‘lur edi. Agar uchta bo‘lsa 300,0 % va h.k. Biz tavsiya qilgan usul bilan hisoblansa omillarning guruhi va umumiy sonidan qat’iy nazar bir xil natijaga, ya’ni 100 % lik miqdorga erishish mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, bizning tavsiyamiz, natija o‘zgarishiga bir qancha omillar ta’sirini bir vaqtning o‘zida birdaniga hisoblash mumkin bo‘ladi. Agar ushbu tavsiyamiz amaliyotga qo‘llanilsa tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga to‘g‘ri baho berish, uni odilona boshqarish imkonini beradi.

Tayanch iboralar:

Biznes-rejaning asoslanganligi va tig'izligini aniqlash; bozor; talab va taklif; raqobat; tovar mahsuloti; yalpi mahsulot; sotilgan mahsulot; sof mahsulot; normativ sof mahsulot; shartnoma bahosi; amaldagi ulgurji baho; tovar yetkazib berish bo'yicha shartnoma majburiyati; tovar balansi; sotilmagan mahsulotni yil boshi va yil oxiridagi qoldig'i; tovar mahsulotini solishtirma ulguji bahosi; narxlar indeksi; assortiment; to'liq assortiment; nomenklatura; mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi; mahsulot sifati; davlat standarti; tarmoq standarti; texnikaviy shartlar; mahsulot navi; o'rtacha tortilgan nav; o'rtacha navlilik koeffitsienti; o'rtacha navning o'rtacha tortilgan bahosi; mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish; bir maromda ish yuritish koeffitsienti; mehnat omillari; mehnat vositalari omillari; nomoddiy aktivlar omillari; intensiv omillar; ekstensiv omillar;

Nazorat savollari

1. Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni tahlil qilishning ahamiyati va vazifalari nimadan iborat?
2. Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.
3. Sotilgan mahsulotning korxonada faoliyatini ifodalovchi umumlashgan ko'rsatkichlar tizimida tutgan o'rni.
4. Sotilgan mahsulot bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili.
5. Tovar mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlil qilish.
6. Mol yetkazib berish bo'yicha shartnoma majburiyatini bajarilishini tahlil qilish.
7. Xo'jalik shartnomalari asosida mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlil qilish.
8. Mahsulotning sifat deganda nima tushuniladi?
9. Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sifatiga qanday baho beriladi?
10. Yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari sifatiga qanday baho beriladi?
11. O'rtacha navlilik koeffitsienti qanday aniqlanadi?
12. O'rtacha navni o'rtacha tortilgan bahoda qanday aniqlanadi?

13. Mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish koeffitsienti qanday aniqlanadi.
14. Mahsulot ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
15. Intensiv omillar nima?
16. Ekstensiv omillar qanday omillar?

«Mahsulot ishlab chiqarish va sotishni tahlil qilish» mavzusi bo'yicha test savollari

1. Korxonada faoliyatini baholovchi hajm ko'rsatkichlarini aniqlang.

- A. Ishlovchilar soni, mehnat unumdorligi, Vosita samarasi, vosita sig'imi, material samarasi, materil sig'imi, vositalar bilan qurollanish darajasi;
- B. Asosiy vositalarning miqdori, tarkibi, asosiy vositalarning eskirishi, yangilanish va yaroqlilik summalari;
- V. Yalpi foyda, sof foyda, mahsulot sotishdan tushgan foyda, taqsimlanmagan foyda, rentabellik ko'rsatkichlari;
- G. Tovar mahsuloti, sotilgan mahsulot, sof mahsulot;
- D. Ishlab chiqarish zahiralari, mahsulot tannarxi, mehnat unumdorligi, aylanma kapitalning aylanishi.

2. Tovar mahsuloti deganda qanday mahsulot tushuniladi?

- A. Yangidan hosil qilingan qiymat;
- B. Asosiy va qo'shimcha ish xaqini, ijtimoiy sug'urta uchun ajratmalar va foydani jamlash;
- V. Mahsulotga ketgan ishlab chiqarish xarajatlari bilan moddiy xarajatlar va asosiy vositalarning amortizatsiyasi summasi o'rtasidagi farq;
- G. Jami ishlab chiqarish xarajatlari minus mehnat xarajatlari;
- D. Barcha ishlab chiqarish bosqichlaridan o'tgan va omborga topshirilgan mahsulot.

3. Sotilgan mahsulot deganda qanday mahsulot tushuniladi?

- A. Tovarlarini korxonada omborlaridan iste'molchilarga yuborilishi;
- B. Hisob-kitob xujjatlarini bankga taqdim qilishi;
- V. Tovarlarini iste'molchilarga yuborilib, uning puli mol yuboruvchilarning bankdagi hisob raqamiga o'tkazilishi;
- G. Pulning kassaga tushishi (naqd hisob-kitobda)
- D. Barcha ishlab chiqarish bosqichlaridan o'tgan va omborga topshirilgan mahsulot.

4. Sotilgan mahsulot xajmiga ta'sir etuvchi omillarni qaysi formula orqali aniqlash mumkin?

- A. $\Delta R = T1 - M + T2$
- B. $\Delta R = T1 - T2 + M$
- V. $\Delta R = T1 + M - T2$
- G. $\Delta R = M + T2 + T1$
- D. $\Delta R = T1 + T2 + M$

5. Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum qanday aniqlanadi?

- A. Mahsulot sotishdan tushgan Yalpi tushumdan qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq chegiriladi;
- B. Mahsulot sotishdan tushgan Yalpi tushumdan qo'shilgan qiymatdan olinadigan aksiz solig'i, mol oluvchilarga beriladigan bahodagi chegirish (skidka) va qaytarilgan tovarlar;
- V. Mahsulot sotishdan tushgan Yalpi tushumdan davr xarajatlari chegiriladi;
- G. Mahsulot sotishdan tushgan Yalpi tushumdan aksiz solig'i va davr xarajatlari chegiriladi;
- D. Mahsulot sotishdan tushgan Yalpi tushumdan davr xarajatlari, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq va aksiz solig'i chegiriladi.

6. Sof mahsulot hajmi qanday aniqlanadi?

- A. Tovar mahsuloti xajmidan moddiy xarajtlar va amortizatsiya summasi chegiriladi;
- B. Tovar mahsuloti hajmidan moddiy va mehnat xarajatlari chegiriladi;
- V. Tovar mahsuloti hajmidan mehnat xarajatlari chegiriladi;
- G. Tovar mahsuloti hajmidan mehnat xarajatlari va amortizatsiya summasi chegiriladi;
- D. Tovar mahsuloti hajmidan mehnat xarajatlari va sotsial sug'urta uchun ajratmalar summasi chegiriladi.

7. SHartnoma majburiyati bo'yicha iste'molchilarga mol yetkazib berish bo'yicha rejaning bajarilishini aniqlang.

- A. Reja hajmidagi sotish summasidan yetkazib berilmagan mahsulotlarning summasi chegiriladi va sotish xajmining reja darajasiga bo'linadi va 100 ga ko'paytiriladi;

- B. Yetkazib berilmagan mahsulot xajmi haqiqatda sotilgan mahsulot xajmiga bo'linadi va 100 ga ko'paytiriladi;
- V. Yetkazib berilmagan mahsulot xajmi rejadagi mahsulot xajmiga bo'linadi va 100 ga ko'paytiriladi;
- G. Haqiqatda sotish summasidan yetkazib berilmagan mahsulotlar summasi chiqariladi va sotish hajmining reja darajasiga bo'linadi;
- D. Haqiqatdagi sotish xajmi sotish xajmining reja darajasiga bo'linadi va 100 ga ko'paytiriladi.

8. Mahsulotning assortimenti bo'yicha rejaning o'rtacha bajarilish foizini aniqlang.

- A. Mahsulot assortimenti bo'yicha rejaning bajarilish foizi reja bo'yicha va rejadan ortiqcha bajarilgan mahsulotlar sonini korxonada ishlab chiqariladigan barcha mahsulotlar soniga nisbati tariqasida;
- B. Mahsulot assortimenti bo'yicha rejaning o'rtacha bajarilish foizi sifatida mahsulot turlari bo'yicha rejaning eng kam bajarilishi olinadi;
- V. Reja assortimenti hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulotlar summasi jamlab, uni 100 ga ko'paytirib, so'ngra reja bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot xajmiga bo'linadi;
- G. Reja assortimenti hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulotlar summasini jamlab, uni haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot xajmiga bo'linadi, so'ngra 100 ga ko'paytiriladi;
- D. Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi summasi reja bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi summasiga bo'linadi va 100ga ko'paytiriladi.

9. Mahsulotning sifati deganda qanday mahsulot tushuniladi?

- A. Mahsulotning Davlat andozasiga (standartiga), tarmoq andozasiga, texnikaviy shartlarga mos keladigan hamda iste'molchilarning talablarini qondira oladigan mahsulotlar;
- B. Vatanimizda va xorijiy Davlatlarda erishiladigan yutuqlarga mos va istiqbolli mahsulotlar;
- V. Mahsulot naviga qarab;
- G. Mahsulotning barcha mo'ljallangan maqsadlarda foydalanishga yaroqli xususiyatlarning majmuasi;
- D. YAroqsiz (brak) mahsuloti darajasi, ballar bo'yicha.

10. Mahsulotning o'rtacha tortilgan navini aniqlang.

- A. Berilgan har bir nav bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdorini aynan shu nav belgisiga ko'paytirib, so'ngra xosil bo'lgan summani hamma navlar bo'yicha ishlab chiqarilgan jami mahsulotlarning miqdoriga bo'linadi;
- B. Haqiqatda hamma navlar bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori jami navlar bo'yicha rejalashtirilgan mahsulot xajmiga bo'linadi;
- V. Haqiqatda xamma navlar bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori jami navlar bo'yicha rejalashtirilgan mahsulot xajmiga bo'linib, so'ngra, navlar soniga ko'paytiriladi (agar 3 ta nav bo'lsa, 3 ga, 4 ta bo'lsa 4-ga);
- G. Haqiqatda hamma navlar bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori jami navlar bo'yicha rejalashtirilgan mahsulotlar xajmiga bo'linib, so'ngra 100 ga ko'paytiriladi;
- D. To'g'ri javob yo'q.

11. Mahsulotning o'rtacha navini o'rtacha tortilgan bahoga asosan aniqlang.

- A. Hamma navlar bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot soni har bir nav mahsulot birligining bahosiga ko'paytiriladi;
- B. Hamma navlar bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot soni xar bir nav mahsulot birligining bahosiga bo'linadi;
- V. Xar bir nav bo'yicha mahsulot miqdori aynan shu navlar bahosiga ko'paytirilib, so'ngra hosil bo'lgan qiymat ishlab chiqarilgan mahsulotlarning haqiqatdagi miqdoriga bo'linadi;
- G. Xar bir nav bo'yicha mahsulot soni aynan shu navlar bahosiga ko'paytiriladi;
- D. Xar bir nav bo'yicha mahsulot miqdori aynan shu navlar bahosiga bo'linadi.

4 – BOB. KORXONALARNING MEHNAT RESURSLARI VA MEHNATGA HAQ TO‘LASHNI TAHLIL QILISH

4.1. Korxonalarining mehnat omillarini tahlil qilishning ahamiyati va vazifalari

Ishlab chiqarish dasturini muvaffaqiyatli bajarish avvalambor korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillari tarkibida quyidagi ko'rsatkichlar o'rganiladi:

1. Korxonaning ishchi kuchi bilan qay darajada ta'minlanganligi.
2. Ish vaqtidan samarali foydalanishi.
3. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi (mehnat unumdorligining darajasi).

Ushbu qayd etilgan mehnat omillarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'rsatgan ta'sir doirasi tarixan turlicha bo'lgan. Chunonchi, texnika va texnologiya jarayonlar uncha ravnaq topmagan sharoitda mahsulot ishlab chiqarish asosan qo'shimcha tarzda ishchi kuchini jalb qilish evaziga erishilgan. Hozirgi sharoitda, ilmiy-texnika taraqqiyoti rivojlanayotgan davrda mahsulot ishlab chiqarish asosan mehnat unumdorligini oshirish hisobiga erishiladi.

Mehnat omillari korxonada ishining hamma sohasiga daxldor. Mehnat qilinmasa har qanday qudratli texnika ham «o'lik» hisoblanadi. Shu tufayli korxonalarining ishini o'nglash uchun asosan mehnat omillaridan oqilona foydalanish lozim. Bunga erishishi uchun tahlil qilib borishni taqozo qiladi.

Tahlilning vazifasi mehnatdan samarali foydalanishni tashkil qiluvchi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli axborotlarni yetkazib berishdan iboratdir. Bu esa o'z navbatida juda ko'p omillarni bajarishni taqozo qiladi.

Mehnat omillarini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-T sonli «Mehnat to'g'risida hisobot» shaklidan olinadi.

4.2. Korxonalarni ishchi kuchi bilan ta'minlanganligini tahlil qilish

Korxonada ishlovchi barcha xodimlar, ta'kidlanganidek, ikki turkumga bo'linadi: asosiy faoliyatda ishlovchi va asosiy bo'lmagan faoliyatda xizmat qiluvchi xodimlar. O'z navbatida asosiy faoliyatda

xizmat qiluvchi xodimlar quyidagi toifalarga bo'linadi: ishchilar, xizmatchilar, shu jumladan: rahbarlar, mutaxassislar va boshqa xizmatchilar. Ushbu qayd etilgan xodimlar mahsulot ishlab chiqarishda birday qatnashmaydi. Agar, rahbarlar, mutaxassislar va xizmatchilar soni bo'yicha faqat mutlaq aniqlash etarli bo'lsa, ishchilar soni bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish xajmining o'sish sur'atini hisobga olgan holda nisbiy farq ham aniqlanadi.

Ishchilar soni bo'yicha nisbiy farqni aniqlash usuli quyidagicha:

O'tgan yildagi ishchilarning amaldagi soni ($X_{o'y}$) tovar mahsulotining o'tgan yilga nisbatan aniqlangan o'sish sur'atiga (ΔT_{NF}) ko'paytirilib, so'ngra yuzga bo'linadi. SHu tariqa hisoblangan ko'rsatkich ishchilarning joriy yildagi haqiqiy soni (X_h) bilan taqqoslanadi. Olingan natija ishchilar soni bo'yicha nisbiy farqni (ΔX_{nf}) ko'rsatadi.

$$\Delta X_{nf} = X_h - \left(\frac{X_{yil} \cdot \Delta X_{nf}}{100} \right)$$

Nisbiy kamlik esa mehnat unumdorligini o'sganligidan dalolat beradi. Korxonaning ishchi kuchi bilan qay darajada ta'minlanganligini tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (4.1-jadval).

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, korxonada o'tgan yilga nisbatan hamma xodimlarning soni 176 kishiga oshdi. Undan ishchilar soni 223 kishiga oshgan bo'lsa, xizmatchilarning soni esa 47 kishiga kamaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 11,7 foizga oshgan. Korxonada ishlab chiqarish xodimlarining soni esa faqat 3,1 foizga ko'paydi. Bunday maqbul nisbat korxonaning mehnat resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanganligidan dalolat beradi. Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash lozimki, texnika taraqqiyotining jadal ravnaqi o'z navbatida mutaxassislarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasidagi ahamiyatini beqiyos oshiradi. Shu sababli ularning mutlaq sonining yoki salmog'ining kamayishini har doim ham ijobiy baholanaverilmaydi. Yuqorida aytilganidek, ishchilar soni bo'yicha mutlaq farqni aniqlashdan tashqari yana nisbiy farqni ham aniqlash kerak. Ishchilar soni bo'yicha nisbiy farqni aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (4.2-jadval).

4.1 - Jadval

Korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanganligining hisob-kitobi

Ishlovchilar toifasi	Haqiqatda		O'tgan yilga nisbatan mutlaq farq (+,-)	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
	O'tgan yilda	Joriy yilda		
Xamma xodimlar	5973	6149	+176	103,0
SHu jumladan:				
Asosiy faoliyatda	5788	5964	+176	103,1
Undan:				
Ishchilar	5203	5426	+223	104,3
Xizmatchilar, rahbarlar, mutaxassislar va boshqa xizmatchilar	585	538	-47	92,0
Ulardan:				
Rahbarlar				
Mutaxassislar	209	192	-17	91,9
Asosiy bo'lmagan faoliyatdagi xodimlar	299	276	-24	92,0
	185	185	-	100,0

4.2 - Jadval.

Ishchilar soni bo'yicha mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash

Ko'rsatkichlar	Haqiqatda o'tgan yilda	Haqiqatda joriy yilda	Tovar mahsuloti hajmi-ning o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (111,7 %)	Farqi (+,-)	
				Mutlaq	Nisbiy
Ishchilar	5203	5426	5812	+223	-386

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, mahsulot hajmining o'sish sur'ati hisobga olmaganda ishchilar soni bo'yicha mutlaq farq 223 kishini (5426-5203) tashkil qiladi. Mahsulot hajmining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atini (111,7 foiz) inobatga olganda esa, nisbiy farq 386 kishiga (5426-5812) kamayganligini ko'ramiz $\left(5426 - \frac{5203 \times 111,7}{100}\right)$. Bu esa korxonada jamoasining mehnat unumdorligini oshirish bo'ladigan ulkan yutuqdir.

4. 3. Mehnat unumdorligi darajasini tahlil qilish

Mehnat unumdorligi vaqt birligi (soat, smena, oy, chorak, yil) ichida bitta xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori Yoki bir mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarf qilingan vaqt birligi bilan o'lchanadi.

Mahsulot hajmini muttasil oshirish va shu asosda xalqning turmush farovonligini oshirishdagi muhim omil – mehnat unumdorligini beto'xtov oshirishdir. Hukumatimizning qarorlarida ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda mehnat unumdorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi chuqur ilmiy tarzda tahlil qilib berilgan.

Mehnat unumdorligini oshirish yo'llari ko'p qirralidir. Bu ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish, yangi mashina va texnologiyalarni joriy qilish, ishlayotgan dastgohlarni zamonaviylashtirish, dastgohlardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishda mehnatni ilmiy tarzda tashkil etishni yaxshilash, ish vaqtidagi yo'qotishlarni tugatish, ilg'or ishlab chiqarish tajribalaridan foydalanish, mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish tizimini to'g'ri tashkil qilish va h.k.lar.

Mehnat unumdorligini hisoblashda quyidagi uchta ko'rsatkichni qo'llash mumkin:

1. Natural ko'rsatkichlar.
2. Shartli-natural ko'rsatkichlar.
3. Pul (qiymat) ko'rsatkichlar.

Natural ko'rsatkichlar bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan (tonna, metr, dona va x.k.) korxonalarda qo'llaniladi. Masalan, neft qazib chiqarish natural holda massa Yoki hajm birliklarida. Yalpi don hosili tonna Yoki sentnerlarda, paxta etishtirish sentnyerda, yengil avtomobillar ishlab chiqarish donalarda o'lchanadi va hokazo. Keyingi yillarda mahsulot natural o'lchovlarini takomillashtirish yuzasidan ancha ishlar qilindi. Masalan, xom ashyodan yaxshiroq foydalanish maqsadida qog'oz ishlab chiqarish tarmog'ida qog'oz ishlab chiqarish oldingidek tonnalarda emas, balki kvadrat metrlarda o'lchanadi. Natural ko'rsatkichlar hozirgi bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik mexanizmining eng zarur elementidir.

Shartli-natural ko'rsatkichlar turli xil mahsulotlarni yagona o'lchovga keltirishga asoslangan. Masalan, 15 ot kuchi birligiga keltirib

hisoblangan traktorlar, shartli bankada ishlab chiqarilgan konserva mahsulotlari, dinometrda o'lchamda ifodalanadigan ichimliklar va h.k.

Qiymat ko'rsatkichlari turli xil mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarda qo'llaniladi. Qiymat ko'rsatkichlari korxonalar va birlashmalar ishini baholashda, xo'jalik hisobi va moddiy rag'batlantirishda, ishlab chiqarish samaradorligini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Qiymat ifodasida korxonalarining ishlab chiqargan mahsulot hajmi belgilanadi, mahsulot tannarxi va mahsulot qiymatidagi foyda o'rtasidagi o'zaro nisbatlar aniqlanadi. Mehnat unumdorligi, vosita samaradorligi va mahsulotga material sarfi qiymat ifodasida belgilanadi. Realizatsiya qilingan tovarlar va sof mahsulotlar ham qiymat ko'rsatkichlarida hisoblanadi. Qiymat ko'rsatkichini qo'llashda ikki shartni hisobga olish kerak: mahsulotga qo'yilgan baho va uning assortimenti o'zgarmasligi.

Mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda vaqt birligi davomida hosil qilingan mahsulot miqdori bilan o'lchanadi. Bunda individual yakka tartibda ishlovchining (lokal) uchastka, sexdagi, korxonalar, tarmoqdagi va barcha iqtisodiyot ko'lamidagi mehnat unumdorligi farqlanadi. Ijtimoiy mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan Yalpi ichki mahsulot miqdori bilan o'lchanadi. Korxonalarida mehnat unumdorligining darajasi tovar mahsulotining hajmini ishlab chiqarish xodimlarining soniga nisbati bilan aniqlanadi.

Mehnat unumdorligini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-T sonli «Mehnat to'g'risida hisobot» shaklidan olinadi. Ushbu shaklda – mahsulot hajmi, bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi, hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan ish kunlari va ish soatlari berildi. Bu ko'rsatkichlarga binoan bir ishchi tomonidan o'rtacha bir yilda ishlangan kishi kunlarini, ish kunining o'rtacha uzunligini va bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik va soatlik ish unumini aniqlash mumkin.

Tahlil uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (4.3-jadval).

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, hisobot davrida bir ishlab chiqaruvchi xodimga to'g'ri keluvchi haqiqatdagi o'rtacha yillik ish unumdorligi o'tgan yilga nisbatan 12612 so'mga ortdi, Yoki uning o'sish sur'ati 108,3 foizni tashkil etdi.

Mehnat unumdorligining hisob-kitobi

№	Ko'rsatkichlar	O'l- chov bir- ligi	Haqi- qatda o'tgan yilda	Haqi- qatda joriy yilda	O'tgan yilga nisba- tan mutloq farq (+, -)	O'tgan yilga nisbata n o'sish sur'ati, %
1.	Tovar mahsulotining o'zgar-mas (qiyosiy) ulgurji bahodagi hajmi	ming so'm	898370	1000910	+102540	111,4
2.	Ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi umumiy soni	Kishi	5788	5964	+176	103,0
3.	Ishchilarning o'rtacha ro'yxatidagi soni	Kishi	5203	5426	+223	104,3
4.	Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan ish kunlari	kishi kuni	1252156	1289944	+3778	103,0
5.	Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan ish soatlar	Kishi soati	9701061	9985046	+283985	102,9
6.	Bitta ishlab chiqarish xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish unumdorligi (1q : 2q)	so'm	155213	167825	+12612	108,1
II. Hisoblangan analitik ko'rsatkichlar:						
7.	Ishchilarning umumiy ishlab chiqarish xodimlardagi ulushi (3q x100:2q)	%	89,89	90,98	+1,09	101,2
8.	Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi – kunlari (4q : 3q)	Kun- lar	240,66	237,73	-2,93	98,8
9.	Ish kunining o'rtacha uzunligi (5q : 4q)	soat	7,75	7,74	-0,01	99,9
10.	Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish unumdorligi (1q : 3q)	so'm	172664	184466	+11802	106,8
11.	Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha kunlik ish unumdorligi (1q : 4q)	S.t.	717,46	775,93	+55,47	108,2
12.	Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha soatlik ish unumdorligi (1q : 5q)	S.t.	92,60	100,24	+7,64	108,25

Shuningdek, bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik, kunlik va soatlik ish unumdorligining o'sish sur'atlari mutanosib ravishda 106,8; 108,2; 108,3 foizni tashkil etdi. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligining o'sish sur'ati kunlik ish unumdorligining o'sish sur'atidan 1.3 foiz orqada. (108.2-106.8). Bunga asosan ishchilarning kun

bo'yi bekor turib qolishlari sabab bo'lgan. Korxonada bo'yicha har bir ishchi bir yilda qariyb 3 kun ishlamagan. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik ish unumdorligining o'sish sur'ati soatlik ish unumdorligidan 0,1 foiz orqada (108,3-108,2). Bunga esa ishchilarning smena ichida bekor vaqt yo'qotishlari sabab bo'ladi. Bizning misolimizda korxonada bo'yicha ish kunining o'rtacha uzunligi 0,01 soatga kamaygan.

Hisobot davrida tovar mahsulotning mutlaq hajmi o'tgan yilga nisbatan 102540 ming so'mga oshgan. Ma'lumki, mahsulot ishlab chiqarish hajmi yo xodimlar sonini ko'paytirish yo'li bilan Yoki har bir xodimning mehnat unumdorligining oshirilishi orqali o'sib borishi mumkin. Hozirgi sharoitda ularning ikkinchisi hal qiluvchi yo'ldir, zero ishlovchilar sonini ko'paytirish imkoniyati g'oyat cheklangan. Chunki bu qo'shimcha ish haqi to'lashni talab qiladi. Korxonada esa bunday imkoniyatning o'zi tanqis.

Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

1. Ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar sonining o'zgarishi.
2. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligi.

Birinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun ishlovchilar sonida sodir etilgan farqni o'tgan yildagi bir ishlovchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish unumdorligiga ko'paytiriladi. Bizning misolimizda joriy yilda haqiqatdagi ishlovchilarning soni o'tgan yilga nisbatan 176 kishiga oshgan, o'tgan yildagi bir ishlovchiga to'g'ri keladigan ish unumdorligi esa 155213 so'mni tashkil etgan.

Demak, mahsulot hajmi ko'payishining 27317 ming so'mi (176×155213) Yoki 26,6 foizi $\left[\frac{27317 \times 100}{102540} \right]$ ishlovchilar sonining oshishi evaziga sodir bo'lgan.

Ikkinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligida bo'lgan farqni joriy yildagi ishlovchilarning haqiqatdagi soniga ko'paytiriladi: ya'ni $12612 \times 5964 = 75218$ ming so'm. Demak, mahsulot hajmini ko'paytirishning 75218 ming so'mi Yoki 73,4 foizi $\left[\frac{75218 \times 100}{102540} = 73,4\% \right]$ mehnat unumdorligini oshirish hisobiga hosil qilingan.

Ikki omilning yig'indisi $27317 + 75218 = 102535$ ming so'm mahsulot hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan bo'lgan mutlaq farqqa teng. Bu yerda besh ming so'mga farq raqamlarni yaxlitlash evaziga sodir bo'lgan.

Bizning misolimizda tovar mahsuloti bo'yicha bir sanoat ishlab chiqarish xodimiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligi joriy yili o'tgan yilga nisbatan 12,6 ming so'mga oshgan. Ishlovchilarning ish unumi darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz (4.4-jadval).

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligi o'tgan yilga nisbatan 12,6 ming so'mga oshgan.

Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

1. Ishchilarning ishlovchi xodimlar tarkibidagi salomg'ining o'zgarishi.
 $+1,09 \times 172,7 = +1,9$ ming so'm.

4.4 - Jadval

Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'lchov birli-gi	Haqiqatda		O'tgan yilga nisbatan mutloq farq	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %.
		O'tgan yilda	Joriy yilda		
1. Tovar mahsuloti	ming so'm	898370	1000910	+102540	111,41
2. Ishlab chiqarish xodimlarining o'rtacha ro'yxatdagi soni, jami	kishi	5788	5964	+176	103,04
SHu jumladan: ishchilar	kishi	5203	5426	+223	104,29
3. Bir ishlovchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mehnat unumdorligi	ming so'm	155,2	167,8	+12,6	108,13
Bir ishchiga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi	ming so'm	172,7	184,5	+11,8	106,84
4. Ishchilarning ishlovchi xodimlar tarkibidagi ulushi	%	89,89	90,98	+1,09	102,21

2. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumining o'zgarishi

$$+11,8 \times 90,98 = +10,7 \text{ ming so'm.}$$

Demak, ikki omilning yig'indisi $(+1,9) + (+10,7) = +12,6$ ming so'm. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligining mutlaq o'sishi ham shu 12,6 ming so'mga teng.

Ishlab chiqaruvchi korxonalarda mahsulot hajmini muttasil ravishda oshirish ishchilarning ish unumdorligiga bevosita bog'liq. Bunga ta'sir

qiluvchi omillarni hisoblash uchun quyidagi jadvalni havlo qilamiz (4.5-jadval).

Ushbu jadvaldan ko‘rinishicha, joriy yili bir ishchiga to‘g‘ri keladigan yillik ish unumdorligi o‘tgan yilga nisbatan 11802 so‘mga oshgan. Bunga quyidagi uch omil ta’sir ko‘rsatgan.

1. Ish vaqtining kun bo‘yicha yo‘qotishlari, $-2,93 \times 7,75 \times 92,6 = -2103$ so‘m
2. Smenalar ichidagi sodir bo‘ladigan ish vaqtining yo‘qotishlari. $-0,01 \times 237,73 \times 92,60 = -220$ so‘m

4.5 - Jadval

Bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumdorligini aniqlash hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birli-gi	Haqiqatda		Mutlaq farq (+,-)	O‘shish sur‘ati, %.
		O‘tgan yilda	Joriy yilda		
1. Tovar mahsuloti	ming so‘m	898370	1000910	+102540	111,41
2. Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni	kishi	5203	5426	+223	104,29
3. Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan ish unumdorligi	so‘m	172664	184466	+11802	106,84
4. Hamma ishchilar tomonidan ishlangan ish kunlari	Kun	1252154	1289923	+37769	103,0
5. Hamma ishchilar tomonidan ishlangan ish soatlari	soat	9,701061	9,985046	+283985	102,95
Hisoblangan ko‘rsatkichlar:					
6. Bir ishchi tomonidan bir yilda o‘rtacha ishlangan ish kunlari (4q : 2q)	kun	240,66	237,73	-2,93	98,73
7. Ish kunining o‘rtacha uzunligi (5q x 4q)	soat	7,75	7,74	-0,01	99,87
8. Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha soatlik ish unumdorligi (1q : 5q)	so‘m	92,6	100,24	+7,64	108,25

3. Bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha soatlik ish unumdorligining o‘zgarishi

$+7,64 + 237,73 \times 7,74 = +14058$ so‘m.

Hisoblangan uch omilning yig‘indisi $(-2103) + (-220) + (+14058) = +11735$ so‘m.

Bu yerda ham bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi ish unumdorligidagi mutlaq farqga (11802) teng. Ozigina farq raqamlarni yaxlitlash evaziga sodir bo‘lgan.

4.4. Ish vaqtidan foydalanishni tahlil qilish

Mehnat unumdorligining o'sishi bevosita ish vaqtidan oqilona foydalanishga bog'liq. Afsuski, ko'p korxonalarda ish vaqtidan qoniqarli foydalanilmaydi. Ayniqsa, hozirgi ishlab chiqarishni jadallashtirish sharoitida bekor yo'qotilgan har bir daqiqaning bahosi qimmatga tushayapti. SHuning uchun mehnat unumdorligining oshishi bilan ish vaqtining har bir daqiqasini qimmati oshib boradi. Ish vaqtidan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichi – hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi soatlari hisoblaniladi. Bizning misolimizda joriy yilda hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi soatlari o'tgan yilga nisbatan 283985 soatga oshgan. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan.

1. Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgarishi. Bu omilning ta'sirini aniqlash uchun ishchilar sonida bo'lgan farqni o'tgan yilda biri ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi kunlari va ish kunining o'rtacha uzunligi ko'paytiriladi, ya'ni $+223 \times 240,66 \times 7,75 = +415921$ kishi soati.

2. Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi kunlarining o'zgarishi. Bu omilning ta'sirini hisoblash uchun bir ishchi tomonidan ishlangan kishi kunlarida bo'lgan farqni joriy yildagi ishchilarning o'rtacha ro'yxatidagi soniga va o'tgan yildagi ish kunining o'rtacha uzunligi ko'paytiriladi, ya'ni $-2,93 \times 5426 \times 7,75 = -123211$ ish soati.

3. Ish kunining uzunligining o'zgarishi. Bu omilning ta'sirini aniqlash uchun ushbu ko'rsatkichda bo'lgan farqni joriy yildagi hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi kunlariga ko'paytiriladi, ya'ni $-0,01 \times 1289760 = -12898$ ish soati.

Yuqorida hisoblangan uchta omilning yig'indisi $(+415931) + (-123211) + (-12898) = +279812$ kishi soatini tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich taxminan hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi soatlarida bo'lgan farqga yaqin. Natija bilan ozgina farqi raqamlarni yaxlitlash evaziga sodir bo'lgan.

Tahlil qilinayotgan korxonada ish vaqtidan foydalanishda kun bo'yi yo'qotishlar qariyb uch kunni tashkil etdi. Bunga quyidagilar sabab bo'ladi: har yili ishlovchilarga beriladigan navbatdagi mehnat tatili, o'qish uchun beriladigan ruxsat, kasallik tufayli ishga chiqmaslik, korxonada ma'muriyati ruxsati bilan ishga chiqmaslik, davlat vazifasini bajarish,

qishloq xo'jalik ishlariga jalb qilish natijasida ishga chiqmaslik, sababsiz ishga chiqmaslik va x.k.

Smena ichida sodir bo'ladigan bekor turishlarni tahlil qilish ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Mehnat va ish haqini hisob qilish bo'yicha asosiy nizomda, agar bekor turish 6 daqiqadan ohsa uni hisobga olib hujjatlashtirish ko'zda tutilgan. Ammo bu ish aksariyat holda qilinmaydi. Ish joylarini kerakli xom ashyo bilan yomon va qoniqarsiz ta'minlash, ish vaqti yo'qotishning 50 foizini tashkil etadi. Korxonalarda ishchilarning o'zlari tomonidan yo'l qo'yiladigan bekor turishlar ham mavjud. Bu ish vaqti yo'qotishning taxminan 40 foizini tashkil qiladi. Boshqa sabablar natijasida bekor turishlar, yohud elektr quvvatining bo'lmasligi, dastgohlarning nosozligi va x.k.lar ham bunga sabab bo'lishi mumkin.

4.5. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillarini tahlil qilish

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga quyidagi mehnat omillari ta'sir ko'rsatadi:

1. Ishchilarning o'rtacha ro'yhatidagi sonining o'zgarishi.
2. Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan ish kunlarining o'zgarishi.
3. Ish kunining o'rtacha uzunligining o'zgarishi.
4. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumdorligining o'zgarishi.

Bu omillarning mahsulot ishlab chiqarishga ko'rsatgan ta'sirini aniqlash uchun uchta usulni qo'llashimiz mumkin.

1. Zanjirli almashtirish usuli.
2. Ko'rsatkichlarning bajarilish foizi darajasidagi farq usuli.
3. Ko'rsatkichlarning darajasidagi mutlaq farq usuli.

Zanjirli almashtirish usulining mohiyati quyidagidan iborat: ya'ni hisob formulasi tarkibiga kirgan reja doirasidagi ayrim olingan miqdoriy ko'rsatkichlarni aynan shu ko'rsatkichlarning haqiqatdagi darajasiga ketma-ket almashtiriladi. U yoki bu ko'rsatkichning ta'siri ketma-ket ayirish yo'li bilan aniqlanadi: ikkinchi hisobdan birinchi hisob ayiriladi, uchinchi hisobdan ikkinchi hisob va x.k. Birinchi hisobda hamma ko'rsatkichlar reja doirasida olinadi, oxirgi hisobda esa hamma ko'rsatkichning haqiqatdagi miqdori olinadi.

Ushbu omillarni hisoblashda zanjirli almashtirish usulini qo'llash tartibi quyidagi jadvalda berilgan (4.6-jadval).

Jadvaldan ko'rinishicha joriy yilda tovar mahsulotning hajmi o'tgan yilga nisbatan 102188 ming so'mga (1000796-898608) oshgan. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan.

1. Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgarishi.

$$(937730 - 898608) = +39122 \text{ ming so'm.}$$

Demak, ishchilarning soni joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 293 kishiga oshdi. Buning natijasida korxonada 39122 ming so'mga ko'p mahsulot ishlab chiqdi.

4.6 - Jadval

Tovar mahsuloti hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillarini zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlash hisob-kitobi

№	Almashtirishning soni	Omillar o'zgarishi				Umumlashgan ko'rsatkich tovar mahsuloti (1us X 2us X 3us X 4us) ming so'm	Oldingi hisobga nisbatan farq (+,-) ming so'm	O'zgarishlarning sabablari
		Ishchilarning soni (kishi)	Bir ishchi tomonidan ish kunlari (kun)	Ish kunining uzunligi (soat)	Soatlik ish unumi (so'm)			
1.	Asl holda	O'tgan yil 5203	O'tgan yil 240,66	O'tgan yil 7,75	O'tgan yil 92,60	O'tgan yil 898608	-	-
2.	1 omil	Joriy yil 5426	O'tgan yil 240,66	O'tgan yil 7,75	O'tgan yil 92,60	Hisoblangan 937730	+39122	Ishchilar soni hisobiga
3.	2 omil	Joriy yil 5426	Joriy yil 237,73	O'tgan yil 7,75	O'tgan yil 92,60	Hisoblangan 925713	-12017	Ish vaqti-dan foy-dalanishda kun bo'yi bekor turish
4.	3 omil	Joriy yil 5426	Joriy yil 237,73	Joriy yil 7,74	O'tgan yil 92,60	Hisoblangan 924519	-1194	Smena ichidagi bekor turish
5.	4 omil	Joriy yil 5426	Joriy yil 237,73	Joriy yil 7,74	Joriy yil 100,24	Joriy yil 1000796	+7627	Soatlik ish unumining o'sishi

2. Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan ish kunlarning kamayganligi evaziga tovar mahsuloti (925713-937730)=-12017 ming so'mga kamaygan.

Har bir ishchi tomonidan joriy yilda o'tgan yilga nisbatan qariyb uch kun kam ishlagan. Bu esa tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmini 12017 ming so'mga kamaytirgan.

3. Ish kuni uzunligining o'zgarishi $(924519 - 925713) = -1194$ ming so'm.

Smena ichidagi bekor turishlarning ko'payishi mahsulot ishlab chiqarish hajmini 1194 ming so'mga kamaytirgan.

4. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumdorligining o'zgarishi evaziga tovar mahsuloti 76277 ming so'mga $(1000796 - 924519)$ o'sgan. Bu soatlik ish unumdorligining o'tgan yilga nisbatan 7 so'm 64 tiyinga kupayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 76277 ming so'mga oshgan, degan xulosa uchun asosdir. Demak, korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi asosan mehnat unumdorligini oshirish evaziga erishildi. Agar korxonada ish vaqtidan foydalanish borasida faqat o'tgan yil darajasiga erishganda edi, u holda mahsulot ishlab chiqarish hajmini qo'shimcha ravishda 12211 ming so'mga $(12017+1194)$ oshirishi mumkin bo'lar edi. Bu esa mahsulot ishlab chiqarishni oshirish borasidagi eng muhim rezerv bo'lib hisoblanadi.

Ko'rsatkichlarning bajarilish foizi darajasidagi farqlash usuli. Bu usul zanjirli almashtirishning soddalashtirilgan turidir. Uni qo'llash tartibini o'rganish uchun quyidagi jadval tavsiya qilinadi (4.7-jadval).

4.7 - Jadval

Tovar mahsuloti hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillarini berilgan ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati darajasidagi farqlash usuli bilan aniqlash

№	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati % his.	Foizda bo'lgan farq (+,-)	Tovar mahsuloti hajmiga ta'siri
1.	Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni	104,29	+4,29	+38556
2.	Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan ish kunlari	98,78	-1,22	-10964
3.	Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan ish soatlari	98,87	-0,13	-1168
4.	Ish kunining uzunligi	108,25	+8,25	+75764
5.	Tovar mahsuloti	111,37	+11,37	+102188

Ushbu omil ta'sirini hisoblash uchun natijaning umumiy farqiga nisbatan omillar farqi necha foizni tashkil qilishi hisoblanib olinadi va uning umumiy farqdagi summasi hisoblanadi. Masalan, ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining tovar mahsulotiga ta'sirini aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi:

$$\left(\frac{4,29}{11,37} \cdot 100\right) \cdot 102188 = +38556 \text{ ming so'm.}$$

Oxirgi omilining ta'sirini aniqlash uchun natijaning umumiy farqidan oldingi omillar ta'siri ayriladi:

$$102188 - (38556 - 10964 - 1168) = +75764 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, olingan natija zanjirli almashtirish usuli orqali hisoblangan natijaga taxminan teng. Bu ikki usulda olingan natijalarning aynan bir-biriga mos kelmasligi ko'rsatkichlarning miqdor va foizlarini yaxlitlab olinganligidir.

Ko'rsatkichlarning darajasidagi mutlaq farqli usuli. Bu ham ikkinchi usul kabi zanjirli almashtirish usulining texnik jihatdan eng soddalashtirilgan usulidir. Bizning misolimizda tovar mahsulotning hajmi joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 102540 ming so'mga oshgan. Bu o'sishga quyidagi mehnat omillari ta'sir ko'rsatdi.

1. Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgarishi. Bu omilning ta'sirini hisoblash uchun ishchilar sonidan bo'lgan farqni o'tgan yildagi bir ishchiga to'g'ri keluvchi yillik ish unumiga ko'paytiriladi (+223 x 172664 = +38504 ming so'm)

2. Bir ishchi tomonidan ishlangan ish kunlarining o'zgarishi. Ushbu ko'rsatkichda bo'lgan farqni joriy yildagi ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni va o'tgan yildagi bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik ish unumdorligiga ko'paytiriladi. (-2,93 x 5426 x 717,46 = -11406 ming so'm).

3. Ish kunining uzunligini o'zgarishi. Ushbu ko'rsatkichda bo'lgan farqni joriy yilda hamma ishchilar tomonidan ishlangan ish kunlari va o'tgan yilda bir ishchiga to'g'ri keluvchi soatlik ish unumiga ko'paytiriladi. (-0,01 x 1,289944 x 92,60 = -1194 ming so'm).

4. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi soatlik ish unumdorligining o'zgarishi. Ushbu ko'rsatkichda bo'lgan farqni joriy yilda hamma ishchilar tomonidan ishlangan ish soatlariga ko'paytiriladi. +7,64 x 9,985946 = +76286 ming so'm.

Omillarning tengligi (balansi): (+38504) + (-11406) + (-1194) + (+76286) = +102190 ming so'm. Bu usuldagi 352 ming so'mga farq (102540 - 102188) ko'rsatkichlar miqdorini yaxlitlash hisobiga ro'y berdi. Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish rezervi 12600 ming so'mni (11406 + 1194) tashkil qiladi.

4.6. Mehnatga haq to'lash fondidan foydalanishni tahlil qilish

Mamlakat taraqqiyotining asosiy g'oyalaridan biri Vatan ravnaqi, xalq farovonligini sifat jihatdan yangi pog'onalarga ko'tarishdan iboratdir. Ish haqi tizimini doimo shunday takomillashtirib borish kerakki, toki u mehnatning miqdori va sifatiga qarab haq to'lash tamoyiliga mos tushsin, uning sharoiti va natijalarini hisobga olsin, xodimlar malakasini, mehnat unumdorligini oshirishni, mahsulot sifatini yaxshilashni, barcha resurslardan oqilona foydalanishni va ularning tejalganligini rag'batlantirsin.

Ana shuni hisobga olib hozir ishlab chiqarish tarmoqlarida ishchi va xizmatchilarning ish haqini ko'zda tutilayotgan darajada oshirish asosan korxonalarining o'zlari topgan mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jadalroq ta'sir ko'rsatadi.

Mehnatga haq to'lash fondi – Yalpi ichki mahsulotning xodimlar o'rtasida ular mehnatining miqdor va sifatiga muvofiq taqsimlanadigan hamda shaxsiy iste'mollari uchun foydalaniladigan qismidir.

Mehnatga haq to'lash fondi – mehnat bo'yicha biznes-rejaning asosiy ko'rsatkichlaridan biri: korxonalarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning istiqbolli va yillik rejasida ko'zda tutiladi.

Mehnatga haq to'lash fondiga hamma xodimlarga (doimiy, mavsumiy, vaqtincha ishlaydigan xodimlarga) bajarilgan ishi uchun to'plangan pul summalari, shuningdek, amaldagi qonunlarga muvofiq xodimlarga ishlamagan vaqtlari (emizikli onalar ishidagi uzilish uchun to'lash va boshqalar) uchun to'langan ish haqi summasi ham qo'shiladi. Mehnatga haq to'lash fondidan tarif stavkalari va mansab okladlari bo'yicha haq to'lash, ishbay mehnatga haq to'lash, ishchilarga mukofotlar to'lash, og'ir va zararli mahsulot sharoitlari uchun, kasb mahorati uchun bir necha kasblarni qo'shib bajarganliklari va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganligi uchun qo'shimcha va ustama haqlar beriladi, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillar uchun haq to'lanadi, ko'p yil ishlagani uchun bir yo'la taqdirlash uchun va x.k. Korxonalar mehnat jamoasiga mehnat natijalari uchun barcha to'lovlarning yagona manbayi-mehnatga haq to'lash fondi hisoblanadi. Mehnatga haq to'lash fondi bir paytlar ish haqi fondi va moddiy rag'batlantirish fondi o'rniga tashkil etilgan. Hozir ham bu fond shu mazmunda saqlanib qolgan.

Tahlilning asosiy vazifasi mehnatga haq to'lash fondini mutloq miqdorini tobora ko'paytirish va nisbiy ulushini kamaytirib borish

imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi. Zero, ish haqi tannarxida tutgan salmog‘i jihatdan yuqori bo‘lib, uni qisqartirish tannarxining kamayishiga, bu esa o‘z navbatida, foyda va rentabellik darajasining oshirilishiga olib keladi.

Tahlil uchun ma‘lumotlar yillik hisobotning 1-T sonli korxonalarining «Mehnat to‘g‘risidagi hisobot» nomli shaklidan olinadi. Tahlilning dastlabki bosqichi asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining va ular toifalarining mehnatga haq to‘lash fondini o‘tgan yildagi mehnatga haq to‘lash fondi bilan taqqoslab mutlaq farqni aniqlashdan boshlanadi. (4.8-jadval).

Ushbu jadvaldan ko‘rinishicha, asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining mehnatga haq to‘lash fondi joriy yili o‘tgan yilga nisbatan 924,7 ming so‘m yoki 8,5 foizga oshgan. Ushbu mutlaq o‘shish asosan ishchilarning ish haqi fondining 896,7 ming so‘mga o‘shish evaziga sodir bo‘lgan. Lekin, mutlaq farqqa qarab asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining ish haqi fondidan foydalanishga baho berib bo‘lmaydi. Shuning uchun ushbu xodimlarning ish haqi fondi bo‘yicha nisbiy farqni aniqlash kerak. Uni aniqlash uchun quyidagi jadvalni havolo qilamiz (4.9-jadval).

4.8 - Jadval

Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarning mehnatga haq to‘lash fondidan foydalanishni hisob-kitob qilish

(ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Haqiqatda		Farqi (+,-)	
	O‘tgan yilda	Joriy yilda	Mutlaq (+,-)	Foiz hisobida
Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining yillik mehnatga haq to‘lash fondi, jami				
SHu jumladan:				
Ishchilar	10831,2	11755,9	+924,7	+8,5
Xizmatchilar (rahbarlar mutaxassislar va boshqa xizmatchilar)	9877,1	10773,8	+896,7	+9,1
Undan: Rahbarlar	954,1	982,1	+28,0	+2,9
Mutaxassislar	380,1	394,1	+14,0	+3,7
	464,2	482,2	+18,0	+3,9

4.9 - Jadval

Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining ish haqi fondi bo'yicha mutlaq va nisbiy farqni aniqlash

Ko'rsatkichlar	Summasi (ming so'm)
Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarning ish haqi fondi	
a) asos davrida	10939,5
b) haqiqatda	11755,9
v) mutlaq farq (+,-)	+816,4
2. Tovar mahsuloti hajmining o'tgan yilga nisbatan qo'shimcha o'sish sur'ati 11,41 foiz	11,41
3. Ish haqi fondining qo'shimcha o'sishiga berilgan normativ koeffitsienti 0,7 foiz	0,7
4. Hisoblangan ish haqi fondi. $10939,5 + \left(\frac{10939,5 + 11,41 \times 0,7}{100} \right) = 11813,2$	11813,2
5. Nisbiy tejam (ortiqcha xarajat) $11755,9 - 11813,2 = -57,3$	-57,3

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, tovar mahsuloti hajmining o'sish sur'atini hisobga olmagan holda ish haqi fondi bo'yicha 816,4 ming so'm mutlaq ortiqcha harajatga yo'l qo'yilgan. Tovar mahsuloti hajmining o'sish sur'atini (111,41 foiz) hisobiga olganda esa, nisbiy tejam 57,3 ming so'mni tashkil edi. Bu esa korxonaning mehnat resurslaridan oqilona foydalanmaganligidan dalolat beradi.

Mehnatga haq to'lash vositasiga ta'sir qiluvchi omillarni mutlaq farq usuli orqali ham aniqlash mumkin. Bunda mehnatga haq to'lash vositaining o'zgarishiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

- 1) ishlovchi xodimlar soni;
- 2) xodimlarning o'rtacha yillik ish haqi.

Birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun xodimlar sonida bo'lgan farqni xodimlarning o'tgan yildagi o'rtacha yillik ish haqi miqdoriga ko'paytiriladi.

Ikkinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun xodimlarning o'rtacha yillik ish haqida bo'lgan farqni xodimlarning o'tgan yildagi ro'yxatidagi o'rtacha soniga ko'paytiriladi.

Demak, ish haqi fondini tahlil qilish uchun boshqaruv tahlilida qo'llaniladigan juda ko'p an'anaviy usullardan foydalanish mumkin ekan.

Tayanch iboralar:

Mehnat resurslari, ishlovchi xodimlar, asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlar, asosiy faoliyatda bo'lmagan xodimlar, ishchilar, xizmatchilar, rahbarlar, mutaxassislar, ishchilar soni bo'yicha mutlaq va nisbiy farq, mehnat unumdorligi, mehnat unumdorligini hisoblashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar, natural ko'rsatkichlar, shartli-natural ko'rsatkichlar; pul (qiymat) ko'rsatkichlar, ijtimoiy mehnat unumdorligi, individual mehnat unumdorligi, ishchilarning ishlovchilar tarkibida tutgan salmog'i, bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligi, bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligi, bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik ish unumdorligi, bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumdorligi, ish kunining o'rtacha uzunligi, ish vaqtdan kun bo'yicha yo'qotishlar, smenalar ichida sodir bo'ladigan ish vaqtini yo'qotishlar, ish vaqtdan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichi, hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi kunlari va kishi soatlari, mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillari, mehnatga haq to'lash fondi, asosiy ish haqi, qo'shimcha ish haqi, asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarning mehnatga haq to'lash fondi, mehnat haqining nisbiy farqi.

Nazorat savollari

1. Mehnat resurslarini tahlil qilishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari.
2. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro bog'liqligi.
3. Ishlovchi xodimlarning soni va tarkibini tahlil qilish.
4. Ishchilar soni bo'yicha mutloq va nisbiy farqi qanday aniqlanadi.
5. Mehnat unumdorligini tahlil qilishning ahamiyati va vazifalari.
6. Mehnat unumdorligining omilli tahlili.
7. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligining tahlili.
8. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligining tahlili.
9. Ish vaqtdan foydalanishni tahlil qilish.
10. Mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillari tahlili
11. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish natijasida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha rezervlarini aniqlash usuli.
12. Mehnatga haq to'lash fondini tahlil qilishning ahamiyati va vazifalari.

13. Korxonada ishlab chiqarish xodimlarining mehnatga haq to'lash fondini tahlil qilish.
14. Korxonada ishlab chiqarish xodimlarining mehnatga haq to'lash fondi bo'yicha nisbiy tejam (ortiqcha xarajat)
15. Ishchilarning mehnatga haq to'lash fondini tahlil qilish.
16. Rahbarlar, mutaxassislar va boshqa xizmatchilarning mehnatga haq to'lash fondini tahlil qilish.

«Korxonalarining mehnat resurslari bilan ta'minlashishi va mehnatga haq to'lashni tahlil qilish» mavzusi bo'yicha testlar

1. Berilgan ma'lumotlarga asosan tovar mahsuloti hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni ularni iqtisodiy belgilarga asosan uch guruhga (mehnat omillari, mehnat vositalari va mehnat buyumlari omillari) turkumlab, kompleks rezerv summasini aniqlang.

1. Ishchilarning kun bo'yi bo'sh turib qolishini baratrof qilish 300 ming so'm.
 2. Qimmatbaho rangli metallarni plastmassalar bilan almatirish 350 ming so'm.
 3. Asbob-uskunalarning smenali ishlash koeffitsientini oshirish 140 ming so'm.
 4. Ishchilarning smena ichidagi bo'sh turib qolishini bataraf qilish 125 ming so'm.
 5. Asosiy materiallardan tushadigan chiqitlarni kamaytirish 150 ming so'm.
 6. Asbob-uskunalarni bo'sh turib qolishini kamaytirish 200 ming so'm.
- A. 500 ming so'm.
 B. 340 ming so'm.
 V. 125 ming so'm.
 G. 150 ming so'm.
 D. 350 ming so'm.

2. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

- A. Ishlovchilar soni, mehnat unumdorligi darajasi, ish vaqti, xom ashyo va materiallar;
- B. Ishchilar soni, ularning malakasi, ish vaqti, asosiy vositalar, vosita samarasi, material samarasi;

V. Ishchilarning ishlovchilar tarkibida tutgan salmog‘i, mehnat unumdorligi, mashina va asbob-uskunalarning jami sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari tarkibida tutgan salog‘i;

G. Mehnat resurslari omillari, mehnat vositalari omillari.

D. Mehnat resurslari omillari, mehnat vositalari omillari, mehnat buyumlari omillari;

3. Berilgan ma‘lumotlarga asosan ishchilar soni bo‘yicha nisbiy farqni aniqlang.

1. Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni (kishi) o‘tgan yilda 821 kishi, hisobot yilida 811 kishi

2. Tovar mahsulot hajmining o‘shish sur‘ati 99,2

A. –3 kishi B. +3 kishi V. –10 kishi G. –7 kishi D. +7 kishi

4. Bir ishlovchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik mehnat unumdorligini aniqlang.

A. tovar mahsulot
ishchilarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni

B. tovar mahsuloti
Ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni

V. tovar mahsuloti
Xamma ishchilar tomonidani bir yilda ishlangan kishi-kunlari

G. tovar mahsuloti
Xamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlar

D. tovar mahsuloti
xamma xodimlar

5. Tovar mahsuloti hajmining o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi mehnat omillarini aniqlang (ishchilar soni va mehnat unumdorli)

A. 1. Ishlovchilar sonida bo‘lgan farqni o‘tgan yildagi bir ishlovchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumiga ko‘paytiriladi.

2. Bir ishlovchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumida bo‘lgan farq hisobot yilidagi ishlovchilarning haqiqatdagi soniga ko‘paytiriladi.

B. 1. Ishlovchilar sonida bo‘lgan farqni hisobot yilidagi bir ishlovchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumiga ko‘paytiriladi.

2. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumida bo'lgan farq o'tgan farq o'tgan yildagi ishlovchilarning haqiqatdagi soniga ko'paytiriladi.

V. 1. Ishlovchilarning o'tgan yildagi haqiqatdagi soni hisobot yilidagi bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumiga ko'paytiriladi.

2. O'tgan yildagi bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi hisobot yilidagi ishlovchilarning soniga ko'paytiriladi.

G. 1. Ishlovchilarning hisobot yildagi soni o'tgan yildagi bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumiga ko'paytiriladi.

2. Hisobot yildagi bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi o'tgan yildagi ishlovchilarning soniga ko'paytiriladi.

D. To'g'ri javob yo'q.

6. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik mehnat unumdorligining o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

A. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumining o'zgarishi, sanoat ishlab chiqarish xodimlari sonining o'zgarishi.

B. Ishchilarning ishlovchi xodimlar tarkibidagi salmog'ining o'zgarishi, bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumining o'zgarishi.

V. Ishchilar sonining o'zgarishi, bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumining o'zgarishi.

G. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari sonining o'zgarishi, bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumining o'zgarishi.

D. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumining o'zgarishi, ishchilar sonining o'zgarishi.

7. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik mehnat unumdorligining o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

A. Ish vaqtidan kun bo'yicha yo'qotishlar, ish kunining o'rtacha uzunligi, bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatli ish unumi.

B. Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-kunlari, bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-soatlari, bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumi.

V. Ish vaqtidan kun bo'yicha yo'qotishlar, smenalar ichida sodir bo'ladigan ish vaqtini yo'qotishlar, bir ishchiga to'g'ri keluvchi soatli ish unumi.

G. Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlar, hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlar, bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumi.

D. Ish vaqtidan kun bo'yicha yo'qotishlar, smenalar ichidagi ish vaqtini yo'qotishlar.

8. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik mehnat unumdorligining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash usulini aniqlang.

A. 1. Ishchilarning ishlovchi xodimlar tarkibidagi salomog'idagi o'zgarishini hisoblash uchun ushbu omilning hisobot yilidagi o'zgarishini o'tgan yildagi bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumiga ko'paytiriladi.

2. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik unumining o'zgarishini hisoblash uchun esa ushbu omilning hisobot yilidagi o'zgarishini hisobot yildagi ishchilarning ishlovchi xodimlar tarkibidagi salg'ini ko'paytiriladi.

B. 1. Ishchilarning hisobot yilidagi o'rtacha ro'yxatdagi sonini o'tgan yildagi bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumiga ko'paytiriladi.

2. Hisobot yilidagi bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumini o'tgan yildagi ishchilarning ro'yxatdagi o'rtacha soniga ko'paytiriladi.

V. 1. Hisobot yilidagi ishlovchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonini o'tgan yilidagi bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumiga ko'paytiriladi.

2. Hisobot yilidagi bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumini o'tgan yildagi ishlovchilarning ro'yxatdagi o'rtacha soniga ko'paytiriladi.

G.1. Ishchilarning hisobot yilidagi ro'yxatdagi o'rtacha sonida bo'lgan farqni o'tgan yildagi bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumiga ko'paytiriladi.

2. Hisobot yilidagi bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumida bo'lgan farqni o'tgan yildagi ishlovchilarning ro'yxatdagi o'rtacha soniga ko'paytiriladi.

D. To'g'ri javob yo'q.

9. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik mehnat unumdorligining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash usulini aniqlang.

1. Ish vaqtidagi kun bo'yicha yo'qotishlar.

2. Smenalar ichida sodir bo'ladigan ish vaqtdan yo'qotishlar.

3. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumi.

A. 1. Ish vaqtidagi kun bo'yicha yo'qotishlarda bo'lgan farqni o'tgan yildagi ish kunining o'rtacha uzunligiga va bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumiga ko'paytiriladi.

2. Smenalar ichida sodir bo'ladigan ish vaqtini yo'qotishlarda bo'lgan farqni hisobot yilida bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi – kunlariga va o'tgan yildagi bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumiga ko'paytiriladi.
 3. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumida bo'lgan farqni hisobot yilida bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-kunlariga va hisobot yilidagi ish kunining o'rtacha uzunligiga ko'paytiriladi.
- B. 1. Ish vaqtidagi kun bo'yicha yo'qotishlarda bo'lgan farqni o'tgan yildagi hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-soatlariga ko'paytiriladi.
2. Smenalar ichida sodir bo'ladigan ish vaqtini yo'qotishlarda bo'lgan farqni o'tgan yildagi hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-kunlariga ko'paytiriladi.
 3. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumida bo'lgan farqni o'tgan yilda bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi – soatlariga va ish kunining o'rtacha uzunligiga ko'paytiradi.
- V. 1. Ish vaqtidagi kun bo'yicha yo'qotishlarda bo'lgan farqni o'tgan yildagi bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumiga ko'paytiriladi.
2. Smenalar ichida sodir bo'ladigan ish vaqtini yo'qotishlarda bo'lgan farqni o'tgan yildagi bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumiga ko'paytiriladi.
 3. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumida bo'lgan farqni o'tgan yildagi ish kunining o'rtacha uzunligiga ko'paytiriladi.
- G. 1. Ish vaqtidagi kun bo'yicha yo'qotishlarda bo'lgan farqni o'tgan yildagi ish kunining o'rtacha uzunligiga ko'paytiriladi.
2. Smenalar ichida sodir bo'ladigan ish vaqtini yo'qotishlarda bo'lgan farqni o'tgan yilida bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-kunlariga va hisobot yilda bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumida bo'lgan farqni o'tgan yildagi ish kunining o'rtacha uzunligiga ko'paytiriladi.
- D. To'g'ri javob yo'q.
- 10. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik mehnat unumdorligining aniqlang.**
- A. Tovar mahsuloti hajmining 360 kunga nisbati tariqasida aniqlanadi.
 - B. Tovar mahsuloti hajmini ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soniga nisbati.

- V. Tovar mahsuloti hajmini hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlariga nisbati
- G. Tovar mahsuloti hajmini bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-kunlariga nisbati.
- D. Tovar mahsuloti hajmini bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi – soatlariga nisbati

11. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik mehnat unumdorligining aniqlang.

- A. Tovar mahsuloti hajmini hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlariga nisbati.
- B. Tovar mahsuloti hajmini ish kunining o'rtacha uzunligiga nisbati.
- V. Tovar mahsuloti hajmini bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-soatlariga nisbati.
- G. Tovar mahsuloti hajmini ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soniga nisbati.
- D. Tovar mahsuloti hajmini ishlovchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soniga nisbati.

12. Ish vaqtidan foydalanishning umulashgan ko'rsatkichi – hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlarining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlang.

- A. Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgarishi, bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi – kunlarining o'zgarishi , ish kunining o'rtacha uzunligining o'zgarishi.
- B. Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlarining o'zgarishi, bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-soatlarining o'zgarishi, ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgarishi.
- V. Ish kunining o'rtacha uzunligining o'zgarishi, bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-kunlarining o'zgarishi, bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-soatlarining o'zgarishi.
- G. Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgarishi, bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-soatlarining o'zgarishi, ish kunining o'rtacha uzunligini o'zgarishi.
- D. To'g'ri javob yo'q.

13. Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-kunlarini aniqlang.

- A. Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlarini hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlariga nisbati.

- B. Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlarini ishchilarning oʻrtacha roʻyxatdagi soniga nisbati.
- V. Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlarini hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlariga nisbati.
- G. Ish kunining oʻrtacha uzunligini ishchilarning oʻrtacha roʻyxatdagi soniga koʻpaytirish kerak.
- D. Toʻgʻri javob yoʻq.

14. Bir ishchi tomonidan bir yilda oʻrtacha ishlangan kishi-soatlarini aniqlang.

- A. Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlarini ishchilarning oʻrtacha roʻyxatdagi soniga nisbati.
- B. Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlarini hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlariga nisbati.
- V. Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlarini hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlariga nisbati.
- G. Bir ishchi tomonidan bir yilda oʻrtacha ishlangan kishi-kunlarini ishchilarning roʻyxatdagi oʻrtacha soniga nisbati.
- D. Ish kunining oʻrtacha uzunligini ishchilarning roʻyxatdagi oʻrtacha soniga nisbati.

15. Ish kunining oʻrtacha uzunligini aniqlang.

- A. Hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-kunlarini hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-soatlariga nisbati.
- B. Hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-soatlarini hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-kunlariga nisbati.
- V. Bir ishchi tomonidan bir yilda oʻrtacha ishlangan kishi-kunlarini bir ishchi tomonidan bir yilda oʻrtacha ishlangan kishi-soatlariga nisbati.
- G. Hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-kunlarini bir ishchi tomonidan bir yilda oʻrtacha ishlangan kishi-soatlariga nisbati.
- D. Bir ishchi tomonidan bir yilda oʻrtacha ishlangan kishi – soatlarini bir ishchi tomonidan bir yilda ishlangan kishi – kunlariga nisbati.

16. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga taʼsir qiluvchi mehnat omillarini aniqlang.

- A. Ishlovchilarning oʻrtacha roʻyxatdagi sonining oʻzgarishi, hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-kunlari, hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-soatlarining oʻzgarishi va bir ishchiga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha kunlik ish unumining oʻzgarishi.
- B. Ishchilarning oʻrtacha roʻyxatdagi sonining oʻzgarishi, bir ishchi tomonidan bir yilda oʻrtacha ishlangan kishi-kunlarining oʻzgarishi, ish

kunining oʻrtacha uzunligining oʻzgarishi va bir ishchiga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha soatlik ish unumining oʻzgarishi.

V. Ishlovchilarning oʻrtacha roʻyxatdagi sonining oʻzgarishi, bir ishchi tomonidan bir yilda oʻrtacha ishlangan kishi –soatlarining oʻzgarishi, ish kunining oʻrtacha uzunligining oʻzgarishi, bir ishchiga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha kunlik ish unumining oʻzgarishi.

G. Ishchilarning oʻrtacha roʻyxatdagi sonining oʻzgarishi, hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlarining oʻzgarishi, ish kunining oʻrtacha uzunligining oʻzgarishi, bir ishchiga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha kunlik ish unumining oʻzgarishi.

D. Toʻgʻri javob yoʻq.

17. Bir ishlovchiga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha yillik ish haqini aniqlang.

A. SICHX (sanoat ishlab chiqarish xarajatlari)ning yillik ish haqi fondining sanoat ishlab chiqarish xodimlarining roʻyxatdagi oʻrtacha soniga nisbati.

B. SICHX larning yillik ish haqi fondining hamma xodimlarning roʻyxatdagi oʻrtacha soniga nisbati.

V. Hamma xodimlarning yillik ish haqi fondining hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlariga nisbati

G. SICHXlarining yillik ish haqi fondining ishchilarning roʻyxatdagi oʻrtacha soniga nisbati.

D. Toʻgʻri javob yoʻq.

18. Ishlovchilarning yillik ish haqi fondining miqdorini aniqlang.

A. Bir ishlovchiga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha yillik ish haqi x sanoat ishlab chiqarish xodimlarining roʻyxatdagi oʻrtacha soni.

B. Bir xodimga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha yillik ish haqi x hamma xodimlarning roʻyxatdagi oʻrtacha soni.

V. Bir ishchiga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha yillik ish haqi x hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-kunlari.

G. Bir sanoat ishlab chiqarish xodimiga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha yillik ish haqi x ishchilarning roʻyxatdagi oʻrtacha soni.

D. Toʻgʻri javob yoʻq.

19. Quyidagi berilgan maʼlumotlarga asosan ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi fondi boʻyicha nisbiy tejalganlik Yoki ortiqcha xarajat summasini aniqlang.

1. Ish haqi fondining bazasi 1260 ming soʻm.

2. Haqiqatdagi ish haqi fondi 1275 ming soʻm.

3. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi-oʻsish soʻrʼati 102,6%

4. Qaytadan hisoblash koeffitsienti - 0,7

- A. $1275 - 1260 = +15$ ming so‘m.
- B. $1260 * 102,6 = 1293$ ming so‘m.
 $1293 - 1275 = -18$ ming so‘m.
- V. $1293 - 1260 = -33$ ming so‘m.
- G. $(2,6 * 0,7 + 100) = 101,8\%$
 $(1260 * 101,8) : 100 = 1282,7$ ming so‘m.
 $1282,7 - 1275 = -7,7$ ming so‘m.
- D. To‘g‘ri javob yo‘q.

20. Ishchilarning ish haqi fondining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlang.

- A. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ishchilarning ro‘yxatdagi sonining o‘zgarishi, yillik ish haqining o‘zgarishi.
- B. Mahsulot ishlab chiqarish xajmi, ishchilar soni bo‘yicha nisbiy farq, bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish haqi.
- V. Ishchilar soni bo‘yicha nisbiy farq, mahsulot ishlab chiqarish xajmi.
- G. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish haqi.
- D. To‘g‘ri javob yo‘q.

21. Xizmatchilarning ish haqi fondining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlang.

- A. Xizmatchilarning o‘rtacha yillik ish haqining (stavka) o‘zgarishi, xizmatchilarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining o‘zgarishi.
- B. Xizmatchilar soni bo‘yicha nisbiy farq, xizmatchilarning o‘rtacha yillik ish haqinining o‘zgarishi.
- V. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi, shtatning o‘zgarishi, stavkaning o‘zgarishi.
- G. Mahsulot ishlab chiqarish xajmining o‘zgarishi, bir xizmatchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish haqining o‘zgarishi.
- D. To‘g‘ri javob yo‘q.

5-BOB. ASOSIY VOSITALARNING TARKIBI, HOLATI VA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.

5.1. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va harakati

Mahsulotni ishlab chiqarishni va mehnat unumdorligining beto'xtov o'sishiga erishish ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, harakatdagi asbob-uskunalar va dastgohlarni zamonaviylashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini to'la mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish orqali erishiladi.

Ma'lumki, asosiy vositalar uzoq vaqt xizmat qiladi, ishlab chiqarish jarayonida o'zining tabiiyki, dastlabki shaklini saqlab qoladi va kapital mablag'lar hisobiga to'ldirilib boriladi. Yangidan barpo qilingan davlat korxonalarining asosiy vositalarini shakllantirishning manbayi asosan byudjet mablag'idir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab turgan korxonalar dastgohlar va boshqa mehnat vositalari sotib oladilar, yangi ishlab chiqarish obyektlari quradilar. Buni esa, korxonalar ishlab topgan o'z mablag'lari hisobidan, bank krediti yordamida bajaradilar. Bundan tashqari amortizatsiya ajratmalari asosiy vositalarni sotib olish, ularni kapital va joriy ta'mirlash qilish uchun mablag'larning muhim manbayidir.

Yildan-yilga tobora ko'proq kapital mablag'lar sarflash natijasida xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining asosiy ishlab chiqarish vositalari jadal oshib bormoqda.

Jamiyatning ulardan juda ham oqilona foydalanishdan g'oyat manfaatdorligi tabiiydir. Chunki bu vositalarni samarali ishlatish ko'p jihatdan butun ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini belgilaydi. Ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni yaxshilash ishlab chiqarish vositalariga sarflangan har bir so'm uchun mahsulotni ko'p miqdorda olishga erishadigan xo'jalik yuritishdir.

Korxonalarining asosiy vositalari ishlab chiqarishdagi o'z ahamiyatiga qarab uch turkumga bo'linadi:

- 1) sanoat ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar;
- 2) boshqa tarmoqlarning ishlab chiqarish asosiy vositalari;
- 3) noishlab chiqarish asosiy vositalari.

Iqtisodiy tahlilda asosiy vositalarning mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan roli bo'yicha ular ikki qismga bo'linadi:

- 1) aktiv (faol) asosiy vositalar,
- 2) passiv (nafaol) asosiy vositalar.

Aktiv asosiy vositalarga kuch beradigan mashinalar, o'tkazgich jihozlar, o'lchash va tartibga solish asboblari kabilar kiradi. Asosiy vositalarning passiv (nafaol) qismiga esa binolar, inshootlar va transport vositalari kiradi. Asosiy vositalarning aktiv (faol) qismi ishlab chiqarish asbob-uskunalari deb atalib, ular mehnat vositalari sifatida mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashadilar. Asosiy vositalarning passiv (nafaol) qismi esa mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashmasa ham ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz olib borish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun asosiy vositalarning aktiv (faol) qismining salmog'i qancha ko'p bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyati ham shuncha ko'p bo'ladi. Hozir eng ilg'or sanoat korxonalarida asosiy vositalarning aktiv (faol) qismining salmog'i 65 foizni tashkil qiladi. Asosiy vositalarning aktiv (faol) qismini ko'paytirish yo'llari quyidagilar:

- 1) ishlab chiqarish jarayonlarini to'la mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasini oshirish;
- 2) ishlab chiqarish maydonidan oqilona foydalanish;
- 3) bino va inshootlarni qurishda qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirish va x.k.lar.

Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va harakatini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 3-sonli «Asosiy vositalar to'g'risida hisobot» shaklidan olinadi. Ularning holatini tahlil qilish uchun quyidagi jadval tavsiya qilinadi (5.1-jadval).

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, joriy yilda jami ishlab chiqarish asosiy vositalarining qiymati o'tgan yilga nisbatan 183 ming so'mga yoki 0,5 foizga ($183 \times 100/38300$) oshdi.

Ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'sishi asosan ularning passiv qismining, ya'ni bino va inshootlar qiymatining 113 ming so'mga ortishi va ishlab chiqarish asbob-uskunalar (aktiv qisman) qiymatining 68 ming so'mga ko'payishi hisobiga ta'minlandi. Fikrimizcha, asosiy vositalarning aktiv qismining passiv qismiga nisbatan past sur'atlar bilan o'sishga qaraganda tahlil qilinayotgan korxonada texnika taraqqiyoti sust darajada olib borilyapti degan xulosaga kelish mumkin. Binobarin, asosiy vositadan olinadigan samarani oshirish harakatdagi korxonalarni texnik jihatdan qayta qurollantirish va qayta uskunalashni tezkorlik bilan amalga oshirish hamda ishlab chiqarishga yangi texnikani kiritish birinchi galdagi vazifa bo'lib hisoblanadi.

**Ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning
tarkibi va harakatini tahlil qilish.**

Ishlab chiqarish asosiy vositalari	O'tgan yilda		Joriy yilda		O'tgan yilga nisba-tan o'zgarishi (+,-)	
	so'mma- si, ming so'm	sal- mog'i, %	so'mma si, ming so'm	sal- mog'i , %	so'mma -si, ming so'm	salmog'i, %
1. Bino va inshootlar	18900	49,35	19,35	19013	49,41	Q113 Q0,06
2. Ishdan chiqarish asbob- uskunalari	19600	50,13	19268	50,07	+68	-0,06
3. Boshqa asosiy vositalar	200	0,52	202	0,52	+2	-
Jami	38300	100	38483	100	+183	-

Binobarin, asosiy vositadan olinadigan samarani oshirish harakatdagi korxonalarni texnik jihatdan qayta qurollantirish va qayta uskunalashni tezkorlik bilan amalga oshirish hamda ishlab chiqarishga yangi texnikani kiritish birinchi galdagi vazifa bo'lib hisoblanadi. SHuning uchun asosiy vositalarning aktiv qismining o'sish sur'ati passiv qismining o'sish sur'atiga nisbatan ustun darajada bo'lishi kerak. Tahlil qilinayotgan korxonada esa asosiy vositalarning aktiv va passiv qismlarining o'sish sur'atlari mos ravishda 100,35 foizni ($19268 \times 100 : 19200$) va 100,60 foizni ($19013 \times 100 : 18900$) tashkil etdi. Agar, yuqorida aytilgandek ilg'or korxonalarida asosiy vositalar aktiv qismining salmog'i 65 foizni tashkil qilishini hisobga olsak, u holda tahlil qilinayotgan korxonada uning salmog'i faqat 50 foizga teng bo'ldi. Demak, korxonada kelgusida asosiy vositalarni yangilash borasida tub o'zgarishlar qilishi lozim. Ishlab chiqarish asosiy vositalari qiymatini asos yilidan boshlab o'sib borish sur'atini ham tahlil qilish kerak. Buning uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz (5.2-jadval).

Jadvaldan ko'rinishicha, tahlil qilinayotgan korxonada asosiy vositalarning qiymati uchinchi yili asos qilib olingan yilga nisbatan 483 ming so'mga Yoki +101,27 foizga ($483 \times 100 / 38000$) ortdi. Endi zanjirli usulini qo'llasak ham aynan ushbu natija hosil bo'ladi, ya'ni 101,27 foizni aniqlash uchun asosiy vositalarning yillik qo'shimcha o'sish so'r'atlarini bir-biriga ko'paytirilib, so'ngra chiqqan natija yana yuzga ko'paytiriladi ($1,004 \times 1,0069 \times 1,0048$) x 100 = 101,27 foiz Yoki 483 ming so'm. ($38000 \times (1,0127-1)$).

5.2 – Jadval

Ishlab chiqarish asosiy vositalari qiymatini asos yilidan boshlab o‘shib borish sur‘ati

Ko‘rsatkichlar	Asos yilida	Yillar			Asos yili boshidan boshlab
		1-yil	2-yil	3-yil	
Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari	38000	38150	38300	38483	-
Haqiqatda o‘shish sur‘ati, %	100,0	100,40	100,39	100,48	101,27

Asosiy vositalarning mutlaq o‘shishini aniqlash bilan birga resurslarni nisbiy iqtisod qilingan Yoki ortiqcha harajat qilishga yo‘l qo‘yilgan miqdorini ham hisoblash kerak. Buning uchun sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining baza (asos) yilidagi qiymati tovar mahsuloti hajmining besh yillik boshidan boshlab o‘rtacha yillik o‘shish sur‘atiga ko‘paytirilib, so‘ngra hisoblangan miqdor besh yillikning yillaridagi sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining miqdori bilan taqqoslanadi. Bizning misolimizda asosiy vositalarni nisbiy tejash 1759 ming so‘mni tashkil etdi. $(38000 \times 1,056^* - 38483 = 40242 - 38483) = -1759$ ming so‘m. Demak, tovar mahsuloti hajmining o‘rtacha yillik o‘shish sur‘atini hisobga olganda korxonaning asosiy vositalari 40242 ming so‘mni tashkil qilishi kerak edi, haqiqatda esa ularning qiymati besh yillikning uchinchi yili 38483 ming so‘mni tashkil etdi. Bu esa korxonaning asosiy vositalardan samarali foydalanish borasidagi yutug‘idir.

*) 1,059 mahsulot hajmining asos davridan boshlab o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati.

5.2. Asosiy vositalarning texnik holatini tahlil qilish

Asosiy vositalar uzluksiz foydalanishda bo‘ladilar. SHu sababli asosiy vositalarning bir qismi eskiradi, ishdan chiqadi, boshqalari esa foydalanishga joriy etiladi. Binobarin, asosiy vositalarning texnik holati tovar mahsuloti ishlab chiqarish rejasining bajarilishiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Asosiy vositalarning texnik holati qoniqarli darajada bo‘lsa, bu o‘z navbatida asbob-uskunalar va dastgohlarning bekor turib qolishiga, ayrim vaqtlarda esa avariyalarga (halokatga) olib kelishi ehtimoldan holi bo‘ladi. SHuning uchun asosiy vositalar texnik jihatdan yaxshi sozlangan holatda bo‘lishi lozim. Asosiy vositalarni texnik jihatdan qoniqarli darajada ushlab turish joriy va kapital ta‘mirlash orqali amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarning texnik holatini belgilovchi umumiy ko'rsatkichlardan biri ularning eskirish koeffitsientidir. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsientini aniqlash uchun asosiy vositalarning eskirish summasini (baland passivining 1-bo'limi) ularning boshlang'ich qiymatiga (balans aktivining 1-bo'limi) bo'linadi. Odatda, asosiy vositalarning eskirish koeffitsientining kamayishi ularning texnik holatining yaxshilanganligidan dalolat beradi. Asosiy vositalardan uzluksiz ravishda foydalanish natijasida ularning eskirish darajasi oshib boradi. Shuning uchun asosiy vositalarni yangilash kerak.

Asosiy vositalarni yangilash koeffitsientini aniqlash uchun yangi kelgan asosiy vositalar summasini asosiy vositalarning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish kerak.

Asosiy vositalarni chiqib ketish koeffitsientini hisoblash uchun esa chiqib ketgan asosiy vositalar summasini ularning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish kerak.

Asosiy vositalarni ishga yaroqlilik koeffitsientini ham aniqlash mumkin. Uni aniqlash uchun birdan eskirish koeffitsienti ayriladi.

Asosiy vositalarning te'nik holatini har tomonlama va chuqur tahlil qilish uchun asosiy vositalarning qo'shimcha o'sish hamda chiqib ketishining o'rnini qoplash (kompensatsiya) koeffitsientlari ham aniqlanadi.

Asosiy vositalarning qo'shimcha o'sish koeffitsientini aniqlash uchun yangidan kelgan asosiy vositalarning qiymatini jami asosiy vositalarning miqdoriga bo'lish kerak. Asosiy vositalarning chiqib ketgan qiymatining o'rnini qoplash koeffitsientini topish uchun chiqib ketgan asosiy vositalarning qiymatini yangidan ishga tushirilgan asosiy vositalar qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Ma'lumki, alohida olingan asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida har xil ish bajaradi va ular xizmat qilish muddati bo'yicha bir-birlaridan katta farq qiladilar. Shuning uchun yuqoridagi qayd qilingan ko'rsatkichlarni nafaqat asosiy vositalarning jami miqdori bo'yicha, balki ularning aktiv va passiv qismlari hamda alohida turlari bo'yicha ham aniqlash lozim. Asosiy vositalarning yangilanish, chiqib ketish, qo'shimcha o'sish va o'rnini qoplash ko'rsatkichlari bir-birlari bilan uzviy ravishda bog'langanlar. Bu bog'liqlikni ko'rsatish uchun quyidagi 5.3-jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz. Tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 3-sonli «Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot» shaklidan olinadi.

5.3 – Jadval

Asosiy vositalarning eskirish va yaroqlilik darajasini tahlil qilish

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birli-gi	Yil boshi- da	Yil oxiri-da	O'zgaris hi (+,-)
1.	Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati	Ming so'm	39248	40775	+1527
2.	Asosiy vositalarning eskirish summasi	Ming so'm	9317	11008	+1691
3.	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati (1-qator - 2-qator)	Ming so'm	29931	29767	-164
4.	Asosiy vositalarning eskirish koeffitsenti (2- qat.: 1 qat.x100)	Koef.	23,7	27,0	+3,3
5.	Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsienti 3- qator: 1-qator x100	Koef.	76,3	73,0	-3,3

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, tahlil qilinayotgan korxonada asosiy vositalarning harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlar darajasini Yuqori deb bo'lmaydi. Chunonchi, jami asosiy vositalarni yangilash faqat 6,3 foizni, jumladan yangi mehnat vositalarini keltirish 4,4 foizni tashkil qildi. Bu o'rinda asosiy vositalarning aktiv qismi bo'lmish mashina va asbob-uskunalarini yangilash jarayoni biroz ustun darajada ketayotganligini ta'kidlash joizdir. Asosiy vositalarni texnik jihatdan yangilash darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar chiqib ketgan asosiy vositalarning o'rnini qoplash va ularning qo'shimcha o'sish koeffitsentlarini qo'llash orqali aniqlanadi. Agar ushbu koeffitsientlar birdan yoki 100 foizdan ohsa, u holda asosiy vositalarni yangilash intensiv (jadal) tarzda olib borilayapti degan xulosa chiqarishimiz mumkin va aksincha agar koeffitsientlar birdan (100 foizdan) kam bo'lsa, unda asosiy vositalarni yangilash jarayoni ekstensiv ravishda olib borilayotganini bildiradi.

Bizning misolimizda chiqib ketgan asosiy vositalarning o'rnini qoplash koeffitsientining eng Yuqori darajasi jami sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalariga mansub bo'lib, 59,8 foizni tashkil etdi. Holbuki mashina va asbob-uskunalarini bo'yicha bu daraja 39,2 foizni tashkil qildi. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti bilan ishga yaroqlilik koeffitsienti o'rtasida o'zaro bog'lanish mavjud. Bu bog'lanishni yaqqol ko'rish uchun yana 5.3-jadval ma'lumotlariga murojaat qilamiz.

Ushbu jadvalda berilgan raqamlardan ko'rinishicha, asosiy vositalarning qariyb chorak qismi amortizatsiyalashtirilgan ya'ni asosiy vositalarning eskirgan qismining qiymati amortizatsiya ajratmasi sifatida

tarkib topishi tushuniladi. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsienti etarli darajada. Binobarin, bu o‘z navbatida korxonaga mahsulot ishlab chiqarish rejasini muvaffaqiyatli bajarish uchun imkoniyat yaratadi. Va nihoyat, asosiy vositalarning texnik darajasini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri asbob-uskunalar xizmat qilish yoshi (davri) hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichni aniqlash asbob-uskunalar va dastgohlarning ishlash qobiliyati, ularni almashtirish hamda pirovard natijada asosiy vositalarning samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Tahlil qilish uchun harakatdagi asbob-uskunalar ma’lum turlari bo‘yicha turkumlanib, so‘ngra ularning haqiqatda xizmat qilgan davri normativ bo‘yicha xizmat qilish muddat bilan taqqoslanadi. Odatda, asbob-uskunalar 10 yilgacha bo‘lgan davrda almashtirilsa texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladi deb hisoblaniladi.

Asbob-uskunalar xizmat qilish davri quyidagicha tasvirlanadi:
 5 yilgacha: 5 yildan 10 yilgacha; 10-yildan 20 yilgacha va 20 yildan Yuqori. Tahlil qilishda asbob-uskunalar o‘rtacha xizmat qilish yoshi (davri) ham aniqlanadi. Uni aniqlash uchun quyidagi jadvalni havolo qilamiz.

5.4 – Jadval
Asbob-uskunalar xizmat qilish davri bo‘yicha taqsimlanishi
 (Ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Xizmat qilish davri				
	5 yil-gacha	5 yil-dan 10 yilgacha	10 yildan 20 yil-gacha	20 yil-dan Yuqori	Jami
Jami asbob-uskunalar	3280	3100	3600	4000	13980
Jamiga nisbatan protsent hisobida	23,5	22,2	25,8	28,6	100

Ushbu jadvalda berilgan raqamlardan foydalanib, xarakatdagi asbob-uskunalar o‘rtacha xizmat qilish davrini aniqlaymiz. Buni hisoblash uchun oddiy o‘rtacha arifmetik usulni qo‘llaymiz, ya’ni $(0 + 5):2 = 2,5$ yil; $(5+10):2 = 7,5$ yil; $(10 + 20):2 = 15$ yil; 20 yildan Yuqori 20 yil. SHundan so‘ng asbob-uskunalar o‘rtacha xizmat qilish davrini aniqlanadi, ya’ni: $(2,5 \times 0,235 + 7,5 \times 0,222 + 15,0 \times 0,258 + 20 \times 0,286) = 11,8$ yil. Shunday qilib asbob-uskunalar o‘rtacha xizmat qilish davri ko‘rsatkichi asbob-uskunalar parkining texnik darajasini hamda ularning ma’naviy eskirishini ifodalaydi.

5.3. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni tahlil qilish

Mahsulot ishlab chiqarish dasturining muvaffaqiyatli bajarilishi nafaqat asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi, texnik, holati, balki ulardan samarali foydalanishga ham bog'liq. Asosiy vositalardan samarali foydalanishning umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib asosiy vositalar samaradorligi hisoblanadi. U asosiy ishlab chiqarish vositalarining bir so'mi Yoki ming so'mi hisobiga bir yil davomida qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini ko'rsatadi. Masalan, korxonaning yillik mahsuloti 100 million so'mni tashkil etsin, asosiy ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymati esa 50 million so'm deylik. Bunday holda asosiy vositalarning samaradorligi 2 so'mga teng bo'ladi. Demak, vosita samarasi ko'rsatkichini aniqlash uchun tovar mahsuloti Yoki sof mahsulot hajmini asosiy ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'linadi. Buni quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin:

$$\Phi_c \frac{T.M}{A_\phi}$$

Bunda: F_s – asosiy vositalar samaradorligi;

TM – tovar mahsulotining hajmi;

A_f – asosiy ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymati.

Asosiy vositalar samaradorligi ko'rsatkichi jami asosiy ishlab chiqarish vositalarining qiymatiga va alohida ularning aktiv qismining qiymatiga nisbatan aniqlanadi. Asosiy vosita samarsi ko'rsatkichining aksi vosita sig'imi ko'rsatkichi bo'lib, u asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatini tovar mahsuloti hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi. Asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-P «Korxonalar (birlashma)ning mahsulot ishlab chiqarish to'g'risida yillik hisoboti» 3-sonli «Asosiy vositalarning harakati haqidagi hisobot» shakllaridan olinadi. Tahlil uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (5.5-jadval).

5.5 – Jadval

Asosiy vositalardan foydalanishning samaradorlik darajasini tahlil qilish.

Ko'rsatkichlar	Haqiqatda o'tgan yilda	Haqiqat -da joriy yilda	O'tgan yilga nisbatan farqi (+,-)
1. Tovar mahsulotlari ulgurji qiyosiy bahoda, ming so'm.	898370	1000910	+101540
2. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm.	355970	379830	+23860
3. Jumladan: mashina va asbob-uskunalar.	179290	184640	+5850
4. Mashina va asbob-uskunalarining jami asosiy vositalar tarkibida tutgan salmog'i (3qator : 2 qator) 0,001 aniqlikda (koef.)	0,504	0,486	-0,018
5. Ming so'mlik sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari samaradorligi (1 qator : 2 qator), so'm	2523,7	2685,2	+111,5
6. Ming so'mlik mashina va asbob-uskunalar samaradorligi (1q : 3q). so'm	5010,7	5420,9	+410,2
7. Ming so'mlik asosiy vositalar samaradorligi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar:			
a) mashina va asbob-uskunalarining jami asosiy vositalar tarkibida tutgan salmog'ining o'zgarishi, so'm.	-	-	-90
b) ming so'mlik mashina va asbob-uskunalar samaradorligining o'zgarishi, so'm.	-	-	+200

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, hisobot davrida jami sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalaridan foydalanish yashilandi, ya'ni joriy yili

vositadan olinadigan samara o'tgan yilga nisbatan 111 so'm 50 tiyinga oshdi. Bunga mashina va asbob-uskunalarining jami asosiy vositalar tarkibida tutgan salmog'ining 0,018 bandga kamayishi natijasida vositadan olinadigan samara 90 so'mga kam bo'ldi, ya'ni $(-0,018 \times 5010,7)$ mashina va asbob-uskunalardan olinadigan samaraning 410 so'm 20 tiyinga ortishi jami asosiy vositalardan olinadigan samarani 200 so'mga oshishiga olib keldi, ya'ni $(410,2 \times 0,485)$. SHunday qilib, bu ikki omilning yig'indisi $(-90) + (+200) = 110$ so'mni tashkil etdi. Bu summa taxminan jami asosiy vositalardan olingan samaradagi farq - 111 so'm 50 tiyinga to'g'ri keladi.

Hisobot davrida tovar mahsuloti hajmi o'tgan yilga nisbatan 101540 ming so'mga oshdi.

Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatdi:

1. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatini o'zgarishi (ekstensiv omil).
2. Asosiy vositalar samaradorligining o'zgarishi (intensiv omil).

Birinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatida bo'lgan farqni ularning o'tgan yildagi samaradorlik darajasiga ko'paytiriladi. Bizning misolimizda asosiy vositalarning qiymati o'tgan yilga nisbatan 23860 ming so'mga oshgan, ularning o'tgan yildagi samaradorlik darajasi esa 2523,7 so'mni tashkil etdi. Demak, tovar mahsuloti xajmini ko'paytirishning 60210 ming so'mi $(+23860 \times 2523,7)$ Yoki 59,3 foizi $(60215 \times 100)/101540$ ekstensiv omil evaziga hosil bo'ldi.

Ikkinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun asosiy vositadan olingan samaradagi mutlaq farqni joriy yildagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga ko'paytiriladi. Bizning misolimizda asosiy vositadan olingan samara o'tgan yilga nisbatan 111 so'm 50 tiyinga oshdi. Demak, mahsulot hajmini ko'paytirishning 42351 ming so'mi $(111,5 \times 379830)$ Yoki 41,7 foizi $(42351 \times 100)/101540$ intensiv omil hisobiga hosil qilingan. SHunday qilib, ikki omil ta'sirining o'zgarishi taxminan, tovar mahsuloti ishlab chiqarishdagi umumiy farqni beradi, ya'ni $(60215 + 42351) = +102566$ ming so'm. Raqamlarni yaxlitlash hisobiga 1026 ming so'mga farq hosil bo'ldi $(102566 - 101540) = 1026$ ming so'm.

5.4. Ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan foydalanishni tahlil qilish

Asosiy vositalar samaradorligi asbob-uskunalarining ish bilan band qilishga ko'p jihatdan bog'liq. Ish bilan yuqori darajada ekstensiv band

qilish smena, ish kuni, hafta, oy va hokazo mobaynida asbob-uskunalaridan vaqt jihatdan imkoni boricha maksimal foydalanishni taqozo qiladi.

Asbob-uskunalaridan ekstensiv (vaqt) bo'yicha foydalanish darajasini ularning smenalik (almashish) koeffitsienti orqali aniqlanadi. U har bir uskuna, dastgoh, kun, oy, chorak (yil choragi) va yil davomida o'rta hisobda qancha smena ishlanganligini ko'ratadi. Smenalilik koeffitsienti barcha smenalarda ishlagan dastgoh-smena (mashina-smenalar) sonini o'rnatilgan uskunar soniga taqsimlash orqali aniqlanadi. Masalan, sexda 92 ta dastgoh o'rtanatilgan, ulardan mazkur davrda, bir smenada (faqat birinchi smenada) – 40 ta, ikkiinchi smenada (birinchi va ikkinchisi smenada) – 30 ta, barcha uch smenaja 22 ta dastgoh, ishlagan. Hammasi bo'lib barcha uchta smenada 144 mashina smena ($40 \times 1 + 30 \times 2 + 22 \times 3 = 144$) ishlagan. Demak, mazkur davrda uskunalarining smenalilik koeffitsienti 1,56 (144:92) ni tashkil etdi.

Har bir korxonada uchun normativ smenalik koeffitsienti aniq belgilanib, u uskunalarini to'la, maksimal darajada ish bilan band qilishni qo'zda tutadi. Tahlil qilish jarayonida amaldagi smenalilik koeffitsienti normativ doirasidagi smenalilik koeffitsienti bilan taqqoslanib, uskunalarini ish bilan band qilishni oshirishdagi rezervlar aniqlanadi. Amalda ko'pgina korxonalarda smenalilik koeffitsienti normativda ancha pastdir, ayniqsa, mashinasozlikda 1,4 ni tashkil etadi. SHu munosabat bilan iqtisodiyotni jadallashtirish sharoitida mehnat jamoalari oldiga uskunalarini ish bilan maksimal band qilish, ular ishining smenaliligini keskin oshirish vazifasi qo'yilgan. Smenalik koeffitsientini oshirishga ish joylarini attestatsiyalash, ortiqcha uskunalarini sotish, ko'p dastgohda ishlashni rivojlantirish, ishchilarga birlashtirilgan xizmat ko'rsatish doiralarini kengaytirish, uchinchi smenada ishlovchilar uchun moddiy rag'batlantirishni va imtiyozlarni qo'llash yordam beradi.

Asbob-uskunalaridan imtiyozli foydalanish koeffitsienti vaqt birligida amalda erishilgan uskuna unumdorligining ushbu uskuna hili uchun belgilangan unumdorlikning texnik normasiga nisbati bilan aniqlanadi.

Asbob-uskunalaridan foydalanishning integral koeffitsienti ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsientlarini ko'paytmasidan iborat, ya'ni uskunalaridan vaqti va quvvati bo'yicha foydalanish.

Dastgohlarning yillik unumdorlik darajasining o'zgarishiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi.

1. Dastgohlar Yoki dastgoh-soatlar miqdorining o'zgarishi.
2. Bir datgoh Yoki bir dastgoh-soatga to'g'ri keluvchi unumdorlik darajasi.

Ushbu omillarning ta'siri mutlaq farq usuli orqali amalga oshiriladi, ya'ni miqdor o'zgarishda bo'lgan farqni sifat ko'rsatkichining reja darajasiga ko'paytiriladi, sifat o'zgarishda bo'lgan farqni esa miqdor ko'rsatkichining amaldagi darajasiga ko'paytiriladi.

Ushbu omillarning ta'sirini aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (5.6-jadval).

Jadvalda ko'rinishicha, hisobot davrida tovar mahsulotini ishlab chiqarish hajmi haqiqatda rejaga nisbatan 155 ming so'mga oshdi. Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatdi.

1) Ishlangan dastgoh-soatlar sonining o'zgarishi (miqdor ko'rsatkich):

$$-23,4 \times 8,63 = -201,9 \text{ ming so'm.}$$

5.6 – Jadval

Dastgohlardan samarali foydalanishning ish vaqti va quvvati bo'yicha hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqatda	Mutlaq farqi (+,-)
1. Tovar mahsuloti (ming so'm)	1930	2085	+155
2. Ishlangan dastgoh-soatlari (ming)	223,7	200,3	-23,4
3. Bir dastgoh-soatga to'g'ri keladigan unumdorlik (so'm, tiyin) (1 qator : 2qator)	8,63	10,41	+1,78

2) Bir dastgoh-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (sifat ko'rsatkich):

+1,78 x 200,3 = +356,5 ming so'm. Demak, ikki omil ta'sirining o'zgarishi taxminan tovar mahsuloti ishlab chiqarishdagi umumiy farqqa teng, ya'ni ((-201,9) +(+356,5)) = +154,6 ming so'm. SHunday qilib, dastgohlarning bekor turib qolishlarini bartaraf qilish natijasida mahsulot ishlab chiqarishni oshirish rezervi 201,9 ming so'mni tashkil qilar ekan.

Tayanch iboralar:

Asosiy vositalar, asosiy vositalarni tahlil qilish mazmuni va ahamiyati, asosiy vositalarni tahlil qilishda foydaladigan axborot manbalari, asosiy vositalarni tarkibi va tuzilishi, asosiy vositalarni xarakati, ishlab chiqarish asosiy vositalari, noishlab chiqarish asosiy

vositalari, asosiy vositalarning boshlang'ich va qoldiq qiymati, asosiy vositalarni qayta baholash, asosiy vositalarning faol qismi, asosiy vositalarning nofaol qismi, asosiy vositalarning texnik holati, asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti, asosiy vositalarning yangilash koeffitsienti, asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsienti, asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsienti, asosiy vositalarning ma'naviy eskirish, asosiy vositalarning xizmat ko'rsatish yili, bir so'mlik sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalaridan olinadigan samara, asosiy vositalarning faol qismidan olinadigan samara, asosiy vositalar sig'imi, o'rnatilgan asbob-uskunalar, harakatdagi asbob-uskunalar, asbob-uskunalardan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsientlari, asbob-uskunalarning smenalik ishlash koeffitsienti, asbob-uskunalarning bo'sh turib qolishi.

Nazorat savollari

1. Asosiy vositalarni tahlil qilishning mazmuni, maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.
2. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va o'sish sur'atini tahlil qilish.
3. Asosiy vositalarning texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish.
4. Asosiy vositalarning eskirish darajasini tahlil qilish.
5. Asosiy vositalarning yangilanish darajasini tahlil qilish.
6. Asosiy vositalarning chiqib ketish darajasini tahlil qilish.
7. Asosiy vositalarning yaroqlilik darajasini tahlil qilish.
8. Asbob-uskunalarning xizmat qilish davrini tahlil qilish.
9. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni tahlil qilish.
10. Asosiy vositalardan olingan samaraning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish.
11. Asbob-uskunalardan samarali foydalanishni tahlil qilish.

«Asosiy vositalarning tarkibi, holatini va samaradorligini tahlil qilish» mavzusi bo'yicha testlar

- 1. Korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanishi hamda ularning hajmi va tarkibining o'zgarishini aniqlang.**
 - A. Asosiy vositalarning haqiqatdagi summasi rejadagi summasiga taqqoslanadi, uch guruh asosiy vositalar salmog'ining o'zgarishi.

- B. Asosiy vositalar va sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalar salmog'ining o'zgarishi hamda boshqa tarmoqlarning sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining tarkibining o'zgarishi.
- V. Asosiy vositalarning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan summasini taqqoslash hamda uch guruh asosiy vositalar salmog'ini taqqoslash.
- G. Rejadagi asosiy vositalarning summasi haqiqatdagi summasi bilan taqqoslash, asosiy vositalarning o'sish sur'ati, uch guruh asosiy vositalarning salmog'i.
- D. To'g'ri javob yo'q.

2. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsientini aniqlang.

- A. Asosiy vositalarning eskirish summasi ularning boshlang'ich qiymatiga nisbati tariqasida.
- B. Asosiy vositalarning eskirish summasini ularning qoldiq qiymatiga nisbati tariqasida.
- V. Asosiy vositalarning eskirish summasini ularning tiklash qiymatiga nisbati tariqasida.
- G. Asosiy vositalarning qoldiq qiymatini ularning tiklash qiymatiga nisbati.
- D. To'g'ri javob yo'q.

3. Asosiy vositalarning yangilash koeffitsientini aniqlang.

- A. Yangi kelgan asosiy vositalar summasini asosiy vositalarning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga nisbati.
- B. Yangi kelgan asosiy vositalar summasini asosiy vositalarning yil boshiga bo'lgan qiymatiga nisbati.
- V. Yangi kelgan asosiy vositalar summasini asosiy vositalarning tiklash qiymatiga nisbati.
- G. Yangi kelgan asosiy vositalar summasini ularning qoldiq qiymatiga nisbati.
- D. Yangi kelgan asosiy vositalar summasini ularning boshlang'ich qiymatiga nisbati.

4. Asosiy vositalarning yaroqlilik darajasini aniqlang.

- A. Asosiy vositalarning qoldiq qiymatini ularning boshlang'ich qiymatiga nisbati.
- B. Asosiy vositalarning tiklash qiymatini ularning boshlang'ich qiymatiga nisbati.

- V. Asosiy vositalarning qoldiq qiymatini ularning tiklash qiymatiga nisbati.
- G. Asosiy vositalarning eskirish summasini ularning boshlang'ich qiymatiga nisbati.
- D. Asosiy vositalarning eskirish summasini ularning qoldiq qiymatiga nisbati.

5. Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsientini aniqlang.

- A. CHiqib ketgan asosiy vositalar summasini ularning yil boshiga bo'lgan qiymatiga nisbati.
- B. CHiqib ketgan asosiy vositalar summasini ularning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga nisbati.
- V. CHiqib ketgan asosiy vositalar summasini ularning qoldiq qiymatiga nisbati.
- G. CHiqib ketgan asosiy vositalar summasini ularning tiklash qiymatiga nisbati.
- D. CHiqib ketgan asosiy vositalar summasini ularning boshlang'iya qiymatiga nisbati.

6. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalardan olinadigan samaradorlik

ko'rsatkichini aniqlang.

- A. Tovar mahsuloti hajmini sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati.
- B. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.
- V. Tovar mahsuloti hajmini ishlangan dastgoh-soatlarga nisbati.
- G. Ishlangan dastgoh-soatlarni tovar mahsulotiga nisbati.
- D. To'g'ri javob yo'q.

7. Mashina va asbob-uskunalarining samaradorligini aniqlang.

- A. Mashina va asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymatini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.
- B. Tovar mahsuloti hajmini mashina va asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati.
- V. Tovar mahsuloti hajmini ishlangan dastgoh-soatlarni tovar mahsuloti hajmiga nisbati.
- G. Ishlangan dastgoh-soatlarni tovar mahsuloti hajmiga nisbati.
- D. Tovar mahsuloti hajmini sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati.

8. Asosiy vositalar sig'imi ko'rsatkichini aniqlang.

- A. Tovar mahsuloti hajmini ishlangan dastgoh soatlarga nisbati.
- B. Tovar mahsuloti hajmiga sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati.
- V. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiyomatini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.
- G. Ishlangan dastgoh-soatlarni tovar mahsuloti hajmiga nisbati.
- D. Tovar mahsuloti hajmini mashina va asbob-uskunalarning o'rtacha yillik qiymatiga nisbati.

9. Asosiy vositalar bilan qurollanish ko'rsatkichini aniqlang.

- A. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatini (boshlang'ich bahoda) ishchilarning eng ko'p smenadagi soniga nisbati.
- B. Ishchilarning eng ko'p smenadagi sonini asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatiga (boshlang'iya bahoda) ko'paytiriladi.
- V. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatini (boshlang'iya bahoda) ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soniga nisbati.
- G. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatini (qoldiq qiymatda) ishchilarning eng ko'p smenadagi soniga nisbati.
- D. Ishchilarning ro'yxatdagi o'rtacha sonini sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalariga ko'patiriladi.

10. Tovar mahsuloti hajmini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi mehnat vositalari bilan bog'liq omillar qanday hisoblanadi?

- A. 1. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatida bo'lgan farq ularning o'tgan yildagi samaradorlik darajasiga ko'paytiriladi.
- 2. Vositadan olingan samaradagi farqni joriy yildagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga ko'paytiriladi.
- B. 1. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatida bo'lgan farq ularning joriy yildagi samaradorlik darajisiga ko'paytiriladi.
- 2. Vositadan olingan samaradagi farqni o'tgan yildagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga ko'paytiriladi.
- V. 1. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining joriy yildagi o'rtacha yillik qiymati ularning o'tgan yildagi samaradorlik darajasiga ko'paytiriladi.

2. Joriy yili vositadan olingan samarani o'tgan yildagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga ko'paytiriladi.
- G. 1. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'tgan yildagi o'rtacha yillik qiymati ularning joriy yildagi samaradorlik darajisiga ko'paytiriladi.
2. O'tgan yili vositadan olingan samarani joriy yildagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga ko'paytiriladi.
- D. To'g'ri javob yo'q.

11. Ishlab chiqarish asosiy vositalari samaradorligining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar qanday hisoblanadi?

- A. 1. Mashina va asbob-uskunalarining jami asosiy vositalar tarkibida tutgan salmog'ining o'zgarishini o'tgan yildagi ming so'mlik mashina va asbob-uskunalaridan olinadigan samaraga ko'paytiriladi.
2. Ming so'mlik mashina va asbob-uskunalaridan olinadigan samaradagi farqni joriy yildagi mashina va asbob-uskunalarining jami asosiy vositalar tarkibida tutgan salmog'iga ko'paytiriladi.
- B. Mashina va asbob-uskunalarining joriy yildagi salmog'i o'tgan yildagi ming so'mlik mashina va asbob-uskunalaridan olingan samaraga ko'paytiriladi.
- V. 1. Mashina va asbob-uskunalarining o'tgan yildagi salmog'i joriy yildagi mashina va asbob-uskunalaridan olingan samaraga ko'paytiriladi.
2. Joriy yilda mashina va asbob-uskunalarining salmog'i ko'paytiriladi.
- G. 1. Mashina va asbob-uskunalaridan olinadigan salmog'ining o'zgarish joriy yilda olingan samaraga ko'paytiriladi.
2. Mashina va asbob-uskunalaridan olinadigan samaradagi farqni o'tgan yildagi mashina va asbob-uskunalarining salmog'iga ko'paytiriladi.
- D. To'g'ri javob yo'q.

6-BOB. SANOAT KORXONALARINING MODDIY RESURLAR BILAN TA'MINLANISHI VA ULARDAN FOYDALANISHNI TAHLIL QILISH

6.1. Material sarfini kamaytirishning iqtisodiyotda tejamkorlikni amalga oshirishdagi ahamiyati

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi o'z navbatida mehnat buyumlarining ortishiga olib keladi. Agar xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlarida (yengil va oziq-ovqat) moddiy xarajatlarning ishlab chiqarish xarajatlarida tutgan salmog'i 80 foizni tashkil etishini nazarda tutsak, u holda material sarfini kamaytirishning naqadar xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega ekanligini ko'ramiz.

Bozor munosabatlari sharoitida tejamkorlik rejimini kuchaytirish, hamma turdagi resurslarni oqilona va tejab-tergab sarflash, ularning nobud bo'lishini kamaytirishga sabot bilan erishish, resurslarni tejaydigan va chiqitsiz texnologiyaga o'tishni amalga oshirish, ishlab chiqarishning ikkilamchi resurslari va chiqitlaridan foydalanishni yaxshilash, ularni qayta ishlaydigan ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, ikkilamchi xom ashyoni to'plashni, shu jumladan aholidan to'plashni tashkil qilish va tayyorlov tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash lozim. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida sodir bo'layotgan xo'jasizlik, nobudgarchilik va tejamsizliklarga juda ham ko'p misollar keltirish mumkin.

Material sarfini kamaytirishning quyidagi yo'llari mavjud:

1. Mahsulotlarning konstruksiyasini o'zgartirish va takomillashtirish.
2. Ishlab chiqarish jarayonlari va ishlab chiqarish dastgohlarining texnologiyasini takomillashtirish.
3. Eng maqbul bichish xaritalarini qo'llash orqali materiallarga ketadigan xarajat normalarini kamaytirish.
4. Ishlab chiqarishning ikkilamchi resurslari va chiqitlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish.
5. Ishlab chiqarishda brakga aslo yo'l qo'ymaslik va x.k.lar.

Moddiy resurslarning asoiy qismini mehnat predmetlari tashkil qiladi. Bularga: xom ashyo, materiallar, yonilg'i va boshqa predmetlar kirib, ular har bir ishlab chiqarish siklida butunlay o'z qiymatini mahsulotga o'tqazadi. Bularning tahlili ham iqtisodiyotni o'nglashda muhim ahamiyatga ega.

6.2. Moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlil qilish

Mahsulot yetkazib berish shartnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Bunda tranzit bilan (bevosta) mahsulot tayyorlovchilardan iste'molchilarga yoki ta'minot – mol o'tqazish korxonalari va tashkilotlarining omborlari orqali (omborlardan mol yetkazib berish) amalga oshiriladi. Mahsulotlarni omborlardan yetkazib berishda mol oluvchilarga mahsulotni iste'molga tayyorlash (materiallarni qirqish va bichish, mayda idishlarga qadoqlab yoki o'lchab joylash) va boshqalar yuzasidan ishlab chiqarish va transport xizmatlari ko'rsatiladi.

Moddiy-texnika ta'minotini bozor munosabatlariga mos ravishda qayta qurish moddiy resurslarni markazlashtirilgan tarzda vositalash va iste'molchilarni mol yetkazib beruvchilarga biriktirib ularning buyurtmasi bo'yicha, shartnoma narxlaridan foydalangan holda, xaridor manfaatini ko'zlab, ish yuzasidan sherik tanlash orqali erkin oldi-sotdi shaklidagi savdo qilishga o'tish natijasida ishlab chiqaruvchining o'z amrini o'tkazishini va monopoliyasini (tanho huquqqa ega bo'lishi) bartaraf etib rivojlangan bozorning paydo bo'lishiga olib keldi. Korxonalarining moddiy-texnika ta'minotining holatini tahlil qilish cheklangan doirada olib boriladi, chunki korxonalarining hisobotida, jumladan yillik hisobotda ta'minot holati to'g'risida ma'lumotlar juda ham kam beriladi, unda keltirilgan materiallarning assortimenti va sifati bo'yicha ishlab chiqarish talab va ehtiyojlariga mos keladimi Yoki yo'qmi shunga o'xshash ma'lumotlar ko'rsatilmaydi. SHuning uchun moddiy-texnika ta'minoti holatini chuqur va har tomomnlama tahlil qilish uchun korxonaning ta'minot bo'limi va omborxonaning ma'lumotlariga murojaat qilish kerak bo'ladi. Ana shu ma'lumotlarga asoslangan holda materiallar guruhi va ularning alohida olingan xillari bo'yicha ularning keltirilishi, rejaning qanday bajarilganligini aniqlash mumkin.

Yillik hisobotdan esa faqat ishlab chiqarish zahiralarning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni (balansdan), ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar summasini 5-s «Mahsulot ishlab chiqarish va sotishga korxonalar sarf xarajatlari to'g'risida hisobot» shaklidan olinadi.

Yuqorida qayd etilgan shakllardan olingan ma'lumotlarga asoslanib moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha rejaning bajarilishiga umumiy baho berish mumkin. Bunday yuzaki tahlil korxonalarining ta'minot holatini har tomonlama aniqlashda etarli emas, chunki korxonalar umuman materiallar

bilan ta'minlanganlari holda materiallarning qaysi birlari bo'yicha ortiqchalik, qaysi birlari bo'yicha esa etishmovchilik bo'lishi ehtimoldan holi emas. SHuning uchun korxonalarining materiallar bilan to'la-to'kis va zarur assortimentlari bo'yicha ta'minlanganligini aniqlash uchun omborxonalar hisobotidan olingan ma'lumotlarga murojaat qilish kerak.

Moddiy-texnika ta'minotini tahlil qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha rejaning bajarilishi va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarish tendensiyasi aniqlanadi.
2. Moddiy-texnika ta'minotini alohida turlari bo'yicha rejaning bajarilishi o'rganib chiqiladi.
3. Moddiy-texnikaning o'z vaqtida o'rnatilganligi va uning samaradorligi o'rganiladi.
4. Moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash bo'yicha tegishli choratadbirlar ishlab chiqilib boshqaruv qarorlarini qabul qilish masalasi ko'rib chiqiladi.

Ushbu hisob-kitoblar tegishli amaliy ma'lumotlar asosida aniq xo'jalik yurituvchi subyektlarda amalga oshiriladi.

6.3. Ishlab chiqarishda materiallardan Foydalanishni tahlil qilish

Materillarni reja doirasida tayyorlash mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha biznes-rejani bajarish uchun imkoniyat yaratadi. Agar materiallar tejab-tergab sarf etilmasa va ularning haqiqatdagi sarfi normaga nisbatan ortiqcha bo'lsa, u holda tayyorlangan materiallar mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha biznes-rejasini bajarish uchun etarli bo'lmaydi. Tahlil qilish orqali materiallardan foydalanishda ortiqcha sarf-xarajat bo'lgan bo'lsa, u holda qancha kam mahsulot ishlab chiqarildi Yoki materillarni tejash natijasida qancha qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarganligini aniqlash mumkin. Bularni hisobga olish usuli quyidagicha:

1. Mahsulot birligi uchun belgilangan xarajat normasini materiallarga ketgan haqiqiy xarajatlardan taqqoslanadi.
2. Erishilgan tejam yoki ortiqcha xarajat ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy miqdoriga ko'paytiriladi.
3. Materiallarni sarf etishda sodir bo'lgan ortiqcha xarajadni reja bo'yicha belgilangan xarajat normasiga bo'linadi, uning tejalgan qismini esa haqiqiy xarajat miqdoriga bo'linadi. Shu tariqa natijasida qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ortiqcha xarajat oqibatida ishlab

chiqarilmagan mahsulot hajmi aniqlanadi. Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar muhim mahsulot turlari tannarxida (kalkulyasiyasida) berildi (6.1-jadval).

6.1- Jadval.

Materiallardan foydalanishning hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Erkaklar poyafzali	Xotin-qizlar poyafzali
1. Mahsulot birligiga sarf qilinadigan kun tovarlari – 100 juft poyafzalga kv.dsm. reja bo'yicha haqiqatda farqi (+,-)	1817 1805 -12	1820 1827 +7
2. 100 juft hisobida haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori	7850	5070
3. Tejam (-), ortiq (+) hamma ishlab chiqarilgan poyafzalga (ming, kv. dsm)	(7850x12) -94,2	(5070x7) +85,5
4. Qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish Yoki kam ishlab chiqarish	(94,2:1805) +52	+85,5:1820 -27

Jadvaldan ko'rinishicha, korxonada erkaklar poyafzalini tayyorlashda unga sarflanadigan ko'n tovarlarini tejash natijasida qo'shimcha ravishda 52 juft ishlab chiqarishga erishdi. Xotin-qizlar poyafzalini tayyorlashda esa 35,5 ming kv. dsm. ga ko'p ko'n tovarlari ortiqcha ishlatilgan. Natijada 27 juft ayollar poyafzali kam ishlab chiqarildi. Alohida olingan materiallardan foydalanishni tahlil qilishdan tashqari korxonada bo'yicha materiallardan foydalanishni tahlil qilish kerak. Tahlil uchun kerakli ma'lumot yillik hisobotning I-KB sonli «Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha hisobot»i va 5-s shaklidan olinadi.

6.2 - Jadval.

Mehnat buyumlaridan samarali foydalanishning hisob-kitobi

No	Ko'rsatkichlar	Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda	Mutlaq farq (+,-)
1.	Moddiy xarajatlar, ming so'm.	628430	620430	-8000
2.	Tovar mahsuloti, ming so'm.	942600	997970	+55370
3.	Bir so'mlik moddiy xarajatlarga to'g'ri keluvchi mahsulot hajmi (2 qator: 1 qator), so'm, tiyin	1,50	1,61	+0,11
4.	Tovar mahsulotiga ketgan material	0,6667	0,621	-0,045

	sarfi, tiyin (1 qator: 2 qator), 0,0001 aniqlikda		7	
5.	Material sarfi o'zgarishining ta'siri(+,-) a) tovar mahsulotining ishlab chiqarish tannarxi moddiy xarajatlarda (qimmatlashishi +; pasayishi -) ming so'm. (4 qator 5 us x 2 qator 4 us)	-	-	-44908
	b) tovar mahsulotining hajmi, ming so'm. (3 qator 5 us : 4 qator 3 us)	-	-	+67358

Hisobi:

$$5 a - 0,045 \times 997970 = -44908 \text{ ming so'm (+)}$$

$$5 b - 44908 : 0,6667 = +67358 \text{ ming so'm (-)}$$

Tahlil qilinayotgan korxonada moddiy xarajatlarni tejash natijasida qo'shimcha ravishda 67358 ming so'mli mahsulot ishlab chiqarishga erishdi. Demak, korxonada tovar mahsulotiga ketadigan material sarfini kamaytirish borasida barcha chora va tadbirlarni qo'llamoqda deb xulosa chiqarishimiz mumkin.

Jadvaldan ko'rinishicha hisobot yili haqiqatda tovar mahsuloti xajmi biznes-rejaga nisbatan 55370 ming so'mga oshgan. Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

1. Moddiy xarajatlarning o'zgarishi (ekstensiv omil): $- 8000 \times 1,50 = -12000$ ming so'm.

2. Material samarasining o'zgarishi (intensiv omil) : $+0,11 \times 620430 = +68247$ ming so'm.

Hisoblangan ikki omilning yig'indisi $(-12000) + (+68247) = +56247$ ming so'm. Mahsulot hajmidagi mutlaq farqga (55370 m.s.) taxminan teng keladi. Bunday 877 ming so'mga farq $(56247 - 55370)$ omillar miqdorini yaxlitlash hisobiga ro'y berdi.

Demak, mahsulot ishlab chiqarish xajmining qo'shimcha o'sishi faqat intensiv (jadal) omil hisobiga sodir bo'ldi. Bu esa o'z navbatida korxonaning iqtisodiy salohiyati oshganligidan dalolat beradi.

6.4. Mahsulot ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha yig'ma rezervlarni aniqlash

Korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashdir.

Ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash va ularni xo‘jalik oborotiga yo‘naltirishda korxonalar katta imkoniyatlarga ega. Bu esa ishlab chiqarish resurslari (mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat predmetlari)dan oqilona va samarali foydalanishga bog‘liq. Bu omlilarni Yuqorida batafsil va har tomonlama tahlil qildik. Yig‘ma rezervlarni aniqlash uchun quyidagi analitik jadvalni havola qilamiz (6.3-jadval).

6.3 – Jadval

Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni amalga oshirish bo‘yicha yig‘ma rezervlarni aniqlash. (ming so‘m hisobida)

№	Rezervlarning nomi	Summasi	Jadvalga ilova
1.	Mehnat omillari		Jadval
2.	Mehnat vositalari omillari		Jadval
3.	Mehnat predmetlari omillari		Jadval
4.	Mahsulot ishlab chiqarishni oshirishning kompleks rezervi x)		
5.	Normativga nisbatan ortiqcha tayyor mahsulotlarning yil oxiriga bo‘lgan qoldig‘ini sotish		Balans
6.	Ko‘paytirilgan tovarlar, lekin o‘z muddatida haqi to‘lanmagan va javobgarlik bilan saqlanadigan tovarlar		balans
	Tovar va sotilgan mahsulot hajmining oshirishning jami rezervi (4+=+5+=+ 6=)		

*) Kompleks rezerv deganda, rezervlarning eng kam summasi olinadi.

Tayanch iboralar:

Mehnat buyumlari, moddiy xarajatlar, tejamkorlik rejimi, resurslardan oqilona foydalanish, chiqitsiz texnologiya, xo‘jasizlik, nobudgarchilik, material sarfini qaytarish yo‘llari, moddiy-texnika ta‘minoti, mol yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar, iste‘molchilarning buyurtmasi, shartnoma narxlari, xaridor manfaati, sherik tanlash, erkin oldi-sotdi shakli, ishlab chiqaruvchining yakka hokimligi (monopoliyasi), rivojlangan bozor, ta‘minot holati, omborxonalar ma‘lumotlari, ishlab chiqarish zahiralari, mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha sarf – xarajatlari, mahsulot birligi uchun belgilangan xarajat normasi (me‘yori),

haqiqatdagi xarajatlar, tejamkorlik natijasida qo‘shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi, ortiqcha xarajat oqibatida ishlab chiqarilmagan mahsulot xajmi, muhim mahsulot turlari kalkulyasiyasi, bir so‘mlik moddiy xarajatlarga to‘g‘ri keluvchi mahsulot xajmi (material samarasi), bir so‘mlik tovar mahsuloti ishlab chiqarishga ketgan moddiy xarajatlar xajmi (material sarfi), tovar mahsuloti xajmining o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi omillar, komplekt rezervlar.

Nazorat savollari

1. Moddiy resurslar bilan ta‘minlanish va ulardan samarali foydalanishni tahlil qilishning ahamiyati va vazifalari.
2. Material sarfini kamaytirishning yo‘llari.
3. Moddiy-texnika ta‘minoti bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlil qilish.
4. Mahsulot yetkazib berish qanday rasmiylashtiriladi?
5. Korxonalarining moddiy-texnika ta‘minotining holatini tahlil qilish.
6. Ishlab chiqarishda alohida olingan materiallardan foydalanishni tahlil qilish.
7. Materiallarni tejash natijasida qo‘shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi qanday aniqlanadi.
8. Materiallarni ortiqcha xarajat qilish oqibatida ishlab chiqarilmagan mahsulot xajmi qanday aniqlanadi.
9. Korxonada bo‘yicha mehnat buyumlaridan samarali foydalanishni tahlil qilish.
10. Tovar mahsuloti ishlab chiqarish xajmining o‘zgarishiga qanday mehnat buyumlari omillari ta‘mir ko‘rsatadi.
11. Mahsulotni ishlab chiqarishni oshirish bo‘yicha kompleks rezervlar summasi qanday aniqlanadi.

«Sanoat korxonalarining moddiy resurslar bilan ta‘minlanishi va ulardan foydalanishni tahlil qilish» mavzusi bo‘yicha testlar

1. Material samarasi ko‘rsatkichini aniqlang.

- A. Moddiy xarajatlar summasini tovar mahsuloti xajmiga nisbati.
- B. Ishlab chiqarish zaxiralari summasini tovar mahsulotiga nisbati.
- V. Ishlab chiqarish xarajatlari summasini tovar mahsuloti xajmiga nisbati.
- G. Tovar mahsuloti xajmini moddiy xarajatlar summasiga nisbati
- D. Tovar mahsuloti xajmini ishlab chiqarish tannarxiga nisbati.

2. Material sarfi (sig'imi) ko'rsaktichini aniqlang.

- A. Tovar mahsuloti xajmini moddiy xarajatlar summasiga nisbati.
- B. Moddiy xarajatlar summasini tovar mahsuloti xajmiga nisbati.
- V. Tovar mahsuloti xajmini ishlab chiqarish zaxiralari summasiga nisbati.
- G. Ishlab chiqarish zaxiralari summasini tovar mahsuloti xajmiga nisbati.
- D. Ishlab chiqarish tannarxini tovar mahsuloti xajmiga nisbati.

3. Har bir ishlab chiqarish siklida o'z qiymatini butunlay mahsulotga o'tkazadigan narsalar

- A. faqat xom ashyo
- B. mehnat vositalari.
- V. mehnatning o'zi.
- G. moddiy resurslar.
- D. mehnat predmetlari.

4. Ishlab chiqarish siklida o'z qiymatini qisman mahsulotga o'tkazadigan narsalar

- A. faqat xom ashyo
- B. mehnat vositalari.
- V. mehnatning o'zi.
- G. moddiy resurslar.
- D. mehnat predmetlari.

5. Iqtisodiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi omil bu

- A. faqat xom ashyo
- B. mehnat vositalari.
- V. mehnatning o'zi.
- G. moddiy resurslar.
- D. mehnat predmetlari.

6. Moddiy xarajatlar (Mx) samaradorligi qanday aniqlanadi?

- A. mahsulot (M) / Mx
- B. MX / M
- V. Mx - M
- G. Mx / barcha xarajatlar (Bx)
- D. Bx / Mx

7. Mahsulotning moddiy xarajatliligi qanday aniqlanadi?

- A. mahsulot (M) / Mx

- B. MX / M
- V. $M_x - M$
- G. $M_x / \text{barcha xarajatlar (Bx)}$
- D. B_x / M_x

8. Moddiy xarajatlarning barcha xarajatlardagi ulushi qanday hisoblanadi?

- A. mahsulot (M) / M_x
- B. MX / M
- V. $M_x - M$
- G. $M_x / \text{barcha xarajatlar (Bx)}$
- D. B_x / M_x

9. Mahsulotning xarajatliligi qanday aniqlanadi?

- A. mahsulot (M) / M_x
- B. MX / M
- V. $M_x - M$
- G. $M_x / \text{barcha xarajatlar (Bx)}$
- D. B_x / M_x

10. Moddiy xarajatlarning ko'payishi evaziga mahsulot ko'paysa qanday omil?

- A. ijobiy
- B. salbiy
- V. ekstensiv
- G. intensiv
- D. doimiy

11. Mahsulot M_x samaradorligi oshishi evaziga ko'paysa bu qanday omil?

- A. ijobiy
- B. salbiy
- V. ekstensiv
- G. intensiv
- D. doimiy

12. Moddiy resurslarning mavjudligi qanday omil?

- A. ijobiy
- B. salbiy

- V. ekstensiv
- G. intensiv
- D. doimiy

13. Moddiy xarajatlarning ko‘payishi qanday omil?

- A. ijobiy
- B. salbiy
- V. ekstensiv
- G. intensiv
- D. doimiy

14. Moddiy xarajatlarning muttasil kamayib borishi qanday omil?

- A. ijobiy
- B. salbiy
- V. ekstensiv
- G. intensiv
- D. doimiy

7 - BOB. ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA MAHSULOT SOTISH TAHLILI.

7.1. Ishlab chiqarish harajatlari tavsifi va ularning tasnifi

Ishlab chiqarish faoliyati birinchi navbatda jonli va moddiylashtirilgan mehnat xarajatlari, mehnat vositalari va moliyaviy resurslarning ishlatilishiga bogʻliqdir.

Har qanday tadbirkor oʻz faoliyatini boshlayotganda faoliyatiga muvofiq keladigan darajada resurslarga ega boʻlishi lozim. Ularni ishlab chiqarish jarayoni mahsulotni sotish evaziga daromad olishga tayyor boʻlishi kerak. Bu daromad ishlab chiqarish xarajatlaridan koʻp boʻlishi kerak. Farq qancha katta boʻlsa, foyda va faoliyatining samaradorligi shuncha Yuqori boʻladi.

Har bir tadbirkor oʻz faoliyatini amalga oshirayotib, uning qilgan xarajatlari maʼlum darajada foyda keltirishga intiladi. Foydasiz va keraksiz xarajatlar iloji boricha yoʻq qilinishi Yoki minimumgacha keltirilishi kerak.

Buning hammasiga xarajatlarni rejalashtirish, toʻgʻri hisobga olish va tahlil qilish orqali uni mohirlik bilan boshqarish natijasida erishish mumkin. Bu esa oʻz navbatida «Xarajat» turlarini va koʻrsatkichlarini, ularni ifodalovchi hisob usullarini, xarajatlarni rejalashtirish va tahlil qilishni amalga oshirishni talab qiladi.

Hamma xarajatlar qoʻyidagi belgilar asosida kategoriyalarga turkumlanadi:

- boshqaruv sohasidagi roli boʻyicha;
- xarajatlarni nazorat qilish darajasi boʻyicha;
- xarajatning funksional oʻzgarishi boʻyicha;
- iqtisodiy mazmuni boʻyicha;
- kalkulyasiya moddalari boʻyicha;
- xarajatlarning hisobi va mahsulot tannarxiga kiritilishi boʻyicha.

Boshqaruv sohasidagi roli boʻyicha xarajatlar ikki guruhga birlashtirilgan:

- a) ishlab chiqarish xarajatlari;
- b) noishlab chiqarish xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita mahsulot ishlab chiqarish bilan bogʻliq. Ular oʻz navbatida qoʻyidagi boʻlimlarga ajratiladi;

- materiallarning bevosita xarajatlari;
- mehnat haqi uchun bevosita xarajatlar;
- ishlab chiqarish umumiy xarajatlari.

Materiallarning bevosita xarajatlari va mehnat haqi uchun bevosita xarajatlar **birlamchi xarajatlar** hisoblanadi, chunki ular bevosita mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq va to‘g‘ri mahsulot birligining tannarxiga kiritiladi. Ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari bevosita xarajatlar deyiladi, ya‘ni o‘z qiymatini tayyor mahsulotga qisman-qisman o‘tkazib boradigan xarajatlardir. Masalan, asosiy vositalarning tannarxiga kiritiladigan xarajatlari bo‘yicha misol bo‘ladi. Uning natural shakli o‘zgarmaydi. Mahsulot shaklida Yoki tarkibida o‘z ifodasini topmaydi. Lekin b xarajatlarga kiritiladi. Birlamchi va bilvosita xarajatlar yig‘indisi mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.

Noishlab chiqarish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq emas. Ular mahsulot sotish, ilmiy izlanish, ma‘muriy boshqaruv xarajatlarini, kredit bo‘yicha foizlarni to‘lash xarajatlarini va bevosita korxonada ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Xarajatlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlariga bo‘linishi buxgalteriya hisob va tahlilini amalga oshirishda va korxonada faoliyati natijalariga ta‘sir qiluvchi omillarni hisoblashda inobatga olish zarurligi bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, korxonada ular asosiga ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlarning umumiy xarajatlar summasidagi ulushi to‘g‘risida xulosalar qilishda va xarajatlarni qisqartirish va tejash boshqaruv qarorlarini qabul qilishida ham foydalanish mumkin. Noishlab chiqarish xarajatlarining ulushi oshishi foydaning kamayishiga va ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari summasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar moliyaviy hisobotlarning 2 shakl «Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot», 5 shakl «Buxgalteriya balansiga ilova», 6 bo‘lim «Korxonada tomonidan qilingan xarajatlar», shuningdek, «Korxonada mahsulotini ishlab chiqarish va sotish to‘g‘risidagi hisobot» nomli statistik hisobotlarida keltiriladi.

Xarajatlarni nazorat qilish darajasi bo‘yicha, ya‘ni obyekt tannarxning kalkulyasiya qilinishi mumkinligiga qarab to‘g‘ri va egri (to‘g‘ri bo‘lmagan) xarajatlarga bo‘lish mumkin.

To‘g‘ri xarajatlar – bu alohida turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda tannarxiga bevosita kiritiladigan xarajatlar: Aniq mahsulot

uchun qilingan to'g'ri xarajatlarni va bo'limlar uchun qilingan to'g'ri xarajatlarni farqlay bilish kerak.

Agar xarajatlarni to'g'ridan-to'g'ri aniq mahsulotga olib borish mumkin bo'lsa bu ushbu mahsulot uchun to'g'ri xarajat bo'lib hisoblanadi. Korxonaning bo'limlari bilan bevosita bog'liq xarajatlar bu bo'limning to'g'ri xarajati hisoblanadi, lekin ushbu bo'limda chiqariladigan aniq mahsulotga nisbatan ular egri xarajat hisoblanadi.

To'g'ri xarajatlar bevosita mahsulot tannarxiga ishlab chiqarish xarajatlari miqdorida olib boriladi. Bu xarajatlar butunlay o'z qiymatini aniq ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkazadi.

To'g'ri xarajatlarning asosiy moddalari qo'yidagilar:

- xom ashyo va asosiy materallar;
- sotib olinadigan ashyolar va yarim fabrikantlar;
- ishlab chiqarish xodimlarining asosiy ish haqi;
- elektr quvvati qiymati kabilar.

Egri xarajatlarni, ularni yana bilvosita xarajatlar deyiladi. Ularni mahsulotning aniq turiga bevosita olib borib bo'lmaydi (agar mahsulotning bir necha turi ishlab chiqarilsa). Bir vaqtning o'zida mahsulotlarning har xil turlariga olib boriladigan xarajatlar ishlab chiqarishning qo'shma Yoki kompleks xarajatlar deyiladi va egri xarajatlar turkumiga kiradi. Masalan, sex xodimlarining mehnat haqi (sex boshlig'ining, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning), kommunal xizmati, sex binolarining amortizatsiyasi va umumiy foydalanishdagi uskunalar va boshqalar

Egri xarajatlarning asosiy moddalari qo'yidagilardir:

- umumsex xarajatlari;
- umumzavod xarajatlari;
- noishlab chiqarish xarajatlarning bir qismi.

Xarajatlar bo'limlar uchun to'g'ri xarajat, shuning bilan birga mahsulot uchun egri xarajat bo'lishi mumkin. Remont-mexanika sexi boshlig'ining mehnat haqi sex uchun to'g'ri xarajatdir, lekin shu sexda tayyorlanadigan ko'plab mahsulot turlari uchun egri xarajat hisoblanadi.

To'g'ri xarajatlar bevosita «Asosiy ishlab chiqarish schyotida o'z aksini topadi, egri xarajatlar esa «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schyotiga taalluqlidir va xarajatlarni taqsimlash usuli qo'llash yo'li bilan mahsulot turlari bo'yicha ular oy oxirida «Asosiy ishlab chiqarish» schyotiga olib boriladi.

Korxonalar rahbariyati to'g'ri va egri xarajatlarni tahlil qilganda, mahsulot sifatini pasaytirmay uning tannarxini pasaytirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishiga erishish lozim.

Funksional o'zgarishi bo'yicha xarajatlarni o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga bo'linadi.

O'zgaruvchan xarajatlarni shunday xarajatlarni, ular ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish hajmining o'zgarishiga to'g'ri proporsional tarzda o'zgaradi. Masalan, materiallar va xom ashyo xarajatlari, ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi, transport va benzin xarajatlari va boshqalar.

O'zgarmas xarajatlarni bu mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmi o'zgarishiga qaramay butunlay o'zgarmay qoladigan xarajatlardir. Masalan, ma'muriy boshqaruv xarajatlari, ijara xarajatlari, sug'urta va soliqlar to'lovi.

Xarajatlarni o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga bo'linishi ularni rejalashtirish, foydalilik nuqtasini aniqlash, rejalashtirilgan foydani hisoblash va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish uchun kerakdir.

Rejalashtirish, tahlil qilish va hisob amaliyotida mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari xarajat elementlari bo'yicha guruhlashtiriladi va ularning asosiylari qo'yidagilar hisoblanadi:

- xom ashyo va materiallar;
- yordamchi materiallar;
- chetdan olingan yonilg'i va elektr quvvati;
- asosiy vositalar amortizatsiyasi;
- sanoat-ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi fondi;
- ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot ajratiladigan uchun mablag'lar;
- boshqa pulli xarajatlarni.

Xarajatlarni elementlari bo'yicha bo'nday guruhlashtirish mahsulot ishlab chiqarish uchun qilinadigan xarajatlarni strukturasi aniqlashga, turlari bo'yicha hajmini rejalashtirishga, zaruriy material, mehnat va moliyaviy resurslar bilan uzluksiz ta'minlanishiga imkon yaratadi.

Xarajatlarni u yoki bu elementlariga egalik qilishiga qarab tarmoq faoliyati mehnat talab, material talab, energiya talab va fond talablarga bo'linadi.

Mehnat talab korxonalar shunday korxonalar, unda mehnat haqi xarajatlari hamma xarajatlardan ustun. Ishlab chiqarishga zamonaviy uskunalarni kirib kelishi, avtomatlashtirilishi va kompyuterlashtirilishi

tufayli eng mehnat talab tarmoqlar asta-sekinlik bilan fond talab tarmoqlarga aylanmoqda va mehnat unumdorligi oshmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, korxonaning xarajatlari mahsulot qiymatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular asosida korxonalar o'z mahsulotini sotishi va kutilayotgan foydani olishi mumkin bo'lgan qiymat darajasini aniqlaydi. Buning uchun har bir korxonada ishlab chiqaradigan mahsulot (ish, xizmat) tannarxi kalkulyasiyasini tuzishi kerak.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish moddalarining eng asosiylari qo'yidagilar:

- xom ashyo va materiallar;
- ko'makchi materiallar;
- ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi;
- ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi bo'yicha ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta;
- texnologik ehtiyoj uchun yoqilg'i;
- texnologik ehtiyoj uchun elektr quvvati;
- umumishlab chiqarish xarajatlari (sexniki);
- davr xarajatlari (umumzavod xarajatlari);
- boshqa xarajatlar.

Yuqorida keltirilgan moddalardan ko'rinib turibdiki, umumishlab chiqarish va umumzavod xarajatlaridan tashqari xarajatlarning hamma moddalari to'g'ri xarajatlarga tegishli. Bu moddalarni rejalashtirishda normativ metod qo'llaniladi. Umumishlab chiqarish va umumzavod xarajatlari kompleks xarajatlariga kiradi. Ular hisob siyosati metodikasiga asosan mahsulot birligiga taqsimlanadi.

Mahsulotni haqiqiy tannarxini butunlay Yoki ularning moddalari bo'yicha reja Yoki utgan yil bilan solishtirilib mutlaq Yoki nisbiy farq va uning sabablari aniqlanadi. Keyin omilli tahlil asosida mablag'larni samarali taqsimlash bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

«Korxonada xarajatlari», korxonada va tashkilotlarning hamma xarajatlari 3 guruhga bo'lingan:

- kundalik (oddiy) faoliyat turlari bo'yicha xarajatlar;
- operatsion xarajatlar;
- realizatsiya (sotish)dan tashqari xarajatlar.

Kundalik faoliyat turlari bo'yicha xarajatlar bo'lib, mahsulot sotib olish, ishlab chiqarish va sotish, xarajatlari hisoblanadi. Bularga yana xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar ham kiradi.

Shartnoma asosida vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish bo'yicha ijara va boshqalar. Jarayonlar ham korxonalarda kundalik faoliyat turlari bo'yicha xarajat bo'lib hisoblanadi.

Kundalik faoliyat turlari bo'yicha xarajatlarni qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

- xom ashyo, materiallar, tovarlar va boshqa moddiy ishlab chiqarish zahiralari sotib olish bilan bog'liq xarajatlarni;
- moddiy ishlab chiqarish zahiralari mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish va ularni sotish, shuningdek, mahsulotlarni sotish (qayta sotish) maqsadida (asosiy vositalar va boshqa oborotda bo'lmagan aktivlarni saqlash va foydalanish bilan bog'liq xarajatlarni, shuningdek, ularni soz holatda saqlash, tijorat va boshqaruv xarajatlari) qayta ishlash jarayonida yuzaga keladigan xarajatlarni.

Iqtisodiy mazmuniga qarab bu xarajatlarni qo'yidagi elementlari bo'yicha guruhlashtirilgan:

- material xarajatlari;
- mehnat haqi xarajatlari;
- ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar;
- asosiy vositalar amortizatsiyasi;
- boshqa xarajatlarni.

Boshqarishni takomillashtirish maqsadida xarajatlarni moddalari bo'yicha buxgalteriya hisobida yuritiladi. Xarajat moddalari ruyxati korxonadan ishlab chiqiladi.

«Material xarajatlari» moddasida xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim fabrikatlarni, mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan barcha turdagi yoqilg'i, texnologik maqsad uchun mahsulotni qadahlash va o'rash maqsadida chetdan sotib olish bilan bog'liq xarajatlarni o'z aksini topadi. Bu guruhga yana kiritilgan mahsulotlarning tabiiy kamayishi tufayli yo'qotishlar ham kiradi.

«Mehnat haqi xarajatlari» moddasida korxonaning asosiy ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi xarajatlari o'z aksini topadi. Bunga yana ishchi va xizmatchilarning ishlab chiqarish natijalari uchun mukofotlar, kompensatsiya to'lovlari, yosh bolasi belgilangan yoshga etgunga qadar tatil bo'lgan ayollarning kompensatsiyalari, shuningdek, asosiy faoliyatda band bo'lgan, lekin korxonadan shtatida bo'lmagan ishchilarning mehnat haqi xarajatlari ham kiradi.

Ijtimoiy ehtiyoj uchun ajratmalar moddasida qonun bilan belgilangan ijtimoiy sug'urtaga, pensiya jamg'armasiga, davlat bandlik

jamg'armasiga va tibbiy sug'urtaga majburiy ajratmalar o'z aksini topadi. Bular «mehnat haqi xarajatlari» moddasi bo'yicha mahsulot (ish xizmat) tannarxiga kiruvchi ishchilar mehnat haqi xarajatlariga kirmaydigan ajratmalardir.

«Asosiy vositalar amortizatsiyasi»ga asosiy ishlab chiqarish vositalarini to'liq tiklash uchun amortizatsiya ajratmalari summasi o'z aksini topadi, shuningdek, ularning aktiv qismining tezlashtirilgan amortizatsiyasi so'mmasi ham kiradi.

«Boshqa xarajatlar» moddasiga soliqlar, yig'imglar va to'lovlar (sug'urtaning majburiy turlari bo'yicha xarajatlar, shuningdek, mahsulot (ish, xizmat) tannarxi tarkibiga kiruvchi boshqa xarajatlar) o'z aksini topadi.

Operatsion xarajatlar bu korxonada aktivlaridan vaqtinchalik foydalanganligi uchun to'lov bilan bog'liq xarajatlar; boshqa korxonalar ustav kapitaliga o'z xissasini qo'shishi bilan bog'liq xarajatlar; tovarlar va mahsulotlarni, asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotilishi va boshqa aktivlarni sotilishi, va xisobdan chiqib ketishi bilan bog'liq xarajatlar; korxonadan tomonidan foydalanishga olingan pul mablag'lari fondlarini to'lash; kredit tashkilotlari qilgan xizmatlari uchun haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar; buxgalteriya hisobi qoidalariga asosan tuzilgan dargumon qarzlari bo'yicha rezerv (zaxira) va boshqalar.

Sotish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar; shartnoma shartlarini buzganligi uchun jarimalar, penyalir; korxonadan tomonidan qo'rilgan zararlarni qoplami; hisobot yili tan olingan o'tgan yilgi zararlari; muddati o'tgan debitorlik qarzlari; kurs farqlari o'tkazib berilgan mablag'lar (qo'yilmalar, to'lovlar) va boshqa ijtimoiy tadbirlar bog'liq xarajatlar.

Buxgalteriya hisobi nizomida «Tashkilot xarajatlari» bu kundalik faoliyat turlari bo'yicha xarajatlardan farqli o'laroq ularni boshqa xarajatlar deb yuritiladi. Bunday boshqa xarajatlarga; operatsion xarajatlar, sotish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar, shuningdek, favquloddagi xarajatlar kiradi.

Favqulotdagi xarajatlar buxgalteriya hisobi nizomiga asosan qo'yidagilarni aks ettiradi; xo'jalik faoliyatida yuzaga keladigan favqulodda holatlar oqibatlari (tabiiy ofatlar, yong'in, mulkni milliyashtirish va boshqalar).

Fond bozorida qimmatli qog'ozlari muommalada bo'lgan qo'shma korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari yillik buxgalteriya hisobotlarini halqaro moliyaviy standartlar talablaridan kelib chiqib tuzishi va taqdim etishi kerak. Bu hisobotlarni moliyaviy hisobotlar halqaro standartlarini

to'zuvchi qo'mitaga, investorlarga va boshqa qiziquvchi shaxslarga taqdim etilishi lozim.

Xalqaro standartlarga asosan hamma xarajatlar to'rtta guruhga taqsimlangan:

- mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlar;
- davr xarajatlariga kiruvchi xarajatlar
- moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;
- favqulodda zararlar.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlar buxgalteriya hisobi nizomida aks ettirilgan «Kundalik faoliyat turlari bo'yicha xarajatlar» bilan mos keladi.

Davr xarajatlari bu ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlardir, ular qo'yidagi guruhlarga birlashtirilgan:

- realizatsiya bo'yicha xarajatlar;
- ma'muriy xarajatlar;
- boshqa operatsion xarajatlar.

Bu xarajatlar mahsulot (ish xizmat) bilan bevosita bog'liq bo'lmaganligi sababli ularni operatsion xarajatlar ham deyiladi. Ular ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmiga bog'liq emas, balki vaqt va xo'jalik faoliyati davomiyligiga bog'liq. Bu xarajatlar yuzaga kelgan hisobat davridagi mahsulot tannarxiga kiritiladi va umumlashtiriladi.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar bu korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlardir, shuning uchun valyuta operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar realizatsiyasi va ishlab chiqarilishi, kredit va qarz olish, bank operatsiyalari bilan bog'liq umum xo'jalik xarajatlardir.

Favqulodda zararlar – bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning odatiy faoliyati chegaralaridan chiqadigan voqea va operatsiyalar natijasida yuzaga keladigan xalqaro standart (andoza)lar bo'yicha g'ayritabiiy xarajatlar moddalaridir.

7.2. Ishlab chiqarish xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni tahlil qilish usullari

Yuqorida keltirilgan xarajatlarning turkumlanishi, ta'kidlanganidek, korxonah rahbariyati tomonidan rejalashtirish, tahlil, qilish soliqlarni to'g'ri hisoblash va to'lanishi uchun ishlatiladi. SHuningdek, xarajatlarni nazorat qilish maqsadida ularni samarali sarflanishini, mahsulot ishlab chiqarish va

realizsiya qilish hajmi oshishini, uning sifatini oshirilishini ta'minlash uchun ishlatiladi. SHu bilan birga xarajatlar nazoratini to'g'ri va ustalik bilan olib borish uchun ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarni bilish va ishlata olish zarur. Ularga qo'yidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish xarajatlari turlari bo'yicha summasi;
- xarajatlar dinamikasi;
- xarajatlar darajasi va ularning farqi;
- bazis davri va biznes reja ma'lumotlari bilan solishtirilishi natijasida xarajatlarning mutloq va nisbiy farqlari;

Ishlab chiqarish xarajatlari summasi korxonada, bo'lim bo'yicha alohida mahsulot (ish, xizmat) turlarining aniq bir davri uchun ishlab chiqarish xarajatlarning puldagi o'zgarishini xarakterlaydi. Ular asosida, ishlab chiqarish xarajatlari hajmiga, bir necha yillik dinamikasiga va ularning o'zgarishi to'g'risidagi axborotlarga miqdoriy baho berish mumkin.

Bu ko'rsatkich menedjerlarga xarajatlarni ular turlari bo'yicha va butunlay rejalashtirish, shuningdek, zarur bo'lgan tovar-material zahiralarini, mehnat va moliyaviy resurslarni sotib olish bo'yicha pul mablag'larini ajratish uchun kerakdir.

Xarajatlar tarkibi ularning umumiy summasi tarkibidagi alohida xarajat turlarining ulushini aniqlash bilan birga xom ashyo va materiallar ishlatiladigan, avtomatlashtirilgan, mehnat va mexanizatsiya darajasi Yuqori bo'lgan korxonalarning materialtalabligini va mehnattalabligini tahlil qilish uchun zarurdir. Xarajatlar tarkibining o'zgarishini o'rganish kelgusi davr xarajatlari tarkibini yaxshilash va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'ladi.

Xarajatlar tarkibini aniqlash uchun ma'lumotlar moliyaviy hisobotning «Daromadlar va zararlar haqida hisobot» 2-shakl, «Buxgalteriya balansiga ilova» 5-shakllardan, shuningdek, «Ishlab chiqarish xarajatlari haqida xisobot» statistik hisobotdan olinadi.

Xarajatlar tarkibi hisobining usuli «Start Servis» MCHJ ning 2021 yilgi ko'rsatkichlarini o'tgan yil ko'rsatkichlariga nisbati misolida ko'rib chiqamiz (**7.1-jadval**).

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xarajatlarni umumiy summasini oshishi bir yilga 5520 ming so'mni tashkil qilgan. Xarajatlarning umumiy so'mmasi tarkibida realizatsiya qilingan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi 6,8% ga oshgan va u 66,9% ni tashkil qilgan.

Boshqaruv xarajatlariga ulushi 5,7% ga tushgan va jami xarajatlarning 8,3% ni tashkil qilgan. Jami xarajatlarning katta qismini operatsion xarajatlar tashkil qilgan-11,7% va to'langan daromad solig'i-12,3%. Hisobat davrida bu xarajatlar summasi ham ko'paygan.

7.1 – jadval

«Start Servis» MCHJ xarajatlar tarkibining 2021 yildagi o'zgarishini yilga nisbatan hisob-kitobi.

№	Ko'rsatkichlar	2020 yil		2021 yil		Farqi (+-)	
		So'm da	foizda	So'mda	Foizda	So'mda	Foizda
1	Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) larning tannarxi	6947	60,1	11427	66,9	+4480	+6,8
2	Tijorat xarajatlari	40	0,3	43	0,2	+3	- 0,1
3	Boshqaruv xarajatlari	1616	14,0	1425	8,3	-191	-5,7
4	Operatsion xarajatlar	1200	10,4	1995	11,7	-795	+1,3
5	Realizatsiyadan tashqari xarajatlar	821	7,1	102	0,6	-719	-6,5
6	Daromad solig'i va shunga o'xshash majburiy to'lovlar	943	8,1	2095	12,3	+1152	+4,2
7	Favqulodda xarajatlar	-	-	-	-	-	-
8	Jami	11567	100	17087	100	+5520	

Umuman olganda hisobat davrida xarajatlar tarkibi yaxshilangan, bu esa mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ulushi hisobiga amalga oshirilgan.

Xarajatlar darajasi bu tayyor, tovar Yoki sotilgan mahsulot bir so'miga to'g'ri keadigan xarajatlardir. Bu xarajatlar samaradorligini, dinamikasini va ularning nisbiy farqini hisoblash uchun zarur bo'ladi. Xarajatlar darajasi (Xd) asosiy faoliyat xarajatlarini (Afx) sotilgan mahsulot hajmi (M) ga nisbati bilan aniqlanadi.

$$Xd = Afx : M \cdot 100$$

Ishlab chiqarish xarajatlari darajasini hisoblash uchun ma'lumotlar 2 – shakl « Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobatdan olinadi.

Xarajat darajasini ularning turlari bo'yicha o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi jadval tuziladi (7.2-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlari asosida xarajatlar samaradorligining o'zgarishi ro'y berganligi xulosalar qilish mumkin. Hisobat davrida xarajatlar darajasining kamayishi realizatsiya qilingan mahsulotning bir so'miga to'g'ri keladigan xarajat miqdorining kamayganligini bildiradi. Bu esa o'z

7.2 – jadval

**«Start Servis» MCHJning 2021 yilgi xo‘jalik faoliyati xarajatlari
darajasini o‘tgan yilga nisbatan, hasob-kitob qilish
(so‘mma – ming so‘mda, darajasi - so‘mmasiga nisbatan % da)**

№	Ko‘rsatkichlar	2020 yil		2021 yil		Farqi (+,-)	
		so‘m- masi	dara- jasi	so‘m- masi	dara- jasi	so‘m- mada	daraj ada
1.	Sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar)ning tannarxi	6947	69,8	11427	69,6	4480	-0.2
2.	Tijorat xarajatlari	40	0,4	43	0,3	3	-0,1
3.	Boshqaruv xarajatlari	1616	16,2	1425	8,7	-191	-7,6
4.	Asosiy faoliyat xarajat-larining jami	8603	86,4	12895	7,8	4292	-7,9
5.	Operatsion xarajatlar	1200	12,1	1995	12,1	-795	-
6.	Realizatsiyadan tashqari xarajatlar	821	8,3	102	0,6	-719	-7,7
7.	Daromad solig‘i va boshqa majburiy to‘lovlar	943	9,5	2095	12,8	1152	3,3
8.	Favqulodda xarajatlar	-	-	-	-	-	-
9.	Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushum	9951	x	16428	x	6477	X

navbatida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bo‘yicha mablag‘ tejalganligini ko‘rsatadi.

Bizning misolimizda korxonaning asosiy faoliyati bo‘yicha xarajatlar darajasi o‘tgan yilgi realizatsiya qilingan mahsulot summasiga nisbatan 7,9 % ga kamaygan, ya‘ni realizatsiya qilingan mahsulotning har bir so‘midan o‘tgan yilga nisbatan 7,9 tiyin tejalgan. Realizatsiyadan tashqari xarajatlar darajasi –7,7 tiyin tejalgan. Bu esa foyda so‘mmasi va rentabellik darajasini oshirishga olib keladigan asosiy omillardir. Daromad solig‘i va shunga o‘xshash majburiy to‘lovlar o‘tgan yilga nisbatan nafaqat so‘mmada balki realizatsiya qilingan mahsulotning har bir so‘miga nisbatan ham oshgan. Bu realizsiya qilingan mahsulot so‘mmasiga nisbatan 3,3 % ni tashkil qiladi. Bu esa korxonada rentabilligining pasayishiga albatta ta‘sir qilmasdan qolmaydi.

Shunday qilib, xarajatlar darajasi korxonada xarajatlari samaradorligini xarakterlovchi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Xarajatlar dinamikasi xarajatlar so‘mmasi va darajasini o‘tgan va bazis davriga nisbatan o‘zgarishini xarakterlaydi. U mutloq va nisbiy farqlarda o‘shish sur‘atida ko‘payish tezligi kabi ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi.

Masalan, realizatsiya qilingan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi 2020 yili 6947 ming so'mmani, 2021 yili 11427 ming so'mni tashkil qilgan. Xarajatlarning mutloq ko'payishi 4480 ming so'mni (11427-6947), o'sish sur'ati – 164,5% (11427:6947x100) ni, ko'payish tezligi – 64,5% (1645-100)ni, tashkil qilgan ko'rsatkichning ko'payishi 69,5 ming so'mni tashkil qilganligi uning mutloq mohiyatini belgilash uchun ham asos bo'ladi. Bizning misolimizda xarajatlarning 1,0% ga ko'payishi (Yoki kamayishi) o'tgan yilga nisbatan xarajatlarni 69,5 ming so'mga o'zgarishi mumkin.

Xarajatlar dinamikasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilchilar va auditorlarga to'g'ri xulosa chiqarib, tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Menejerlar uchun xarajatlarni kamaytirish va tejash bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xarajatlar dinamikasini o'rganishda daromadlar umumiy summasini, sof tushumni va xarajatlarning umumiy miqdori o'zgarish su'ratini solishtirish zarur. Daromadlar o'sish sur'atining xarajatlarga nisbatan balandligi foyda va rentabellikni ortishini ko'rsatadi, ya'ni bu korxonada faoliyati samaradorligining oshganligidan dalolat beradi.

Xarajatlarning mutloq farqi haqiqatda qilingan xarajatlarni biznes-reja Yoki bazis davri ma'lumotlari bilan solishtirish orqali hisoblanadi. Bu ko'rsatkich asosida qilingan xarajatlarning miqdor jihatdan o'zgarish haqida xulosa qilinadi, masalan, necha summaga butun xarajatlar yoki ularning turlari bo'yicha oshganligi aynan shu yo'l bilan aniqlanadi.

Xarajatlar o'zgarishini aniqroq ifodalash uchun ularning **nisbiy chetlanishini** hisoblash zarur, ya'ni bazis davri yoki biznes-rejaga nisbatan xarajatlar bo'yicha tejalishini yoki ortiqcha sarf qilinishini aniqlash lozim bo'ladi.

Nisbiy farq ishlab chiqarish tannarxi darajasini aniqlash bilan hisoblanadi.

Xarajatlar bo'yicha tejash yoki ortiqcha sarf qilinganligini, ya'ni xarajatlarni nisbiy farqlarini aniqlash uchun xarajatlarni haqiqiy va bazis davr daraja ko'rsatkichlari orasidagi farqni haqiqatda realizatsiya qilingan mahsulot summasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlash mumkin.

$$\Delta X_{ar\ as.\ fao.} = (Dar_{xaq.\ xar} - Dar) \cdot Real\ xaq\ baz.\ xar$$

Bunda: $\Delta X_{ar\ as.\ fao.}$ - xarajatlarni nisbiy farqi

(tejam Yoki ortiqcha sarf);

$Dar_{xaq.\ xar}$ - xarajatlarning haqiqiy darajasi;

$Dar_{baz.\ xar}$ - xarajatlarning asos davridagi darajasi;

Real haq - hisobat davrida haqiqatda realizatsiya qilingan mahsulot soʻmmasi.

Bu formulaning qoʻllanilishini «Start Servis» MCHJ misolida koʻramiz (7.3–jadval).

7.3 - jadval

Realizatsiya qilingan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxining tejalishini (ortiqcha sarf) hisoblash

(summa-ming soʻmda)

№	Koʻrsatkichlar	2020 y	2021 y	CHetlanish
1	Mahsulot realizatsiyasidan sof tushum	9951	16428	+6477
2	Realizatsiya qilingan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi	6947	11427	+4480
3	Realizatsiya qilingan mahsulotni bir soʻmi uchun xarajat (ishlab chiqarish xarajatlari darajasi), tiyinda	69,8	69,6	-0,6
4	Ishlab chiqarish xarajatlarining tejami (-), ortiqcha sarfi (+)	x	X	-9,9

Ushbu maʼlumotlari shuni koʻrsatadiki, «Start Servis» MCHJ ning 2021 yili realizatsiya qilingan mahsulotning har bir soʻmiga qilingan xarajatning kamayishi oʻtgan yilga nisbatan 9,9 ming soʻmlik xarajat soʻmmasi tejalgan (-0,6x16428).

Keyinchalik ichki va tashqi omillarni korxonaning xarajatlar hajmiga taʼsirini hisoblash va oʻrganish zarur. Korxonaning xarajatlar darajasiga va soʻmmasiga taʼsir qiluvchi asosiy omillarga qoʻyidagilar kiradi:

- Ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan mahsulot hajmi;
- Xom ashyo va material xarajatlari;
- Ishlab chiqarish xodimlari va boshqaruv personalining miqdoriy va sifat tarkibi;
- Ishchilarning mehnat unumdorligi;
- Boshqa tashkilotlarning xizmatlari va taʼrifi;
- Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning ishlatilishi samaradorligi;
- Joriy (oborot) mablagʻlarining ishlatilish samaradorligi;
- Xaridorlar va mol yetkazib beruvchilar bilan shartnomaning oʻz vaqtida va sifatli tuzilishi va toʻlov-hisob intizomining tashkil etilishi.

Bu omillarning har biri u Yoki bu xarajatlarga taʼsir qilib oʻzining hisoblash usuliga ega. Korxonada rahbarlari, analitiklar va auditorlar xarajatlarni oʻrganish va tahlilchi qilishida bu omillarning taʼsirini hisoblashni bilishi kerak, har bir faktorni alohida tahlil qilib, ular asosida mablagʻlarning tejamkorlik bilan sarflanishi va kamayish imkoniyatlarini

aniqlab, xarajtlar samaradorligi bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli va tavsiyalar maslahatlar ishlab chiqarishlari lozim.

Asosiy faoliyatning xarajatlari summasiga omillarning ta'sirini hisoblash usulini ko'rib chiqamiz (7.4-jadval). Hisoblash uchun ma'lumotlarni «Foyda va zararlar to'g'risida»gi 2-shakl, ya'ni moliyaviy hisobotdan olamiz. SHuning bilan birga xarajatlarni o'zgaruvchi va shartli doimiy xarajatlarga bo'linishini hisobga olish kerak. O'zgaruvchi xarajatlarga «sotilgan tovarlar, mahsulot, ish, xizmat tannarxi»ni va «tijorat xarajatlari»ni kiritish mumkin. Doimiy xarajatlarga (ishlab chiqarish hajmiga va mahsulot realizatsiyasiga tobe bo'lmagan) quyidagilar kiradi: «Boshqaruv xarajatlari», «Realizatsiyaga taalluqli bo'lmagan xarajatlar» va «Favqulodda xarajatlar».

O'zgaruvchi xarajat moddalari Yuqorida ta'kidlanganidek ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan mahsulot hajmiga tobe bo'lib, ularning o'zgarishiga muvofiq ravishda o'zgaradi.

O'zgaruvchi moddalar summasiga realizatsiya qilingan mahsulot hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun realizatsiya qilingan tovarlar summasining farqini sotilgan tovar, mahsulot, ish, xizmatlarning tannarxini bazis darajasiga ko'paytirish kerak.

7.4 -jadval

«Start Servis» MCHJning 2021 yilgi xarajatlar summasiga realizatsiya hajmi va xarajat darajasi o'zgarishining ta'sir o'tgan yilga nisbatan hisobi.

(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	2020 y	2021y.	Farqi (+,-)	Omillar o'zgarish hisobiga	
				Realizatsiya hajmi	Xarajat darajasi
Tovar, mahsulot, ish, xizmat sotishdan tushum	9951	16428	6477		
Sotilgan mahsulot, tovar, ish xizmatlarning tannarxi – summada	6947	11427	4480	4522	-42
Daraja, tushum summa-siga nisbatan %da	69,812	69,558	-0,254		
Tijorat xarajatlari summada					
Daraja, tushum summa-siga nisbatan %da	40 0,402	43 0,262	3 -0,140	26	-23
Boshqaruv xarajatlari	1616	1425	-191	-	-191
Asosiy faoliyat bo'yicha xarajatlar JAMI	8603	12895	4292	4548	-256
Operatsion xarajatlar	1200	1995	+795		+795

Realizatsiyaga taaluqli bo'lmagan xarajatlar	821	102	-719		-719
Favqulotda xarajatlar	-	-	-	-	-
Jami xarajatlar	10624	14992	4368	4548	-180

Hisob quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$\Delta Xar = (\text{Real}_{\text{haq. sotil}} - \text{Real}_{\text{bazis sotil}}) \cdot \text{Dar}_{\text{bazis har}}$$

Bunda: ΔXar – xarajatlar so'mmasining farqi;

$\text{Real}_{\text{bazis sotil}}$ - bazis davrida realizatsiya qilingan mahsulot so'mmasi;

$\text{Dar}_{\text{bazis xar}}$ - bazis davridagi xarajat darajasi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, «Start Servis» MCHJ «Sotilgan mahsulot tovar, ish, xizmat» moddasi bo'yicha 2021 yili o'tgan yilga nisbatan 4480 ming so'm mablag' ko'p sarflagan. Realizatsiya qilingan mahsulot hajmi oshishi natijasida xarajatlar 4522 ming so'mga ko'paygan (6477.69, 812 : 100). Boshqa faktorlar ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga sababchi bo'lgan.

Xarajatlar darajasini o'zgarishi (boshqa faktorlar) ta'sirini aniqlash uchun hisobat davrida realizatsiya qilingan mahsulotning haqiqiy so'mmasini xarajatlar darajalari ayirmasiga ($\text{Dar}_{\text{xaq.xar}} - \text{Dar}_{\text{baz.xar}}$) ko'paytirish kerak. Bu qo'yidagi formulada aks ettirildi:

$$Xar = \text{Real}_{\text{haq sotil}} \cdot (\text{Dar}_{\text{xaq xar}}) : 100$$

«Start Servis» MCHJda ishlab chiqarish xarajatlari darajasining pasayishi natijasida ularning so'mmasi 45 ming so'mga kamaygan (11427.(69,558 –69, 812):100). SHunday qilib, hisobat davrining o'tgan yilga nisbatan sotilgan mahsulot tannarxi 4480 ming so'mga ko'paygan (absolyut chetlanish). Bu qo'yidagilar hisobiga amalga oshgan:

- Mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish hajmining oshishi, bu xarajatlarni 4522 ming so'mga ko'paytirgan;
- Xarajatlar darajasining kamayishi, bu xarajatlarni 42 ming so'mga kamaytirgan.

SHunday qilib, bu ikkala omilning ta'siri hisobat davridagi ishlab chiqarish xarajatlarining o'tgan yilga nisbatan umumiy farqiga teng bo'ladi.

$$(4480 + 42 = 4522 \text{ ming so'm}).$$

Xuddi shunday hisob «Tijorat xarajatlari» moddasi bo'yicha ham amalga oshirildi.

«Doimiy» xarajatlar guruhiga mahsulotni realizatsiya qilish hajmi ta'sir ko'rsatmaydi. Shuning uchun ular bo'yicha xarajatlar so'mmasini o'zgarishga tejash rejasi, xom ashyo va materiallarning narxi o'zgarishi, xizmat tariflari, xizmat ko'rsatuvchi va boshqaruv xodimlarining maoshini o'zgarishi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularning o'tgan (bazis) davrga nisbatan chetlanishi to'g'ridan to'g'ri korxonaning xarajatlar so'mmasida o'z aksini topadi.

Shunday qilib, korxonaning xarajatining o'tgan yilga nisbatan 5520 ming so'mga oshishiga qo'yidagilar o'z ta'sirini ko'rsatgan;

- Mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish xajmining oshishi xarajatlar so'mmasini 4548 ming so'mga ko'paytirgan (4522 + 26);
- Sotilgan mahsulotlarning tannarx darajasini pasayishi xarajatlar so'mmasini 42 ming so'mga kamaytirgan;
- Tijorat xarajatlar bo'yicha tejamkorlik xarajatlarni 23 ming so'mga kamaytirgan;
- Boshqaruv xarajatlarining kamayishi umumiy xarajatlarni 191 ming so'mga kamaytirgan;
- Operatsion xarajatlarning ko'payishi xarajatlarni 795 ming so'mga oshishiga olib kelgan;
- Realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarining kamayishi xarajatlarni umumiy so'mmasini 719 ming so'mga kamaytirgan.

Keyinchalik bu omillarning har birini o'rganib chiqish lozim, mablag'larni tejab sarflanishi va kamaytirilish imkoniyatlari va sabablari aniqlanib ular bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va boshqaruv qarorlari qabul qilinishi kerak.

7.3. Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari tahlili va baholanishi

Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash usuli va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish bilan bog'liqdir.

Mahsulot birligiga qilingan material, mehnat va moliyaviy xarajatlarning umumiy so'mmasi mahsulot tannarxi deyiladi.

Mahsulot (ish) tannarxini qo'yidagi kalkulyasiya metodlarining biri yordamida aniqlash mumkin:

- Xarajatlarning namunaviy kalkulyasiyasi;

- Jarayonli kalkulyasiya;
- Normativ kalkulyasiya.

Tannarxning namunaviy kalkulyasiyasi maxsus buyurtma, bir to‘da tovar va shartnoma tannarxi kalkulyasiyasini ifodalaydi.

Tannarxni namunaviy kalkulyasiya usuli kompaniya iste‘molchidan kalkulyasiya qilinayotgan mahsulotning bir guruh Yoki bir birligini ishlab chiqarish buyurtmasini olganda qo‘llaniladi, masalan, qurilishda, tipografiyalarda, aviasozlikda, mebel fabrikalarida mashinasozlikda, remont ishlarini amalga oshirishda, auditorlik Yoki konsultatsiya xizmatlarini ko‘rsatishda va boshqalar.

Kalkulyasiyaning namunaviy metodi buyurtma bajarish hajmiga bog‘liq holda uch turga bo‘linadi:

1. buyurtma tannarxining kalkulyasiyasi;
2. tovar partiyasi (guruhi) tannarxining kalkulyasiyasi.
3. shartnoma tannarxining kalkulyasiyasi.

Buyurtma tannarxini kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili va baholanishi. Buyurtmani bajaruvchi korxonalar maxsus bir martalik tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadilar.

Ushbu holatda firma ommabop ishlab chiqariladigan mahsulot sifat standartidan Yuqori mahsulotga bo‘lgan talabni qondirishi kerak. Agar bunday sifatli mahsulot ishlab chiqarmasa, ishlab chiqarishga boshqa korxonalarni jalb qilmasligi va maxsus rejalashtirish va uskunalarni bilan shug‘ullanmasligi kerak.

Namunaviy metodda kalkulyasiya qilinadigan mahsulotlarga qilinadigan xarajatlarni tahlil qila turib buyurtmalarning kalkulyasiya kartochkasida ko‘rsatilgan haqiqatda qilingan xarajatlarni dastlabki hisoblar bilan solishtirish kerak.

Buyurtmaning kalkulyasiya kartochkasi iste‘molchining har bir buyurtmasi bo‘yicha ochiladi va unda qo‘yidagilar ko‘rsatiladi;

- zaxiradan olingan materiallar (buyurtma asosida);
- ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi (buyurtmani bajarishga sarflangan vaqtni hisobga oluvchi tabel kartochkasi asosida);
- to‘g‘ri xarajatlar (schiyot fakturalar asosida).

Buyurtmani bajarilishida kalkulyasiya kartochkasida to‘g‘ri xarajatlarning jami so‘mmasi chiqariladi. Bundan keyin bu metodlarning biri asosida ushbu buyurtmaga kiruvchi qo‘shimcha xarajatlar hisoblab chiqiladi.

Agar hisobot davrining oxirida buyurtma tugallanmagan bo'lsa, jami xarajatlar ma'lum bir sanaga kalkulyasiya kartochkasiga yozib qo'yiladi va u tugullanmagan ishlab chiqarish hisoblanadi.

Mahsulotning narxi belgilanishga namunaviy usulning tannarx kalkulyasiyasini to'g'ri aniqlanishiga bog'liqdir.

Mahsulot narxining oshib ketishi buyurtmachilarning qochishiga olib keladi. Buyurtma bajarilishi narxining pasayishi foydaning kamayishiga yoki ushbu buyurtmaning zarar keltirishiga olib keladi.

Mahsulot tannarxi yana bir birlik mahsulotga qilinadigan qo'shimcha xarajatlar ulushining hisobiga, ishlab chiqarish hajmiga ham bog'liq.

Ishlab chiqarish hajmining oshishi Yoki kamayishi har bir buyurtma mahsulotining narxiga ta'sirini ko'rsatadi.

Shuning uchun, buyurtmalar bo'yicha mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda mahsulot tannarxini kalkulyasiyasi to'g'ri tuzilishi katta ahamiyatga ega va u asosida mahsulot (xizmat) bahosi aniqlanadi.

Tovar partiyasi tannarxini kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili va baholanishi. Ko'plab kompaniyalar tannarxining namunaviy kalkulyasiyasini tovar partiyasi tannarxini kalkulyasiyasi bilan birlashtirib yuboradi.

Bunday holatlar mijozning texnologik talabiga muvofiq mahsulot yig'imini amalga oshiruvchi korxonalarda uchraydi. SHu bilan birga mahsulot yig'ish, ya'ni konstruksiyaning o'zi bir qator komplektlovchi detallardan tashkil topadi, ya'ni komplektlovchi detallar partiyasi tayyorlanib hamma xarajatlar mahsus buyumlar partiyasining kalkulyasiya qaydnomasida hisobga olinadi.

Komplektlovchi buyumlar tayyorlanishi tugashi bilan buyurtma-naryad yopiladi va tayyorlangan mahsulot tayyor detallar omboriga jami buyum partiyasi o'rtacha tannarxda topshiriladi.

Mijozning ma'lum bir ishiga buyurtma-naryad tuziladi.

Tovar partiyasi tannarxini kalkulyasiyasi bo'yicha xarajatlarni tahlil qilayotganda ushbu buyurtma partiyasi uchun zarur detallar hajmini to'g'riligini aniqlash kerak. Uning uchun qo'yidagilar o'rganiladi:

- istemol miqdori;
- mahsulotlarni saqlash va foydalanishga tayyor qilish xarajatlari;
- ishlab chiqarish tizimini buzish va o'rnatish uchun zarur vaqt;

- ishchi kuchi, xizmat va stanoklarning boshqa mahsulotga nisbatan unumdorligi (POM).

Partiyaning optimal miqdorini dastlabki hisobini quyidagilar asosida amalga oshirish mumkin:

- bir birlik mahsulot eng past tannarxini aniqlash maqsadida partiyalarning har xil miqdori bo'yicha mahsulot birligi tannarxini kalkulyasiya qilish tahlili;
- ishlab chiqarilgan tovarlarni partiyalarini saqlash bo'yicha ularni ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan tahlili;
- partiyaning optimal miqdorini hisobi (POM), quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi

$$POM = 2 \frac{X_o \cdot T_y}{X_s}$$

bunda: T_y – yillik talab

X_o – buzish va o'rnatish sarfi

X_s - saqlash sarfi.

Tovarlar partiyasi tannarxining kalkulyasiyasida xarajatlarni tahlil qilishning keyingi bosqichi bo'lib, har bir tovar partiyasining tannarxini o'rganish hisoblanadi. Bu alohida xarajat turlari: o'rnatish, stanoklarni ishga tushirish va zahiralar harakati bo'yicha zahiralar darajasini saqlanishini rejalashtirish maqsadida amalga oshiriladi, shuningdek har bir tovar partiyasi rentabilligining darajasini saqlash uchun ham qo'llaniladi.

Shartnoma tannarxini kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili.

Har bir shartnoma mahsulotning alohida birligini kalkulyasiya qilinishini anglatadi, shuning uchun har bir shartnoma bo'yicha xarajatlar buxgalteriya bosh kitobida alohida schyotda yig'iladi.

Shu tufayli xarajatlar quyidagi modda turlari bo'yicha yig'iladi.

1. Asosiy materiallar.
2. Ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi.
3. Ishlab chiqarish qurilmalari uchun sarflar.
4. Sub kontrakt (subshartnoma) bo'yicha sarflar.
5. Egri xarajatlar.

Kontraktga kiruvchi materiallar o'z ichiga mahsus sotib olingan materiallarni olibgina qolmay, pudratchi omboridagi mahsulotni ham o'z ichiga oladi.

Material xarajatlarini tahlil qilishda qurilish maydonchasidan omborga ortiqcha materiallarning kelib tushishi va qaytarilishini hisobga olish qiyinligini inobatga olish kerak. Mahsulotlar sarflanishi hisobi to'g'riligini va o'rnatilgan sarf normasini batafsil sinchiklab tekshirish zarur.

Shartnomaga kiruvchi mehnat uchun sarflar, reja va xujjatlar tuzish bilan bog'liq ofis ishini, bevosita zavoddagi ishlab chiqarish operatsiyalarini va qurilish maydonchasidagi ishlarni o'z ichiga oladi. Qurilish joyidagi barcha ishlarga shartnoma bo'yicha to'g'ri mehnat sifatida qaraladi.

Har xil maydonchalardagi quruvchilarning ish vaqtlari mahsus ish vaqtining hisobi tabellarida olib boriladi. Bunday mehnat bilan bohliq barcha xarajatlar shartnoma hisobiga yoziladi.

Materiallar va mehnatdan tashqari shartnoma bo'yicha to'g'ri xarajatlar ham mavjud. Ularga subshartnoma bo'yicha ishlar va ishlab chiqarish qurilmalari uchun sarflar kiradi.

Ishlab chiqarish qurilmalari va jihozlari uchun xarajatlar maxsus ushbu shartnoma uchun qilingan bo'lishi mumkin Yoki ijarachi foydalanishi uchun berilgan bo'lishi mumkin.

Agar ishlab chiqarish qurilmalari va jihozlar ushbu shartnoma uchun maxsus sotib olingan bo'lsa, unda sotib olingan jihozlarning tannarxi butunlay shartnoma hisobiga o'tadi.

Agar ishlab chiqarish qurilmalari va jihozlar boshqa shartnomalarga berilsa, unda ularning hisobdan chiqarilgan qiymati dastlabki shartnomada qoladi, qolgan summa esa yangi shartnomaga o'tadi.

Ishlab chiqarish qurilmalari ma'lum bir shartnoma bo'yicha foydalanish uchun ijaraga olingan bo'lishi mumkin. Ushbu holatda kompaniya bu ishlab chiqarish qurilmalariga egalik qilaolmasligi uchun ijara summasi shartnoma hisobiga ko'chiriladi.

Yirik shartnoma Yoki ma'lum bir ish turi bo'yicha mutaxassis faoliyati bilan bog'liq shartnoma bo'lsa korxonada subpudratchilarni jalb qilishi mumkin. Subpudratchining hamma bajargan ishining tannarxi shartnomaning to'g'ri xarajati sifatida qaralib shartnoma hisobiga olib boriladi.

Ko'plab pudratchilar o'z xarajatlarini alohida shartnomalar bo'yicha taqsimlamaydilar, chunki ular odatda to'g'ri xarajatlarga nisbatan muhim hisoblanmaydi. Lekin, alohida hollarda shartnoma bo'yicha egri xarajatlar alohida shartnomalar o'rtasida korxonada uchun belgilangan usul bo'yicha taqsimlanishi mumkin.

Har bir shartnomaning qiymati ijrochi va mijoz o'rtasida kelishib olinadi va u shartnoma qiymati hisoblanadi. Agar shartnomalar yirik bo'ladigan bo'lsa, pudratchi mijozdan bajargan ish hajmi va shartnoma qiymatiga mos ravishda oraliq to'lovlarni olishi mumkin.

Ushbu hollarda shartnomaning bajarilgan ishi bo'yicha buyurtmachining eksperti xulosa beradi, unda shartnomaning jami qiymatidan bir qismi aniqlanadi va u ijrochiga bajargan ish hajmiga muvofiq ravishda to'lanishi mumkin. Ijrochi o'z navbatida buyurtmachiga oraliq to'lov summasi uchun schet faktura beradi.

Shartnomaning bajarilish davrida ijrochi odatda ekspert xulosasida ko'rsatilgan qiymatning bir qismini oladi. Buyurtmachi ishlab qoladigan qolgan summa ijrochiga shartnomani bajarilishi bilan va deffektlarni tuzatishi bilan (agar ular bo'lsa) to'lab beradi.

Tannarxni jarayonli kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili va baholanishi. Ishlab chiqarish xarajatlarning jarayonli kalkulyasiyasi bu sanoatda ommabop mahsulot ishlab chiqaruvchi, lekin jarayon doimo takrorlanadigan operatsiyalarga bo'lingan, ya'ni uzoq vaqt davomida ommabop mahsulot bir nechta qayta ishlash bosqichidan o'tadigan ishlab chiqarishda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hisoblash metodi. Ularga ximik, neftni qayta ishlash, tekstil, lak-buyoq, tegirmon, rezina texnik metallurgiya, shisha, tog', sement sanoati korxonalar kiradi.

Jarayonli metod nosanoat sohasida ham qo'llaniladi, masalan, pochta xatlarini saralashda, o'z-o'ziga xizmat qilish kafelarida va boshqalar.

Jarayonli metodda mahsulot bir jarayondan boshqa jarayonga to'liq tayyor bo'lmaguncha o'taveradi. Tayyorlash jarayoni bilan birgalikda ishlab chiqarish xarajatlarini yig'ilishi jarayoni ham olib boriladi. Har bir texnologik jarayon uchun to'g'ri va egri xarajatlar aniqlanishi zarur.

Xarajatlar xuddi kalkulyasiyaning namunaviy metodidagiday aniqlanadi. Hamma material xom ashyo mehnat haqqi uchun to'g'ri xarajatlar, shunigdek, ishlab chiqarishning qo'shimcha xarajatlar hisobga olinadi. Namunaviy metodda egri hisoblangan xarajatlarni katta qismi jarayonli metodda to'g'ri xarajat hisoblanadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonini nazorati uchun sarflar, jarayondagi uskunalar amortizatsiyasi va boshqalar.

Jarayonli metodning namunaviydan farqi xarajatlar hisobi obyektining tanlanishidir. Birlik mahsulotning tannarxini aniqlanishi ikkala metodda ham hisoblash yo'li bilan aniqlanadi, ya'ni ishlab chiqarishni jami tannarxini ushbu davrda ishlab chiqarilgan mag'sulotlar

soniga bo'lish yo'li bilan asosiy farq maxrajning kattaligida. Namunaviy metodda u kichik (masalan, bitta qadaqlovchi mashina), jarayonli metodda esa katta (masalan, ming metr, birlik, kub, galon va h.k.).

Tannarxni normativ kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili va baholanishi. Tannarxni normativ kalkulyasiya qilishda xarajatlarni tahlil qila turib normativ xarajat va daromadni haqiqiy natija bilan solishtiriladi. Bu korxonada faoliyati samaradorligini oshishi va ularning sabablarini aniqlash uchun ishlatiladigan aniqlash maqsudida amalga oshiriladi.

Xarajatlarni shakllanish asosini tanlanishiga bog'liq holda normativlar quyidagicha farqlanadi:

- asosiy normativ;
- ideal normativ (eng yuksak);
- erishiladigan normativ;
- joriy normativ.

Asosiy normativ – uzoq muddatda ishlatish uchun o'rnatilgan normativ bo'lib, bu asosida joriy normativlar ishlab chiqish mumkindir.

Ideal normativ – bu uskunalarni turib qolishini, yo'qotishlar, oddiy zararlarni kompensatsiyasiz qulay sharoitlarda erishish mumkin bo'lgan normativ. U yana potensial normativ ham deyiladi.

Erishiladigan normativ – bu shunday normativki, agar ishning normativ birligi samarali bajarilsa, uskuna va materiallar kerakli joyida ishlatilsa, unga erishish mumkin.

Joriy normativ – bu va qisqa vaqt davrida foydalanish uchun o'rnatilgan va joriy sharoitga aloqasi bo'lgan normativdir.

Xarajatlarning normativ ko'rsatkichlaridan foydalanib normativ tannarx kartochkasi tuziladi va mahsulot borligining normativ tannarxi haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Xarajatlarni tahlil qilishda mahsulot tannarxining normativ ko'rsatkichlari haqiqiy xarajatlar bilan solishtirish uchun asos bo'lib hisoblanadi va ular yordamida yo'l qo'yilgan farqlari va ularning kelib chiqish sabablari aniqlanadi.

Haqiqiy xarajatlar farqi ularning turlari, mahsulot birligi va xarajatlar umumiy summasining chetlanishini aniqlanishi bo'yicha hisobga olib boriladi.

Tannarxning normativ kalkulyasiyasi bo'yicha xarajatlar tahlili quyidagi ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi: norma-soat, ishlab chiqarish hajmi koeffitsienti, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish

koeffitsienti, ishlab chiqarish quvvati samaradorligi (unumdorligi) koeffitsienti.

Norma-soat – bu normativ unumdorligi bilan bir soatda bajarilishi kerak bo‘lgan ish hajmi, masalan, bir soatda mahsulot ishlab chiqarish 20 ta mahsulotni tashkil qilsa, unda 100 dona mahsulotni ishlab chiqarish normativi bo‘yicha 5 soat bo‘lishi kerak va ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan haqiqiy vaqtdan qat’iy nazar shu 5 soatning normativ qiymati bo‘yicha baholanadi.

Ishlab chiqarish hajmi koeffitsienti ($K_{i/ch.h}$) ishlab chiqarishni haqiqiy hajmini (norma-soatda o‘rgangan) rejada ko‘rsatilganligi nisbati orqali aniqlanadi va foizlarda ifodalaniladi:

$$K_{i/ch.h} = \frac{I/CH.H_{xaq} \cdot 100}{I/CH.H_{reja}}$$

Bu yerda: I/CH.H xaq - mahsulot ishlab chiqarishga haqiqatda sarflangan vaqt;

I/CH.H reja-vaqt sarfining rejaviy hajmi.

Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti ($K_{i/ch.quv.foy}$) rejada ko‘rsatilgan ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini xarakterlaydi. U haqiqatda ishlangan vaqtni (norma-soatda) rejadagiga nisbati orqali hisoblanadi:

$$K_{i/ch.quv.foy} = \frac{I_{sh.Vaqt.xaq} \cdot 100}{I/CH.H_{reja}}$$

Bunda: I_{sh} Vaqt xaq – Ishlab chiqarish quvvatida haqiqatda ishlangan ish vaqti (norma-soatda).

Haqiqatdagi ish vaqtdan foydalanish samaradorligi koeffitsienti (K_{xaq} ishlat ish vaq) haqiqatda ishlangan vaqtni ($I/CH.H_{xaq}$) ishlab chiqarish quvvatida haqiqatda ishlangan ish vaqtiga nisbati (I_{sh} Vaqt xaq) formulasi bilan aniqlanadi:

$$K_{xaq.ishlat.ish\ vaqt} = \frac{I/CH.H_{xaq} \cdot 100}{I_{sh}\ Vaqt\ xaq}$$

Mahsulot tannarxini normativ kalkulyasiyasi qo‘llaniladigan ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilishda frqlashlar usulidan foydalanish kerak.

Normativ xarajatlardan farqi koʻzda tutilgan normativ xarajatlar asosida orasidagi farq. Bu metoddan foydalanib foydalanilgan materiallar miqdori (fizik hajmi) va material xarajatlar soʻmmasiga narxning oʻzgarishi taʼsirini aniqlash lozim.

Narxning oʻzgarishini material xarajatlar soʻmmasiga taʼsirini aniqlash fizik va normativ narxlar orasidagi haqiqatda sarflangan materiallar miqdoriga koʻpaytirish kerak:

$$\Delta MX_n = (N_x - N_{nor}) \cdot SMM_x$$

Bunda: ΔMX_n – material xarajatlari soʻmmasini material narxning oʻzgarishi hisobiga chetlanishi;

N_x – sarflangan materiallarning haqiqiy, narxi;

N_{nor} – sarflangan materiallarning normativ narxi;

SMM_x – haqiqatda sarflangan materiallar miqdori.

Xarajatlar soʻmmasiga sarflangan materiallar miqdorini oʻzgarishi hisobiga chetlanishlar taʼsirini aniqlash uchun material xarajatning haqiqiy miqdori va normativ boʻyicha material xarajatlar, miqdori orasidagi farqni materiallarning normativ qiymatiga koʻpaytirish kerak:

$$\Delta MX_{miq} = (SMM_x - SMM_n) \cdot MN_{nor}$$

Bunda: ΔMX_{miq} – material xarajatlari soʻmmasini sarflangan materaillar miqdorini oʻzgarish hisobiga chetlanishi;

SMM_x – haqiqatda sarflangan materaillar miqdori;

SMM_n – normativ boʻyicha sarflangan materaillar miqdori;

MN_{nor} – sarflangan materaillarning normativ qiymati.

Mehnat haqi xarajatlari mehnat qiymati va foydalanilgan mehnat qiymati va foydalanilgan mehnat miqdorini hisobga olgan holda aniqlanadi. SHunga bogʻliq holda tahlil mobaynida ikkita omil taʼsirini hisobga olish zarur:

- mehnat haqi oʻrtacha stavkasining oʻzgarishi;
- ishlangan vaqtning chetlanishi.

Mehnat haqi stavkasining oʻrtacha oʻzgarishi taʼsirini aniqlash uchun mehnat haqining haqiqatdagi normativ stavkalar oʻrtasidagi farqni haqiqatda ishlangan vaqtga (agar soatbay mehnat haqi boʻlsa) Yoki ishlab chiqarilgan mahsulot soniga (agar mehnatga ishbay asosida haq toʻlash) koʻpaytiriladi. Uning formulasi:

$$\Delta MHCH_{m.h.o.} = (MH_{o'r.haq} - MH_{o'r.nor}) \cdot Vaqt\ ishlan_{haq}.$$

Bunda – $\Delta MHCH_{m.h.o'}$ – mehnat haqi bo'yicha o'rtacha stavkaning o'zgarishi natijasida mehnat haqini chetlanishi;
 $MH_{o'r.haq}$ - mehnat haqi bo'yicha o'rtacha haqiqiy stavkasi;
 $MH_{o'r.nor}$ – mehnat haqining o'rtacha normativ stavkasi;
 $Vaqt.ishlan_{haq}$ - haqiqatda ishlangan vaqt (norma-soatda) Yoki ishlab chiqarilgan mahsulot soni.

Mehnat unumdorligining ta'siri, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlangan vaqtni o'zgarishi haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun ketgan haqiqiy (soatda) vaqt va normativ (soatda) vaqt orasidagi farqni ish haqini normativ soatboy stavkasiga (o'rtacha) ko'paytiriladi:

$$\Delta IX_{i.vaqt} = (Vaqt_{ishlan_{haq}} - Vaqt_{ishlan_{nor}}) \cdot Ish.haq_{nor.o'r}.$$

Bunda: $IX_{i.vaqt}$ – ishlangan vaqtni o'zgarishi natijasida xarajatlarni chetlanishi;

$Vaqt.ishlan_{haq}$ – haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarflangan haqiqatda ishlangan vaqt (soatda);

$Vaqt.ishlan_{nor}$ – haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarflangan normativ vaqt (soatda);

$Ish.haq_{nor.o'r}$ ish haqining normativ soatboy stavkasi.

Keyinchalik haqiqiy xarajatlarni normativdan (rejadan) chetlanish sabablarini aniqlash zarur. CHetlanishlar hisobi – bu faqatgina birinchi qadam.

Rahbariyatga rejalashtirish bo'yicha qaror qabul qilish va xarajatlar samaradorligini nazoratini amalga oshirish uchun ahborot lozim. CHetlanish mavjudligini bilish kamlik qiladi, uning sabablarini aniqlash zarur.

Sabablari quyidagilar bo'lish mumkin:

- yomon moliyaviy rejalashtirish;
- yomon o'lchash Yoki noto'g'ri hisob;
- tasodifiy omillar;

Materiallar qiymati bo'yicha chetlanish quyidagilar natijasida bo'lishi mumkin:

- har xil ta'minot manbayi;
- narxning umumiy oshishi;
- har xil nav materiallarni almashtirish;
- katta partiyadagi tovar sotishdagi chegirmalarning o'zgarishi.

- mahsulotlardan foydalanish bo'yicha chetlanishlar quyidagilar natijasida bo'lishi mumkin;
- mahsulot dizaynining o'zgarishi Yuqori Yoki kam materiallar sarfi;
- har xil sortli materiallarning almashtirilishi;
- mehnat haqi bo'yicha chetlanishlar quyidagilar hisobiga bo'ladi;
- mamlakat miqyosida xukumatning ishchi va xizmatchilarga mehnat haqini oshirish bo'yicha qarori;
- rejada nazarda tutilmagan ish vaqtdan tashqari bajarilgan ishga va mukofat to'lovlari;
- har xil murakkab darajali ishning almashtirilishi.

Mehnat unumdorligi bo'yicha chetlanishlar quyidagilar natijasida sodir bo'ladi:

- ish sharoitlarini takomillashtirilishi;
- o'qitish effektining natijalari;
- moddiy rag'batlantirish tizimi joriy qilinishi Yoki xodimlarni o'qitish;
- har xil murakkab darajali ishning almashtirilishi.

Tahlil qilayotganda bu chetlanishlarni maqsadga muvofiqligini o'rganib chiqish lozim. Ularning sabablarini aniqlash zarur, korxonaning moliyaviy natijasi va jami xarajat so'mmasiga ularning ta'sirini aniqlash kerak maqsadga muvofiq.

7.4. Xarajatlar dinamikasiga ta'sir etuvchi omil tahlili

Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilaturib ishlab chiqarish hajmi o'zgarishini jami xarajatlarga va mahsulot birligiga ta'sirini aniqlash lozim. Bu mablag'larni tejab sarflash bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va umuman korxonada faoliyati samaradorligi uchun kerak.


Korxonada rahbariyati ishlab chiqarishning har xil hajmdagi xarajatlar hisobiga ega bo'lishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ishlab chiqarish xarajatlari doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'linadi.

O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish faoliyati darajasiga (ishlab chiqarish hajmiga) to'g'ri proporsional ravishda o'zgaradi. Bu shu bilan bog'liqki, mahsulot birligi uchun o'zgaruvchan xarajatlar (xom ashyo, materiallar, ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi va h.k) doimiydir.

Shunday qilib, umumiy o'zgaruvchan xarajatlar mahsulot hajmiga bevosita bog'liq, bir mahsulot hajmiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchi xarajatlar esa, doimiy hisoblanadi. Buni quyidagi chizmada ifodalash mumkin:


Umumiy
xarajatlar



Ishlab chiqarish hajmi

1-chizma. Umumiy o'zgaruvchan xarajatlar.

Mahsulot
birligiga
qilingan
xarajatlar




Ishlab chiqarish hajmi

2-chizma. Mahsulot birligiga qilingan o'zgaruvchan xarajatlar


Doimiy xarajatlar ishlab chiqarishning turli xil masshtabi uchun ma'lum vaqt davri uchun o'zgarmay qoladi. Lekin ishlab chiqarish masshtabi o'zgarishi bilan mahsulot birligi uchun ular ulushi o'zgaradi. Ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan doimiy xarajatlar so'mmasi o'zgarmayd, lekin mahsulotning har bir birligi uchun xarajatlar qisqaradi. Chizmada u quyidagicha ifodalanadi:

Amaliyotda doimiy xarajatlar har doim ham ishlab chiqarishning barcha darajalari uchun bir xil bo'lavermaydi. Bir necha yillar bilan o'lchanadigan solishtirma, uzoq vaqt davri uchun, barcha xarajatlar o'zgaruvchan hisoblanadi. SHuningdek, faoliyat darajasini katta miqdorda kengayishi xarajatlarning barcha turkumlarini oshishiga olib keladi. Qisqa vaqt davri uchun xarajatlar o'zgaruvchan yoki ishlab chiqarish darajasi o'zgarishiga bog'liq holda doimiy bo'ladi. Qancha qisqa bo'lsa, vaqt davri ma'lum bir xarajatlar doimiy bo'lish ehtimoli katta.

Jami va mahsulot birligiga qilingan umumiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liqdir. Faoliyat hajmining oshishi bilan umumiy xarajatlar oshadi, lekin ishlab chiqarish hajmiga proporsional ravishda emas. Mahsulot birligining umumiy tannarxi doimiy xarajatlar moddasi hisobiga kamayadi va mahsulot birligiga qilingan o'zgaruvchan xarajatlarga intiladi.




3-chizma. Umumiy xarajatlarning ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi



4-chizma. Mahsulot birligiga qilingan doimiy xarajatlarning ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi

Buni 5 va 6 chizmalarda ko'rish mumkin



5-chizma Umumiy xarajatlarni ishlab bog'liqligi.

6-chizma. Mahsulot birligiga chiqarish hajmiga qilingan umumiy xarajatlarning ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi.

Ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan bog'liq mahsulot birligiga qilingan umumiy xarajatlarning kamayishi korxonalar uchun katta hajmdagi mahsulot buyurtmalariga chegirmalar qilishga imkoniyat beradi.

Mahsulot tannarxini pasayishiga yana aniq davr va ma'lum bir ishlab chiqarish darajasi uchun doimiy hisoblanadigan yarim o'zgaruvchan xarajatlarni kiritiladi, lekin kritik vaqtda ma'lum miqdorga ular oshib yoki kamayib ketadi. Masalan, agar ishlab chiqarish quvvatlari ma'lum kritik ko'rsatkichgacha ko'payib ketsa unda qo'shimcha ishchilar, nazoratchilar va xizmat ko'rsatish shartlari yollaniladi. Agar bu ko'payish uncha katta bo'lmasa, qo'shimcha xarajatlarni qilish mumkin.

YArim o'zgaruvchan xarajatlarga doimiy va o'zgaruvchan komponentlar kiradi. Bu xarajatlar hech qachon nolga teng bo'lmaydi, ishlab chiqarish nolinch darajada bo'lsa ham.

Amaliyotda xarajatlarni yarim o'zgaruvchanlarga ajratilishi juda mushkul, lekin zararsizlikni tahlil qilish uchun zarurdir. Buning uchun matematik metodlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Quyidagi formuladan foydalanamiz: $u = a + bx$

Bunda: u – umumiy xarajatlar;

a – doimiy xarajatlar;

b – bir birlik uchun o'zgaruvchan (marjinal) xarajatlar;

x – unumdorlik darajasi.

Marjinal daromad realizatsiya hajmidan o'zgaruvchan xarajatlarni ayirmasiga teng, ya'ni u doimiy xarajatlar va sof foydani o'z ichiga oladi.

Mahsulot birligiga qilingan o'zgaruvchan xarajatlar va mahsulot birligining realizatsiya qiymati doimiy hisoblanganligi uchun mahsulot birligidan olinadigan marjinal daromad ham doimiy bo'ladi.

Har bir sotilgan mahsulot birligidan olingan marjinal daromad doimiy xarajatlarni qoplash uchun ketadi, undan keyin qolgan qismi esa foydani oshirishga ishlatiladi. Bu shunga olib keladiki, ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan mahsulot birligining tannarxi pasayadi, o'zgaruvchan xarajatlar miqdoriga yaqinlashadi va mahsulot birligining foydasini va doimiy xarajatlari ulushini oshiradi. Bularni hammasini xarajatlarni tahlil qilishda va ishlab chiqarishni zararsizligini aniqlashda hisobga olish kerak.

Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilishda *minimum* va *maksimum* metodidan foydalanib xarajatlarni o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga ajritish kerak.

Bu metodning asl mohiyati shundaki, o'tgan davr unumdorligini va xarajatlarni o'rganish, mahsulot ishlab chiqarish hajmi darajalarining eng Yuqori va eng pastini tanlash va ushbu darajalarda mahsulot ishlab chiqarish natijasida sodir bo'lgan xarajatlar o'zgarishini solishtirish.

Hisobni amalga oshirish uchun quyidagi harakatlar bajariladi:

Hisob boshida hajmning va umumiy xarajatlarini *minimal* va *maksimal* ko'rsatkichlari orasidagi farq aniqlanadi:

$$\Delta MICH_{miq.} = MICH_{maks. miq.} - MICH_{min. miq.}$$

$$\Delta Xar_{um} = Xar_{um maks.} - Xar_{um min.}$$

Bunda: $\Delta MICH_{miq.}$ - mahsulot ishlab chiqarishning maksimal va minimal hajmlari orasidagi, natira o'lchamidagi, farq;

ΔXar_{um} - ishlab chiqarishning minimal va maksimal hajmidagi umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining farqi;

$MICH_{maks.miq.}$ – ishlab chiqarilgan mahsulotning maksimal miqdori;

$MICH_{min.miq.}$ ishlab chiqarilgan mahsulotning minimal miqdori;

$Xar_{um.maks.}$ maksimal ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlari;

$Xar_{um.min.}$ minimal ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlari.

2. Keyin xarajatlari orasidagi farqni ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmlari orasidagi farqqa bo'lish yo'li bilan mahsulot birligiga qilingan o'zgaruvchan xarajatlari so'mmasi ($Xar_{o'z.mah.bir.}$) aniqlanadi, chunki umumiy xarajatlari tarkibidagi o'zgaruvchan xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi bilan o'zgaradi;

$$Xar_{o'z.mah.bir} = \Delta Xar_{um} : \Delta MICH_{miq.}$$

3. Hisobning keyingi qadami bo'lib umumiy o'zgaruvchan xarajatlari ($Xar_{o'z.mah.bir}$) aniqlash hisoblanadi. U mahsulot birligiga qilingan o'zgaruvchan xarajatlari ishlab chiqarilgan mahsulotlarning maksimal miqdoriga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi:

$$Xar_{o'z.um} = Xar_{o'z.mah.bir} \times MICH_{maks.miq.}$$

4. Doimiy xarajatlari so'mmasini ($Xar_{doim.um.}$) aniqlash uchun umumiy xarajatlari so'mmasidan o'zgaruvchan xarajatlari so'mmasini ayirib tashlash lozim:

$$Xar_{doim.um} = Xar_{um.maks} - Xar_{o'z.um}$$

Yoki

$$Xar_{doim.um} = Xar_{um.maks} - (MICH_{min.miq} \times Xar_{o'z.mah.bir.})$$

Buni aniq bir misolda ko'rib chiqamiz. Faraz qilaylik, 2021 yilning oylar bo'yicha xarajatlari va ishlab chiqarish darajalari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar olingan.

7.5-jadval

Korxonaga to'g'risida ma'lumotlar

Oylar	Ishlab chiqarish hajmi, dona	Ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm	Minimal ko'rsatkichlar		Maksimal ko'rsatkichlar	
			Ishlab chiqarish hajmi, dona	Xarajatlari, ming so'm	Ishlab chiqarish hajmi, dona	Xarajatlari, ming so'm
Yanvar	400	1050	400	1050	-	-
Fevral	600	1700	-	-	-	-
Mart	550	1600	-	-	-	-
April	800	2100	-	-	-	-
May	750	2000	-	-	-	-
Iyun	900	2300	-	-	900	2300

Ishlab chiqarishning minimal hajmi yanvarda, maksimal hajmi esa iyun oyida.

1. Birinchi o‘rinda maksimal va minimal ko‘rsatkichlar orasidagi farqni hisoblaymiz.

a) mahsulot ishlab chiqarish hajmi – 500 dona

$$\Delta \text{MICH}_{\text{miq}} = 900 - 400 = 500 \text{ dona}$$

b) ishlab chiqarish xarajatlari – 1250 ming.so‘m.

$$\Delta \text{xar}_{\text{um}} = 2300 - 1050 = 1250$$

2. Mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlar – 2,5 ming.so‘m.

$$\text{Xar}_{\text{o‘z.mah.bir}} = 1250 : 500 = 2,5. \text{ ming so‘m}$$

3. Umumiy o‘zgaruvchan xarajatlar – 2250 ming.so‘m

$$\text{Xar}_{\text{o‘z.um}} = 2,5 \cdot 900 = 2250 \text{ ming so‘m}$$

4. Umumiy doimiy xarajatlar – 50ming.so‘m.

$$\text{Xar}_{\text{doim.um}} = 2300 - 2250 = 50 \text{ Yoki } 1050 - (400 \cdot 2,5) = 50.$$

Ishlab chiqarish zararsizligining tahlili. Zararsizlik (Cost – volume –profil) tahlilini yoki CVP- tahlilini maqsadi - mahsulot ishlab chiqarish vaqt bo‘yicha cheklangan va korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari o‘zgarmagan holda o‘tgan davr uchun moliyaviy natijalarni ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligini aniqlash.

Shu bilan birga asosiy shartlar quyidagilar bo‘lishi kerak:

1. O‘zgaruvchan xarajatlar va sotish narxi, ya’ni mahsulot birligining marjinal daromadi o‘zgarmas hisoblanadi va ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq emas.
2. Umumiy doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishi bilan o‘zgarmaydi, lekin mahsulot birligi uchun o‘zgaradi.
3. Ishlab chiqarish hajmi o‘zgarish bilan mahsulot birligining foyda so‘mmasi o‘zgaradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek ko‘rinadiki, CVP – tahlil zararsizlik nuqtasi va marjinal daromadning tahlili va hisobiga asoslangan.

Zararsizlik nuqtasi - bu realizatsiyadan olingan daromad umumiy xarajatlarga teng bo‘lgan nuqta, ya’ni daromad ham zarar ham yo‘q.

Foyda (zarar) – bu marjinal daromad va doimiy xarajatlar orasidagi farq. Zararsizlik nuqtasi marjinal daromad (MD) doimiy xarajatlarga teng bo‘lgan joyda bo‘ladi. SHunday qilib, Yuqorida keltirilganidek nisbat tuzish mumkin.

$$\text{MD bir birlik uchun (MD}_{\text{dona}}) = \text{Narx (N)} - \text{Xar}_{\text{o‘z.mah.bir.}}$$

$$\text{Umumiy MD(MD)} = \text{MICH}_{\text{miq}} \cdot \text{MD}_{\text{dona}} = \text{MICH}_{\text{miq}} \cdot (\text{N} - \text{Xar}_{\text{o‘z.mah.bir}})$$

$$MD = \text{Doimiy xarajatlar (Xar}_{\text{doim}}) + \text{foyda (F)}$$

Realizatsiyaning zararsizlik hajmi firmaning daromadi xarajatlarga teng. Yoki ko'pligidan mahsulot realizatsiyasi va ishlab chiqarish hajmini xarakterlaydi. Realizatsiyaning zararsizlik hajmi zararsizlik nuqtasidan boshlanadi va **relevantlik** sohasi deb nomlanuvchi firma faoliyatini qamrab oladi.

Xavfsizlik marjasi – bu rejaviy sotish hajmi va zararsizlik nuqtasidagi sotish hajmi orasidagi farq. U kompaniya zarar ko'rishdan oldin realizatsiya hajmi qanchaga qisqarishi mumkinligini ko'rsatadi. (bu 7-chizmada yaqqol ko'rinadi).

Zararsizlik marjasini yana foizlarda ifodalash mumkin.

$$\text{Zararsizlik marja darajasi} = 1 - \frac{\text{Zararsizlik nuqtasidagi sotish hajmi} \cdot 100}{\text{Rejaviy sotish hajmi}}$$

Buni konkret misolda ko'ramiz.

Mahsulot realizatsiyasining rejaviy hajmi – 80000,0 ming. dona

Realizatsiya narxi - 80 sum .

Mahsulot birligining o'zgaruvchan harajati – 40 sum

Doimiy xarajatlar 200,0 mln. so'm

Zararsizlik nuqtasini va zararsizlik marjasi darajasini aniqlash talab qilinadi.

$$\text{Zararsizlik nuqtasi} = \frac{200000000}{80 - 40} = 5000,0 \text{ ming dona}$$

$$\text{Zararsizlik marjasi darajasi} = 100 - \frac{5000,0 \cdot 100}{8000,0} = 100 - 62,5 = 37,5 \%$$

ya'ni firma zarar ko'rishdan oldin ishlab chiqarish hajmini 37,5 % gacha kamaytirish mumkin ekan.

Shunday qilib ishlab chiqarish xarajatlarning hajmi va tarkibi, ya'ni foyda darajasi va summasi ko'plab ichki va tashqi omillar ta'siriga bog'liq: ishlab chiqarish hajmi, xom-ashyo narxi, materiallar, sotib olinadigan yarim fabrikatlar, uskunalar va mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish texnologiyasining o'zgarishi, favqulotda holatlar, birlashma va mahalliy organlar chiqaradigan qonunlar.

Korxonaning zararsizligini tahlil qila turib bu omillarning barchasini ta'sirini o'rganib chiqish lozim va ular asosida ishlab chiqarish xarajatlarini samaradorligi va foyda rentabelligini oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish kerak.

7.5. Favqulodda xarajatlar tahlili

Favqulotda harajatlar – bu rahbariyat qarorlariga bog'liq bo'lmagan va korxonaning odatiy faoliyati uchun xarakterli bo'lmagan, goho-goho sodir bo'ladigan xodisa Yoki operatsiyalar xarajatlaridir. Xarajatlar quyidagi hollarda favqulotda xarajatlar hisoblanadi:

- Bir necha yil mobaynida vujudga kelmaydigan.
- Xujalik yurituvchi subyektning odatiy xujalik faoliyati natijasiga kirmaydigan.
- Xo'jayinlar Yoki rahbariyat qarorlariga bog'liq bo'lmaydigan.

Hisobot va o'tgan yilning favqulotda zararlar summasi haqida ma'lumotlar moliyaviy hisobotning №2 –shakli «Moliyaviy zararlar to'g'risidagi hisobot» da bo'ladi.

Kompaniya o'zining odatiy ho'jalik faoliyati natijasida olinadigan foyda yoki zararga favqulotda moddalar kabi qaralmaydi. Xodisa g'ayri oddiy bo'lishi kerak va kompaniyaning odatiy xo'jalik faoliyatidan farq qilishi kerak. Qandaydir xodisa Yoki operatsiya bitta firma uchun g'ayri oddiy hisoblansa boshqasi uchun muhitlar farqi sababli odatiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ikki xodisani ko'rib chiqamiz.

Birinchi xodisa. O'zbekistonning viloyatlaridan birida paxta hosili do'l sababli yo'q qilingan. Paxta etishtiriladigan maydonlarda do'l yetkazdirgan bunday zarar – kam uchraydigan xodisadir.

Ikkinchi xodisa. Sitrus mevalari hosili sovuqdan zarar ko'rdi. Sovuq tushishi 3 yoki 4 yilda bir marta bo'ladi.

Birinchi xodisaga paxta etishtiriladigan joylarda do'l kam uchrashi sababli favquloddagidek qaraladi. Ikkinchi hodisani kompaniya ishlayotgan atrof muhit hisobga olgan holda favqulodda deb bo'lmaydi. Kompaniyaning rahbariyati sovuq tushishini ko'zda tutgan holda sovuq tushishi oqibatini olish Yoki kelajak hosilni sug'urta qilish kabi choralarni qo'llash kerak.

Soliqqa tortish jihatdan ko'plab davlatlarda favqulodda foyda daromad solig'iga tortiladigan soliq so'mmasini oshiradi, favqulodda zarar esa kamaytiradi.

Favqulodda zararlarni tahlil qilayotib quyidagilarni amalga oshirish kerak.

- ularni xarajatlarga to‘g‘ri olib borilganligini tekshirish;
- ularning umumiy xarajatlar so‘mmasidagi ulushini aniqlash;
- ularning turlari va umuman bir necha yilgi summa va daraja dinamikasini o‘rganish;
- ularning yuzaga kelish sabablarini va oldini olish choralarini o‘rganish.

Bizning amaliyotimizda tasodifiy foyda va zararlar kam uchramoqda. Shu tufayli ushbu ko‘rsatkichlarning tahlili ham etarli darajada ishlab chiqilmagan. Ushbu zarar va foyda umumiy hajmi bo‘yicha moliyaviy natija ko‘rsatkichlari bilan, moliyaviy tahlilda, alohida turlari bo‘yicha esa xarajatlar tahlili bilan boshqaruv tahlilida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Tayanch iboralar

Xarajatlar, bevosita xarajatlar, bilvosita xarajatlar, mahsulot tannarxi, xarajatlar hisobi, boshqaruv hisobi, noishlab chiqarish xarajatlari, to‘g‘ri xarajatlar, umumsex xarajatlari, umumzavod xarajatlari, mehnat haqi xarajatlari, ishlab chiqarish xarajatlari, doimiy xarajatlar, o‘zgaruvchi xarajatlar, asosiy normativ, ideal normativ, erishiladigan normativ, joriy normativ, tovar portiyasi tannarxi kolkulyasiyasi, shartnoma tannarxi kolkulyasiyasi, shartnomaga kiruvchi mehnat uchun sarflar, tannarxni jarayonli kolkulyasiya qilish, norma-soat, ishlab chiqarish hajmi koeffitsienti, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti, ishlab chiqarish quvvati samaradorligi koeffitsienti, mehnat haqi xarajatlari, xarajatlar dinamikasi, marjinal daromad, mahsulot tannarxi, yarim o‘zgaruvchi xarajatlar, zararsizlik nuqtasi, xavfsizlik marjasi, sotishdan daromad, zararsizlik marja, favqulotda xarajatlar.

Nazorat savollari

1. Ishlab chiqarish xarajatlari deb nimaga aytiladi?
2. Xarajatlar qaysi belgilari bo‘yicha tasniflanadi?
3. Boshqaruv sohasidagi roli bo‘yicha xarajatlarni tavsiflang!
4. Xarajatlarni nazorat qilish darajasi bo‘yicha tavsiflang!
5. Xarajatlarni funksional o‘zgarishi bo‘yicha tavsiflang!

6. Xarajatlarni iqtisodiy mazmuni bo'yicha tavsiflang!
7. Xarajatlarni kalkulyasiya moddalari bo'yicha tavsiflang!
8. Xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritilishi bo'yicha tavsiflang.
9. Ishlab chiqarish xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarga qanday ko'rsatkichlar kiradi?
10. Xarajatlarning mutloq farqi qanday aniqlanadi?
11. Xarajatlarning nisbiy farqi qanday aniqlanadi?
12. Xarajatlar o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qiladi?
13. O'zgaruvchi xarajatlarga mahsulot hajmining ta'siri qanday aniqlanadi?
14. Xarajatlar so'mmasiga uning darajasi o'zgarishi qanday aniqlanadi?
15. Tannarxning namunaviy kalkulyasiyasi metodi nima?
16. Tannarxning jarayonli kalkulyasiyasi metodi nima?
17. Tannarxning normativ kalkulyasiyasi metodi nima?
18. Tovar partiyasi tannarxi qanday kalkulyasiya qilinadi?
19. SHartnoma tannarxini kalkulyasiya qilish nima?
20. Asosiy normativ nima?
21. Ideal normativ nima?
22. Erishiladigan normativ nima?
23. Joriy normativ nima?
24. Ishlab chiqarish hajmi koeffitsienti qanday topiladi?
25. Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti qanday topiladi?
26. Ish vaqtidan foydalanish koeffitsienti qanday aniqlanadi?
27. Material xarajatlarga narx o'zgarishining ta'siri qanday topiladi?
28. Xarajatlar o'zgarishiga materiallar miqdorining ta'siri qanday aniqlanadi?
29. Mehnat haqi xarajatlariga qanday omillar ta'sir qiladi?
30. Mehnat haqi xarajatlarining o'zgarishiga mehnat unumdorligi ta'siri qanday aniqlanadi?
31. Doimiy xarajatlar nima?
32. O'zgaruvchi xarajatlar nima?
33. Marjinal daromad nima?
34. Xarajatlarni tahlil qilishda minimal va maksimal usullardan qanday foydalaniladi?
35. Zararsizlik nuqtasi qanday aniqlanadi?
36. Xavfsizlik marjasi nima?
37. Favqulotda xarajatlar nima?
38. Favqulotda xarajatlar qanday tahlil qilinadi?

**«Ishlab chiqarish xarajatlari tahlili»
mavzusi bo'yicha testlar**

1. Xom ashyo va asosiy materiallar nazorat qilish darajasi bo'yicha qaysi xarajatga kiradi?

- A) ishlab chiqarish
- B) noishlab chiqarish
- V) bevosita
- G) to'g'ri
- D) egri

2. Umumzavod xarajatlari nazorat qilish darajasi bo'yicha qaysi xarajatga kiradi?

- A) ishlab chiqarish
- B) noishlab chiqarish
- V) bevosita
- G) to'g'ri
- D) egri

3. Xom ashyo va materiallar xarajatlari boshqaruv sohasidagi roli bo'yicha qaysi xarajatlarga kiradi?

- A) ishlab chiqarish
- B) noishlab chiqarish
- V) bevosita
- G) to'g'ri
- D) egri

4. Bevosita direktorning ish haqi boshqaruv sohasidagi roli bo'yicha qaysi harajatlarga kiradi?

- A) ishlab chiqarish
- B) noishlab chiqarish
- V) bevosita
- G) to'g'ri
- D) egri

5. Xom ashyo va materiallar funksional o'zgarishi bo'yicha qaysi xarajatlarga kiradi?

- A) to'g'ri
- B) egri

- V) o'zgarimas
- G) bevosita
- D) o'zgaruvchi

6. Ijara xarajatlari xarajatlarning funksional o'zgarishi bo'yicha qaysiga kiradi?

- A) to'g'ri
- B) egri
- V) o'zgarimas
- G) bevosita
- D) o'zgaruvchi

7. Ijtimoiy ehtiyoj uchun ajratmalarga qaysi xarajatlar kiradi?

- A) sug'urtaga
- B) Pensiya jamg'armasiga
- V) davlat bandlik jamg'armasiga
- G) tibbiy sug'urtaga
- D) hammasi to'g'ri

8. Qaysi xarajat mehnat haqi xarajatlariga kirmaydi?

- A) sug'urtaga
- B) Pensiya jamg'armasiga
- V) davlat bandlik jamg'armasiga
- G) tibbiy sug'urtaga
- D) hammasi to'g'ri

9. Sotish bilan bog'liq xarajatlar qaysi xarajatlarga kiradi?

- A) bevosita
- B) bilvosita
- V) davr
- G) favqulodda
- D) moliyaviy faoliyat xarajatlari.

10. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning odatiy faoliyati chegarasidan chiqqan voqealar natijasida yuzaga kelgan xarajatlar qaysi?

- A) bevosita
- B) bilvosita
- V) davr
- G) favqulodda

D) moliyaviy faoliyat xarajatlari

11. Qimmatli qog'ozlarni sotishga ketgan xarajatlar qanday xarajat?

A) bevosita

B) bilvosita

V) davr

G) favqulodda

D) moliyaviy faoliyat xarajatlari

12. Daromad solig'i qanday xarajat?

A) bevosita

B) bilvosita

V) davr

G) favqulodda

D) to'g'ri javob yo'q.

13. Xarajatlarning mutloq farqi ΔX_{mf} qanday aniqlanadi?

A) $\Delta X_{mf} = X_1 - X_{reja}$

B) $\Delta X_{mf} = X_1 - X$ qayta hisoblangan

V) $\Delta X_{mf} = X_1 - X_{reja}$ doirasidagi haqiqiy

G) $\Delta X_{mf} = X_1 - X_{reja}$ doirasidagi haqiqiy

G) $\Delta X_{mf} = X_1 - X$.

14. Xarajatlarning nisbiy farqi (ΔX_{nis}) qanday aniqlanadi?

A) $\Delta X_{mf} = X_1 - X_{reja}$

B) $\Delta X_{mf} = X_1 - X$ qayta hisoblangan

V) $\Delta X_{mf} = X_1 - X_{reja}$ doirasidagi haqiqiy

G) $\Delta X_{mf} = X_1 - X_{reja}$ doirasidagi haqiqiy

G) $\Delta X_{mf} = X_1 - X$.

15. Xarajatlarning maromiyligini (X_{mar}) aniqlash uchun nima qilish kerak?

A) $\Delta X_{mf} = X_1 - X_{reja}$

B) $\Delta X_{mf} = X_1 - X$ qayta hisoblangan

V) $\Delta X_{mf} = X_0 - X_{reja}$ doirasidagi haqiqiy

G) $\Delta X_{mf} = X_1 - X_{reja}$ doirasidagi haqiqiy

G) $\Delta X_{mf} = X_1 - X$.

16. Xarajatlarning rejasi qanday qayta hisoblanadi?

- A) $X_{qh} = X_o + \Delta Q\%$
- B) $X_{qh} = X_o \cdot Q\%$
- V) $X_{qh} = X_o : \Delta Q\%$
- G) $X_{qh} = X_o + \Delta Q$
- D) $X_{qh} = X_o \cdot \Delta Q\%$

17. Xarajatlarning haqiqiy darajasi (D_x) qanday aniqlanadi?

- A) $D_x = X_1 \cdot 100 : Q_r$
- B) $D_x = X_1 \cdot Q_r : 100$
- V) $D_x = X_r : Q_r \cdot 100$
- G) $D_x = X_1 \cdot 100 \cdot Q_x$
- D) $D_x = X_r \cdot 100 : Q_x$

18. Mahsulotning xarajatliligi qanday aniqlanadi?

- A) $D_x = X_1 \cdot 100 : Q_r$
- B) $D_x = X_1 \cdot Q_r : 100$
- V) $D_x = X_r : Q_r \cdot 100$
- G) $D_x = X_1 \cdot 100 \cdot Q_x$
- D) $D_x = X_r \cdot 100 : Q_x$

19. Qayta hisoblangan xarajat darajasi qanday aniqlanadi?

- A) $D_x = X_1 \cdot 100 : Q_r$
- B) $D_x = X_1 \cdot Q_r : 100$
- V) $D_x = X_r : Q_r \cdot 100$
- G) $D_x = X_1 \cdot 100 \cdot Q_x$
- D) $D_x = X_r \cdot 100 : Q_x$

20. Marjinal daromad qanday aniqlanadi?

- A) Q – jami xarajatlar
- B) jami xarajatlar – o‘zgaruvchi xarajatlar
- V) marj.daromad – doimiy xarajatlar
- G) Q – o‘zgaruvchi xarajatlar
- D) Q – o‘zgarmas xarajatlar

21. Doimiy xarajatlar so‘mmasi qanday aniqlanadi?

- A) Q – jami xarajatlar
- B) jami xarajatlar – o‘zgaruvchi xarajatlar
- V) marj.daromad – doimiy xarajatlar

- G) Q – o‘zgaruvchi xarajatlar
- D) Q – o‘zgarmas xarajatlar

22. Foyda qanday aniqlanadi?

- A) Q – jami xarajatlar
- B) Jami xarajatlar – o‘zgaruvchi xarajatlar
- V) Marj. daromad – doimiy xarajatlar
- G) Q – o‘zgaruvchi xarajatlar
- D) Q – o‘zgarmas xarajatlar

23. Zararsizlik nuqtasi qanday aniqlanadi?

- A) Doim. xar : Marj. daromad
- B) Doim. xar . Marj. darom.
- V) Zararsizlik nuqtasi : 1 mahsulot narxi
- G) $100 - (\text{Zar. nuqtasi} : 1 \text{ mah. narxi})$
- D) $100 - \text{Doim. Xar} : \text{Marj. darom.}$

24. Zararsizlik marjasining darajasi qanday hisoblanadi?

- A) Doim. xar : Marj. daromad
- B) Doim. xar . Marj. darom.
- V) Zararsizlik nuqtasi : 1 mahsulot narxi
- G) $100 - (\text{Zar. nuqtasi} : 1 \text{ mah. narxi})$
- D) $100 - \text{Doim. Xar} : \text{Marj. darom.}$

8-BOB. PUL OQIMLARI TAHLILI

8.1. Xo‘jalik subektiing pul mablag‘larini ko‘paytirish, ularning ko‘payish vaqtini hisob-kitob qilish va natijaga erishishda tahlilning muhimligi va asosiy vazifalari.

Pul mablag‘larini oqilona boshqarish masalasi doimo mulk egalari va menejerlar e‘tiboridagi masala bo‘lib kelgan. Negaki jo‘natilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha hisob- kitoblarning o‘z vaqtida amalga oshirilmaligi oqibatida tadbirkorlik subyektining qarshi tomon oldidagi majburiyatlari ham ortib boradi. Natijada tadbirkorlik subyektining moliyaviy axvoli va natijaviyligida salbiy holatlar kuzatila boshlaydi. Shu sababli, naqdlilikni taminlash, ularni to‘g‘ri boshqarish masalasiga doimo ham muhim ahamiyat qaratilmog‘i lozim.

Boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birga foydalanish chog‘ida pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektning pul mablag‘larini va ularning ekvivalentlarini jalb etish qobiliyatini baholashga baza bo‘lib xizmat qilishi bilan foydalidir. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot pul tushumlari va to‘lovlarini uchta asosiy toifaga ajratadi: operatsiya faoliyati, investitsiya faoliyati va moliyaviy faoliyat. Har uch toifaning pul mablag‘iga birgalikda ta’siri hisobot davrida pul mablag‘ining sof o‘zgarishini belgilab beradi. Pul oqimlari harakati to‘g‘risidagi axborot bo‘lajak pul oqimlari prognozi to‘g‘riligini tekshirish chog‘ida, foyda olish va pul oqimlarining sof harakati va narx o‘zgarishi ta’siri o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qilish chog‘ida zarur bo‘ladi.

Pul mablag‘lari oqimi yuzasidan quyidagi muhim tushunchalarni tasniflash lozim:

Pul mablag‘lari - kassadagi naqd pul va talab qilib olinadigan depozitlar, shuningdek bankning hisob-kitob, valyuta va boshqa schyotlaridagi mablag‘lar.

Pul ekvivalentlari - ma’lum pul mablag‘iga tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi o‘zgarishlar tufayli biroz xatari bo‘lgan qisqa muddatli, Yuqori likvidli investitsiyalar (moliyaviy qo‘yilmalar).

Pul oqimlari - pul mablag‘lari hamda ular ekvivalentlarining oqimi (tushumi) va chiqimi (sarflanishi, chiqishi)dan iborat.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot - hisobot davrida pul mablag‘i oqimlarini batafsil ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlar yig‘indisi.

Operatsiya faoliyati - xo‘jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek subyektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo‘lmagan o‘zga xo‘jalik faoliyati.

Investitsiya faoliyati - pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotish.

Moliyaviy faoliyat - xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo‘lib, uning natijasida o‘z mablag‘i va qarz mablag‘lari miqdori va tarkibida o‘zgarishlar yuz beradi.

Pul mablag‘i ekvivalentlaridan asosan investitsiyalar va boshqa maqsadlar uchun emas, balki faqat qisqa muddatli majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlar uchun foydalaniladi. Investitsiyalarni pul ekvivalenti deb hisoblash uchun ular erkin ravishda naqd pulga aylantiriladigan bo‘lishi va qiymatining o‘zgarishida biroz xavf bo‘lishi lozim. SHu sababli investitsiya qisqa muddatda to‘lanadigan bo‘lsa, ya‘ni xarid qilingan paytdan boshlab taxminan uch oy ichida to‘lanadigan bo‘lsa, uni pul ekvivalenti deb hisoblash mumkin bo‘ladi.

Bank zayomlari moliyaviy faoliyatga taalluqlidir, lekin talab qilingan paytda to‘lanadigan bank overdraftlari korxonalar pul mablag‘ini boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu munosabat bilan bank overdraftlari pul mablag‘ining tarkibiy qismi Yoki ularning ekvivalenti hisoblanadi.

Pul oqimi pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari moddalari o‘rtasidagi harakatni o‘z ichiga olmaydi, chunki ular operatsiya, moliya Yoki investitsiya faoliyatiga kirmaydi yoki xo‘jalik yurituvchi subyektning pul mablag‘larini boshqarishga taalluqlidir. Pul mablag‘larini boshqarish pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining ortiqchasini ishga solishni o‘z ichiga oladi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot hisobot davri davomida operatsiya, investitsiya yoki moliyaviy faoliyat natijasida xo‘jalik yurituvchi subyekt olgan pul oqimlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etishi lozim bo‘ladi.

Operatsion faoliyat. Xo‘jalik yurituvchi subyektning operatsiya faoliyati natijasida vujudga keladigan pul oqimi hajmi xo‘jalik yurituvchi subyekt amalga oshiradigan operatsiya faoliyati natijasida olinadigan pul oqimlari harakati ssudalarni to‘lash, xo‘jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab turish, dividendlarni to‘lash va moliyalashtirishning tashqi manbalariga murojaat qilinmay yangi investitsiyalar uchun qanchalik etarli ekanini aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Operatsiya faoliyatidan keladigan oldingi pul oqimining ayrim qismlari to‘g‘risidagi axborotdan operatsiya faoliyatidan

bo'lajak pul oqimlarini prognoz qilish uchun axborotning boshqa turlaridan qo'shib foydalanish mumkin bo'ladi.

Operatsiya faoliyatidan pul oqimi xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatidan kelib chiqadi. Odatda xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyati mahsulotni sotishga, ishlarni bajarishga yoki xizmat ko'rsatishga qaratilgan bo'ladi. Operatsiya faoliyatidan asosiy pul oqimiga quyidagilar kiradi:

tovarlarni sotish va xizmat ko'rsatishdan tushgan pul;

royalti, badallar, vositachilik haqi va o'zga yo'llar bilan pul mablag'lari tushumi;

tovarlar va xizmatlar uchun ularni yetkazib beruvchilarga pul to'lovlari;

xodimlarga va xodimlar nomidan to'lovlar;

sug'urta kompaniyasining sug'urta polislari bo'yicha mukofotlari, talablari, yillik va o'zga to'lovlari bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari;

soliqlar bo'yicha pul to'lovlari yoki uning o'rni bosuvchi to'lovlar, agar ular investitsiya va moliya faoliyatiga taalluqli bo'lmasa;

savdo yoki dilerlik maqsadlarida tuzilgan bitimlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari;

boshqalar.

Asosiy vositalar birliklarini sotish kabi ayrim operatsiyalar bo'yicha foyda kelishi va zarar ko'rilishi mumkin, ular sof foyda yoki zarar qatoriga kiritiladi. Lekin bunday bitimlar bo'yicha pul oqimi investitsiya faoliyatidan chiqadigan pul oqimlariga kiritiladi.

Korxonada vositachilik yoki savdo maqsadlari uchun qimmatli qog'ozlar yoki ssuda olgan bo'lishi mumkin, bunday holatlarda ular qayta sotish uchun xarid qilingan tovar - moddiy zaxiralarga o'xshash bo'ladi.

Investitsiya faoliyati. Xo'jalik yurituvchi subyekt investitsiya faoliyatidan keladigan pul oqimi to'g'risidagi axborotni alohida ko'rsatib beradi. Investitsiya faoliyatidan pul oqimi to'g'risidagi axborot kelajakda daromad va pul oqimi miqdorini belgilaydigan resurslar bo'yicha qilingan xarajatlar darajasini ko'rsatadi. Investitsiya faoliyatidan olingan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

asosiy vositalarni, nomoddiy va o'zga uzoq muddatli aktivlarni xarid qilishga pul to'lovlari. Bu to'lovlar tajriba-konstruktorlik ishlariga ajratilgan sarmoyalashtirilgan xarajatlar, shuningdek xo'jalik sudi bilan amalga oshirilgan qurilishlar bilan bog'liq bo'lgan to'lovlarni o'z ichiga oladi;

asosiy vositalarni, nomoddiy va o'zga uzoq muddatli aktivlarni sotishdan olingan pul tushumi;

boshqa subyektlarning aksiyalari yoki qarz majburiyatlarini hamda qo'shma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotib olishga doir pul to'lovlari, pul ekvivalentlari hisoblangan Yoki dilerlik maqsadlariga yoki savdo maqsadlariga saqlab qo'yilgan to'lov hujjatlari bo'yicha to'lovlar (veksellar kabi hujjatlar bo'yicha to'lovlar)dan tashqari;

boshqa subyektlarning aksiyalari va qarz majburiyatlarini hamda qo'shma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotishdan kelgan pul tushumlari, pul ekvivalenti hisoblangan Yoki dilerlik Yoki savdo maqsadlari uchun saqlanayotgan veksel kabi to'lov hujjatlari bo'yicha tushumlar bunga kirmaydi;

boshqa taraflarga berilgan bo'naklar va kreditlar (moliyaviy muassasalarga berilgan bo'naklar va kreditlardan tashqari);

boshqa taraflarga berilgan bo'naklar va ssudalar qaytarilishidan pul tushumlari (moliyaviy muassasalarga berilgan bo'naklar va kreditlardan tashqari);

fyuchers va forvard bitimlari, opsiyon bitimlar va svop bitimlar bo'yicha to'lovlar, ular diler Yoki savdo maqsadlari uchun mo'ljallangan holatlar bundan mustasno bo'ladi Yoki to'lovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasnif etiladi.

fyuchers va forvard bitimlari, opsiyon bitimlar va svop bitimlar bo'yicha pul tushumlari, ular diler Yoki savdo maqsadlariga mo'ljallangan holatlar bundan mustasnodir Yoki to'lovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasnif etiladi.

va boshqalar.

Moliyaviy faoliyat. Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy faoliyatidan bo'ladigan pul oqimlari to'g'risidagi axborotni alohida ko'rsatadi. Bu axborot moliyaviy faoliyatdan bo'lajak pul oqimlarini taxmin qilish uchun zarur bo'ladi. Moliyaviy faoliyatdan keladigan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

aksiyalar yoki o'z mablag'i bilan bog'liq boshqa vositalarni chiqarishdan keladigan pul tushumlari;

subyektlar aksiyalarining haqini to'lash Yoki sotib olish uchun ularning egalariga to'lovlar;

ta'minlanmagan obligatsiyalar emissiyasidan, moliya korxonolari tomonidan berilgan ssudalardan, garovga qo'yilgan va boshqa qisqa hamda uzoq muddatli zayomlardan pul tushumlari;

zayomlarni to'lash;

moliyaviy lizing bo'yicha majburiyatlarni qisqartirish uchun ijarachilarning to'lovlari;
va boshqalar.

Pul oqimini tahlil etishni o'rganish maqsadi va vazifalari:

Tahlil maqsadi: moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida pul oqimini obyektlari, faoliyat turlari, shakli va davri bo'yicha o'rganish orqali tadbirkorlik subyektining pul mablag'larini ichki va tashqi omillarga bog'liq holdagi o'zgarishlarini retrospektiv va perspektiv tahlilini amalga oshirish orqali ularni masadli boshqarishni yo'lga qo'yishdan iborat.

Tahlil vazifalari:

-pul oqimi to'g'risidagi xisobotni tasniflash, pul oqimini tarkib qatorlari bo'yicha o'rganish;

-pul oqimini joriy tahlilini va istiqboldagi prognozlarini tashxislash;

-pul oqimining sof kirimi va chiqimiga baho berish orqali biznes samaradorligiga baho berish;

-pul oqimining moliyaviy holat va barqarorlikka ta'sir darajasini, ular naqdligining likvidlik va o'lovga qobillikka ta'sirini baholash;

-operatsion va moliyaviy richaglar orqali pul oqimini moliyaviy koeffitsentlarda baholash;

-pul oqimini taktik boshqarishning aniq chora-tadbirlarini belgilab berish va ularning amalga oshirish.

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va ularning kamchiliklari.

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumot moliyaviy hisobotning 4-shakli bo'lgan "Pul oqimi to'g'risida"gi hisobotdan olinadi. Hisobot kassa usulida tuziladi. Tuzish davriyligi bo'yicha yarim yillik va yillik muddat belgilangan.

Inflyasiya darajasi, moliyaviy hisobotlarni tuzish davriyligining uzoqligi, hisobga olish va kassali usulning muvofiq kelmasligi, pul oqimi to'g'risidagi analitik ma'lumotlarni olish imkoniyatlari cheklanganligi, axborotlarning ishonchligidagi muammoli jihatlar tahlilning eng muhim kamchiliklari hisoblanadi.

8.2. Korxonaning pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi va ular oqimini tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

Tadbirkorlik subyektini pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini keltirib chiqarish, shuningdek keltirib chiqarilgan pul mablag'lari va ularning ekvivalentlaridan maqsadli va samarali foydalanish juda qiyin jarayon. ya'ni pulni topish qiyin uni ishlatish undanda qiyin.

Faoliyatda, xo‘jalik jarayonlarida tadbirkorlik subektlarida doimo pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlariga zaruriyat seziladi. Negaki barcha munosabatlar ushbu oqim xarakati bilan boshlanadi va tugaydi. Barcha moliyaviy munosabatlar ham ushbu birlik orqali tartiblanadi.

Har bitta tadbirkorlik subyekt etarli miqdorda pul va pul ekvivalentlari bilan taminlangan holdagina uning ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyati uzluksizligi taminlanadi. Agar taminotda uzilish bo‘ladigan yoki zaruriy likvid mablag‘lar etishmovchiliklar kuzatiladigan bo‘lsa bunday subyektning nafaqat operatsion faoliyati emas balki butun xo‘jalik faoliyatida tanglik yuzaga keladi, moliyaviy axhvol qiynlashadi va uni boshqarish yanada murakkablashadi.

Tadbirkorlik subyektlarining daromad keltiruvchi faoliyat turlari, shakllari qanchalik farqli bo‘lmasin, ularning pul mablag‘lari va pul ekvivalentlariga bo‘lgan ehtiyojlari bir xil sabablardan kelib chiqadi. Bu uzluksiz va davomli faoliyatni amalga oshirish aktivlarni sotib olish va joylashtirish, o‘z majburiyatlariga amalga oshirish, investorlarga daromadlarini to‘lash yuzasidan zaruriy amallarning bir xilligidan kelib chiqadi.

Pul mablag‘larining manbalarida birinchi navbatda xususiy kapitalning shakllanishiga axamiyat qaratish lozim. Xususiy kapital tadbirkorlik subyektining boshlang‘ich kapitalidir. Ushbu kapital asosiy va aylanma kapital minimumini taminlab beradi.

Pul oqimlarining shakllanishi va ularning ishlatilishidagi umumiy jihatlar bilan bir qatorda albatta har bitta korxonaning ularning harakati, tezligi yuzasidan o‘ziga xos jixatlari mavjud. Masalan: pul va pul ekvivalentlarining xarakati savdodada, umumiy ovqatlanishda, qurilishda, sanoatda, qishloq xo‘jaligida bir biridan tubdan farq qiladi. Bu tarmoq va bo‘g‘inning, korxonaning faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Pul mablag‘laridan samarali foydalanishni tashkil etish ko‘p jihatdan korxonalarda pul mablag‘larining harakatini optimal boshqarishni tashkil etilganligiga va ular ustidan nazoratni yo‘lga qo‘yilganlik darajasiga bog‘liq. Biroq, ko‘plab korxonalarda pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarini boshqarish va doimiy nazorat qilishdagi kamchiliklar tufayli moliyaviy natijaviylikdagi ijobiy holat, debitorlik majburiyatlarining oshirib yuborish, undirilmagan qarzdorlikning ko‘payishi hisobiga moliyaviy holat yomonlashganligini ko‘rish mumkin. To‘g‘ri bu holat keyingi faoliyatlar uchun manba sifatida qaralishi mumkin, lekin ularning doimiy aylanishdan chetlanishlari tufayli korxonaning ish faolligi, likvidligi

sustlashadi, moliyaviy ahvoli qiyinlashadi. SHu sababli, pul mablag‘larini boshqarishda har bitta korxonaning pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining faolyait uzluksizligini taminlash, majburiyatlarning ortib ketishiga yo‘l quymaydigan taktik boshqaruvini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rish lozim bo‘ladi.

Pulni aylanish doiraviy aylanishlarini tarmoq va faoliyat turlari bo‘yicha farqlanishini quyidagi jadval ma‘lumotlaridan ham aniq ko‘rish mumkin.

8.1-jadval

Pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining faoliyat shakllari bo‘yicha doiraviy aylanishlari

	Aylanish muddati					
	0-1-kun	1-2-kun	2-3-kun ...			
Savdo(chakana), umumiy avqatlanish, aloqa	Naqd pul 50 mln.	Tovar sotib olindi 50 mln.	Tovar qayta sotildi Naqdlik 75 mln.	x	x	x
	Aylanish muddati					
	0-1-oy	1-2-oy	2-3-oy	3-4-oy	4-5-oy ...	
Sanoat, transpot,	Naqd pul 50 mln.	TMZ sotib olindi 50 mln.	Boshqa xarajatlar 30 mln.	Tovar zaxiraga olindi 80 mln	Tovar sotildi 100 mln	x
	Aylanish muddati					
	0-1-yil	1-2 yil	2-3-yil	3-4-yil	4-5-yil	5-6-yil...
Kurilish, qishloq xo‘jaligini ayrim bo‘g‘inlari	Naqd pul 50 mln.	TMZ sotib olindi 50 mln.	Xarajatlar 55 mln.	Tugallanm agan ishlab chiqarish 25 mln.	Tovar zaxiraga olindi 85 mln.	Tovar sotildi 125 mln.

Zahiralar (tovarlar, tayyor mahsulotlar)ning pul mablag‘lari va pul ekvivalentlariga aylanish davriyligining sotish shakllari bo‘yicha ham farqlash mumkin.

8.2-jadval

Pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining sotish shakllari bo‘yicha farqlanishi

	Aylanish muddati					
	1-kun	2-kun	3-kun	4-kun	5-kun	6-kun....
Zaxiralarni naqdga va naqdsiz sotish						
Zaxiralarni kreditga sotish	1-oy, (1-yil)	2-oy, (2-yil)	3-oy, (3-yil)	4-oy, (4-yil)	5-oy, (5-yil)	6-oy..., (6-yil)...
Zaxiralarni chegirma va ustama asosida sotish	1oygacha 20 foiz chegirma,	2-oygacha 15 foiz chegirma	3-oygacha 10 foiz chegirma	4-oygacha 5 foiz ustama	5-oygacha 10 foiz ustama	6-oygacha 15 foiz ustama

Tarmoq va bo'g'inlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimida faoliyat turlarining salmoq darajalari ham turlicha bo'ladi.

Buni bevosita quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rib o'tish mumkin.

8.3-jadval

Pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining faoliyat bo'g'inlari bo'yicha salmoq darajalari

Kirmi/CHiqim	Operatsion faoliyatdan chiqim	Investitsion faoliyatdan chiqim	Moliyaviy faoliyatdan chiqim
Opreatsion faoliyatdan kirim	Sanoat, savdo, transport, qishloq xo'jaligi, qurilish, umumiy avqatlanish	Sanoatda, transport, qurilishda	Sanoatda
Investitsion faoliyatdan kirim	Sanoatda, transport, qurilish	Sanoatda, qurilish	Sanoatda, qurilish
Moliyaviy faoliyatdan kirim	Sanoatda	Sanoatda	Sanoatda
Balans	xxx	xxx	xxx

8.3. Pul oqimi to'g'risidagi hisobotning tuzilishi va asosiy elementlari

Korxonada moliyaviy ahvolini tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan har bir xodim moliyaviy hisobot shakllarini, shu jumladan, pul oqimi to'g'risidagi hisobot shaklini erkin o'qiy olishi, uning moddalarini tushunishi, shuningdek xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishlari kerak.

Pul oqimlari to'g'risida hisobotda pul mablag'lari harakati bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy resurslardagi barcha o'zgarishlar aks ettiriladi.

Pul oqimi to'g'risidagi hisobotda operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdan pul mablag'larining harakati aks ettiriladi.

Moliyaviy hisobtda kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida sodir bo'lgan pul mablag'laridagi barcha o'zgarishlar shunday tartibda aks ettirilishi lozimki, u pul mablag'lari bilan ularga ekvivalent bo'lganlar o'rtasida, ya'ni, qisqa muddatli va Yuqori likvid investitsiyalar, erkin ayirboshlanadigan pul mablag'lari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini taminlasin.

Pul oqimi to'g'risidagi hisobotga "Valyuta mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumotnoma" ilova qilinib, unda davr boshi va oxiriga bo'lgan qoldiqlar, valyuta mablag'lari tushumi va xarakati to'g'risidagi ma'lumotlar aks etadi.

Korxonaning moliyaviy ahvoli ko'p jihatdan real pul aylanmasiga bog'liq. Korxonaning hisob-kitob va o'zga hisob raqamlari orqali o'tadigan pul mablag'larining kelib tushishi va ularning sarflanishiga pul mablag'lari oqimi deyiladi.

Pul mablag'lari oqimini tahlil qilish uchun 4-shakl "Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot" moliyaviy xisoboti, shuningdek, 1-sh shaklidagi "Korxonona (tashkilot) moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida" gi statistika hisoboti asosiy ma'lumot manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot – moliyaviy hisobot hujjati bo'lib, unda joriy xo'jalik faoliyati jarayonida pul mablag'lari kelib tushishi, sarflanishi va ularning yil boshi va oxiridagi qoldig'i, shuningdek, investitsiya va moliyaviy faoliyatga yo'naltirilgan pul mablag'lari aks ettiriladi. Pul mablag'lari oqimiga so'm va valyutadagi pul mablag'lari kiritiladi.

Pul mablag'lari aylanma aktivlarning eng likvid qismi hisoblanadi. Xo'jalik faoliyati, moliya munosabatlari pul mablag'larini turli aktivlarga ishlatish va uning yakunida oldingi jarayonlarning yutug'i hisoblangan foydaga ega bo'lishni nazarda tutadi. Jarayonlar qachonki yakuniga etadi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ish, xizmatlar) o'z egalari tomonidan tan olingan va tassaruft etishga qabul qilingan holda ularga tegishli bo'lgan qiymatliklar sotuvchiga to'la to'lab berilsa. Bu esa jarayonning yangi siklini boshlash uchun ham manba hisoblanadi.

8.4-jadval

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Kirim	CHIqim
1	2	3	4
Operatsion faoliyat			
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari	010	4517395,6	
Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari	020		1725282,9
Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari	030		
Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlar va to'lovlari	040	1921254,7	4320200,4
Jami: operatsion faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (satr. 010-020-030+/-040)	050	6438650,3	6045483,3
Investitsiya faoliyati			

Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	060	1484,1	
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	070		
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish	080	349357,3	
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	090		
Jami: investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (satr.060+/-070+/-080+/- -090)	100	350841,4	
Moliyaviy faoliyat			
Olingan va to'langan foizlar	110	374998,1	
Olingan va to'langan dividendlar	120		
Aksiyalar chiqarishdan Yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari	130		
Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari	140		
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzarlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	150		
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	160		
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	170		
Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi/chiqim (satr.110+/-120+130-140+/-150+/- -160+/-170)	180	374998,1	
Soliqqa tortish			
To'langan daromad (foyda) solig'i	190		565531,2
To'langan boshqa soliqlar	200		16210,7
Jami: to'langan soliqlar (satr.190+200)	210		581741,9
Jami: moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi/chiqimi (satr.050+/-100+/-180-210)	220	7164489,8	6627225,2
Yil boshidagi pul mablag'lari	230	240164,7	
Yil oxiridagi pul mablag'lari	240	777429,3	

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda foydalanilganda, foydalanuvchilarga tadbirkorlik subyekting sof aktivlaridagi o'zgarishlarni, ularning moliyaviy strukturasi (likvidligi va to'lov qobiliyati)ni va o'zgarayotgan imkoniyatlar va sharoitlarga moslashish maqsadida o'zining pul oqimlari summasi va muddatlariga ta'sir ko'rsata olish qobiliyatini baholash uchun ma'lumot bilan

ta'minlaydi. Pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar tadbirkorlik subyektining pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini keltirib chiqarish imkoniyatlarini baholashda foydalidir, hamda foydalanuvchilarga har xil tadbirkorlik subyektlariga tegishli kelgusi pul oqimlarining keltirilgan (diskontlangan) qiymatini baholash va solishtirish modellarini ishlab chiqish imkonini beradi. U, shuningdek, turli xil tadbirkorlik subyektlarining operatsion faoliyati ko'rsatkichlari haqidagi hisobotlarining qiyoslanuvchanligini oshiradi, chunki u bir xil operatsiya va hodisalarning turlicha hisobga olinishi oqibatlarini bartaraf qiladi.

Oldingi davrlardagi pul oqimlari to'g'risidagi axborotdan ko'pincha kelgusi pul oqimlarining summasi, muddati va aniqligining ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. U, shuningdek, kelgusi pul oqimlari bo'yicha oldingi baholarning to'g'riligini tekshirishda, hamda foydalilik va sof pul oqimlari orasidagi bog'liqlikni va o'zgaruvchan narxlarning ta'sirini o'rganishda foydalidir.

Korxonalar menejerlarining eng muhim e'tibori pul tushumlarini ko'paytirishga va xarajatlarni kamaytirishga qaratiladi. Bu borada birinchi navbatda ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida debitorlik majburiyatlarini doimiy nazorat qilish, zaxiralarni tartiblash, kreditorlik majburiyatlar va qarzlarga bog'lanmaslik siyosatini yuritilishi talab etiladi. SHu sababli, pul oqimini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha doimiy o'rganib turish talab etiladi.

8.5-jadval

Pul oqimining yo'nalishlari (cash flow).

Pul oqimi	Mazmuni	Kirimi va chiqimi
Asosiy faoliyatdan	Xo'jalik yurituvchi subyekt amalga oshiradigan operatsiya faoliyati natijasida pul mablag'lari kirimi va chiqimi	+sof foyda
		+amortizatsiya ajratmalari
		+zaxiralar va debitorlik majburiyatlarning qisqarishi
		-zaxira va debitorlik majburiyatlarining ortishi
Investitsion faoliyatdan	Kelajakda daromad va pul oqimi miqdorini belgilaydigan resurslar yuzasidan pul mablag'lari kirimi va chiqimi	+oborotdan tashqari aktivlarning chiqib ketishi (uskunalarning sotilishi)
		-oborotdan tashqari aktivlarning o'sishi
		+xissali qatnashishning sotilishi
		-xissali qatnashishning sotib olinishi
Moliyaviy faoliyatdan	Moliyaviy faoliyatdan pul mablag'lari kirimi va chiqimi (operatsion va investitsion faoliyatdan	+yangi kreditlarning olinishi
		-kreditlar yuzasidan foiz to'lovlarning qoplanishi
		+yangi aksiyalarning chiqarilishi

	o'zga faoliyatdan pul mag'lari kirimi va chiqimi)	+obligatsiyalarni sotib olish va qoplash yuzasidan to'lovlar +aksiyalar emissiyasi - dividend to'lovlari
Sof kirim va chiqimi	OF+IF+MF	

Korxonada pul oqimini quyidagi qatorlarini berib o'tish mumkin: shakllanishi; faoliyat yo'nalishlari; pul oqimini natijviyligi; hisoblash usuli, sof qiymati, davriyligi bo'yicha.

8.6-jadval

Pul oqimining tarkiblanishi

№	Pul oqimi	Tarkib qatorlari
1	SHakllanish doirasi bo'yicha	Korxonada bo'yicha umumiy pul oqimi
		Tarkibiy bo'limlar, filiallar bo'yicha pul oqimi
		Xo'jalik faoliyati turlari bo'yicha pul oqimi
		Alohida xo'jalik jaryonlaridan bo'yicha pul oqimi
2	Faoliyat yo'nalishlari bo'yicha	Operatsion faoliyatdan
		Investitsion faoliyatdan
		Moliyaviy faoliyatdan
3	Natijaviyligi bo'yicha	Ijobiy pul oqimi
		Salbiy pul oqimi
4	Hajmni hisoblash usuli bo'yicha	Yalpi pul oqimi
		Sof pul oqimi
5	Sof qiymati bo'yicha	Ortiqchalik
		Etishmovchilik
6	Davriyligi bo'yicha	Joriy pul oqimi
		Kelgusi pul oqimi

Korxonalarining pul oqimlarini moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida jamlangan qatorlari bo'yicha tahlil qilish ularning umumiy o'zgarishlariga gorizontaal va vertikal usullarda baho berishdan boshlanadi.

8.7-jadval

Sof pul oqimining gorizontal va vertikal tahlili

t/r	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida		O'zgarishi		O'sish darajasi, %	O'sish darajasi, %
		Summa, ming so'm	Salmog'i, %	Summa, ming so'm	Salmog'i, %	Summa, ming so'm	Salmog'i, %		
1.	Asosiy faoliyatdan sof pul oqimi	195,0	487,5	192,0	274,3	-3,0	-10,0	98,5	-1,5
2.	Investitsion faoliyatdan sof pul oqimi	-115,0	-287,5	-212,0	-302,9	-97,0	-323,3	184,3	84,3
3.	Moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimi	-40,0	-100,0	90,0	128,6	130,0	433,3	-225,0	-325,0
4.	Natijaviy sof pul oqimi	40,0	100,0	70,0	100,0	30,0	100,0	175,0	75,0

Tahlil etishda pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining jamlangan qatorlari har bitta faoliyat turidan pul madbalag'lari va pul ekvivalentlarini baholashni bilan pul oqimining ichki o'zgarishlari va ularning tendensiyalariga baho beriladi.

8.8-jadval

Asosiy faoliyatdan pul oqimini tarkibiy tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida		O'zgarishi		'sish darajasi, %	'sish darajasi, %
		umma, ming so'm	almog'i, %	umma, ming so'm	almog'i, %	umma, ming so'm	almog'i, %		
1.	Asosiy faoliyatdan pul mablag'lari	4 426,0	100,0	5 466,0	100,0	1 040,0	100,0	123,5	23,5
1.1.	Mahsulot (ish, xizmat)laran tushgan pul mablag'lari	4 342,0	98,1	5 361,0	98,1	1 019,0	98,0	123,5	23,5
1.2.	Boshqa kirimlar	84,0	1,9	105,0	1,9	21,0	2,0	125,0	25,0
2.	Asosiy faoliyatdan pul mablag'lari	4 231,0	100,0	5 274,0	100,0	1 043,0	100,0	124,7	24,7
2.1	Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib berishchilarga to'langan pul mablag'lari chiqimi	3	73,2	3	72,0	701,	67,2	122,6	22,6
2.2.	Xodimlar va ular nomidan	580,0	13,7	792,0	15,0	212,0	20,3	136,6	36,6

	gan pul mablag'lari								
2.3	Dividendlar va foizlar to'lovi	22,0	,2	98,0	,8	24,0	2,3	9,2	10,8
2.4	Soliqlar va yig'imlar bo'yicha chiqim	10,0	,0	84,0	,4	4,0	,1	35,2	5,2
2.5	Boshqa xarajatlar	24,0	,9	04,0	,9	0,0	,7	64,5	

8.4. Pul oqimlarining bashoratlash

Bashoratlash -(grekcha prognoses-oldindan ko'rish) moliyaviy menejmentda uzoq istiqbolga moliyaviy holatni bir butun holda va turli kismalarini o'zgartirishni ishlab chiqish tushuniladi. Bashoratlash - bu obyektini yoki hodisani kelajakdagi me'yoriy yoki maqbul holatlari, ularga erishish va ularni ro'yobga chiqarishning alternativ yo'llari to'g'risidagi ehtimolga yaqin tasavvurni ishlab chiqishdir. Bashoratlash – boshqarishning iqtisodiy usullaridan biri bo'lib, iqtisodiy tizimning kelgusidagi holatini aniqlab beruvchi rejalar ishlab chiqish va amalga oshirish yo'llari, usullari va vositalari yig'indisidir

Naqd pul oqimining bashorati biznes rejaning muhim jihatlaridan biridir. Bu orqali naqd pul oqimini nazorat qilish, yuzaga kelayotgan muammolarni oldini olish yoki mavjud imkoniyatlardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Naqd pul oqimi bashorati qachon daromad olishni va qachon harajatlarni qoplash zarurligini ko'rsatadi.

Naqd pul oqimi bashoratlari o'z ichiga quyidagilarni olishi shart: sotuvlardan tushgan barcha tushumlar va haridorlardan olingan naqd pullarni; barcha xom ashyo, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk va boshqalar uchun to'lovlarni; boshqa harajatlarni uchun to'lovlarni; oylik maosh, mukofot va boshqalar bo'yicha chiqimlarni; uskuna va texnologiyalar xarid qilishni; kredit, grant Yoki korxonaga jalb qilinayotgan boshqa resurslarni; kredit bo'yicha to'lovlarni; soliqlar va majburiy to'lovlarni, ular bo'yicha qarzlarni.

Bashoratlashda uta aniqlikni taminlash qiyin jarayon. Lekin bu aniqlikni risklarni to'g'ri baholash orqali oshirish imkoni albatta mavjud.

Pul oqimini bashoratlash aniq olingan muddatlarga (kelgusi oylar, choraklar, yillar kesimida amalga oshiriladi. Uning metodik jihatlarini quyida berib o'tishimiz mumkin:

1. Davr oralig'ida pul kirimini bashoratlash. Pul kirimini asosiy manbasi bu maxsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan tushadi. Bu borada tayyor mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan pul kirimini o'rtacha ko'rsatkichi (koeffitsenti, davri) aniqlanadi. Ushbu birlik orqali yaqin oydarda va yil davomida kelishi kutilayotgan pul mablag'lari kirimi aniqlanash mumkin. SHuningdek, balans usuli asosida mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof pul kirimini aniqlash yuzasidan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarning davr boshi va oxiriga qoldiqlari farqi sotish xajmiga qayta hisob kitob qilish orqali naqd pul mablag'lari kirimi ham aniqlanadi.

Bashoratlashda aniqroq hisob-kitoblarni amalga oshirishda debitorlik majburiyatlarining ordingi chorakliklar bo'yicha o'zgarishlarini ham asos sifatida olish mumkin.

Boshqa faoliyat turlari bo'yicha pul mablag'lari kirimi oldingi oylar va choraklar natijasiga qarab belgilanadi va asosiy faoliyatdan pul mablag'lari kirimiga qo'shiladi.

2. Davr oralig'ida pul mablag'lari chiqimini bashoratlash. Birinchi navbatda naqd pul chiqimi belgilanadi. Uning muhim tarkibiy birligi mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan kreditorlik majburiyatlarini qoplash hisoblanadi.

Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga bo'lgan kreditorlik majburiyatlarining to'lov muddatlarining kechiktirilishi korxonaga uchun boshqa moliyalashtirishlar manbasi ham bo'lishi mumkin. Shu sababli ko'pincha xo'jalik subyektlari ushbu majburiyatlarni imkon qadar kechiktirishga xarakat qiladilar.

Kreditorlik majburiyatlarining salmoq ulushi ish haqi bo'yicha majburiyatlarga, soli va majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar qatoriga ham to'g'ri keladi.

3. Sof pul oqimini aniqlash. Bashorat qilinadigan sof pul oqimi ularning kirim va chiqimini farqlash asosida aniqlanadi. Natija ijobiy (ortiqchalik) va salbiy (etishmovchilik) shaklida bo'lishi mumkin.

4. Pul mablag'lariga bo'lgan qisqa muddatli moliyalashtirishning umumiy xajmini aniqlash. Moliyalashtirish yuzasidan ko'pgina xo'jalik subyektlari qisqa va uzoq muddatli bank kreditlari, ssudalarini jalb etishni maqbul ko'rishadi. Uning xajmi albatta bashoratlangan sof pul oqimiga qarab belgilanadi.

8.9-jadval

Pul oqimlarini bashorati

Ko'rsatkichlar nomi	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
1	3	4	5	6
1.Operatsion faoliyat				
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari	160.0	185.0	195.0	205.0
Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari	100.0	105.0	115.0	125.0
Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari	25.0	28.0	32.0	35.0
Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlar va to'lovlari	15.0	15.0	15.0	15.0
Jami: operatsion faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (satr. 010-020-030+/-040)	100.0	123.0	127.0	140.0
Investitsiya faoliyati				
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	-135.0	-125.0	-150.0	-150.0
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	-10.0	-10.0	-10.0	-10.0
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish	25.0	25.0	25.0	25.0
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	15.0	15.0	15.0	15.0
Jami: investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (satr.060+/-070+/-080+/- -090)	-105.0	-95.0	-120.0	-120.0
Moliyaviy faoliyat				
Olingan va to'langan foizlar	10.0	15.0	15.0	15.0
Olingan va to'langan dvidentlar	-	-	-	-
Aksiyalar chiqarishdan Yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari	-	-	-	-
Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari	-	-	-	-
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlarni bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	25.0	25.0	25.0	25.0
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	35.0	35.0	35.0	35.0
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	10.0	5.0	5.0	5.0
Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirim/chiqim (satr.110+/-120+130-140+/-150+/-	70.0	65.0	65.0	65.0

-160+/-170)				
Soliqqa tortish				
To'langan daromad (foyda) solig'i	35.0	35.0	35.0	35.0
To'langan boshqa soliqlar	10.0	10.0	10.0	10.0
Jami: to'langan soliqlar (satr.190+200)	45.0	45.0	45.0	45.0
Jami: moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi/chiqimi (satr.050+/-100+/-180-210)	100.0	138.0	117.0	130.0

8.5.Asosiy faoliyat, moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari tahlili

Operatsion faoliyatdan pul mablag'lari kirimi va chiqimida: hisobot davrida sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun korxonaning bank hisobvaraqlari va kassasiga kelib tushgan pul mablag'lari summasi; mahsulot yetkazib beruvchilarga materiallar, tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'langan pul mablag'lari summasi; xodimlarga mehnatga haq to'lash ko'rinishida to'langan pul mablag'lari summasi, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalariga to'langan mablag'lar summolari, byudjetga jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'lash, kasaba uyushmasiga ajratmalar, alimentlar, uy-joy fondiga, xodimlarga berilgan bank kreditlari bo'yicha to'lash, xodimlarga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun korxonaning haq to'lashi, kassadan va bank hisobvaraqlaridan xodimlar bilan va ular nomidan operatsiyalarga doir boshqa sarflar; operatsion faoliyatga doir boshqa pul tushumlari va chiqimlari (royalti, turli xil taqdirlashlar, komission yig'imlar va boshqa operatsion faoliyatdan to'langan pul mablag'lari kirimi va chiqimi); operatsion faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi aks etadi.

Investitsion faoliyatdan pul mablag'lari kirimi va chiqimida: asosiy vositalarni xarid qilganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari summolari, asosiy vositalarni sotishdan kelib tushgan mablag'lar summolari; nomoddiy aktivlarni xarid qilganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchiga to'langan pul mablag'lari, nomoddiy aktivlarni sotganlik uchun kelib tushgan mablag'lar summolari; qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini xarid qilish uchun to'langan pul mablag'lari summasi, shu jumladan vositachilarga komission taqdirlashlar va birjada to'langan foizlar, qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi; boshqa investitsion faoliyatga oid to'langan pul

mablagʻlari kirim va chiqimi; investitsion faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi aks etadi.

Moliyaviy faoliyatdan pul mablagʻlarining kirimi va chiqimida:

Olingan (kirim) va toʻlangan foizlar(chiqim) summolari;

olingan (kirim) va toʻlangan (chiqim) dividendlar summolari;

hisobot yilida chiqarilgan (sotilgan) aksiyalar yoki oʻz sarmoyasi bilan bogʻliq boshqa dastaklar uchun aksiyadorlardan kelib tushgan pul mablagʻlari summasi; sotib olingan xususiy aksiyalarni sotishdan kelib tushgan pul mablagʻlari summolari, shuningdek korxonada boʻlgan xususiy aksiyalar, hissalar va paylar uchun, ularni keyingi sotish yoki yoʻq qilish (bekor qilish) maqsadida, egalariga toʻlangan pul mablagʻlari summasi;

hisobot davrida kelib tushgan kreditlar va qarzarlar (kirim) summasi, kreditlar va qarzarlar boʻyicha toʻlovlar summasi (chiqim); ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) toʻlangan pul mablagʻlari, ijarachidan (lizing oluvchidan) kelib tushgan pul mablagʻlari summasi;

boshqa moliyaviy faoliyatga oid toʻlangan va olingan pul mablagʻlari summasi;

moliyaviy faoliyatdan sof pul mablagʻlari kirimi Yoki chiqimi aks etadi.

Soliqqa tortish pul mablagʻlari chiqimi qatorida: toʻlangan daromad (foyda)soligʻi, toʻlangan boshqa soliqlar va jami toʻlangan soliqlar yuzasidan chiqimlar aks etadi.

8.6. Pul oqimlarini tahlil qilishning toʻgʻri va egri uslubi

Toʻgʻri usulda tahlilning metodologik asoslari

Toʻgʻri usul- xoʻjalik faoliyatidan pul mablagʻlari harakatini ijobiy va salbiy farqlanishlarini aniqlashning kassa usulida hisob-kitob qilinishidir.

Pul mablagʻlarini toʻgʻri usulda tahlil etishning metodologik asosi balans uuli hisoblanadi.Uning mazmunini quyidagilar tashkil etadi:

-pul qiymatliklarining davriy qiymatini hisobga olmaslik

-pul mablagʻlarini qoldiq qismini aniqlashning quyidagi bogʻlanishiga quyidagi tenglikka teng:

$$PMdb + PMk - PMch = PMdo$$

Bu yerda: PMdb, PMdo - pul mablagʻlarining davr boshi va oxiriga qoldigʻi;

PMk-pul mablagʻlari kirimi;

PMch-pul mablagʻlari chiqimi.

8.9-jadval

Pul oqimi toʻgʻrisidagi hisobot qatorlari

Koʻrsatkichlar	Kod
Pul mablagʻlarining davr boshiga qoldigʻi	010
Asosiy(joriy) faoliyatdan pul mablagʻlarining xarakati	
Xaridor va buyurtmachilardan olingan pul mablagʻlari	120
Boshqa kirimlar	130
Mahsulot(ish, xizmat)larni, xom ashyo va boshqa aylanma aktivlarni olib kelishga yoʻnaltirilgan pul mablagʻlari	150
Ish xaqiga	160
Dividendlar, foizlar toʻloviga	170
Soliqlar va turli yigʻimlarga	180
Boshqa xarajatlarga	190
Asosiy(joriy) faoliyatdan pul mablagʻlarining sof kirimi	020
Investitsion faoliyatdan pul mablagʻlarining kirimi	
Asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlarni sotib olishdan tushumlar	210
Olingan foizlar	240
Asosiy vositalar olib kelishga, moddiy va nomoddiy aktivlarga daromadli qoʻyilmalar	290
Kimmati qagʻozlar va boshqa moliyaviy qoʻyilmalarni olish	300
Boshqa korxonalariga berilgan qarzarlar	310
Investitsion faoliyatdan sof pul mablagʻlarining harakati	340
Moliyaviy faoliyatdan pul mablagʻlarini xarakati	
Boshqa korxonalardan olingan qarz va kreditlar	420
Karz va kreditlarni qoplash (foiz toʻloviz)	430
Moliyaviy faoliyatdan sof pul mablagʻlari harakati	040
Pul va pul ekvivalentlarining sof oʻsishi(kamayishi)	050
Pul mablagʻlarining davr oxiriga qoldigʻi	060

Pul oqimini asosiy faoliyat boʻyicha ijobiy natijasi moliyaviy salohiyatning yaxshiligini ifoda etadi

8.10-jadval

Faoliyat turlari boʻyicha pul oqimi

t/r	Koʻrsatkichlar	Oʻtgan yilning shu davrida		Hisobot davrida		Oʻzgarishi, +,-		Oʻsish darajasi, %
		Summa, ming soʻm	Sal-mogʻi, %	Summa, ming soʻm	Sal-mogʻi, %	Summa, ming soʻm	Sal-mogʻi, %	
1	Davr boshiga pul mablagʻlari qoldigʻi	124.5	-	171.9	-			
2	Pul mablagʻlarining jami kirimi:	4828.0	100	6280.0	100	1452	-	130.0
	SHu jumladan faoliyat							

	turlari bo'yicha: -asosiy faoliyatdan	3062.0	63.4	4821.0	76.7	1759.0	13.3	157.4
	-investitsion	1260.0	26.0	889.0	14.2	-370	-11.8	175.6
	-moliyaviy	506.0	10.6	570	9.1	64	-1.6	112.6
3	Pul mablag'larining jami chiqimi	4780.7	100	5983.0	100	-	-	125.1
	SHu jumladan faoliyat turlari bo'yicha: -asosiy faoliyatdan	2180.4	45.6	3168.0	52.9	987.6	9.2	145.3
	-investitsion	1767.2	37.0	2256.0	37.7	488.8	-2.3	127.6
	-moliyaviy	833.1	17.4	559.0	9.4	274.1	-8.9	67.1
4	Davr oxiriga pul mablag'lari qoldig'i	171.9	-	468.9	-	297.0		273.6

Xulosa: korxonada pul oqimini tahlilidan shuni qayd etish lozimki joriy davrda pul oqimining davr boshiga qoldigi 171.6 ming so'mni, pul mablag'lari kirimi (operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyatdan) 6280 mln so'mni, pul mablag'lari chiqimi 5983.3 ming so'mni tashkil etgan. Pul mablag'larining davr oxiriga qoldig'i 468.9 mln so'mni tashkil etgan. Pul mablag'lari kirimi va chiqimida asosiy ulushni asosiy faoliyatdan daromad va xarajatlar, investitsion faoliyatdan xarajatlar tashkil etgan.

To'g'ri usulda tahlil etishning imkoniyatlari. Buxgalteriya hisobi schetlaridagi ma'lumotlar asosida pul mablag'larining kirimi va chiqimini hisoblashni nazarda tutadi. Ya'ni, joriy manbasi buxgalteriya hisobining schetlar rejasidagi axborotlar hisoblanadi. Pul mablag'lari schetidagi debit va kredit aylanmalari hajmi tahlilning zaruriy manbasi hisoblanadi.

Barcha schetlar bo'yicha debet va kredit aylanmalari xajmi faoliyat turlari bo'yicha qayta tarkiblanadi.

To'g'ri usulda pul mablag'larini tahlil etish quyidagi savollarga naq javob topish imkonini beradi:

- joriy faoliyatdan keladigan pul mablag'larini faoliyat uzluksizligini va rejalashtirilgan investitsion faoliyatni taminlashga etarlimi yoki yetishmasligini baholash

- moliyaviy faoliyatdan keladigan pul mablag'larining balanslangan sifatiga erishish uchun uchun kancha mablag'

- asosiy, investitsion va moliyaviy faoliyatdan xarajatlar va ularning kelish manbalarini korxonada bo'yicha jamlangan holda baholash

-pul mablagʻlari kirmi va chiqimining ularning davr oxiriga qoldiq summalariga qay darajada taʼsir etishini baholash

-faolit turlari boʻyicha pul mablagʻlari tarkibiga, har bitta faoliyat turi boʻyicha sof pul mablagʻlari sof kirimi (chiqimi)ni baholashga imkon beradi.

Joriy faoliyatdan sof pul mablagʻlari kirimi (chiqimi) ijobi yva salbiy holatlari kuzatiladi.

Ijobiy holat - korxonada faoliyatining va kelgusidagi rivojlanish strategiyasining oʻz mablagʻlari hisobiga toʻgʻri yoʻlga qoʻyilganligidan dalolat beradi. Investitsion faoliyatdan pul mablagʻlarining salbiy holati uzoq muddatli aktivlarga investitsiya kiritish holatlarida kuzatiladi. Bu holat joriy davr boʻyicha xarajatlarni koʻpaytiradi va kelgusi davrlar boʻyicha pul tushumlarining oshishiga olib keluvchi holat sifatida baholanadi, qachonchi uning samaradorligi va natijaviyligida strategik qarorlar toʻgʻri belgilangan boʻlsa. Moliyaviy faoliyatdan pul mablagʻlarining sof harakatida ijobiy holat korxonaning kengaytirilgan faoliyatini tashqi manbalar hisobiga moliyalashtirilayotganligini bildiradi. Yuqoridagilarni aks salbiy holatni ifoda etadi.

Pul mablagʻlarini egri usuldagi tahlili. Egri usulda pul mablagʻlarini tahlil etishning axborot taʼminoti sifatida buxgalteriya balansi, metodologiya asosi tahlilning balans usuli hisoblanadi.

Mazkur usulda pul mablagʻlarining kirimida balans passivi moddalarining oʻsishi va aktiv moddalarning kamayishi, pul mablagʻlari chiqimida balans aktiv moddalarining koʻpayishi va passiv moddalarining kamayishini xarakterlaydi.

Pul mablagʻlari koʻpayishida asosiy manba joriy davr foydasi va amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi.

Umumiy koʻrinishda pul mablagʻlari xarakatini, hisb – kitobini quyidagi formula asosida topish mumkin

$$SPX = SF + AA - (\Delta A + AA) + (\Delta P - SF)$$

Bunda: SF - joriy davr sof foydasi;

AA - amortizatsiya ajratmalari;

ΔA - aktivlarning oʻzgarishi;

ΔP - passivlarning oʻzgarishi.

1. Joriy faoliyatdan pul mablagʻlarining sof harakati hisob-kitobi:

$$PM_{j.f.} = SF + AA - \Delta Z - \Delta DM + (\Delta K_{jamgʻ.} - SF) + \Delta KM$$

Bunda: ΔZ – zaxiralarning oʻsishi;

ΔDM - Debitorlik majburiyatlarining oʻsishi;
 ΔKM -Kreditorlik majburiyatlarining oʻsishi
 $(\Delta K_{jam.} - SF)$ – jamgʻarilgan kapitalning oʻsishi (taqsimlanmagan foyda va rezerv kapitalining) joriy davr foydasidan farqi (farq-joriy davrda ishlatilgan foyda summasini xarakterlaydi).

Joriy faoliyatdan sof pul mablagʻlari xarakati:

“+” sof foyda summasi amaortizatsiya, kiringa olingan schetlardagi kamayish, kelgusi davr xarajatlarining oʻsishi, nomoddiv aktivlarni sotishdan zararlar, soliqlar boʻyicha majburiyatlarning ortishi qoʻshiladi.

“-” qimmatli qagʻozlarni sotishdan tushumlar,avans toʻlovlari ortishi, TMZ oʻsishi, toʻlovga qabul qilingan schetlarning kamayishi, majburiyatlarning kamayishi, bank kreditlarining kamayishi.

2) Investitsion faoliyatdan sof pul mablagʻlari harakati hisob-kitobi:
 $CHDPi.d. = - (\Delta OTA + AA)$

Bunda: ΔOTA –oborotdan tashqari aktivlar oʻsishi

Investitsion faoliyatdan sof pul mablagʻlari xarakati:

“+” moddiy aktivlar va kimmatli qagʻozlarni sotishdan pul mablagʻlari kirimi;

“-” moddiy aktivlar va kimmatli qagʻozlarni sotishdan pul mablagʻlari chiqimi;

3.Moliyaviy faoliyatdan pul mablagʻlari sof xarakati hisob-kitobi:

$PMm.f. = \Delta K_{inv} + \Delta Mu + \Delta Mq$

Bunda: ΔK_{inv} – investitsiyalangan xususiy kapitalning oʻsishi (sotib olingan aksiyalar va qoʻshilgan kapital summasiga farq etuvchi ustav kapitali);

ΔMu – Uzoq muddatli majburiyatlarning oʻsishi

ΔMq – qisqa muddatli kreditlar va qarzlarning summasining oʻsishi

Moliyaviy faoliyatdan sof pul mablagʻlari harakati :

“+” oddiy aksiyalarning emissiyasi;

“-” qarzlarni qoplash va dividendlar toʻlovi

8.11-jadval

Pul oqimining toʻgʻri usulda tahlili

№	Koʻrsatkichlar	avr	Oʻtgan yilning shu
1	Operatsion faoliyatdan pul oqimi	OF0	OF1
1.1.	Kirim:	OFk	OFk
	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan kelib		

	h pul mablag‘lari		
	Boshqa tushumlar		
	Jami kirim		
1.2.	CHiqim:	OFch	OFch
	Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib hilarga to‘langan pul mablag‘lari		
	Xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul ‘lari		
	Boshqa chiqimlar		
	Jami chiqim		
	Operatsion faoliyatning sof kirim, chiqim	OFsk/ch	OFsk/ch
2.	Investitsion faoliyatdan pul oqimi	IF0	IF1
2.1.	Kirim	IFk	IFk
	Asosiy vositalarni sotish		
	Nomoddiy aktivlarni sotish		
	Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish		
	Boshqa kirimlar		
	Jami kirim		
2.2.	CHiqim	IFch	IFch
	Asosiy vositalarni sotib olish		
	Nomoddiy aktivlarni sotib olish		
	Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish		
	Boshqa chiqimlar		
	Investitsion faoliyatdan sof kirim, chiqim	IFsk/ch	IFsk/ch
3.	Moliyaviy faoliyat pul oqimi	MF0	MF1
3 .1.	Kirim:	MFk	MFk
	Olingan foizlar		
	Olingan dvidentlar		
	Aksiyalar chiqarishdan Yoki xususiy kapital bilan bo‘lgan boshqa instumentlardan kelgan pul lari		
	Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzar bo‘yicha numlari		
	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo‘yicha pul lari		
	Boshqa kirimlar		
	Jami kirim		
3.2.	CHiqim	MFch	MFch
	To‘langan foizlar		
	To‘langan dvidentlar		
	Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to‘lovlari		

	Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlarni bo'yicha ovlari		
	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul ovlari		
	Boshqa chiqimlar		
	Moliyaviy faoliyatdan sof kirim, chiqimi	MFsk/ch	MFsk/ch
4	Tahlil qilinayotgan davrda pul oqimining jami o'zgarishi	Δ PO	Δ PO

Pul oqimini egri usuldagi hisob kitoblari natijalari quyidagi jadval ma'lumotlarida aks etgan.

8.12-jadval

Pul oqimini egri usulda tahlili

Ko'rsatkichlar	Summa, <i>ming.so'm</i>
Pul oqimini qoldig'i	171.9
Sof foyda	974.0
Hisoblangan amortizatsiya	897
Asosiy vositlarni hisobdan chiqarishdan natija	-
Boshqa korxonalarda qatnashishdan daromadlar	-
Ishlab chiqarish zaxiralaridagi o'zgarishlar	228
Tugallanmagan ishlab chiqarish xajmidagi o'zgarishlar	-
Kelgusi davr xarajatlari o'zgarishi	7075
Tayyor mahsulot xajmidagi o'zgarishlar	-
Debitorlik majburiyatlari o'zgarishi	1063
Kreditorlik majburiyatlari o'zgarishi	1077
Qisqa muddali qo'yilmalar o'zgarishi	-
Kelgusi davr daromadlari o'zgarishi	-
Joriy faoliyat bo'yicha jami pul oqimi	
Investitsion faoliyat	
Kirim	889.0
CHiqim	2256.0
Investitsion faoliyat bo'yicha jami pul oqimi	-1367
Moliyaviy faoliyat	

Kirim:	570.0
CHiqim:	559.0
Moliyaviy faoliyatdan jami pul oqimi	-11.0
Pul oqimining davr oxiriga qoldig'i	

Xulosa: Pul oqimining davr boshiga qoldigi 171.9 mln soʻmni tashkil etgan. Joriy davrda Sof foyda 974.0 mln. soʻmni, hisoblangan amortizatsiya (897 mln soʻmni), asosiy vositlarni hisobdan chiqarishdan natija (0.0 mln.soʻm), boshqa korxonalarda qatnashishdan daromadlar (0.0 mln. soʻm), ishlab chiqarish zaxiralaridagi oʻzgarishlar (228 mln soʻm), tugallanmagan ishlab chiqarish xajmidagi oʻzgarishlar (0.0 mln soʻm), kelgusi davr xarajatlari oʻzgarishi (7075 mln soʻm), tayyor mahsulot xajmidagi oʻzgarishlar(0.0 mln soʻm), debitorlik majburiyatlari oʻzgarishi (1063 mln soʻm), kreditorlik majburiyatlari oʻzgarishi (1077 mln soʻm), qisqa muddali qoʻyilmalar oʻzgarishi(0.0 mln soʻm), kelgusi davr daromadlari oʻzgarishi (0.0 mln soʻm), investitsion faoliyat kiritim (889.0 mln soʻm), investitsion faoliyat chiqimi (2256.0 mln soʻmni), investitsion faoliyat boʻyicha jami pul oqimi(1367 mln soʻm),moliyaviy faoliyat kiritimi (570.0 mln soʻm), moliyaviy faoliyat chiqimi (559.0 mln soʻm), sof pul oqimi (11.0 mln soʻm)ni tashkil qilgan. Pul mablagʻlarining davr oxiriga qoldig'i 468 mln soʻmga teng boʻlgan.

8.13-jadval

Buxgalteriya balansining tuzilishi boʻyicha pul oqimining hisob-kitobi

Balans tarkibi	Belgi	Hisob-kitobi
Aktivlar		
Uzoq muddatli aktivlar	UMA	+
Joriy aktivlar	JA	+
Tovar moddiy zaxiralar	TMZ	+
Debitorlik majburiyatlari	DM	+
Pul mablagʻlari	PM	+
Passivlar	=	=
Oʻz mablagʻlari manbasi	OʻMM	+
Uzoq muddatli kreditlar	UMKQ	+
Qisqa muddatli kreditlar	QMK	+
Kreditorlik majburiyatlari	KM	+

$$\begin{aligned} \Sigma A &= UMA+TMZ+DM+PM \\ \Sigma P &= O'MM+UMKQ+QMKQ+KMKQ \\ PM &= \Sigma P - \Sigma A = O'MM+UMKQ+QMKQ+KMKQ- \\ &\quad UMA+TMZ+DM+PM \end{aligned}$$

8.7. Valyuta mablag'lari xarakatining tahlili.

Keyingi yillarda valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Maqbul miqdorda tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan siyosat O'zbekistonning majburiyatlarini o'z vaqtida bajaradigan ishonchli, to'lovga layoqatli xalqaro sherik sifatidagi imidjini ta'minladi, keyinchalik valyuta kursini liberallashtirish uchun zarur oltin-valyuta zaxirasini shakllantirish, valyuta resurslarini real iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash va diversifikatsiya qilishning ustuvor sohalariga yo'naltirish, jahon moliyaviy inqirozining salbiy oqibatlarini yumshatish imkonini bermoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham valyuta sohasini tartibga solishning bozor mexanizmlarini joriy qilish, respublika eksport salohiyatini oshirishni rag'batlantirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozordagi raqobatdoshligini oshirish, mamlakatimizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, valyuta bozorini yanada liberallashtirishga muhim ahamiyat qaratilgan va uning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga muvofiq «Valyuta boyliklari» qatoriga quyidagilar kiradi:

- chet el valyutasi;
- qimmatli qog'ozlar – chet el valyutasidagi fond boyliklari (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar);

-chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditivlar va boshqalar);

-qimmatbaho metallar – har qanday ko'rinish va holatdagi oltin, kumush, platina hamda platina guruhiga kiruvchi (palladiy, iridiy, rodiy, ruteniy va osmiy), metallar shunday metallardan ishlangan zargarlik buyumlari va boshqa ro'zg'or buyumlari hamda ularning parchalari bundan mustasno;

-tabiiy qimmatbaho toshlar – sayqal berilgan va sayqal berilmagan shakldagi olmos, la'l, zumrad, yoqut, aleksandrit, shuningdek marvarid, shunday toshlardan ishlangan zargarlik va boshqa ro'zg'or buyumlari hamda ularning parchalari bundan mustasno.

Chet el valyutasiga-tegishli ajnabiy davlatda muomalada bo'lgan va qonuniy to'lov vositasi hisoblangan banknot ko'rinishdagi chet el pul belgilari, shuningdek muomaladan chiqarilgan Yoki chiqarilayotgan, ammo O'zbekiston Respublikasi pul belgilariga almashtirilishi lozim bo'lgan chet el pul belgilari, schyotlarda va omonatlarda bo'lgan xorijiy davlatlarning pul birliklaridagi va xalqaro hisob-kitob birliklaridagi mablag'lar kiradi.

Chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar -O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari yoki xorijiy davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog'ozlar jumlasiga kiritilgan, qiymati chet el valyutasida ifodalangan hujjatlaridir.

Glabballashgan iqtisodiyot, shuningdek dunyo iqtisodining yagonalashuvi bilan davlatlar o'rtasidagi savdo iqtisodiy munosabatalar tabora kengayib bormoqda. Bu esa o'z navbatida xar bitta xo'jalik yurituvchi subyektni eksport-import operatsiyalariga undamoqda. Eksport-import operatsiyalarida ijobiy farqlanishga erishish albatta korxonalar oldiga ham bir qadar murakkab vazifalarni hal etishni va uning mustaxkam zaminini yo'lga qo'yishni talab etadi.

Bir mamlakat doirasida ko'p turdagi raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyati cheklangan. Tashqi bozor maxalliy ishlab chiqaruvchilarning o'zlari uchun ustun bo'lgan faoliyat turlari bilan keng doirada shug'ullanishlariga imkon beradi, ularning faoliyat doirasini kengaytiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat nafaqat ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshiradi, balki erkin xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini, shuningdek aholining turmush farovonligini oshirishning ham zaruriy sharti hisoblanadi.

Pul oqimi to'g'risidagi hisobot shakliga ilova sifatida xorijiy valyutada pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumotnoma tuziladi. Unda hisobot davrida xorijiy valyutada pul mablag'larining to'liq harakati ko'rsatiladi.

Valyuta mablag'lari operatsiyalarni amalga oshirish paytida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida, valyuta mablag'lari qoldig'i esa - hisobot davrining oxirgi sanasida aks ettiriladi.

Ushbu ma'lumotnomaga asosan korxonaning valyuta mablag'larini harakati tahlil qilinadi.

Korxonadan tomonidan kiringa olingan valyuta mablag'lari qatorida: korxonadan tomonidan hisobot davrida olingan valyuta tushumi summasi; sotib olingan xorijiy valyuta summasi; moliyaviy faoliyatdan olingan valyuta mablag'lari summasi; korxonaning valyuta hisobvaraqlari va kassasiga boshqa valyuta tushumlari summasi aks etadi.

Korxonadan tomonidan turli maqsadlarga sarflangan valyuta mablag'larining qatoriga: mol-mulkni olishga, bajarilgan ishlarga va ko'rsatilgan xizmatlarga sarflangan valyuta mablag'lari summasi; moliyaviy faoliyat bo'yicha sarflangan valyuta mablag'lari summasi; boshqa maqsadlarga sarflangan valyuta summasi aks etadi.

CHet el valyutasidagi pul mablag'larini qayta baholashdan yuzaga kelgan musbat Yoki manfiy kurs farqlari, hisobot yili boshiga va oxiriga korxonaning valyuta hisobvaraqlari va kassasida bo'lgan valyuta mablag'lari alohida qatorlar bo'yicha aks ettiriladi.

Tahlil etishda valyutu mablag'lari balansiga muhim ahamiyat qaratiladi. Valyuta balansi quyidagi birliklar ifodasini jamlashni xarakterlaydi.

$$V_b + V_k = V_{ch} + V_o$$

Bu yerda:

V_b -valyuta mablag'lari davr boshiga;

V_k -valyuta mablag'lari kirimi (mahsulot, tovar, ish va xizmatlarni sotishdan va boshqa tushumlardan);

V_{ch} -faloyuta mablag'lari chiqimi (mahsulot, tovar, ish va xizmatlarni sotib olishdan va boshqa chiqimlar);

V_o -valyuta mablag'larining davr oxiriga qoldig'i.

Valyuta mablag'lari buyicha o'z o'zini moliyalashtirish masalasi xujalik subyektlarining oldidagi eng muhim masala hisoblanadi. Negaki bazan import tovarlari yuzasidan valyuta mablag'lariga bo'lgan extiyoj turli qiyinchiliklar tufayli doimo ham hal etilmaysligining sababi ham

shundan kelib chiqadi. SHu sababli ham eksport –import operatsiyalaridagi ijobiy qoldiqqa chifish talab etiladi.

Valyuta mablag‘lari bilan moliyalashtirish samaradorligini baholash moliyaviy koeffitsentlar orqali baholanadi. Ushbu koeffitsent quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$K_{vm}=F+A/K+V$$

Bu yerda:

K_{vm} — valyuta mablag‘lari bilan moliyalashtirish koeffitsenti;

F-valyuta mablag‘larida ishlab chiqarishni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan foyda summasi

A-valyuta mablag‘lari hisobiga olib kelingan asosiy vositalarning amortizatsiyasi;

K-valyuta krediti;

V-banklardan va birjadan sotib olingan valyuta

Koeffitsent qancha Yuqori bo‘lsa o‘z o‘zini moliyalashtirish darajasi shuncha Yuqori bo‘ladi.

Valyuta mablag‘lari bilan qoplanish koeffitsenti (K_{qk}) quyidagi formula asosida topiladi.

$$K_{qk}=V_b+V_k/V_{ch}$$

V_b -valyuta mablag‘lari davr boshiga qoldig‘i;

V_k -hisobot davrida valyuta mablag‘lari kirimi;

V_{ch} -hisobot davrida valyuta mablag‘lari chiqimi.

$K_{qk} > 1,0$ dan Yuqori bo‘lishi bo‘lishi o‘z o‘zini moliyalashtirish shartlarining bajarilganligini bildiradi.

2017 yilning sentyabr oyidan boshlab valyuta kursi shakllanishining bozor mexanizmlariga o‘tilishi va ichki valyuta bozori faoliyatining erkinlashtirilishi nafaqat pul-kredit sohasida, balki butun iqtisodiyotda ijobiy tomonga tub o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun muhim zamin yaratdi.

O‘z navbatida, valyuta kursining bozor mexanizmlariga o‘tilishi ya’ni, joriy talab va taklif asosida shakllanishi iqtisodiyotdagi valyuta resurslarining samarali taqsimlash mexanizmi yaratilishiga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz tashqi savdo operatsiyalarining asosiy qismi AQSH dollarida amalga oshirilishini inobatga olib, so‘mning boshqa xorijiy

valyutalarga nisbatan almashuv kurslarini belgilashda operatsion mo'ljal sifatida so'mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursidan foydalanilmoqda.

8.14-jadval

Chet el valyutasidagi mablag'larning xarakati to'g'risida

MA'LUMOT

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	2017 yil	2016 yil	Farqi
Yil boshiga qoldiq	250	14 522	30264	
Kelib tushgan valyuta mablag'lari, jami (satr 261+262+263+264), shu jumladan	260	524 362	801 235	
Sotishdan olingan tushum	261			
Konvertatsiya qilingan	262			
Moliyaviy faoliyat bo'yicha	263			
Boshqa manbalar	264			
Sarflangan valyuta mablag'lari, jami (satr 271+272+273), shu jumladan	270	508 260	763 210	
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lovlar	271			
Moliyaviy faoliyat bo'yicha to'lovlar	272			
Boshqa maqsadlar uchun	273			
CHet el valyutasidagi pul mablag'larini qayta baholashdan yuzaga kelgan kurs farqlari saldosi	280			
Yil oxiridagi qoldiq (satr. 250+260-270+/-280)	290	30264	68 289	

Xulosa: korxonada o'tgan yilda valyuta mablag'larining davr boshiga qoldig'i 14522 ming dollorni, valyuta kirimi 524 362 ming dollorni, valyuta chiqimi 508 260 ming dollorni, valyuta mablag'larining joriy davrdagi kirimi 801 263 ming dollorni, valyuta mablag'lari chiqimi 763 210 ming dollorni tashkil qilgan. Joriy yiml oxiriga valyuta mablag'larining naqd qoldig'i 68 289 ming dollorni tashkil qilgan.

Test savollari

1. Korxonaning pul oqimlari harakati to'g'risidagi hisoboti moliyaviy hisobotning nechinchisi shakli?

- a) 2,
- b) 1,
- c) 4,
- d) 5.

2. Pul oqimlari harakati to'g'risidagi hisobotda korxonaning nechta faoliyati bo'yicha pul oqimi ko'rsatiladi?

- a) 2 ta,
- b) 3 ta,**
- c) 4 ta,
- d) 5 ta.

3. Korxonaning pul mablag'lari joylashgan joyiga ko'ra nechiga bo'linadi?

- a) 2,
- b) 3,**
- c) 4,
- d) 5.

4. Pul ekvivalentlari bu - ?

a) ma'lum pul mablag'iga tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi o'zgarishlar tufayli biroz xatari bo'lgan qisqa muddatli, Yuqori likvidli investitsiyalar (moliyaviy qo'yilmalar),

b) korxonada aksiyalari,

c) ma'lum pul mablag'iga qiyin almashtiriladigan hamda qiymatidagi o'zgarishlar tufayli biroz xatari bo'lgan qisqa muddatli, past likvidli investitsiyalar (moliyaviy qo'yilmalar),

d) pul mablag'lari.

5. Operatsiya faoliyat bu - ?

a) xo'jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek subyektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo'lmagan o'zga xo'jalik faoliyati.

b) pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotish.

c) xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo'lib, uning natijasida o'z mablag'i va qarz mablag'lari miqdori va tarkibida o'zgarishlar yuz beradi.

d) xo'jalik yurituvchi subyektning savdo faoliyati.

6. Investitsiya faoliyati bu - ?

a) Pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotish.

b) xo'jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek subyektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo'lmagan o'zga xo'jalik faoliyati.

c) xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo'lib, uning natijasida o'z mablag'i va qarz mablag'lari miqdori va tarkibida o'zgarishlar yuz beradi.

d) xo'jalik yurituvchi subyektning savdo faoliyati.

7. Moliyaviy faoliyat bu - ?

a) xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo'lib, uning natijasida o'z mablag'i va qarz mablag'lari miqdori va tarkibida o'zgarishlar yuz beradi.

b) pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotish

c) xo'jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek subyektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo'lmagan o'zga xo'jalik faoliyati.

d) xo'jalik yurituvchi subyektning savdo faoliyati.

8. Quyidagilarni qaysi biri moliyaviy faoliyatdan keladigan pul oqimlariga kirmaydi?

a) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan mablag'lar,

b) aksiyalar Yoki o'z mablag'i bilan bog'liq boshqa vositalarni chiqarishdan keladigan pul tushumlari,

c) subyektlar aksiyalarining haqini to'lash Yoki sotib olish uchun ularning egalariga to'lovlar,

d) ta'minlanmagan obligatsiyalar emissiyasidan, moliya korxonalarini tomonidan berilgan ssudalardan, garovga qo'yilgan va boshqa qisqa hamda uzoq muddatli zayomlardan pul tushumlari.

9. Korxonaning pul mablag'lari harakati balansi qanday tuziladi?

a) Bosh qoldiqqa pul kirimi qo'shilgani pulchiqimi va oxirgi qoldiqqa teng bo'ladi,

b) Bosh qoldiqqa pul chiqimi qo'shilgani pul kirimi va oxirgi qoldiq yig'indisiga teng bo'ladi,

c) Pul kirimi va chiqimi yig'indisi bosh qoldiq va oxirgi qoldiq yig'indisiga teng bo'ladi,

d) Balansga kelmaydi.

9-BOB: XUSUSIY KAPITAL TARKIBI VA UNING TAHLILI.

9.1. Xususiy kapitalni tahlil etish maqsadi, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari

Iqtisodiyotni liberallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va innovatsion rivojlantirish nafaqat iqtisodiy jihatdan balki moliyaviy jihatdan ham mustaxkam tayanchni talab etadi. Shu sababli xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy salohiyatini baholashda o‘z mablag‘larining qiymatiga, ularning jami kapital tarkibidagi salmog‘iga, majburiyatlarga bilan nisbatdagi chegaralariga muhim ahamiyat qaratiladi.

Xususiy kapital korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Xususiy kapital tushunchalariga ta‘riflar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos”da hamda “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”da keltirilgan.

Xususiy kapital (sarmoya) - subyektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir. Subyekt majburiyatlari - subyekt (qarzdorning) boshqa subyekt (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan, mol-mulknini topshirish, ishni bajarish, pul to‘lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o‘z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir.

Aktivlar - subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir.

Demak Yuqoridagi ta‘rif va tasniflashdan quyidagi bog‘lanishni berib o‘tish mumkin:

$$\text{Xususiy kapital (XK)} = \text{Aktivlar (A)} - \text{Majburiyatlar (M)}$$

Xususiy kapital ustav, qo‘shilgan, zaxiralar sarmoyadan va taqsimlanmagan foydadan iboratdir. Zarur hollarda ustav, qo‘shilgan, zaxira kapitali tahliliy jihatdan hisobga olinadi.

Buxgalteriya balansidagi xususiy kapitalning miqdori aktivlar qiymatini va majburiyatlarni baholashga bog‘liqdir.

Xususiy kapital ustav fondidan (ustav kapitalidan), qo‘shilgan, zaxira kapitalidan va taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi.

Ustav fondi (ustav kapitali) ta‘sis hujjatlarida belgilangan hissalarining (pulda ifodalangan holdagi) yig‘indisini aks ettiradi. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar shaklida kiritiladigan moddiy va

nomoddiy aktivlar ta'sischi (ishtirokchilar) o'rtasidagi kelishuvga ko'ra baholanadi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi kerak.

Qo'shilgan kapital aksiyalarni nominal qiymatidan baland narxlarda dastlabki sotishdan olinadigan emissiya daromadini, shuningdek ekvivalenti chet el valyutasida ifodalangan ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan kurs farqini aks ettiradi.

Zaxira kapitali uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda hosil bo'ladigan inflyasiya zaxiralarini, qonun hujjatlarida va ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorlarda sof foydadan ajratmalarni, shuningdek tekinga olingan mol-mulkning qiymatini aks ettiradi.

Taqsimlanmagan foyda foydaning jamg'arilayotganligini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilishi mumkin.

Mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, korxonalarda ustav kapitali (fondi) miqdori mazkur korxonada tashkil bo'lganda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan miqdorga teng bo'ladi. Uning miqdori yil davomida o'zgarmaydi.

Xususiy kapital tahlili maqsadi- xususiy kapitalni shakllantirishning asosiy manbaalarini o'rganish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Xususiy kapital tahlilining asosiy vazifalari:

-tahlil uchun zarur bo'lgan axborotlar bazasini (ustav kapitalini ko'paytirish, undan foydalanish, tasarruf etish bilan bog'liq bo'lgan axborotlar to'plamini) shakllantirish;

-qonun hujjatlari va xo'jalik yurituvchi subyektning ustavida belgilangan normalariga amal etilishini baholash;

-xususiy kapital va uning tarkibiy, dinamik o'zgarishlariga baho berish;

-xususiy kapitaldan samarali foydalanish darajasini o'rganish;

-xususiy kapital samaradorligini oshirishning imkoniyatlarini aniqlash va yo'lga qo'yish.

Xususiy kapital tahlilini olib borishda axborot manbaalariga «Buxgalteriya balansi» va «Xususiy kapital to'g'risida»gi hisobot shakllari kiradi.

Buxgalteriya balansida xususiy kapital va uning tarkibiy birliklari haqidagi ma'lumotlar hisobot davri boshiga va oxiriga xaqiqiy, tan olingan qiymati bo'yicha aks ettiriladi.

Buxgalteriya balansida o‘z sarmoyasi va ularni oshkor qilish xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini tahlil qilishda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun yordam bera oladigan axborotlarni aks ettirishni tasniflaydi. Buxgalteriya balansida xususiy sarmoyani umumiy summasigina oshkor qilinishi kerak.

Xususiy kapital va uning tarikibiy qismlari haqidagi axborotlarni tarkibiy qismi sifatida ochib berilishi 14 son BXMS bilan tariblanadi. Barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar (banklar va byudjet tashkilotlaridan tashqari) xususiy kapital to‘g‘risidagi axborotni tayyorlash va ochib berish jarayonida mazkur standart talablarini bajarishlari kerak.

O‘z sarmoyasi (xususiy kapital) to‘g‘risidagi hisobotda o‘z sarmoyasining harakati, zaxiralarni shakllantirish, to‘lash uchun hisoblangan dividendlar to‘g‘risidagi axborot taqdim etiladi.

Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotni tuzish maqsadi bo‘lib, xususiy kapitalning hisobot davri boshiga va oxiriga bo‘lgan holati va hisobot davri mobaynida uning tarkibidagi o‘zgartirishlar haqidagi axborotni ochib berish hisoblanadi.

Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotga bo‘lgan tushuntirishda xo‘jalik yurituvchi subyekt xususiy kapitalining qatnashchining chiqib ketishi, aksiyadorlik jamiyati tomonidan aksiyalarning sotib olinishi Yoki sotib olingan aksiyalarni bekor qilinishi, aksiyalar nominal qiymatining pasayishi Yoki boshqa sabablarga ko‘ra kamayib ketganligi haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.

Hisobotning xususiy kapital to‘g‘risidagi qismiga oid tushuntirish xati “Hisob siyosati va moliyaviy hisobotlar” Buxgalteriya hisobi milliy standarti (1-son BHMS)da nazarda tutilgan talablarga muvofiq tuziladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari xususiy kapital to‘g‘risidagi tushuntirishda quyidagilar haqidagi axborotni keltiradilar:

a) obuna amalga oshirilishi nazarda tutiladigan aksiyalarning umumiy soni va nominal qiymati;

b) nazarda tutilgan miqdorlar bilan taqqoslaganda obuna amalga oshirilgan aksiyalarning umumiy miqdori va nominal qiymati;

v) aksiyalarga obunaning borishi chog‘ida olingan mablag‘lar umumiy summasi;

g) ayrim turlar va toifalar bo‘yicha ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar;

d) imtiyozli aksiyalar bo‘yicha to‘lanmagan jamlangan dividendlar summasi;

e) aksiyalar ko‘rinishida to‘lanadigan dividendlar, xususan, to‘lanadigan aksiyalarning soni va qiymati, shuningdek, ularning turlari yoki toifalari to‘g‘risida;

j) hisobot davrida yuz bergan maydalash yoki qo‘shib yuborishlar va aksiyalarning maydalanishi yoki qo‘shib yuborilishigacha va undan keyingi aksiyalarning nominal qiymati to‘g‘risidagi.

Aksiyalarga obunaning borishi chog‘ida olingan mablag‘lar umumiy summasi tushuntirishda quyidagilar bo‘yicha keltiriladi:

a) aksiyalar uchun haq sifatida kirim qilingan barcha pul mablag‘lari, aksiyalar soni ko‘rsatilgan holda;

b) aksiyalar uchun to‘lov sifatida kirim qilingan mol-mulkning qiymat bahosi, aksiyalar soni ko‘rsatilgan holda;

v) aksiyalar uchun haq sifatida kirim qilingan chet el valyutasining umumiy summasi, aksiyalar soni va hisobda valyuta kirim qilingan kursi ko‘rsatilgan holda.

Ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar haqidagi axborot tushuntirishda ayrim turlar va toifalar bo‘yicha keltiriladi:

a) chiqarilgan aksiyalar soni, ustav kapitalining to‘lanmagan qismi ko‘rsatilgan holda;

b) aksiyaning nominal qiymati;

v) muomalada bo‘lgan aksiyalar sonida hisobot davri mobaynidagi o‘zgartirishlar;

g) aksiyalar bilan bog‘liq huquqlar, imtiyozlar va cheklashlar, shu jumladan dividendlarning taqsimlanishi va kapitalning qaytarib berilishi bo‘yicha cheklashlar;

d) jamiyatning o‘ziga, uning shu‘ba va uyushgan korxonalariga tegishli aksiyalar;

e) ular egalik qilayotgan muassislar ro‘yxati va aksiyalar soni;

j) ijroiya organi a‘zolarining mulki bo‘lgan aksiyalar soni;

z) opsiyonlar va boshqa kontraktlarga binoan chiqarish uchun zaxiralashtirilgan aksiyalar, ularning muddatlari va summalari ko‘rsatilgan holda;

i) konvertatsiyalanadigan (aksiyalar yoki obligatsiyalarga) aksiyalarning soni va nominal qiymati hamda ushbu aksiyalarning qarzga oid qimmatli qog‘ozlarga konvertatsiya qilinishi hollarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan majburiyatlar.

Boshqa barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarga oid izohlarda quyidagilar to‘g‘risidagi axborotni keltiradilar:

a) egalik qiluvchilar o‘rtasida ustav kapitali ulushining taqsimlanishi;

- b) ushbu ulushlarga tegishli huquqlar, imtiyozlar Yoki cheklashlar;
- v) ustav kapitali tarkibida egalik qiluvchilar ulushi tarkibidagi o'zgartirishlar.

9.2. Xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishi: ustav fondi (ustav kapitali), qo'shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda.

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditga oid qonunchilik normalarida "o'z sarmoyasi", "o'z sarmoyasi manbaalari", "o'z mablag'lari manbaalari", "xususiy sarmoya", "xususiy kapital" degan tushunchalar keng uchraydi. Ularning barchasi bitta mazmunni ya'ni, xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zigagina tegishli bo'lgan mablag'larni ifoda etadi.

Xususiy kapital tarkibiga quyidagi tarkibiy birliklar kiradi:

- ustav kapitali;
- rezerv kapitali;
- qo'shilgan kapital;
- taqsimlanmagan foyda va qoplanmagan zarar.

Buxgalteriya balansining "O'z mablag'lari manbaalari" ("Xususiy sarmoya") bo'limida ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zaxira kapitali, sotib olingan o'z aksiyalari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar hamda bo'lg'usi xarajatlar va to'lovlar zaxiralari aks etadi.

Xususiy kapital tarkibiy tahlilining asosiy yo'nalishlari quyidagi ketma ketlikda amalga oshiriladi.

Xususiy sarmoya tarkibi va xarakatining tahlili: davr boshiga qoldig'i; xisobot davrida kelib tushgani; hisobot davrida ishlatilgani; xisobot davri oxiriga qoldig'i; qoldiqlarning mutlaq o'zgarishlari; o'sish darajasi; kirib kelish koeffitsenti; chiqib ketish koeffitsenti tahlili.

9.1-jadval

Buxgalteriya balansida "O'z sarmoyasi" va uning tarkibiy birliklari

I. O'z mablag'lari manbalari	Balans satri
Ustav kapitali (8300)	410
Qo'shilgan kapital (8400)	420
Rezerv kapitali (8500)	430
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440

Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450
Maqsadli tushumlar (8800)	460
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar (8900)	470
I bo'lim bo'yicha jami (satr.410+420+430-440+450+460+470)	480

Xususiy kapital tarkibini tahlil etish muhim funksiyalarni bajarish imkonini beradi. Jumladan: faoliyatning uzluksizligini ta'minlash; kapital, karzlar va zararlardan himoya qilinganlik darajasining kafolatini berish; olingan foydani ishlatishda qatnashish; korxonada boshqaruvida ishtirok etish kabi.

Xususiy kapital tarkibiy tuzilishida quyidagi ko'rsatkichlar baholanadi:

Ustav kapitalining xususiy kapital tarkibidagi salmog'i koeffitsenti;
 $K_{uk} = UK / XK$ (O'MM)

Bu yerda:

K_{uk} -ustav kapitalining o'z sarmoyasi tarkibidagi salmog'i

UK-ustav kapitali;

XK(O'MM)-xususiy kapital (O'z mablag'lari manbasi)

Ustav kapitalining o'z sarmoyasi tarkibidagi salmog'ini ifoda etadi va ushbu ko'rsatkich xususiy kapital tarkibida eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Taqsimlanmagan foyda summasining xususiy kapital tarkibidagi salmog'i koeffitsenti:

$K_{tf} = TF / XK$ (O'MM)

Bu yerda:

K_{tf} – taqsimlanmagan foydaning xususiy kapital tarkibidagi salmog'i koeffitsenti;

TF-taqsimlanmagan foyda.

Taqsimlanmagan foyda summasining xususiy kapital tarkibidagi salmog'ini ifoda etadi.

Xususiy kapitalning kompleks tahlilda Yuqoridagi tartibda rezerv kapitali, qo'shilgan kapital va o'z sarmoyasining boshqa tarkibiy qismlari bo'yicha ham salmoq dapjalari va ularning o'zgarishlariga baho beriladi.

Xususiy kapitalning o'sish darajasi:

$O'xk = XK_{do} / XK_{db} \times 100\%$

Bu yerda:

XK_{do} ; XK_{db} -davr boshi va oxiriga xususiy kapital;

9.2-jadval

Xususiy kapitalning gorizontal va vertikal tahlili

Ko'rsatkichlar	Davr boshi		Davr oxiri		Farqi, +,-		O'sishi, %
	Summa	Foiz, %	Summa	Foiz,%	Summa	Foiz,%	
O'z mablag'lari manbasi jami	7 745 794 466	100.0 0	10 124 233 076	100.00	+23784386 10	0.00	130,7
Ustav kapitali	614 384 306	7.92	828 202 670	8.19	+21381836 4	+0,27	134,8
Qo'shilgan kapital	-	-	-	-	-		
Rezerv kapitali	5 737 851 427	74.08	8 121 422 920	80.22	+23835714 93	+6,14	141,54
Sotib olingan xususiy aksiyalar	-	-	-	-			
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	507 693 607	6.55	223 400 675	2.08	-284292935	-4,47	-44,0
Maqsadli tushumlar							
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar	885 865 126	11.44	951 206 811	9.41	+65341685	-2,03	107,4

Xulosa: Aksionerlik jamiyatida o'z mablag'lari manbasi davr boshiga nisbatan +2378438610 ming so'mga ortgan. O'sish darajasi 130.7 foizni tashkil etgan. SHu jumladan ustav kapitalining o'zgarishi mos ravishda +213818364 ming so'mga, rezerv kapitalining o'zgarishi +2383571493 ming so'mga, maqsadli tushumlar, kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar xajmi +65341685 ming so'mga ortgan. O'z mablag'lari tarkibida taqsimlanmagan foyda summasi davr boshiga nisbatan -284292935 ming so'mga qamaygan.

Eng yuqori o'sish darajalari ustav kapitali (134.8 %) hamda rezerv kapitali (141.54%) qatoriga to'g'ri kelgan.

9.3. Xususiy kapital va uning o'zgarishining tahlili

Xususiy kapital va uning o'zgarishini baholashda kapitalning davr boshi va oxiriga o'zgarishlariga va o'zgarish sabablariga baho beriladi.

Kapitalning o'zgarishi jamlangan qator va uning tarkibiy birliklari bo'yicha alohida o'rganiladi.

Xususiy kapital o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklarga: ustav sarmoyasi, qo'shilgan sarmoya, zaxira sarmoyasi, sotib olingan o'z aksiyalar, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar hamda bo'lg'usi xarajatlar va to'lovlar zaxiralarining o'zgarishi ta'sir etadi. Jumladan qimmatli qag'ozlar emissiyasi bilan bog'liq jarayonlar ustav va qo'shilgan sarmoyaning o'zgarishiga; uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash rezerv kapitali o'zgarishiga; ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'lgan valyuta kursi farqlari qo'shilgan kapital o'zgarishiga; Rezerv kapitaliga ajratmalar rezerv kapitali va taqsimlanmagan foyda o'zgarishlariga; joriy yilning taqsimlanmagan foydasi jamlangan, taqsimlanmagan foydaning o'zgarishiga; tekinga olingan mol-mulk rezerv kapitali o'zgarishiga; hisoblangan dividendlar taqsimlanmagan foyda o'zgarishiga ta'sir etadi. Xususiy kapitalning shakllanishining yuqorida keltirilgan manbaalaridan tashqari boshqa manbaalari barcha tarkibiy birliklarni o'zgarishiga ta'sir etadi.

Xususiy kapitalning dinamik tahlilida xususiy kapitalning yaqin va uzoq davriylikdagi mutlaq, nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi.

Dinamik tahlilda xususiy kapitalning tarkibi, tuzilishi, holati va samaradorligi bo'yicha ko'rsatkichlar tizimi yillar kesimida baholanadi. Tarkib bo'yicha ustav, qo'shilgan, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foydaning o'zgarishlari, tuzilishi bo'yicha tarkib birliklarining salmoq bo'yicha o'zgarishlari; samaradorlik (daromadlik va rentabellik) ko'rsatkichlarining o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga baho beriladi.

9.3-jadval

O'zbekiston temir yo'llari AJ da xususiy kapital tahlili

Xususiy kapital	2017 -2018yy.				
	01-yanvar 2017	01-aprel 2017	01-iyul 2017	01-okt 2017	01-yanvar 2018
1.O'z mablag'lari manbasi	7 745 794 466	8 567 616 791	8 644 944 914	8 963 743 430	10 124 233 076
O'zgarishi,+,-	+23784386 10	+15566162 85	+14792881 62	+11604896 46	
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670
O'zgarishi+,-	+21381836 4	+21381836 4	+21381836 4	+21381836 4	

Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
O'zgarishi+,-	+23835714 93	+74853674 57	+16405958 59	+15309344 92	
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	223 400 675
O'zgarishi+,-	-284292935	-193352348	-121528119	+62403835	
Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
O'zgarishi+,-	+65341685	-224717188	-253597942	-646667045	

Xulosa: Aksionerlik jamiyatida o'z mablag'lari manbasi 2017 yil choraklari bo'yicha tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki subyektning xususiy kapitali xajmi davr boshiga nisbatan +1160489646 ming so'mga ortgan. Uning yilning choraklari bo'yicha o'zgarishlari mos ravishda birinchi chorakga nisbatan +1556616285 ming so'mga, ikkinchi chorakka nisbatan +1479288162 ming so'mga teng bo'lgan. Xususiy kapitalning tarkibiy o'zgarishlar davr boshiga nisbatan quyidagicha bo'lgan:

-Ustav kapitali bo'yicha jami o'zgarish +213818364 ming so'mga;

-Rezerv kapitali bo'yicha o'zgarish davr boshiga nisbatan +2383571493 ming so'mga;

-Taqsimlanmagan foyda bo'yicha o'zgarish -284292935 ming so'mga;

-maqsadli tushumlar va boshqa manbalar hisobiga o'zgarish +65341685 ming so'mga teng bo'lgan.

9.4. Sof aktivlar tahlili va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili

Sof aktivlar deganda-xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lari bilan ta'minlangan uzoq muddatli va joriy aktivlarning qiymati, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektning qarz majburiyatlaridan ozod bo'lgan mol-mulk qiymati tushuniladi.

Oddiy qilib aytganda:

$$\text{Sof aktivlar} = \text{Aktivlar} - \text{Majburiyatlar}$$

Demak:

Jamiyatning ustav kapitalini = Sof - Ustav kapitali - Zaxira kapitali
ko'paytirishga qaratilgan aktivlar (fondi)
mol-mulki

Bugungi kunda korxonalarining aksariyat qismi mulkchilikning eng keng shakli, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar shaklida tashkil etilmoqda. Ushbu jamiyatlarda ustav kapitali 3 xil tartibda ko'paytirilishi mumkin:

- a) jamiyatning mol-mulki hisobiga;
- b) jamiyat ishtirokchilarining qo'shimcha hissalarini hisobiga;
- v) jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslarning hissalarini hisobiga.

Yuqoridagilardan kelib chiqsak, jamiyatning mol-mulki hisobiga ko'paytirish qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar va kelgusi davr xarajatlari va to'lovlarni uchun zaxiralardan sotib olingan xususiy ulushlarni (aksiyalarni) ayirib tashlagan holdagi natijaga amalga oshirish kerakligi belgilangan.

Qo'shilgan kapital, maqsadli tushumlar va kelgusi davr xarajatlari va to'lovlarni uchun zaxiralari hisobiga ustav kapitalini ko'paytirishning umuman iloji yo'q. Chunki, ushbu balans moddalari Yoki buxgalteriya hisobi obyektlari foydalanish maqsadi aniq belgilangan.

Sof aktivlarni tahlil etish metodikasi ikkita bosqichda amalga oshiriladi:

1.Sof aktivlar dinamikasining tahlili. Buning ushunchun davr boshiga va oxiriga sof aktivlar qiymati va ularning o'rtacha ko'rsatkichi aniqlanadi. Olingan natija o'tgan yillar bilan taqqoslanish o'zgarishlari va o'zgarish sabablari aniqlanadi.

2.Sof aktivlardan samarali foydalanishni tahlili. Bunda sof aktivlarning aylanuvchanligi, rentabelligi ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishlari omilli tahlil etiladi.

Sof aktivlardan foydalanish samaradorligini aniqlash quyidagi formula asosida hisob-kitob qilinadi:

$$Ssa = SF/SA * 100$$

Bu yerda:

Ssa-sof aktivlar samaradorligi;

SF-sof foyda;

SA-sof aktivlar summasi.

Sof aktivlar aylanuvchanligi sotishdan tushumni sof aktivlarning oʻrtacha yillik qiymatiga boʻlish orqali topiladi.

$$K_{sa} = SST/SA$$

Aylanish davri quyidagicha hisob-kitob qilinadi::

$$K_{ad} = SA/SST * 360 \text{ yoki } 360/K_{ad}$$

Bu yerda:

K_{sa} -sof aktivlar aylanuvchanlik koeffitsenti;

SST-sotishdan sof tushum;

Taqsimlanmagan foyda taʼsischilar oʻrtasida dividend sifatida taqsimlangandan keyin taʼsischilarning qoʻshimcha kiritgan hissalarini sifatida ustav kapitalini koʻpaytirishi mumkin:

9.4-jadval

Sof aktivlar tahlili

Koʻrsatkichlar	Balans qatori	Davr boshiga	Davr oxiriga	Farqi («+», «-»)
A	B	1	2	3
1. Jami aktivlar	400	13 198 104 658	24 276 893 065	+11 078 788 407
2. Majburiyatlar	770	5 452 310 192	14 152 659 989	+8 700 349 797
3. Ustav kapitali	410	614 384 306	828 202 670	+213 818 364
3. Sof aktivlar (1-2)	*	+7 745 794 466	+10 124 233 076	+2 378 438 610
4. Sof aktivlarning jami aktivlardagi salmogʻi	*	58,7	41,7	-17,0
5. Sof aktivlarning ustav kapitalidagi xissasi	*	12,6	12,2	-0,4

Xulosa: Aksionerlik jamiyatida sof aktivlarning summasi davr boshida +7 745 794 466 ming soʻmni, davr oxiriga kelib +10 124 233 076 ming soʻmni tashkil etgan. Sof aktivlarning davr boshiga nisbatan oʻzgarishi +2 378 438 610 ming soʻmni, oʻsish darasi ($10\,124\,233\,076 / 7\,745\,794\,466 * 100$) 30.7 % ni tashkil qilgan.

Sof aktivlarning jami aktivlardagi salmogʻi davr boshiga nisbatan 17 foizga kam boʻlgan. Bunga asosiy sabab sifatida majburiyatlarning davr boshiga nisbatan +8 700 349 797 ming soʻmga (Yoki 2.6 baravarga) ortganligi bilan izoxlash mumkin.

Sof aktivlarning ustav kapitalidagi xissasi davr boshida 12.6 baravarga, davr oxirida 12.2 baravarga ortiq boʻlganligini, davr boshiga nisbatan oʻshzgarishi -0.4 baravarga yoki 40 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Tahlil yakunida albatta sof aktivlarning samaradorligi baholanadi va uning o'zgarishlari omilli tahlil etiladi. Samaradorlikni baholashda sof aktivlarning har bir so'miga to'g'ri keladigan sotishdan sof tushum, sof foyda ko'rsatkichlari o'rganiladi.

9.5-jadval

Sof aktivlardan foydalanish samaradorligining tahlili

Ko'rsatkichlar	Xisobot shakli	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+, -)	O'sishi, %
A	B	1	2	3	4
1. Sof aktivlarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	1-shakl	7 745 794 466	10 124 233 076	+2 378 438 610	+130,7
2. Sotishdan sof tushum, ming so'm	2-shakl	3 362 225 550	5 180 801 340	+1 818 575 790	+154,1
3. Sof foyda, ming so'm	2-shakl	507 693 607	974 038 284	+466 344 677	+191,2
4. Sof aktivlarning aylanuvchanligi (2 / 1)	*	0,434	0,511	+0,077	117,7
5. Sof aktivlarning aylanish davri, kun (360 / Ksa)	*	829,4	704,5	+124,9	84,9
6. Sof aktivlar rentabelligi, % (3 / 1*100)	*	6,5	9,6	+3,1	147,7

Xulosa: Aksionerlik jamiyatida sof aktivlarning samaradorligi o'tgan yilga nisbatan bir qadar yaxshilangan. Jumladan sof aktivlarning har bir so'miga to'g'ri keladigan soy tushum summasi 0.434 tiyindan, 0.511 tiyinga ortgan. Bu o'zgarish asosan sof tushumning o'tgan yilga nisbatan +1 818 575 790 ming so'mga ortishi tufayli ro'y bergan. Sof aktivlarning aylanish davri 829.4 kundan 704.5 kunga qisqargan. Aylanish davri 84.9 kunga tezlashgan. Bu yml taqvim bo'yicha bir chorakga tezlashish demakdir.

Sof aktivlarning rentabelligi mos ravishda o'tgan yilda 6.5 foizni, joriy yilda 9.6 foizni tashkil qilmoqda. Rentabellikning o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi 3.1 foizga ortgan.

Sof aktivlar tahlili, ularning samaradorligi baholash amaliyoti xorij tajribasidan kirib kelgan ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkich korxonaga to'lovga qobilligini baholashning umumiy ifodasi ham hisoblanadi. U aktivlarning majburiyatlardan ortgan summasini aniqlash orqali sof kapitalni shakllantirish strategiyasini ham belgilab olish mumkin.

Zanjirli bog'lanish usulida xususiy kapital samaradorligi, rentabelligini omilli tahlilini amalga oshirish mumkin va bu jarayon ichki imkoniyatlarni aniq va to'g'ri baholash imkonini beradi.

Test savollari

1. Korxonaning o'z mablag'lari buxgalteriya balansining qaysi qismida o'z aksini topadi?
 - e) Aktiv qismida,
 - f) **Passiv qismida,**
 - g) Balansdan tashqari schyotlarda,
 - h) Balansda keltirilmaydi.
2. Xususiy kapital (sarmoya) bu - ?
 - e) **subyektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir,**
 - f) korxonada majburiyatlari,
 - g) vaqtincha korxonada mavjud aktivlar,
 - h) korxonaning joriy aktivlari.
3. Xususiy kapital tarkibini aniqlang?
 - e) **ustav, qo'shilgan, zaxiralar sarmoyadan va taqsimlanmagan foydadan iboratdir,**
 - f) ustav, qo'shilgan, zaxiralar sarmoya, favqulotda foydadan va taqsimlanmagan foydadan iboratdir,
 - g) ustav, qo'shilgan, zaxiralar sarmoyadan va taqsimlanmagan foydadan hamda majburiyatlardan iboratdir,
 - h) ustav, qo'shilgan, zaxiralar sarmoyadan va taqsimlanmagan foydadan hamda joriy aktivlardan iboratdir.
4. Korxonada tashkil topishi bilan vujudga keladigan kapital bu - ?
 - a) **Ustav kapitali,**
 - e) Rezerv kapitali,
 - f) Taqsimlanmagan foyda,
 - g) Maqsadli tushumlar.
5. Korxonaning sof foydasi balansda xususiy kapitalning qaysi turida ko'rinadi?
 - e) **Taqsimlanmagan foyda.**
 - f) Ustav kapitali.
 - g) Rezerv kapitali.
 - h) Maqsadli tushumlar.
6. Korxonaga berilgan soliq imtiyozlari balansda xususiy kapitalning qaysi turida ko'rinadi ?
 - e) **Maqsadli tushumlar.**
 - f) Taqsimlanmagan foyda.
 - g) Ustav kapitali.

h) Rezerv kapitali.

7. Xususiy kapital tahlilini olib borishda axborot manbaalariga qaysilar kiradi?

e) **«Buxgalteriya balansi» va «Xususiy kapital to‘g‘risida»gi hisobot shakllari kiradi.**

f) «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi» va «Xususiy kapital to‘g‘risida»gi hisobot shakllari kiradi

g) «Pul oqimlari harakati» va «Xususiy kapital to‘g‘risida»gi hisobot shakllari kiradi.

h) «Debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risida ma‘lumotnoma» va «Xususiy kapital to‘g‘risida»gi hisobot shakllari kiradi.

8. Ustav kapitalining xususiy kapital tarkibidagi salmog‘i koeffitsienti qanday aniqlanadi?

e) **ustav kapitalini xususiy kapitalga bo‘lish orqali,**

f) ustav kapitalini majburiyatga bo‘lish orqali,

g) ustav kapitalini balansga bo‘lish orqali,

h) ustav kapitalini uzoq muddatli aktivga bo‘lish orqali.

9. Korxonaning sof aktivlari qanday aniqlanadi?

e) **Aktivlar – Majburiyatlar,**

f) Aktivlar – Xususiy kapital,

g) Aktivlar – Joriy aktivlar,

h) Aktivlar – Uzoq muddatli aktivlar.

10. Sof aktivlardan foydalanish samaradorligi qanday aniqlanadi?

a) **sof foydani sof aktivlar summasiga bo‘lish orqali,**

b) ustav kapitalini sof aktivlar summasiga bo‘lish orqali,

c) jami daromadni sof aktivlar summasiga bo‘lish orqali,

d) favqulotda foydani sof aktivlar summasiga bo‘lish orqali.

11. Sof aktivlar aylanuvchanligi qanday aniqlanadi?

a) **sotishdan tushumni sof aktivlarning o‘rtacha yillik qiymatiga bo‘lish orqali topiladi,**

b) sof foydani sof aktivlarning o‘rtacha yillik qiymatiga bo‘lish orqali topiladi,

c) Yalpi foydani sof aktivlarning o‘rtacha yillik qiymatiga bo‘lish orqali topiladi,

d) Yalpi tushumni sof aktivlarning o‘rtacha yillik qiymatiga bo‘lish orqali topiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni. – T., «O‘zbekiston» 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida»gi qonuni – T., «O‘zbekiston», 1994.
4. O‘zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi. –T., «O‘zbekiston», 1995.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonuni. –T., «O‘zbekiston», 1996.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni. –T., «O‘zbekiston», 2016
7. Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 bet.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–5308-sonli Farmoni. – Toshkent, 2018 y.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni // Xalq so‘zi, 2019 yil 9 oktyabr.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 28 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi 2020 yil 30 yanvar.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // 30.12.2020 10:00.10.3K. <https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Surxondaryo viloyatida dehqon xo‘jaliklarining imkoniyatlaridan samarali foydalanishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2016 yil 9 noyabrdagi 328-sonli Qarori.(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 45-son, 524-modda).

13. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. –T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1998.
14. Асланова Д.Х., Алимова М.Т., Саттарова З.И, Сафаров Б.Ш. Туристический кластер: методология формирования и функционирования. – Самарканд, «Zarafshon», 2015. - 92 с.,
15. Баканов М.И., Шеремет А.Д. Теория экономического анализа. –М., «Финансы и статистика», 1998.
16. Баканов М.И., Шеремет А.Д. Экономический анализ: ситуации, тесты, примеры, задачи, выбор оптимальных решений, финансовое прогнозирование. М., «Финансы и статистика», 1999.
17. Большой экономический словарь. – М.: “Институт новой экономики”нашриёти, 1999, 1246 б.
18. Большая экономическая энциклопедия. – М.: ЭКСМО, 2007, 816 б.
19. Вайнаренко М.П. Кластерные модели объединение предприятий в Украине. // Экономическое возрождение России. – 2007. № 4 С.68-82,
20. Jo'raev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma. T: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2017. – 688 bet.
21. Жак Ришар. Аудит и анализ хозяйственной деятельности предприятия. –М., «ЮНИТИ», 1997.
22. Kennet Rapozaning Amerikaning yetakchi “Forbes” biznes-jurnalida nashr qilingan “O'zbekiston: xususiylashtirish bo'yicha 30 yil oldinga sakrash” sarlavhali maqolasining tarjimasini va sharhi. // “Xalq so'zi” gazetasi 2004 yil 29 iyun, 136-son. – 1-2 betlar.
23. Любушин Н.П. и др. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия. М., «ЮНИТИ», 2000.
24. Математический энциклопедический словарь. Советская энциклопедия”, 1988, 847 б.
25. Mamatkulov X.M. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'ati. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010. – 398 B.
26. “Marketing terminlari izohli lug'ati: asosiy tushunchalar va istilohlar”/ Mas'ul muharrir: Bahodir Ergashev: - T.: “Sharq” nashriyoti, 2012, 205 b.
27. Mis sanoati klasteri tashkil etiladi. // “Xalq so'zi” gazetasi. 2004 yil 20 iyun, 136-son. – 1-bet.
28. Mustaqilligimizning 30 yilligi arafasida ulkan loyihaga tamal toshi qo'yildi. // “Xalq so'zi” gazetasi. 2004 yil 30 iyul, 160-son. – 1-bet.

29. Namoz Botirov. Klaster iqtisodiyotga nima beradi? 12:18 18 May 2018. <https://xs.uz/uzkr/post/klaster-iqtisodiyotga-nima-beradi>.
30. Ожегов С.И. Словарь русского языка.- м.: “Русский язык”, 1982, 816 б.
31. Pardayev M.Q. Isroilov J.I. Xususiy korxonalar faoliyati tahlilining nazariy va metodologik muammolari. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2007. – 164 bet.
32. Pardayev M.Q., Mirzaev Q.J., Pardayev O.M.. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – 384 b.
33. Pardayev M.Q., Abduraxmanov X.X., M.A.Mahkamova va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotning nazariy va amaliy masalalari. Monografiya. – T: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2004. – 172 bet. – 10,75 b.t.
34. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma 2-qism., - T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2001. 26 bet.
35. Pardayev M, Xasanov B., Isroilov J., Pulatov M., Eshboev O‘, Xoliqulov A.N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O‘quv-qo‘llanma, T.: Cho‘lpon, 2012, 400 bet
36. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N., Jumayeva G.J. Investitsion loyihalar tahlili. O‘quv qo‘llanma. T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021. – 252 bet.
37. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N., Raximov H.A. Mehmonxona xo‘jaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari. Monografiya. Iqtisodiyot. – Toshkent. 2013, 210-bet
38. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N. Iqtisodiyot subyektlarida omilli tahlilni takomillashtirish. Monografiya. Navro‘z. –Toshkent. 2014, 236-bet
39. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. 2-nashr. - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. - 588 bet.
40. Mamayunus Karshibaevich Pardayev, Ozoda Pardayeva. Use of digital economy possibilities to decrease level of shadow economy. // “DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR”. International scientific-practical conference on March 25-26, 2021. - 75-78 betlar. – 0,3 b.t.
41. Mamayunus Karshibaevich Pardayev, Olim Mamayunusovich Pardayev, Umidjon Normurad Ugli Normuradov. As An Innovative Factor Of Trade Cluster Concept And Its Theoretical Issues. //The American Journal of Management and Economics Innovations (ISSN – 2693-0811) Published: July 27, 2021 | Pages: 1-6. Doi:

<https://doi.org/10.37547/tajmei/Volume03Issue07-01>. 2021: 5. 562 – 0,4 b.t.

42. Pardayev Mamayunus Qarshibaevich, Pardayeva Ozoda Mamayunusovna, Sobirov Bobur. Theoretical Problems of Trading Companies and their Concepts. Academic journal. VoL/14 (2021) july 2021. journal impact factor 7.525. //https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/677. – 0,5 b.t.

43. Pardayev O.M. Mahsulotlarni saqlab sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2017. – 284 b.

44. Pardayev O.M. Mahsulotlarni saqlovchi korxonalarda samaradorlik. Monografiya. – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2012. – 162 b. – 10,2 b.t.

45. Mamayunus Qarshiboyevich Pardayev, Bokhodir Ibragimovich Isroilov COVID-19: ECONOMIC CRISIS, CONSEQUENCES AND PROSPECTS. // SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS International Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2021 Issue: 08 Volume: 100 Published: 07.08.2021 <http://T-Science.org> – 46-53 – 0,9 b.t.

46. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. – T.: “O‘zbek sovet ensiklopediyasi” bosh redaksiyasi, 1983. 1-jild – 680 bet, 2-jild – 672 bet.

47. Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo‘lishi. // Mas‘ul muharrir: prof Karimov B.R. Mualliflar B.O.Turaev va boshqalar. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2017. – 360 bet.

48. Тураев Б.Х., Ким Е.А. Применение кластерного подхода для развития малого бизнеса в сфере туризма. //Хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланиш муаммолари. ИАК материаллари (2013 йил 25-30 апрель). – Самарканд, 2013, 81-83 бетлар.

49. Rahmatov M.A., Zaripov B.Z. “Klaster — integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o‘shish”. – T.: “Zamin nashr” - 2018. – 168 bet.

50. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash. O‘quv qo‘llanma. Samarqand.: “Turon nashr” nashriyoti, 2021. – 212-bet

51. Xoliqulov A.N., Berdiqulov., Ibodov K.M. Taqqoslama menejment. O‘quv-qo‘llanma, T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2021 yil – 162 bet/

52. Xoliqulov A.N., Maxmudova D.R. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznesni boshqarishni takomillashtirish.

Monografiya. Samarqand, SamDCHTI nashr-matbaa markazi, 2020 yil – 126 bet

53. Xudayberdiev U.X., Xoliqulov A.N. Xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishi va muammolari. Monografiya. Samarqand, SamISI, 2020 - 124 bet.

54. SHodmonov SH., Rahmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Zamin nashr” nashriyoti, 2021. – 856 bet.

55. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. 1-jild – 680 bet, 2-jild – 672 bet, 3-jild – 688 bet, 4-jild – 608 bet, 5-jild - 592 bet.

56. O'lmasov A., Vaxabov A. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – 456 bet.

57. Курбанова Д.М. Вопросы формирования туристического кластера в Узбекистане. //Хизматлар бозори: муаммо, ечимлар ва истикболлар. Халқаро ИАА материаллари. 2012 йил, 29-30 июнь. – Самарқанд, 2012, 111-113 бетлар.

58. G'apparov A.Q., Pardayev B.R. Jizzax viloyatida ekologik turizmni rivojlantirish klasterini tuzish zaruriyati. // “Servis” jurnali, 2-son, 2013 yil, 94-98 betlar.

Elektron adabiyotlar

59. Telegram 27.04.2021 12:17 146. Ўзбекистон.

60. https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoev-yangi-ozbekiston-strategiyasi-kitobiga-kirmagan-dolzarb-masalalarni-sanab-otdi_300178.

61. <https://auto.vercity.ru/statistics/production/2020/> (<http://%E2%9C%85@zarnews.uz/>).

62. <https://kun.uz/news/2021/03/17/klasterlar-sohasidagi-tizimli-muammolar-aytildi-ulardan-biri-fermerlarning-majburiy-tartibda-biriktirilishi>

63. Хоразмда балиқчилик кластери ташкил этилади. <https://kun.uz/news/2021/03/29/xorazmda-baliqchilik-klasteri-tashkil-etiladi>.

M.Q. Pardayev, A.N. Xoliqulov, T.I. Yahyoyev

BOSHQARUV TAHLILI

O'quv qo'llanma

Muxarrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: Zavqiy Meliev
Sahifalovchi: Jamshid Shodmonov

© “FAN BULOG’I” nashriyoti, Samarqand – 2022 y.

ISBN: 978-9943-8336-3-0

Nashriyot lisenziyasi:

№ 4341-5160-642s-944b-ab74-5062-3969

Bosishga ruxsat etildi: 26.06.2022 y.

© “FAN BULOG’I” nashriyoti. Samarqand sh.
S. Buxoriy kuchasi, 1-11 uy.

Qog‘oz bichimi A5, Ofset qog‘oz.

“Times New Roman” garniturasini

Nashr bosma tabog‘i 15.62

Buyurtma № 0118A. Adadi 30 nusxa

**Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.**

11.04.2022 y. LICENSE № 025316

REESTR №X-119112

Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko‘chasi 60-uy,

36250

65.290



ISBN: 978-9943-8336-3-0



978-9943-8336-3-0